Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

GEOGRAFIYA

(AMALIY GEOGRAFIYA)

O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus,
kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik

Birinchi nashri

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
tomonidan tasdiqlangan*

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent–2017

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

UO‘T: 91 = 512.133(075.3)
KBK: 26.8ya721
G-35

M u a l l i f l a r:

Sh. M. Sharipov, V. N. Fedorko, N. I. Safarova, V. A. Rafiqov

M a s’ u l m u h a r r i r:

M. T. Mirakmalov – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU Geologiya va geografiya fakulteti geografiya kafedrasi dotsenti

T a q r i z c h i l a r:

O‘. Abdunazarov – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU Geologiya va geografiya fakulteti Geografiya kafedrasi dotsenti;
M. Abdullayeva – Nizomiy nomidagi TDPU Geografiya o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi;
N. Rafiqova – O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti Geoekologiya laboratoriyasi ilmiy xodimi;
M. Avezov – Toshkent shahar Olmazor tumani 278-maktabning geografiya fani o‘qituvchisi;
L. Boltayeva – Toshkent shahar Yunusobod tumani 273-maktabning geografiya fani o‘qituvchisi;
D. Qo‘ziyeva – Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumani 11-IDUMning geografiya fani o‘qituvchisi.

S h a r t l i b e l g i l a r:

– Tayanch tushuncha va atamalar;

– Savol va topshiriqlar.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

© Sharipov Sh. M. va boshq., 2017.
© «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

ISBN 978-9943-07-536-8

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

I BOB. GEOGRAFIYA FANI VA UNING TARIXI

1-§. GEOGRAFIYA FANLARI TIZIMI HAQIDA TUSHUNCHA

Ma’lumki, geografiya eng qadimgi fanlardan biri bo‘lib, o‘rganadigan hodisalarining doirasi juda keng. Dastlab, 5-sinfda Siz geografiyaga “*Yer yuzi tabiati, aholisi va inson xo‘jalik faoliyatini o‘rganuvchi fan*” deb berilgan ta’rif bilan tanishgansiz. Keyinchalik geografiya fanining **o‘rganish obyekti** *geografik qobiq* ekanligini ham bilib oldingiz.

Geografik qobiq sayyoramizdagi eng yirik geotizim, ya’ni Yerning qattiq (litosfera), suv (gidrosfera), havo (atmosfera) hamda hayot (biosfera) qobiqlarining o‘zaro tutashuvi va ta’siri doirasida vujudga kelgan va rivojlanayotgan juda murakkab yaxlit tabiiy tizimdir. Aynan geografik qobiq insoniyatning yashash va ishlab chiqarish faoliyati muhiti, tabiiy resurslarning asosiy manbayi hisoblanadi.

Geografik qobiq, o‘z navbatida, bir-biri bilan bog‘langan ko‘plab katta-kichik tabiiy geografik birliklarga, ya’ni quruqlik va suvlik, materiklar va okeanlar, tabiiy geografik o‘lkalar, tabiat zonalari, provinsiyalar, tabiiy geografik okruglar va hokazolarga bo‘linadi hamda bularning barchasi geografiya fani tomonidan har tomonlama tadqiq etiladi. Shuningdek, geografiya jamiyatning tarixiy rivojlanishi mobaynida paydo bo‘lgan hududiy tuzilmalar – mamlakatlar, viloyatlar, shahar va qishloqlarni ham o‘rganadi.

Geografik qobiq va uning tarkibiy qismlaridagi voqea-hodisalarni boshqa fanlar ham o‘rganadi, lekin aynan geografiya bu obyekt va jarayonlarni o‘zaro bog‘liqlikda, ma’lum hudud chegaralarida bir butunligicha tadqiq etib, hududlar va butun Yer yuzi haqida yaxlit kompleks ilmiy tasavvurni shakllantiradi. Geografiya fan sohasi sifatida tarkib topgandan buyon, ayniqsa, hozirgi davrda, uning uchun tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik masalalari katta ahamiyat kasb etadi. Demak, zamonaviy sharoitda geografiya – *geografik qobiq ichidagi tabiiy hamda ijtimoiy jarayon, hodisa va obyektlarni o‘zaro aloqadorlikda va bir butunlikda, ma’lum makon va zamonda o‘rganadigan fan* bo‘lib rivojlanib kelmoqda.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Ma’lumki, geografiya fani ikkita yirik tarmoq – *tabiiy* va *ijtimoiy-iqtisodiy geografiya*ga bo‘linadi. Birinchisi geografik qobiq, uning komponentlari va Yer yuzidagi geotizimlarni tadqiq etsa, ikkinchisi dunyo, uning mintaqa va mamlakatlari, shahar va qishloqlari miqyosida aholi, uning yashash tarzi va madaniyati, ishlab chiqarish sohalari, siyosiy voqea-hodisalarni o‘rganadi.

Geografik bilimlar qamrovi va hajmining kengayishi, fanning ilmiy-amaliy ahamiyatining chuqurlashuvi natijasida tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiya tarkibida bir nechta mohiyatan torroq fan va ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlari shakllandi. Jumladan, tabiiy geografiya doirasida alohida tabiat komponentlarini atroflicha o‘rganadigan fanlar shakllanib, mustaqil fan sifatida rivojlanmoqda: *geomorfologiya* (Yer yuzi relyefini o‘rganadi), *iqlimshunoslik* (iqlim xususiyatlarini o‘rganadi), *gidrologiya* (gidrosferani o‘rganadi, *okeanologiya* va *quruqlik gidrologiyasiga* bo‘linadi), *glyatsiologiya* (qor va muzliklarni tadqiq etadi), *geokriologiya* (ko‘p yillik muzloq yerlarni o‘rganadi), *tuproqlar geografiyasi* (tuproqlarning tarqalishini o‘rganadi) va *biogeografiya* (tirik organizmlarning Yer yuzida tarqalishini o‘rganadi, *geobotanika* va *zoogeografiyaga* bo‘linadi). Sayyoraviy ahamiyatga ega tabiiy geografik jarayonlarni va geografik qobiqni bir butun yaxlit tizim sifatida *umumiy tabiiy geografiya* o‘rganadi. Kichik hududlar tabiatining tuzilishi va xususiyatlarini tadqiq qiluvchi *landshaftshunoslik* fani ham tabiiy geografik fanlar qatorida alohida ajralib turadi. Tabiatga inson xo‘jalik faoliyati ta’sirining kuchayishi munosabati bilan vujudga kelgan *geoekologiya* fani atrof tabiiy muhitda ro‘y berayotgan o‘zgarish va ekologik muammolarni geotizimlar doirasida tadqiq etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya doirasida ham shunga o‘xshash tarmoqlanish jarayoni rivojlanib bormoqda. Buning natijasida, *aholi geografiyasi, shaharlar geografiyasi (geourbanistika), siyosiy geografiya* (jahon siyosiy xaritasi, davlat chegaralari, siyosiy munosabat va jarayonlarni o‘rganuvchi fan), *sanoat geografiyasi, qishloq xo‘jaligi geografiyasi, transport geografiyasi, turizm geografiyasi, xizmat ko‘rsatish sohasi geografiyasi, etnogeografiya* (xalqlar geografiyasi), *din geografiyasi* va boshqa geografik fanlar vujudga kelgan. Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy geografik fanlar ichida jahon iqtisodiyoti va xalqaro mehnat taqsimotini o‘rganuvchi *jahon xo‘jaligi geografiyasi* hamda dunyo mamlakatlarini har tomonlama tadqiq etadigan *mamlakatshunoslik* kabi keng qamrovli fanlar ham rivojlanmoqda.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Yuqoridagilardan xulosa chiqarib aytish mumkinki, geografiya hozirgi davrda maqsad va vazifalari, o‘rganish obyekti va predmeti o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir nechta fanlardan iborat bo‘lgan *fanlar tizimi*ga aylandi. Bu fanlar tizimi tarkibida tabiiy geografik va ijtimoiy (ya’ni, jamiyatni o‘rganuvchi) geografik fan guruhlari ajralib turadi. Shuningdek, jamiyat va tabiatning o‘zaro munosabatlarini o‘rganish chog‘ida qator umumgeografik mazmun-mohiyatga ega fanlar ham tarkib topgan, masalan, *tabiiy resurslar va tabiatdan foydalanish geografiyasi*, *tibbiy geografiya* (turli hududlarda yashovchi aholining salomatligi va kasallanishi, unga ta’sir etuvchi tabiiy va ijtimoiy omillarni o‘rganadi). Geografik fanlar tizimida geografik xaritalarni tuzish va ular bilan ishlashni o‘rganadigan *kartografiya* fani alohida o‘rin va ahamiyatga ega.

Geografik fanlar turkumiga kiruvchi barcha fanlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, umumiy ilmiy va amaliy maqsadlarni ko‘zlagan holda rivojlanmoqda. Turli geografik fanlar uyg‘unligida Yer yuzi va alohida hududlar haqida yaxlit tasavvur shakllanadi, mamlakat va hududlar rivojlanishining muammo va istiqbollari aniqlanadi, tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish, iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qiluvchi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Geografiyani o‘rgana boshlagan paytda bu fanning nomi qadimgi yunon tilida “*Yerning tasviri*” degan lug‘aviy ma’no berishini bilib olgansiz. Lekin hozirgi davr geograflari turli joylar tabiati, aholisi va xo‘jaligini tasvirlash va tavsiflash bilan cheklanib qolmasdan, turli tabiiy va ijtimoiy hodisalarning vujudga kelish va hududiy tarqalish qonuniyatlarini o‘rganadilar, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat va ziddiyatlarni atroflicha tahlil qiladilar, dolzarb ahamiyatli ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolarni hududlarning o‘ziga xos sharoit va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar. Zamonaviy geografiya *an’anaviy tasvirlovchi* mohiyatdagi “*Nima? Qayerda? Qancha?*” savollariga javob beruvchi fandan “*Nima? Qayerda? Qancha? Nima sababdan? Qanday foydalanish kerak? Yaxshilash uchun nima qilish kerak?*” degan savollarga javob topuvchi keng qamrovli *nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan fanlar tizimiga* aylandi.

Geografiya fanining vazifasi fan va jamiyatning rivojlanishi bilan o‘zgarib bordi. Bugungi kunda zamonaviy geografiyaning oldi-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ga qo‘ygan vazifalari bir qancha bo‘lib, eng asosiy vazifasi *tabiat va jamiyat o‘zaro munosabatlarini uyg‘unlashtirishdir*.

Geografiya fanlarida turli ilmiy-amaliy masalalarni o‘rganish jarayonida qator *tadqiqot usullari*dan foydalaniladi. Bulardan eng muhimlari – *ekspeditsiya, tasviriy, kartografiya, statistik, qiyosiy geografik, rayonlashtirish* usullari. Shuningdek, borgan sari geografik tadqiqotlarda *matematik va kompyuter modellashtirish, aerokosmik, geokimyoviy* va *geofizik* kabi zamonaviy tadqiqot usullarining ahamiyati hamda qo‘llanilish qamrovi kengayib bormoqda.

Geografiya, geografiya fanlari tizimi, tabiiy geografik va ijtimoiy geografik fanlar, geografik qobiq, rayon, tabiat va jamiyatning o‘zaro munosabatlari, tadqiqot usullari.

1. Geografiyaning o‘rganish obyekti nima?
2. Geografiya fanlari tizimida qanday fanlar mavjud?
3. Geografiyada hozirgi paytda qanday masalalar ustida va qanday tadqiqot usullari yordamida izlanishlar olib borilmoqda?
4. Mavzudagi ma’lumotlardan foydalanib, geografiya fanlari tizimining tuzilishini aks ettiruvchi chizmani daftaringizga chizing.

2-§. GEOGRAFIYA FANINING TARIXI VA HOZIRGI DAVRDAGI RIVOJLANISHI

Geografiya eng qadimgi va hamisha navqiron fanlardan biri. Geografik kashfiyotlar, g‘oya va bilimlarning rivojlanish xususiyatlariga asoslanib, bu fanning tarixida quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin.

Qadimgi yoki antik davr bosqichi. Ibtidoiy odamlarning o‘zi yashab turgan joyni o‘rganish, yashash uchun qulay, tabiiy resurslarga boy joylarni topish va tasvirlashga bo‘lgan intilishlari asnosida dastlabki geografik bilimlar to‘planib borgan. Er. avv. 2-ming yillikda finikiyaliklar O‘rta dengizdan Gibraltar bo‘g‘izi orqali suzib o‘tib, Afrika qirg‘oqlari bo‘ylab Hindistongacha suzib borganlar. Shu paytdan Osiyo va Yevropa nomlari paydo bo‘lgan.

Bu davrda yunonlar va rimliklar o‘sha paytda ma’lum bo‘lgan hududlarni tasvirlab yozish bilan birga xaritalarini ham tuzdilar. Gomer er. avv. XII asrda O‘rta dengiz va uning atrofini tasvirlovchi dunyo xaritasini tuzdi. Pifagorning shogirdlari er. avv. VI asrda Yerning sharsimonligini aytdilar. Aristotel, er. avv. IV asrda, Yerning sharsimonligini, issiqlik mintaqalari mavjudligini mantiqiy

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

jihatdan isbotladi. Olamning markazida Yer turadi degan *geotsentrik* nazariyani ilgari surdi. Eratosfen er. avv. III asrda birinchi bo‘lib Yerning kattaligini o‘lchadi va “Geografika” nomli kitobini yozib, geografiya fanining mustaqil fan bo‘lib chiqishiga asos soldi. Eramizning II asrida Ptolemey 8 jildlik “Geografiya” asarini yozdi va xaritalarni tuzishda kartografiya proyeksiyalar va daraja to‘rini ixtiro qildi, dastlabki “Atlas”ni yaratdi. Shu davrda Strabon ham 17 jilddan iborat “Geografiya” asarini yozdi.

Bu bosqichning asosiy natijalari: geografiya fani vujudga keldi va “geografiya” nomli kitoblar yozildi, dunyo xaritalari tuzildi, geografik koordinatalar va daraja to‘ri ixtiro qilindi, Yerning sharsimonligi mantiqiy isbotlandi va o‘lchamlari aniqlandi.

O‘rta asrlar bosqichi. Bu davrda geografiya, umuman, ilm-fan, asosan Sharqda, xususan, O‘rta Osiyo, Misr, Eronda rivojlandi. Geografiya fani, asosan o‘lkashunoslik, kartografiya, geodeziya yo‘nalishida rivojlandi. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy IX asrda Yerning sharsimon ekanligini isbotlab, uning o‘lchamlarini nisbatan aniq o‘lchadi. “Surat-al-Arz” nomli kitob yozib, Sharq geografiyasiga asos soldi.

Geografiya fanining rivojida Abu Rayhon Beruniyning xizmati beqiyos. Uning geografiyaga oid 22 ta asari bo‘lib, shundan 12 tasi geodeziya, 4 tasi kartografiya, 3 tasi iqlimshunoslik, 3 tasi mineralogiyaga oid va hozirgi kunda ham dolzarb hisoblanadi. U yasagan globus esa Yerning sharsimonligini isbotlash va tushuntirishda, Shimoliy yarimshar tabiatini o‘rganishda tengi yo‘q manba bo‘lgan. U yunon va rim olimlaridan farq qilib olamning *geliotsentrik* tuzilishi nazariyasini rivojlantirishga hissa qo‘shgan.

Abdurazzoq Samarqandiy Hindistonga sayohat qilib, Eron, Pokiston, Arabiston dengizi haqida boy ma’lumotlar to‘pladi. Ahmad Farg‘oniy astronomiya, iqlimshunoslik gidrologiya fanlariga oid asarlar yaratdi. U Nil daryosining suv sarfini o‘lchaydigan “Nilometr” asbobini yaratib, daryolarning suv sarfini o‘lchash va unga bog‘liq ishlarni to‘g‘ri rejalashtirishga asos yaratdi. Umar Xayyom tomonidan ko‘plab xaritalar tuzildi. Yoqut Hamaviy geografik lug‘at – o‘sha davrdagi geografik bilimlar ensiklopediyasini tuzdi. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asari orqali geografiya faniga katta hissa qo‘shdi.

Bu davrda yevropaliklar ham sayohatlar uyushtirib, geografik bilimlarning boyishiga sezilarli hissa qo‘shdilar. 982-yil Erik Rauda

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Grenlandiyani, uning o‘g‘li Leyve Eriksson esa Shimoliy Amerikaning shimoli-sharqiy sohillarini o‘rgandi. 1271–1295-yillarda venetsiyalik Marko Polo Xitoyga safar uyushtiradi va uning ma’lumotlari Ptolemeyning xaritasida tasvirlanmagan joylarni to‘ldiradi. 1466–1472-yillarda A. Nikitin Hindistonga sayohat qilib “Uch dengiz osha sayohat” asarini yozadi.

Bosqichning asosiy natijalari: Yerning shakli va o‘lchamlari aniqroq o‘lchandi, geodeziya, kartografiya, gidrologiya, iqlimshunoslik fanlari shakllandi va rivojlandi, o‘lkashunoslik va mamlakatshunoslikka bag‘ishlangan yirik asarlar yozildi, Sharq, xususan, O‘rta Osiyo geografiyasiga asos solindi.

Buyuk geografik kashfiyotlar bosqichi. XV asrning 2-yarmiga kelib, Yevropada tabiiy resurslar va xomashyoga boy deb hisoblangan Hindiston va Xitoyga yangi yo‘llarni topish ishlari boshlandi. Natijada “Buyuk geografik kashfiyotlar” qilindi. Buyuk geografik kashfiyotlar asosan 3 ta yo‘nalishda olib borildi: 1) janubiy – Afrika bo‘ylab; 2) g‘arbiy – Atlantika okeani orqali; 3) shimoliy – Yevrosiyoning qutbiy o‘lkalari va shimoliy qirg‘oqlari bo‘ylab.

Ushbu bosqich 1492-yil ispaniyalik Xristofor Kolumbning Amerikaga 1-sayohatidan boshlanadi. X. Kolumb Amerikaga jami 4 marta borib, har safar yangi-yangi orollarni kashf etishiga qaramay, u yerlarni Hindiston emasligini bilmagan. 1499–1501-yillari Amerigo Vespuchchi Janubiy Amerika qirg‘oqlarini tekshirib, bu yerlar Hindiston emas, yangi yerlar ekanligini yozadi. 1507-yilda M. Valdzemuller “Kosmografiyaga kirish” nomli asarida bu yangi yerlarni “Terra Amerika” deb nomlaydi. Keyinchalik Merkator o‘zi tuzgan xaritalarida har ikki materikni ham shu nom bilan ataydi.

1498-yili portugaliyalik Vasko da Gama ekspeditsiyasi Afrikani aylanib o‘tib, Yevropadan Hindistonga boradigan dengiz yo‘lini ochdi. 1519–1521-yillarda ispaniyalik Fernan Magellan ekspeditsiyasi dunyo bo‘ylab sayohatini amalga oshirdi. Natijada Yerning sharsimonligi amalda isbotlandi va Dunyo okeanining yaxlitligi ma’lum bo‘ldi.

XVI asrda Angliya va Gollandiyalik sayyohlar ham Hindiston va Xitoyga dengiz yo‘lini ochish maqsadida shimoli-g‘arbiy va shimoli -sharqiy yo‘nalishlarda ekspeditsiyalar o‘tkazdilar. Natijada Shimoliy Amerika va Yevrosiyoning shimoliy qirg‘oqlari va ko‘plab orollar o‘rganildi. Lekin dengiz yo‘lini ochishga muvaffaq bo‘linmadi. Shu-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ningdek, Amerikaning ichki o‘lkalarini, ya’ni angliyaliklar – AQSH hududini, fransuzlar – Kanada hududini tekshirdilar.

XVI asrning oxirlaridan boshlab Janubiy Osiyo, Avstraliya va Okeaniya hududlari ingliz va gollandlar tomonidan tekshirilib, zabt etila boshlandi. 1605-yilda golland sayyohi Yanszon Avstraliya materigini kashf qildi. So‘ngra 1641–1643-yillarda A. Tasman materikni aylanib chiqdi.

Shu davrda rus sayyohlari Sibir, Uzoq Sharq, Yevrosiyoning shimoliy va shimoli-sharqiy qirg‘oqlarini, Shimoliy Amerikaning shimoli-g‘arbiy qismigacha bo‘lgan hududlarni o‘rganib, xaritaga tushirdilar va tasvirlab yozdilar.

Yuqorida aytilgan va boshqa o‘nlab ekspeditsiyalarda to‘plangan ma’lumotlar geografik bilimlarning kengayishiga va takomillashuviga olib keldi. 1544-yilda S. Myunsterning “Kosmografiya”, 1650-yili golland olimi B.Vareniusning “Umumiy geografiya” nomli asari bosilib chiqdi. G. Merkator xaritalarning matematik asosini, kartografik proyeksiyalarni ishlab chiqdi. Bularning bari ilmiy geografiya rivojlanishi uchun asos bo‘ldi.

Bu bosqichning asosiy natijalari: Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya materiklari kashf etildi; Yerning sharsimonligi va Dunyo okeanining uzluksiz, yaxlitligi amalda isbotlandi; ilgari noma’lum bo‘lgan Tinch okeanining mavjudligi va uning eng katta okean ekanligi, Yer yuzining katta qismi quruqlik emas, suvlikdan iboratligi aniqlandi.

Ilmiy geografik ishlar bosqichi. XVII asrga kelib fanlarning rivojlanishida keskin ildamlash ro‘y berdi. Geografiyada maxsus ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirila boshlandi. Bunday ekspeditsiyalardan eng muhimlari: 1725–1741-yillarda V. Bering va A. Chirikov boshchiligidagi rus ekspeditsiyasi, 1785–1788-yillarda J. Laperuz rahbarligidagi fransuz ekspeditsiyasi, 1768–1779-yillarda J. Kuk boshchiligidagi 3 marotaba dunyo bo‘ylab ingliz ekspeditsiyasi. Bu ekspeditsiyalar tomonidan Kuril orollari, Kamchatka va Chukotka yarimorollari, Osiyoning shimoliy qirg‘oqlari, Afrika va Janubiy Amerikaning ichki qismlari, Avstraliyaning sharqiy sohillari, Yangi Zelandiya, Yangi Kaledoniya, Janubiy Georgiya, Jamiyat, Gavayi, Kuk va boshqa orollar o‘rganildi.

Yerning ichki qismlari, tektonik harakatlar haqidagi bilimlarning to‘planishi bilan tabiiy geografiyadan geologiya ajralib chiqdi, Yer yuzasi relyefi, yer usti va osti suvlari, iqlim, shamollar, o‘simliklar haqidagi bilimlarning

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

kengayishi esa geomorfologiya, gidrologiya, meteorologiya va geobotanika fanlarining mustaqil fan darajasida rivojlanishiga olib keldi. Ushbu bosqichda ilmiy ishlar, ko‘pincha o‘rganilgan yerlarning geografik tavsifiga bag‘ishlangan bo‘lib, yangi kitoblar va xaritalar ishlangan.

Bu bosqichda bir qancha nazariya va gipotezalar, kitoblar yaratildi. Bular: Kant-Laplasning kosmogonik nazariyasi; Pallasning geologik qatlamlarning yoshi haqidagi nazariyasi; Leybnitsning tog‘ hosil bo‘lishida vulqon harakatlari gipotezasi; M. Lomonosovning “Yer qatlamlari haqida”, “Atmosfera hodisalari haqida” kitoblari, Kantning “Tabiiy geografiyadan ma’ruzalar” kitobi va boshqalar.

Bu bosqichning asosiy natijalari: Yer yuzining turli qismlari ilmiy o‘rganildi; fanda yangi nazariya va gipotezalar yaratildi; kartografik proyeksiyalar va relyefni tasvirlashning yangi usullari ixtiro qilindi; yirik asarlar va kitoblar yaratildi, geografiya fanining tarkibida bir qancha mustaqil fanlar rivojlandi.

XIX asr va XX asrning 1-yarmida geografiyaning rivojlanishi. Bu bosqichga kelib *milliy geografiya jamiyatlari* tashkil etilishi boshlandi. Jumladan, Fransiya (1821), Germaniya (1828), Buyuk Britaniya (1830), Rossiya (1845), Turkistonda esa 1897-yilda tuzilgan. Ko‘pgina davlatlar tomonidan yirik ilmiy tadqiqot ekspeditsiyalari uyushtirildi. 1821-yil F. F. Bellinsgauzen va M. P. Lazarev tomonidan Antarktida kashf etildi. 1823–1825-yillarda O. E. Kotsebu Dunyo okeani bo‘ylab ekspeditsiyada *marjon orollari*ning kelib chiqishini o‘rgandi, fizik E. Lens esa chuqurlikni o‘lchash uchun birinchi bor *batometrni* qo‘lladi. D. Livingston Afrikaning ichki qismlarini o‘rgandi. P. P. Semyonov-Tyanshanskiy boshchiligida O‘rta Osiyoning ichki hududlari o‘rganildi. R. Piri 1909-yilda Shimoliy qutbni, R. Amundsen esa 1911-yilda Janubiy qutbni zabt etdi.

A. Gumboldt Yevropa, Amerika, Osiyoga ekspeditsiya uyushtirib, juda ko‘p ma’lumotlar to‘pladi. O‘simliklarning kenglik zonalligi va balandlik mintaqalanishi qonuniyatini aniqladi. Mazkur ma’lumotlarni umumlashtirgan bir necha jildlik “Tabiat manzarasi”, “Kosmos” kabi yirik asarlarini yozdi. Gumboldt tabiatni bir butun, qat’iy qonuniyatli va uzluksiz rivojlanadigan tizim sifatida qarab yangi geografiyani yaratdi. Bu geografiyaning vazifasi tabiatni rivojlanishda va bir butun, yaxlit hosila sifatida o‘rganish, tabiatdagi qonuniyatlarni aniqlash, jism va hodisalar orasidagi aloqadorliklarni, o‘zaro ta’sir va bog‘liqliklarni ochish va boshqalardir.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Ch. Layel tomonidan yer po‘stining rivojlanish nazariyasi ishlab chiqildi. V. V. Dokuchayev tomonidan tabiat zonalligi ta’limoti, A. A. Grigorev tomonidan geografik qobiq ta’limoti, V. A. Vernadskiy tomonidan biosfera ta’limoti yaratildi.

Bu bosqichning asosiy natijalari: geografiya jamiyatlari tuzildi. Shimoliy va Janubiy qutblar zabt etildi va dunyo xaritasida noma’lum bo‘lgan hududlar qolmadi. Ilmiy geografiya vujudga keldi. Okeanografiya fani shakllandi. Meteorologik va gidrologik stansiyalar bunyod etildi. Atmosfera va okeandagi harakatlarning mohiyati ochib berildi. Yer po‘stining rivojlanish nazariyasi ishlab chiqildi. Bir necha ta’limotlar: tabiat zonalligi, geografik qobiq, biosfera ta’limotlari yaratildi.

Hozirgi zamon bosqichi. Geografiya fan-texnika inqilobi ta’sirida jadal rivojlanmoqda. Bu bosqichda geografiya fanining rivojlanishidagi asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat: geografik tadqiqotlarda modellashtirish va tajriba usullari, geografik axborot tizimlari, kompyuter texnologiyalari, kosmik usullar keng qo‘llanilmoqda. Kosmik usullar yordamida aylanasimon tuzilmalar, atmosfera harakatlari, okean suvi aylanma harakati va chuqurdagi suvlarning ko‘tarilish jarayonlari aniqlandi. Insonning tabiatga ta’siri kuchayib, hatto geografik qobiq doirasidan tashqariga chiqib ketdi. Shu munosabat bilan tadqiqotlar lokal (mahalliy) muammolar bilan bir paytda global muammolarga ham o‘z diqqatini qaratmoqda.

Fanda tabaqalanish, ya’ni geografik fanlar ichida yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lmoqda. Masalan, landshaftshunoslikning ichida amaliy landshaftshunoslik, antropogen landshaftshunoslik kabi bo‘linishlar yuzaga keldi. Shuningdek, turdosh fanlar bilan “oraliqda” yangi yo‘nalish va fan tarmoqlari paydo bo‘lmoqda. Masalan, geografiya bilan tibbiyot oralig‘ida tibbiyot geografiyasi, geografiya bilan tarix, filologiya oralig‘ida joy nomlarini o‘rganuvchi toponimika fani vujudga keldi.

Geografiya, antik davr, o‘rta asrlar, sharq geografiyasi, buyuk geografik kashfiyotlar, dunyo aylana sayohat, ekspeditsiya, ilmiy geografiya, yangi geografiya, ta’limotlar.

1. O‘rta asrlar bosqichining asosiy natijalari nimalardan iborat?
2. Ilmiy geografik ishlar bosqichining asosiy natijalari haqida nimalarni bilasiz?
3. Geografiya fanida qanday ta’limotlar yaratildi?
4. Dunyoning yozuvsiz xaritasiga sayohat va ekspeditsiyalarning yo‘nalishini chizing.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

II BOB. YER TABIATI

3-§. YER YUZI TABIATI RIVOJLANISHINING FAZOVIY OMILLARI

Yer boshqa osmon jismlari kabi koinotning bir qismidir. Koinot Yerni o‘rab turgan mavjud moddiy borliq. *Koinot* makonda cheksiz-chegarasiz va zamonda abadiydir. Koinotda osmon jismlari tuzilishi turli xil bo‘lgan tizimlarni hosil qiladi. Shulardan biri Quyosh sistemasidir. Quyosh atrofidagi sayyoralar, yo‘ldoshlar, asteroidlar, kometalar bilan bir tizim bo‘lib galaktikamiz *Somon yo‘li* markazi atrofida aylanma harakat qiladi. Somon yo‘li galaktikasi haqidagi ma’lumotlar astronomiya darsligidan Sizga ma’lum.

Quyosh sistemasidan *galaktika* markazigacha bo‘lgan masofa 23–28 ming yorug‘lik yiliga teng. Quyosh galaktikaning chekkaroq qismida joylashgan. Bu holat Yer uchun juda qulay: u Galaktikaning nisbatan tinch qismida joylashgan va paydo bo‘lganidan buyon fazoviy halokatlarga uchramasdan rivojlanib kelmoqda. Quyosh sistemasi Galaktika markazi atrofida 200–220 km/s tezlik bilan harakatlanib, 180–220 mln yilda bir marta aylanib chiqadi. Yerdagi 200 mln yil – *tektonik sikl*-ning davomiyligi hisoblanadi. Bu Yer hayotida tektonik hodisalarning ma’lum ketma-ketligi bilan tavsiflanadigan muhim davr. Sikl boshida Yer po‘stining cho‘kishi, qalin cho‘kindi qatlamning to‘planishi, suvosti vulqonlarining otilishi ro‘y beradi. Keyin, tektonik jarayonlar kuchayadi, tog‘lar vujudga keladi, materiklarning tashqi ko‘rinishi, qiyofasi o‘zgaradi. Bu esa, o‘z navbatida, Yer tabiatining o‘zgarishiga olib keladi.

Quyosh – Yerga eng yaqin yulduz bo‘lib, diametri 1,39 mln km, o‘ta qizigan, yorug‘lik va issiqlik taratib turadigan, gazlardan iborat sharsimon osmon jismidir. Unda Quyosh sistemasining 99 % dan ortiq massasi to‘plangan. Shuning uchun u atrofidagi osmon jismlarini tortish kuchi hisobiga ushlab turadi va sayyoralarning deyarli bir xil tekislikda harakatlanishini ta’minlaydi.

Quyosh sistemasi – Quyosh, 8 ta sayyora, 160 dan ortiq yo‘ldosh, 40000 dan ortiq asteroid va 1 mln ga yaqin kometadan iborat. Ushbu

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

osmon jismlarining barchasi Yer tabiatiga ta’sir ko‘rsatadi. Ammo, eng kuchli ta’sir Quyosh, so‘ngra Oy tomonidan bo‘ladi.

Quyoshdan tarqaladigan issiqlikning milliarddan ikki qismi Yerga yetib keladi. Bu miqdor Yer uchun xos bo‘lgan issiqlik sharoitini ta’minlaydi. Quyoshdan keladigan radiatsiya Yer yuzasidagi issiqlikning asosiy manbayi bo‘lib, quruqlikda, Dunyo okeanida, atmosfera va tirik organizmlarda ro‘y beradigan jarayonlarni vujudga keltiruvchi asosiy kuchdir.

Quyoshdan Yerga yorug‘lik va issiqlikdan tashqari elektr zaryadli har xil zarralar uzatiladi. Koinotning uzoq qismidan Yer atmosferasining yuqori qatlamlariga ko‘rinmas va juda katta energiyaga ega bo‘lgan kosmik nurlar kelib turadi. Bu zarralar va nurlar ta’sirida Yerdagi ko‘p hodisalar, jumladan, qutb yog‘dusi, magnit bo‘ronlari, havoning ionlashishi, atmosferadagi ba’zi gazlarning molekula holatidan atom holatiga o‘tishi kabilar vujudga keladi.

Oy – Yerning tabiiy yo‘ldoshi va unga eng yaqin osmon jismi. Yerdan 384 ming km masofada joylashgan. Radiusi 1738 km, o‘rtacha zichligi 3,34 g/sm^3. Massasi Yer massasidan 81 marta kichik. Yer atrofida ellips orbita bo‘ylab 27,32 sutkada aylanib chiqadi. Oy sovuq osmon jismi, o‘zidan issiqlik va yorug‘lik chiqarmaydi. Quyoshdan kelgan nurni qaytargani uchun bizga yorug‘ bo‘lib ko‘rinadi.

Quyosh va Oyning tortishi tufayli Yerning shakli davriy ravishda o‘zgarib turadi. Natijada Dunyo okeani, atmosfera va Yer po‘stida ritmli ravishda qalqish hodisasi ro‘y beradi. Dunyo okeanida ko‘tarilgan qalqish hodisasi Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishiga teskari yo‘nalishda harakat qilib, Yerning aylanish tezligini kamayishiga ma’lum miqdorda sabab bo‘ladi. Oy, Quyosh va boshqa osmon jismlarining tortishi tufayli Yerning aylanishi sekinlashadi, oqibatda Yerning qutbiy siqiqligi kamayib, sharga yaqinlashib boradi. Natijada litosfera plitalari harakati va Yer po‘stidagi yoriqlar, tektonik harakatlar o‘zgaradi. Shuningdek, Koriolis kuchi kamayadi va, natijada havo massalari, shamollar va okean suvlari harakati, iqlim o‘zgaradi. Bularning bari



1-rasm. Yerning qabul qilingan shakllari

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Yer yuzida tabiiy sharoit va resurslarning o‘zgarishiga, o‘z navbatida, inson xo‘jalik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Yer – Quyosh sistemasidagi sayyoralardan biri bo‘lib, uning shakli, o‘lchamlari, zichligi, moddalar tarkibi, tuzilishi va harakatlari koinotda joylashgan o‘rniga bog‘liq. Uning shaklini Siz quyi sinflarda sharsimon deb o‘qigansiz. Bu to‘g‘ri, lekin, aslida, uning shakli *geoid*. Yer hech bir geometrik shaklga yoki jismga o‘xshamaydi. Yer yuzasida geodezik-kartografik ishlarda geoidni o‘lchash va hisoblash qiyin bo‘lgani uchun, o‘lchash, hisoblash va tasvirlash oson bo‘lgan shar yoki ellips shaklida deb qabul qilinadi (1-rasm).

Quyidagi 1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan Yerning shakli va o‘lchamlari haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin.

1-jadval

Yerning ayrim o‘lchamlari

O‘rtacha ekvatorial radiusi	6378,14 km	Ekvator uzunligi	40 075,7 km
O‘rtacha qutbiy radiusi	6356,78 km	Hajmi	$1{,}083 \times 10^{12}$ km^3
Qutbiy siqiqligi	21,36 km	O‘rtacha zichligi	5,52 g/sm^3
Ekvatorial siqiqligi	213 m	Massasi	$5{,}976 \times 10^{24}$ kg
Meridian uzunligi	40 008,5 km	Yer yuzasining maydoni	510 mln km^2

Yerning shakli va o‘lchamlarining geografik ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- Yerning sharsimon shakli quyosh nurlari tushish burchagining ekvatordan qutblarga tomon qonuniyatli o‘zgarib borishiga sabab bo‘ladi. Bu esa *geografik zonallik qonuniyatini* yuzaga keltirgan;
- Yerning sharsimon shakli moddalarni bir joyga to‘playdi va quyuqlashtiradi. Natijada moddalar siqiladi va zichlashadi, ichki qismida turli zichlikka ega qobiqlar hosil bo‘ladi. Yerning *qobiqli tuzilishi* uning asosiy xususiyatidir;
- Yer yuzasi, jumladan, geografik qobiqning dumaloq (sharsimon) shakldaligi makonning *bir butun* va *cheksizligini* ta’minlaydi;
- Yerning haqiqiy shakli – geoidning shardan og‘ishi Yer ichidagi moddalarining muvozanatga intilishi tufayli yer po‘stida ko‘tarilishlar va cho‘kishlar, yer yoriqlari yuzaga kelishiga, oqibatda relyefning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Relyef va tektonik harakatlar geografik qobiqda *azonallik* qonuniyatini yuzaga keltiruvchi omillardir. Zonallik va azonallik qonuniyatlarining bir joyda va bir

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

paytda namoyon bo‘lishi Yer yuzi tabiatining turli-tuman bo‘lishini keltirib chiqargan;

- Yer zichligi va massasining kattaligi uning tortish kuchi katta bo‘lishini, bu esa o‘z atrofida havo va suvni ushlab turishini ta’minlagan. Yer yuzasidagi atmosfera bosimining mavjudligi suvning suyuq holda bo‘lishiga imkon beradi, aks holda suv bug‘lanib ketgan bo‘lar edi. Yerda ma’lum bir doimiy issiqlik sharoitini ushlab turishda atmosfera va gidrosferaning ahamiyati katta. Atmosfera Quyoshdan kelayotgan zararli elektromagnit nurlarni ushlab qoladi. Dunyo okeani esa juda katta issiqlik manbayidir.

Yer sayyorasi bir vaqtning o‘zida bir qancha *harakatlarni* amalga oshiradi. Ulardan Yer tabiati va odamlar hayoti uchun eng ko‘p ta’sir ko‘rsatadiganlari Yerning Quyosh atrofida, o‘z o‘qi atrofida va Yer–Oy umumiy og‘irlik markazi atrofida aylanishidir.

Yer Quyosh atrofida soat miliga teskari yo‘nalishda o‘rtacha 29,8 km/sekund tezlik bilan 934 mln km bo‘lgan *orbitani* 365 sutka 6 soatda to‘la bir marta aylanib chiqadi. Yer orbitasi (Quyosh atrofida aylanish yo‘li) ellips shaklda. Shuning uchun Quyosh bilan Yer orasidagi masofa doim o‘zgarib turadi. Yer orbitasining Quyoshga eng yaqin nuqtasi – *perigeliy* deyiladi. Bu nuqtada Yer va Quyosh orasidagi masofa 147 mln km ga teng. Yer orbitasining Quyoshdan eng uzoq nuqtasi esa *afeliy* deyilib, Yer bilan Quyosh o‘rtasidagi masofa 152 mln km bo‘ladi. Shuning uchun Yer orbita bo‘ylab *turli tezlikda* harakat qiladi, ya’ni *perigeliyda eng tez* (30,3 km/sekund), *afeliyda eng sekin* (29,3 km/sekund) aylanadi. Buning oqibatida Quyosh Shimoliy yarimsharga 186 kun, Janubiy yarimsharga esa 179 kun nur sochadi. Lekin bu Yerga keladigan issiqlikning miqdoriga ta’sir qilmaydi. Yer orbitasining aylanaga yaqin ellipsligi tufayli Yerga keladigan issiqlikning miqdori o‘zgarmaydi, ya’ni doimiydir. Shu sababli Yer yuzida doimiy issiq sharoit yuzaga kelgan.

Yerning Quyosh atrofida aylanishining geografik oqibatlari: yil fasllari hosil bo‘ladi, kun va tun davomiyligi o‘zgaradi, Quyosh turishi nuqtalari (22 iyun, 22 dekabr) hamda bahorgi va kuzgi tengkunliklar (21 mart, 23 sentyabr) bo‘ladi, Quyosh Shimoliy yarimsharga 1 hafta ko‘proq nur sochadi, yorug‘lik mintaqalari hosil bo‘ladi, doimiy issiqlik sharoit qaror topadi, musson shamollari paydo bo‘ladi, umuman, geografik qobiqda *yillik ritmiklik qonuniyati* yuzaga keladi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Yer o‘z o‘qi atrofida aylanganda aylanish o‘qi orbita tekisligiga nisbatan 66,5° burchak hosil qiladi. Yer aylanishining burchak tezligi 1 soatda 15°, ya’ni Yer yuzidagi har qanday nuqta (qutblardan tashqari) 1 soatda 15° ga buriladi. Lekin sekundiga masofa hisobidagi tezlik har xil kenglikda turlicha. Ekvatordan qutblarga tomon kamayib boradi. Ekvatorda eng katta bo‘lib, sekundiga 455 m, qutblarda esa 0 m ga teng.

Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishining geografik oqibatlari: sutka qaror topadi, kun va tun almashinadi, geografik qobiqda sutkalik ritmiklik ro‘y beradi, Koriolis kuchi hosil bo‘ladi, geografik qutblar vujudga keladi, turli meridianlarda mahalliy vaqt har xil bo‘ladi.

Koriolis kuchi Yer aylanishining buruvchi kuchi bo‘lib, uning ta’sirida gorizontal harakat qilayotgan hamma jismlar o‘z yo‘nalishidan Shimoliy yarimsharda o‘ngga, Janubiy yarimsharda chapga og‘adi. Uning ta’sirida havo massalari, siklonlar va antisiklonlar, shamollar, dengiz oqimlari o‘z yo‘nalishini o‘zgartiradi, daryo suvlari Shimoliy yarimsharda ko‘proq o‘ng qirg‘og‘ini, Janubiy yarimsharda chap qirg‘og‘ini yemiradi.

Yer Oy bilan birgalikda umumiy og‘irlik markazi atrofida aylanadi. Yer–Oy umumiy og‘irlik markazi Yerning ichki qismida, uning markazidan radiusining ¾ qismi masofada joylashgan. Yerning Yer–Oy umumiy og‘irlik markazi atrofida aylanishi, Oyning tortishi oqibatida qalqish hodisasi, ya’ni Yerdagi hamma jismlar Oyga tomon tortilishi ro‘y beradi. Bu, ayniqsa, Dunyo okeanida yaqqol seziladi. Shuningdek, Oyning tortishi oqibatida Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi sekinlashadi. Qalqish hodisasi va Yer aylanishi sekinlashishining Yer tabiatiga ta’siri haqida yuqorida aytib o‘tilgan.

Umuman, yuqorida aytilganidek, Yerning Koinotdagi o‘rni, unga osmon jismlarining ta’siri, uning shakli va o‘lchamlari Yerda hayotning paydo bo‘lishini, tirik organizmlar uchun qulay muhitni va eng asosiysi, odamning paydo bo‘lishi va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlagan. Bugungi sivilizatsiyani saqlab qolish esa insonning o‘z qo‘lidadir.

Koinot, galaktika, Quyosh sistemasi, geoid, Yerning o‘lchamlari, Yerning harakatlari, aylanish tezligi, tektonik sikl, orbita, yil fasllari, Koriolis kuchi, qalqish hodisasi.

1. Quyosh sistemasi nimalardan tuzilgan?
2. Quyosh Yer tabiatiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
3. Oyning Yer tabiatiga ta’sirlarini aytib bering?
4. Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi oqibatida ro‘y beradigan hodisalarni o‘zingiz yashaydigan joyda kuzating va daftaringizga yozing.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

4-§. YERNING ICHKI TUZILISHI VA TEKTONIK JARAYONLAR

Yerning ichki qismi qobiqlardan tuzilganligini quyi sinflardan bilasiz. Endi ana shu qobiqlarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishsiz.

Yer po‘sti – Yerning eng yuzada joylashgan qattiq qobig‘i. Qalinligi o‘rtacha 35–40 km. Moddalarning o‘rtacha zichligi 2,7 g/sm^3, Yer hajmining 1 % ini, massasining 0,4 % ini tashkil etadi. Mantiyadan *Moxo chegarasi* orqali ajralib turadi. Yer po‘sti kimyoviy elementlar, minerallar, tog‘ jinslaridan iborat. Eng ko‘p tarqalgan kimyoviy elementlar kislorod, kremniy, aluminiydir.

Siz 6-sinf darsligida yer po‘sti materik va okean yer po‘stiga bo‘linadi, deb o‘qigansiz. Endi esa, ularga qo‘shimcha holda oraliq va riftogen yer po‘stlari ham ajratilishini bilib olasiz. Sizga ma’lumki, *materik yer po‘sti* 3 ta, ya’ni cho‘kindi, granit va bazalt qatlamlaridan tuzilgan. Bunday qatlamlarni ajratish shartlidir. Cho‘kindi qatlam eng yuzada joylashgan bo‘lib, qalinligi 15–20 km gacha, ohaktosh, qum, gil va boshqalardan iborat. Granit va bazalt qatlamlar har birining qalinligi 10–15 kmni tashkil etadi.

Okean yer po‘sti okean tubiga to‘g‘ri keladi. Qalinligi 5–10 km bo‘lib, cho‘kindili va bazaltli qatlamlardan tuzilgan.

Oraliq yer po‘sti o‘rtacha qalinligi 15–30 km, 3 qismdan iborat: chekka dengiz soyligi, orollar yoyi va chuqur cho‘kmalar. Dengiz soyligi va chuqur cho‘kmalar ostida granit qatlami yo‘q, cho‘kindi va bazalt qatlamlardan iborat. Granit qatlam faqatgina orollar yoyida paydo bo‘ladi. Yevrosiyo materigining sharqiy qirg‘oqlarida, Shimoliy va Janubiy Amerikaning sharqiy va g‘arbiy qirg‘oqlarida mavjud.

Riftogen yer po‘sti o‘rta okean tizmalariga to‘g‘ri keladi. Qalinligi 1,5–2 km bo‘lib, 2 qatlamli tuzilgan. Cho‘kindi qatlamning qalinligi 1–2 km, bazalt qatlam rift vodiylarida (yer yoriqlarida) asta-sekin nuraydi va unchalik qalin emas.

Mantiya – yer po‘sti bilan yadro orasidagi qobiq. Moddalarning zichligi 5,7 g/sm^3, Yer hajmining 83 % ini, massasining 68 % ini tashkil etadi. Ikki qismdan iborat bo‘lib, *yuqori mantiya* 900 km, *quyi mantiya* esa 2900 km chuqurlikkacha davom etadi. Harorat 2000° C, yadro bilan chegarasida esa 3800° C ga yetadi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Yadro – Yerning eng chuqur, ichki qismi. Moddalarning zichligi 16 g/sm^3 gacha yetadi. Yer hajmining 16 % ini, massasining 31 % ini tashkil etadi. U ham ikki qismdan iborat bo‘lib, *tashqi yadro* 5100 km chuqurlikkacha, *ichki yadro* Yer markazigacha davom etadi. Harorat 4000° C dan ortiq.

Litosfera – Yerning qattiq tosh qobig‘i bo‘lib, Yer po‘sti va yuqori mantiyaning bir qismini o‘z ichiga oladi hamda astenosfera qatlamigacha davom etib, qalinligi 150–200 km ni tashkil etadi. Litosfera yaxlit bo‘lmay, chuqur yer yoriqlari bilan yirik bo‘laklar – litosfera plitalariga bo‘lingan. Ular astenosfera ustida yiliga 5–10 sm tezlikda gorizontal yo‘nalishda siljiydi. Litosfera plitalari 13 ta bo‘lib, ularning nomi, siljish yo‘nalishlari va tezligi haqidagi ma’lumotlarni 6-sinf atlasidagi “Yer po‘stining tuzilishi” xaritasidan bilib olishingiz mumkin.

Litosfera plitalari to‘qnashgan joylarda tez-tez vulqon va zilzilalar sodir bo‘ladi. Bunday mintaqalar ***seysmik mintaqalar*** deb ataladi. Yer yuzasida ikkita muhim seysmik mintaqa mavjud: 1) Tinch okean “olovli” halqasi; 2) Alp–Himolay seysmik mintaqasi. Tinch okean “olovli” halqasi Tinch okeani qirg‘oqlari va unga tutash orollarni qamrab oladi. Alp – Himolay seysmik mintaqasi Atlantika okeani sohillaridan boshlanib, Pireney yarimoroli, Himolay tog‘lari orqali o‘tib, Tinch okeani sohillarigacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Alp–Himolay seysmik mintaqasida joylashgan. Shu sababli mamlakatimizda ayrim yillari kuchli zilzilalar sodir bo‘lib turadi.

Zilzila – yer po‘stining ichki qismida ro‘y beradigan uzilish, sinish, siljish kabi jarayonlar ta’sirida sodir bo‘ladigan silkinishlar. Sabablariga qarab: tektonik, vulqon va o‘pirilish zilzilalariga bo‘linadi. Zilzila kuchi 10 yoki 12 balli seysmik shkala yordamida aniqlanadi. Respublikamizda 12 balli seysmik shkaladan foydalaniladi (2-jadval).

Vulqonlar – yer po‘stida sodir bo‘ladigan tektonik harakatlar natijasida paydo bo‘lgan yoriqlar orqali lava, issiq gaz, suv bug‘lari va boshqa jinslar chiqib turishidan hosil bo‘lgan konussimon qalqonsimon, gumbazsimon tog‘lar va tepalar. Vulqon og‘zi – *krater*, tagi – *magma o‘chog‘i,* mo‘riga o‘xshash tik o‘rta qismi – *vulqon kanali* deb ataladi. Vulqon krateridan otilib chiqadigan lavaning harorati 1500° C gacha yetadi. Vulqonlar shartli ravishda *so‘ngan* va *harakatdagi* vulqonlarga bo‘linadi. Hozirgi paytda sayyoramizda 800 dan ortiq harakatdagi vulqonlar mavjud.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

2-jadval

12 balli seysmik shkalaning qisqacha tavsifi

Ballar	Zilzila kuchi	Qisqacha tavsifi
1	Sezilmaydi	Faqat seysmik asboblar bilan qayd etiladi.
2	Juda kuchsiz	Ko‘pchilik sezmaydi. Sokin vaziyatdagi odamlargina sezadi.
3	Kuchsiz	Bino ichidagi ayrim odamlar sezadi.
4	Sezilarli	Bino ichidagi odamlarning ko‘pchiligi sezadi. Uydagi jihozlar harakatga keladi.
5	Kuchsizroq	Bino va mebel tebranadi. Uyqudagilar uyg‘onib ketadi.
6	Kuchli	Hamma sezadi. Ko‘pchilik tashqariga chiqishga oshiqadi, ba’zi buyumlar turgan joyidan tushib ketadi, ba’zi uylarda suvoqlar ko‘chib tushadi.
7	Juda kuchli	Imoratlar shikastlanadi, g‘ishtli devorlar yoriladi. Xomg‘isht va paxsadan qurilgan ba’zi uylar buziladi, tog‘larda ba’zan qoyalar ko‘chadi.
8	Vayron qiluvchi	Imoratlar kuchli shikastlanadi, tog‘larda surilmalar yuz beradi.
9	O‘ta vayron qiluvchi	G‘isht, betondan ishlangan uylar butunlay yoki qisman buziladi, yerosti quvurlari uziladi. Qoyalar qulab, tepaliklar suriladi, yerdagi yoriqlarning eni 10 sm gacha yetadi.
10	Yakson etuvchi	Yer yuzida katta (eni 1 m gacha) yoriqlar paydo bo‘ladi. To‘g‘on va qirg‘oq to‘siqlari ishdan chiqadi, temiryo‘llar bukiladi. Yangi ko‘llar paydo bo‘ladi.
11	Halokatli	Yer yuzida keng va chuqur jarliklar hosil bo‘ladi, Yer vertikal va gorizontal yo‘nalishda silkinadi. Tog‘larda qoyalar ag‘dariladi, ko‘prik, to‘g‘on, temiryo‘llar butunlay buziladi.
12	O‘ta halokatli	Yer yuzi qiyofasi, relyefi o‘zgaradi. Yer yuzi burmalanadi, baland qoyalar ag‘dariladi, daryolar o‘zanini o‘zgartiradi.

Bundan tashqari, Yerning ichki kuchlari ta’sirida *geyzerlar* va issiq buloqlar otilishi, yer yuzasi bir qismining asta cho‘kishi va boshqa qismining esa ko‘tarilishi ham sodir bo‘lib turadi. Geyzerlar va issiq buloqlar, asosan, vulqonlar tarqalgan mintaqalarda uchraydi. Ulardan binolarni isitishda hamda elektr energiyasi olishda foydalaniladi. Bunday ishlar Islandiya, Yaponiya, Italiya, Rossiya va Yangi Zelandiya davlatlarida yo‘lga qo‘yilgan.

Yerning qobiqlari, yer po‘sti, mantiya, yadro, litosfera, seysmik mintaqa, zilzila, vulqon, seysmik shkala.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

1. Seysmik mintaqalar deb nimaga aytiladi?
2. Zilzila va vulqonlar qayerlarda sodir bo‘ladi?
3. Zilzila nima? U qanday hosil bo‘ladi?
4. Seysmik shkalani daftaringizga yozing va eslab qoling.

5-§. YER YUZI TABIATINING RIVOJLANISH TARIXI

Yerning paydo bo‘lishi haqidagi hozirgi zamon nazariyalariga ko‘ra, Yer murakkab taraqqiyot bosqichlarini o‘z boshidan kechirgan. So‘nggi yillardagi ma’lumotlarda keltirilishicha, Yer taraqqiyotining *astronomik, geologik, biologik va antropogen* bosqichlarini ajratish mumkin.

Astronomik bosqich 5–4,6 mlrd yillar oralig‘ini o‘z ichiga oladi. Bundan 5 mlrd yil oldin koinotdagi disksimon gaz va chang massasining gravitatsion mexanik quyuqlashuvi oqibatida Quyosh sistemasidagi boshqa sayyoralar singari Yer ham sharsimon shaklga ega bo‘lgan. Yer tarkib topib borayotgan vaqtda radioaktiv elementlarning parchalanishi natijasida ajralib chiqadigan issiqlik hisobiga, uning ichki qismi asta-sekin qizib, moddalarning saralanishiga olib kelgan. Oqibatda Yerning turli qatlamlari hosil bo‘la boshlagan, vulqonlar harakatlanishi kuzatilgan.

Vulqon va tektonik harakatlarning boshlanish paytidan Yerning *geologik bosqichi* boshlangan. Yer po‘sti yuzlab million yillar davomida doimiy ravishda o‘zgarib turgan, materiklar goh shakllanib, goh parchalangan. Materiklar doimiy harakatda bo‘lgan va ba’zida birlashib yirik materiklarni hosil qilgan.

Yerda 3,8 mlrd yil avval hayot paydo bo‘lishi bilan Yer taraqqiyotining *biologik bosqichi* boshlangan. Yerda dastlabki odamlarning paydo bo‘lishi (3–1,5 mln yil) *antropogen* bosqichni boshlab bergan.

Yerning geologik taraqqiyot tarixi, uning rivojlanish davrlari va rivojlanish bosqichlariga ajratish bilan ko‘plab geologlar shug‘ullanganlar. Natijada geoxronologiya paydo bo‘lgan.

Geoxronologiya (geologik yilnoma) – yer po‘stidagi tog‘ jinslarining hosil bo‘lish ketma-ketligi va yoshi haqidagi ta’limot. Geoxronologiya *mutlaq* va *nisbiy* geoxronologiyaga bo‘linadi. Mutlaq geoxronologiyada Yerning yoshi yillar bilan ifodalanadi. Nisbiy geoxronologiyada esa, tog‘ jinslarining ketma-ket qatlamlanib joylanishiga asoslaniladi. Bunga ko‘ra, ustida yotgan qatlam (cho‘kindi jinslar qatlamlarining dastlabki holati buzilmaganda) ostidagidan yosh bo‘ladi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Tog‘ jinslarining yoshini aniqlashda *paleontologik metod* ham ishlatiladi. Bu metod hayvon va o‘simliklarning tog‘ jinslaridagi toshqotgan qoldiqlarini o‘rganishga asoslangan. Har qaysi davr uchun o‘ziga xos hayvon va o‘simliklarning toshqotgan qoldiqlari mavjud (2-rasm).

2-rasm. Kembriy davri trilobitlarining toshqotgan namunalari

Geologlar ko‘p yillik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, yer po‘stida qatlamlar yo‘nalishining umumiy ketma-ketligini aniqlaganlar. Keyinchalik bu *stratigrafiya shkalasi* nomini oldi. Stratigrafik shkala geoxronologiya shkalasini tuzish uchun asos hisoblanadi.

Geoxronologik shkala – geoxronologik bo‘limlarning iyerarxiya (quyi bo‘limlarning yuqori bo‘limlarga bosqichma-bosqich bo‘ysinish) tizimi. Shkalada eng yirik birlik *supereon* bo‘lib, ular 2 ta: *tokembriy* va *fanerozoy.* Tokembriy supereoni *xades, arxey* (yoki arxeozoy) va *proterozoy* eonlariga bo‘lingan, fanerozoy supereoni esa shu nomdagi bitta eondan iborat. Eonlar, o‘z navbatida, bir nechta eralarni birlashtiradi. Masalan, fanerozoy eoni *paleozoy, mezozoy* va *kaynozoy* eralariga ajratilgan. Eralar davrlarga, davrlar zamonlarga, zamonlar esa asrlarga bo‘lingan. Shkalaning yuqori qismi, ya’ni *fanerozoy* paleontologik metod asosida puxta tuzilgan, pastki qismi bo‘lgan *tokembriy* toshqotgan qoldiqlarning yaxshi saqlanmaganligi sababli paleontologik metod cheklangan bo‘lib, natijada bo‘limlarga unchalik mukammal ajratilmagan.

Stratigrafik va unga moslashgan geoxronologiya shkalasi 1881-yilda Italiyaning Bolonya shahrida ikkinchi xalqaro geologlar kongressida tasdiqlangan va o‘sha vaqtdan boshlab jahonda umumiy hisoblanadi. O‘tgan vaqt mobaynida paleontologik metodning takomillashishi natijasida olingan yangi ma’lumotlar asosida geoxronologiya shkalasiga aniqliklar kiritilib, o‘zgartirib borilmoqda. Shuning uchun turli yillarda nashr etilgan adabiyotlarda geoxronologiya jadvalida keltirilgan ma’lumotlar mos kelmaslik hollari uchraydi. Quyida keltirilgan ***Xalqaro geoxronologik jadval***da berilgan ma’lumotlar Xalqaro stratigrafiya komissiyasining 2016-yil ma’lumotlari asosida tuzildi (3-jadval).

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

3-jadval

Xalqaro geoxronologik jadval

Eonlar, yil	Eralar, davom etishi mln yil	Davrlar, belgisi/ davom etishi	Tog‘ burma-lanishlari	Ko‘tarilgan tog‘lar va o‘lkalar	Yer tarixidagi muhim voqealar va paleogeografik sharoit
Fanerozoy, 541 mln	Kaynozoy, KZ 66 mln	Antropogen (to‘rtlamchi), Q 2,5 mln yil	Alp	Alp, Bolqon, Karpat, Kavkaz, Pomir, Himolay, Kamchatka tog‘lari, And, Kordilyeraning g‘arbiy tizmalari, O‘rta dengiz sohillari, Pont, Kuril, Yaponiya, Filippin, Malakka orollari, Yangi Zelandiya, Yangi Gvineya orollari, Antarktida yarimoroli hududlari.	Eng asosiy o‘zgarishlar: odamning paydo bo‘lishi, hozirgi davr organizmlari, 13 ta iqlim mintaqalari, tabiat zonalari shakllandi, muz bosish hodisalari bo‘lib o‘tgan. Eraning boshiga kelganda organik dunyo yanada murakkablashgan. Bir qancha qushlar va sutemizuvchilar paydo bo‘lgan. Ba’zi sut emizuvchilar quruqlikda, boshqalari dengizda yashashga, ayrimlari uchishga moslashgan. Dunyodagi neft zaxirasining 25,5 %, gazning 11,3 % paleogen va neogen yotqiziqlariga to‘g‘ri keladi.
		Neogen, N 20,5 mln yil			
		Paleogen, ₽ 43 mln yil			
	Mezozoy, MZ 186 mln	Bo‘r, K 79 mln yil	Mezozoy (Kimmeriy, Laramiy, Nevadiy)	Kordilyeraning shimoliy tizmalari, Uzoq Sharq, Hindixitoy, Malakka yarimorolari, Yava orolining shimoli, Kalimantan orolining janubi.	Ikkita materik: Lavraziya va Gondvana, ikkita okean: Tinch va Tetis mavjud bo‘lgan. Hind va Atlantika okeanlari endigina paydo bo‘la boshlagan. Shimoliy Muz okeani ichki suv havzasi bo‘lgan. Iqlim va relyefning keskin o‘zgarishi, okean suvlarining sho‘rlik va mineralogik tarkibining o‘zgarishi oqibatida paleozoyga mansub bo‘lgan hayvonlar qirilib ketgan. Ularning o‘rniga yangi hayvonot olami paydo bo‘lgan. Trias davri oxirida qirqquloqlar, ignabarglilar ko‘paygan. Yura davri oxirida sudraluvchilardan qadimgi qushlar kelib chiqqan. Bo‘r davrida tishli qushlar tarqalib, bahaybat dinozavrlar paydo bo‘lgan. Dunyoda qazib olinayotgan neftning 67,7 %, gazning 62,4 % mezozoy yotqiziqlari orasidan olinmoqda.
		Yura, J 56 mln yil			
		Trias, T 51 mln			

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

<table>
<tr><td rowspan="6"></td><td rowspan="6">Paleozoy,
PZ
289 mln</td><td>Perm, P
47 mln yil</td><td rowspan="2">Gersin</td><td rowspan="2">Ural, Oltoy, Tyanshan, G‘arbiy Yevropa, Appalachi, Sharqiy Avstraliya, Kap tog‘lari, Shimoliy Afrika, Janubiy Amerikaning Patagoniya o‘lkasi.</td><td rowspan="5">Era boshlarida Janubiy yarimshardagi quruqliklar Gondvana materigiga birlashgan, era oxirlariga kelib (perm) Gondvana va Lavraziya materiklari birlashib yagona Pangeya materigini hosil qilgan hamda yagona Pantalassa okeani shakllangan. Pangeya ko‘p o‘tmasdan yana parchalanib yangi Tetis va Reya okeanlari paydo bo‘la boshlagan.
Quyi paleozoy yotqiziqlarida turli organik qoldiqlar juda ko‘p uchraydi. Kembriy davri yotqiziqlarida 1500 tur, silur davrida 15000 turdagi hayvon va o‘simliklar mavjud bo‘lgan. Bu organizmlarning deyarli barchasi dengiz muhitida yashagan. Silur davrida birinchi baliqlar va quruqlikda o‘suvchi o‘simliklar psilofitlar paydo bo‘ladi. Devonda, ayniqsa, baliqlar tez taraqqiy etgan, ordovikda dastlabki umurtqalilar paydo bo‘lgan. Toshko‘mir davrida Yer taraqqiyotidagi eng ko‘p daraxt o‘simliklari o‘sadi. Ko‘plab toshko‘mir konlari hosil bo‘lgan.</td></tr>
<tr><td>Toshko‘mir, C
60 mln yil</td></tr>
<tr><td>Devon, D
61 mln yil</td></tr>
<tr><td>Silur, S
24 mln yil</td><td rowspan="2">Kaledon</td><td rowspan="2">Nyufaundlend yarimoroli, Kanada Arktika arxipelagi, Sharqiy va G‘arbiy Sayan, Qozog‘iston past tog‘lari.</td></tr>
<tr><td>Ordovik, O
42 mln yil</td></tr>
<tr><td rowspan="4">Proterozoy
PR
2,0
mlrd</td><td rowspan="3">Kembriy, Km
55 mln yil</td><td rowspan="7">Baykal</td><td rowspan="7">Baykalbo‘yi va Baykalorti tizmalari, Braziliya yassi tog‘ligi, Koreya yarimorolidagi ba’zi tog‘lar, Janubiy Afrika.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Neoproterozoy erasi</td></tr>
<tr><td colspan="2">Mezoproterozoy erasi</td></tr>
<tr><td colspan="2">Paleoproterozoy erasi</td><td rowspan="8">Arxey eoni boshlarida kremniyli jinslarda karbonat angidrid gazi 44,2 %, kislorod 5,5 %, 19 % azot va boshqa gazlar uchragan. Bu davrda yirik yaxlit quruqliklar shakllanmagan. Okean suvlarining harorati 100° C atrofida bo‘lib, proterozoy eonining oxirida 22° C gacha pasaygan. Tokembriy yotqiziqlari barcha materiklarda tarqalgan bo‘lib yotqiziqlarida organik hayot izlari ko‘p. Ko‘k-yashil suvo‘tlar va bakteriyalarning hayot mahsullari mavjud.
Tokembriy yotqiziqlarida temir rudalari, aluminiy xomashyosi, marganes, oltin va uran, mis, nikel, kobalt rudalari, qo‘rg‘oshin, rux, slyuda, keramika xomashyosi va nodir metallar bor.</td></tr>
<tr><td rowspan="4">Arxey,
AR
1,5 mlrd</td><td colspan="2">Neoarxey erasi</td></tr>
<tr><td colspan="2">Mezoarxey erasi</td></tr>
<tr><td colspan="2">Paleoarxey erasi</td></tr>
<tr><td colspan="2">Eoarxey erasi</td></tr>
<tr><td rowspan="4">Xades,
X
0,5-0,6
mlrd</td><td colspan="2">Erta imbriy erasi</td></tr>
<tr><td colspan="2">Nektar erasi</td></tr>
<tr><td colspan="2">Havzalar guruhi erasi</td></tr>
<tr><td colspan="2">Sirli (yopiq) erasi</td></tr>
</table>

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE
Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Yer geologik taraqqiyotining ***tokembriy*** supereoni 4 mlrd yil davom etgan. Bu bosqich Yer tarixining sayyora shaklini olgan kundan boshlanib, proterozoy, arxey va xades eonlarini qamrab oladi va bundan 541–570 mln yil oldin tugagan. Bu bosqichda tektonik harakatlar, magmatizm hodisalari, Yerni meteoritlar "yomg'iri toshbo'ron" qilishi kuchli ro'y bergan. Atmosfera, asosan, azot, ammiak, karbonat angidridi, suv bug'lari, metan, vodorod, inert gazlar, kislotalardan tashkil topgan. Ayrim olimlarning fikricha, dastlabki atmosfera kislorodsiz bo'lgan. Yer po'sti sovigandan (suvning qaynash haroratidan pastga tushganidan) so'ng Yer yuzasining ma'lum pastqam joylarida kichik suv havzalari (ko'llar va dengizlar) paydo bo'ladi. Ular bir-biri bilan tutashib katta suv havzalarini hosil qilgan va ular okean deb atalgan. Bosqich oxirlarida tog' jinslarining nurashi va eroziya natijasida cho'kindi jinslar to'planishiga sharoit yuzaga kelgan. Olimlar litosfera, atmosfera va gidrosferalarning hosil bo'lishida vulqonlar asosiy vazifani bajargan, deb hisoblaydilar.

Fanerozoy Yer geologik taraqqiyotidagi ikkinchi yirik supereon bo'lib, davomiyligi 541 mln yil va hozirgacha davom etmoqda. U oldingi bosqichdan tirik organizmlar qoldiqlarining ko'pligi bilan yaqqol ajralib turadi. Ushbu bosqich bitta fanerozoy eoni va uchta era: paleozoy, mezozoy va kaynozoy eralarini qamrab oladi.

Astronomik bosqich, geologik bosqich, biologik bosqich, antropogen bosqich, geoxronologiya, geoxronologik shkala, tokembriy, fanerozoy.

1. Geoxronologiya nima?
2. Geoxronologik shkala qanday tuziladi?
3. Yer taraqqiyotining qanday bosqichlarini ajratish mumkin?
4. Daftaringizga geoxronologik jadvalni chizing va jadvaldagi ko'tarilgan tog'lar va o'lkalarni xaritadan toping.

6-§. GEOGRAFIK QOBIQ VA UNING UMUMIY QONUNIYATLARI

Aziz o'quvchilar, Siz quyi sinflarda geografik qobiq, uning chegaralari va xususiyatlari, umumiy qonuniyatlari haqida bilib olgansiz. Bu mavzuda o'sha bilimlaringizni yanada chuqurlashtirasiz.

Yerning ichki va tashqi (koinot) omillari va jarayonlari yer po'stining yuza qismida to'qnashib va o'zaro ta'sirlashib sayyoramizning boshqa

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

hech bir qismida uchramaydigan o‘ziga xos tabiiy tizim – geografik qobiqni vujudga keltirgan.

Geografik qobiqning *mohiyati* shundaki, faqat undagina suv uch xil holatda uchraydi, hayvonlar va o‘simliklar yashaydi, tuproq qoplami hosil bo‘ladi, turli tog‘ jinslari va relyef shakllari vujudga keladi, quyosh energiyasi to‘planadi va xususiyatlarini o‘zgartiradi. Eng asosiysi, hayot mavjud, kishilik jamiyati faqat shu qobiqda paydo bo‘lib yashamoqda va rivojlanmoqda.

Geografik qobiq juda murakkab tuzilgan bo‘lib, unda 3 *tarkibiy tuzilish darajalari ajratiladi*: *geokomponentli, geosferali, geotizimli.*

Geokomponentli eng sodda tuzilish darajasi. Geokomponentlar yer yuzidagi bir xil holatdagi (qattiq, suyuq, gazsimon) moddalardir. Bular tog‘ jinslari, tuproq, suv, havo, o‘simlik va hayvonlar.

Geosferali tuzilish bitta geokomponentdan tashkil topgan geosferalardan iborat. Geosferalar geografik qobiqning vertikal tuzilishini belgilaydi, ular solishtirma og‘irligi bo‘yicha vertikal tabaqalanib joylashgan: litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosfera. Litosfera, gidrosfera va atmosfera deyarli bir xil moddalardan tarkib topgan va uzluksiz, yaxlit qobiqni hosil qiladi. Biosfera esa tirik moddalar tarqalgan qobiq bo‘lib, yaxlit qobiq hosil qilmaydi. U boshqa qobiqlar tarkibiga kiradi va yuqorida aytilgan qobiqlarning tutashgan joyida yupqa qatlamni hosil qiladi.

Geotizimli tuzilish geografik qobiqning gorizontal tuzilishini ifodalaydi. Geotizimlar barcha komponentlarni qamrab olib, ularning o‘zaro ta’sir va aloqalaridan hosil bo‘lgan murakkab tizimlardir. Bu haqda 9-mavzuda to‘liqroq ma’lumot beriladi.

Geografik qobiqning *chegaralari* haqida quyi sinflardan bilasiz. Geografik qobiqning o‘lchamlari, pastki va yuqori chegaralari haqida turli olimlarning fikrlari turlicha. Uning chegarasini barcha geokomponentlar o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan va geografik qonuniyatlar namoyon bo‘ladigan yuzadan, sathdan o‘tkaziladi. Bu chegara Yer yuzining turli qismlarida har xil qalinlikka ega.

Geografik qobiq uni tashkil qiluvchi qobiqlardan ko‘p *xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi*, ulardan asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Geografik qobiq moddiy tarkibi va tuzilishining xilma-xilligi. Geografik qobiqda moddalar uch xil, ya’ni qattiq, suyuq va gazsimon holatda uchraydi. Ularning fizik va kimyoviy xususiyatlari turlicha va

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

o‘zgaruvchan. Moddalarning tuzilishiga ko‘ra, organik, noorganik va aralash turlari ajratiladi.

2. Geografik qobiqda energiyaning turli xillari uchraydi. Quyosh energiyasi kimyoviy jarayonlar, issiqlik va mexanik energiyaga aylanadi.

3. Geografik qobiqda issiqlikning o‘zgarishi va to‘planishi. Geografik qobiqqa issiqlik koinotdan va Yerning ichki qismidan keladi. Ushbu issiqlikning bir qismi organik moddalarda va ularning qoldiqlarida to‘planadi (ko‘mir, gaz, neft, torf va h.k.)

4. Geografik qobiqda uni tashkil etuvchi komponentlar va geosferalarning o‘zaro ta’siri va aloqalari natijasida sifat jihatidan yangi hosilalar – geotizimlar vujudga kelgan.

5. Geografik qobiqda hayotning mavjudligi. Tirik organizmlar, jumladan inson uchun faqat shu yerdagina qulay muhit mavjud.

6. Geografik qobiq o‘ziga xos qonuniyatlar asosida rivojlanadi.

Geografik qobiqning bir nechta *qonuniyatlari* mavjud bo‘lib, eng asosiylari: *bir butunlik, zonallik, azonallik, modda va energiyaning aylanma harakati, ritmiklik.* Geografik qobiqdagi zonallik va azonallik qonuniyatlari bilan 7-mavzuda tanishasiz.

Geografik qobiqning bir butunligi qonuniyati muhim qonuniyatlardan biri bo‘lib, barcha komponentlarning bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligi va ulardan birining o‘zgarishi butun qobiqning yaxlitligini buzilishiga olib kelishida namoyon bo‘ladi. Chunki, geografik qobiq – tabiat komponentlarining oddiygina yig‘indisi bo‘lmasdan, balki maxsus xususiyatlarga ega bo‘lgan va yaxlit, bir butun rivojlanuvchi sifatiy yangi hosiladir.

Geografik qobiqning bir butunligi va komponentlarning o‘zaro bog‘liqligini to‘rtlamchi davr muz bosishlari misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Muz bosish davrlarida katta hajmdagi suv muzliklarda to‘planadi. Bu esa Dunyo okeani sathining sezilarli pasayishiga (100–110 m) olib kelgan. Dunyo okeani sathining pasayishi, o‘z navbatida, Yerning butun tabiatida aks etadi: shelfning qurishi yuz beradi, materiklar va okeanlarning qirg‘oq chegaralari, qiyofasi o‘zgaradi, orollarning ayrimlari materiklar bilan tutashadi, ayrim bo‘g‘izlar (masalan, Bering, Gibraltar) quruqlikka aylanib materiklar tutashib ketadi va “kontinental ko‘priklar” vujudga keladi. Ushbu “ko‘priklar” orqali turlarning migratsiyasi ro‘y berib, o‘simliklar va hayvonlar yangi yerlarni egallaydi. Yer

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

yuzining barcha daryo havzalarida eroziya ba'zisining pasayishi natijasida chuqurlatma eroziya faollashadi. Muz bosish davrlari oralig'idagi issiq vaqtlarda materik muzliklari erib, daryo suvlarining okeanga quyilishi va okeanlardagi muzliklarning erishi natijasida Dunyo okeani suv sathi ko'tarilgan. Eroziya ba'zisining ko'tarilishi hisobiga daryolarda yonlama eroziya faollashgan. "Kontinental ko'priklar" yo'qolib, quruqlik organizmlarining migratsiyasini chegaralab, suv organizmlari migratsiyasini kuchaytirgan. Agar, "kontinental ko'priklar" so'nggi muz bosish davrlarida vujudga kelmagan bo'lsa, materik va orollarda (masalan, Avstraliya, Madagaskar) o'ziga xos o'simlik va hayvonot dunyosi shakllangan, ularda *endemiklar* ko'proq uchraydi.

Modda va energiyaning aylanma harakati. Geografik qobiqda modda va energiyaning aylanma harakati uning bir butunligini ta'minlaydi. Aylanma harakatda litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferadagi moddalar ishtirok etadi. Litosferada, asosan, *gipergenez zonasigacha*, ya'ni nuragan g'ovak jinslar tarqalgan chegaragacha bo'lgan moddalar aylanma harakatda ishtirok etadi. *Atmosferada aylanma harakat* atmosferaning umumiy sirkulyatsiyasida namoyon bo'ladi, sayyoraviy miqyosdagi shamollar (havo oqimi)ning shakllanishi sodir bo'ladi. Atmosferaning umumiy sirkulyatsiyasiga mintaqaviy va mahalliy aylanma harakatlar qo'shiladi. *Gidrosferada suvning katta va kichik aylanma harakati* sodir bo'ladi. Okeanda suv massalarining gorizontal va vertikal aylanma harakati, quruqlikda suvning daryo o'zanlari bo'ylab oqishi, ko'llarning, muzliklarning va yerosti suvlarining hosil bo'lishi va boshqalar kuzatiladi. Katta ahamiyatga ega *biologik aylanma harakat* – organik moddalarning hosil bo'lishi va parchalanishida namoyon bo'ladi.

Aylanma harakatlar murakkabligi bo'yicha turlichadir. Ayrim aylanma harakatlarda moddaning *mexanik aralashmasi* (masalan, atmosferaning umumiy sirkulyatsiyasi, okean oqimlari) yuz bersa, boshqalarida modda holatining o'zgarishi (masalan, suvning aylanma harakatida gaz, suyuq, qattiq holatga o'tishi) kuzatiladi, uchinchi xilida esa kimyoviy aylanish (fotosintez reaksiyasi) kuzatiladi.

Bir butunlik hamda modda va energiyaning aylanma harakati qonuniyatlarini o'rganish tabiatdan, uning boyliklaridan to'g'ri foydalanishda juda muhim.

Ritmiklik deb, bir yo'nalishda rivojlanuvchi tabiiy hodisa va jarayonlarning muayyan vaqt davomida takrorlanib turishiga aytiladi. Rit-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

miklikning ikki xil shakli ajratiladi: *davriylik* – bir xil davom etadigan ritmiklik bo‘lib, hodisa va jarayonlarning aniq bir vaqt davomida takrorlanib turishi; *sikllik* – vaqti-vaqti bilan davom etadigan ritmiklik bo‘lib, hodisa va jarayonlarning turli muddatda takrorlanishi.

Ritmik hodisalar turlicha davomiylikda bo‘ladi: *ko‘p asrlik, asr ichidagi, yillik, sutkalik*. Yer tarixidagi eng katta ritmiklik (sikllik) Quyosh sistemasining galaktika markazi atrofida aylanishi bilan bog‘liq va 180–220 mln yilni o‘z ichiga oladi. Yer tarixida ular tektonik davrlarda namoyon bo‘lgan: kaledon (kembriy, ordovik, silur), gersin (devon, toshko‘mir, perm), mezozoy (trias, yura, bo‘r), kaynozoy. Bu davrda tektonik harakatlar, vulqon otilishlari faollashadi, materiklarning qiyofasi, iqlim, oxir oqibatda Yer tabiati o‘zgarishini keltirib chiqaradi.

Ko‘p asrlik ritmik hodisalardan 1800–2000 yil davom etadigan ritmiklik yaxshi o‘rganilgan. Bu hodisa Yerda qalqish hodisasini hosil qiluvchi kuchlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq. Taxminan, 1800-yilda bir marta Quyosh, Oy va Yer bitta tekislik va bitta to‘g‘ri chiziqda joylashadi, Quyosh bilan Yer orasidagi masofa eng kichik bo‘ladi. Bu hodisada 3 faza – transgressiv, regressiv, oraliq fazalari ajratiladi.

Asr ichidagi ritmik hodisalardan Quyosh faolligi bilan bog‘liq bo‘lgan 11, 22 va 33 yillik sikliklar yaxshi o‘rganilgan. Olimlarning fikricha, ushbu sikliklar bilan Yerdagi ko‘p jarayonlar bog‘liq: epidemiyalarning tarqalishi, vulqon faolligining kuchayishi, siklonlar hosil bo‘lishining ortishi, qurg‘oqchiliklar yoki zararkunanda hasharotlarning (masalan, chigirtkalar) ko‘payishi va h.k.

Yillik (fasliy) ritmiklik Yerning Quyosh atrofidagi harakati va aylanish o‘qining 66,5° qiyaligi bilan bog‘liq. Yil fasllarining almashinishi bilan bog‘liq fasliy ritmiklik barcha geosferalarda kuzatiladi: atmosferada namlik, harorat, atmosfera yog‘inlarining yillik o‘zgarishi, mussonlar (mavsumiy shamollar)ning esishi va h.k. Litosferada yil davomida nurash va boshqa ekzogen jarayonlarning faolligi o‘zgaradi. Gidrosferada suvning harorati, sho‘rligi, zichligining yillik o‘zgarishi, baliqlarning mavsumiy migratsiyasi kabilar kuzatiladi. Fasliy ritmiklik tirik organizmlarda birmuncha aniq namoyon bo‘ladi.

Turli kengliklarda har xil miqdordagi fasllar ajratiladi. Ekvatorial kengliklarda yil bo‘yi issiq va nam, faqat bitta fasl hukmron. Subekvatorial kengliklarda 2 ta fasl ajratiladi – quruq va nam. Mo‘tadil kengliklarda yilning to‘rt fasli aniq ifodalangan – bahor, yoz, kuz va qish.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Fasliy ritmiklikning sababi turli kengliklarda turlicha: quyi kengliklarda namlik bilan, mo‘tadil kenglikda quyosh radiatsiyasi faolligining o‘zgarishi bilan, qutbiy kengliklarda esa yorug‘lik bilan bog‘liq.

Sutkalik ritmiklik Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi natijasida vujudga keladigan tun va kunning almashinishi bilan bog‘liq. Sutkalik ritmiklik barcha meteoelementlarning sutka davomida o‘zgarishida namoyon bo‘ladi; fotosintez faqat kunduzi, yorug‘da sodir bo‘ladi. Inson ham “quyosh soati” bo‘yicha yashaydi: organizmning faolligi soat 2 dan 5 gacha va 12 dan 14 gacha pasayadi; bu paytda yurak urishi chastotasi sekinlashadi, xotira bo‘shashadi, tana harorati pasayadi.

Ritmiklik geografik qobiq rivojlanishining muhim qonuniyatlaridan biri bo‘lib, ularni o‘rganish tabiiy hodisa va jarayonlarni prognoz qilishda muhim ahamiyatga ega.

Geografik qobiq, geografik qobiqning tarkibiy tuzilish darajalari, geografik qobiqning xususiyatlari, bir butunlik, ritmiklik, modda va energiya almashinishi.

1. Geografik qobiq qanday tuzilgan?
2. Geografik qobiqning o‘ziga xos xususiyatlarini aytib bering.
3. Geografik qobiqning bir butunligi deganda nimani tushunasiz?
4. Sutkalik ritmik hodisalarni kuzating va daftaringizga yozing.

7-§. GEOGRAFIK QOBIQNING KENGLIK ZONALLIGI VA SEKTORLIGI

Aziz o‘quvchilar, quyi sinflarda geografik qobiqning umumiy qonuniyatlari haqida olgan bilimlaringizni eslang. Ushbu mavzuda bilimlaringizni yanada boyitib olasiz.

Geografik qobiqda zonallik qonuniyati geografiyadagi ilk qonuniyatlardan biridir. Iqlim mintaqalari va zonallikning mavjudligini qadimgi yunon va rim olimlari aniqlashgan. Ular Yer yuzasini bir qancha iqlim mintaqalariga ajratganlar. Zonallik qonuniyatining rivojlanishida A. Gumboldtning (XVIII asr) xizmatlari katta. U iqlim va botanik-geografik zonallikni aniqladi. Keyinchalik bu ishlar V. V. Dokuchayev tomonidan rivojlantirilib, geografik zonallik qonuniyati kashf qilindi va asoslab berildi. Hozirgi paytda, geografik zonallik haqidagi bilimlar V. V. Dokuchayev ta’limotiga asoslanadi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Geografik qobiqda *zonallik qonuniyati* Yerning sharsimonligi va unga bog‘liq holda quyosh radiatsiyasining Yer yuzida notekis taqsimlanishi, dengizbo‘yi hududlarida iliq va sovuq oqimlar, okeandan materik ichkarisiga kirgan sari namlik va haroratning o‘zgarib borishi oqibatida yuzaga keladi. Natijada Yer yuzida harorat, bug‘lanish, yog‘inlar, nurash jarayonlari, tuproqlar, o‘simliklar, hayvonlar va boshqalar zonalar hosil qilib tarqalgan. Geografik zonallik faqatgina Yer (suv) yuzasida, ya’ni atmosfera, litosfera, gidrosfera tutashgan joyda yaqqol namoyon bo‘ladi, atmosferada yuqoriga ko‘tarilgan, litosfera va gidrosferada esa chuqurlikka tushgan sari zonallik yo‘qoladi. Geografik zonallik ekvatordan qutblarga tomon hamda okeanlardan quruqliklar ichkarisiga tomon geotizimlarning almashishida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun *kenglik zonalligi* va *sektorlik* tushunchalari ajratiladi.

Kenglik zonalligi – quyosh nurlari tushish burchagining o‘zgarishi hisobiga tabiat komponentlari va geotizimlarning ekvatordan qutblarga tomon qonuniy o‘zgarib borishi.

Geografik qobiqning eng yirik zonal birliklari iqlim (geografik) mintaqalardir. Ularning ichida issiqlik va namlik nisbatiga bog‘liq holda tabiat (geografik) zonalari ajratiladi. *Tabiat zonalari* – geografik qobiqning iqlim mintaqalari doirasida, asosan, issiqlik bilan namlik miqdori va nisbatiga qarab muayyan tartibda qonuniy almashinib boradigan geotizimlar. Har bir tabiat zonasida o‘ziga xos tuproqlar, o‘simliklar va hayvonlar tarqalgan bo‘ladi. Shuningdek, Yerning tashqi kuchlari bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy jarayonlar – nurash, eroziya, deflyasiya, ekzaratsiya va h.k.lar ham tabiat zonalari bo‘yicha farq qiladi.

Zonallik aholi joylashishi va xo‘jalik faoliyatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Agar dunyoning tabiat zonalari xaritasi bilan dunyo aholisining zichligi xaritalarini taqqoslasangiz, tabiiy sharoiti qulay bo‘lgan aralash va keng bargli o‘rmonlar, musson o‘rmonlar va qattiq bargli doimiy yashil o‘rmonlar (o‘rtadengiz) tabiat zonalarida aholi zich joylashganini ko‘rasiz. Dunyo sivilizatsiyasiga katta hissa qo‘shgan qadimgi Hindiston, Xitoy, Yunoniston, Rim davlatlari ham aynan shu tabiat zonalarida joylashgan.

Har bir tabiat zonasida o‘ziga xos iqlim, tuproq, o‘simlik va hayvonot olami, hattoki tabiiy geografik jarayonlar shakllangan bo‘lib, inson xo‘jalik faoliyatiga, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi va qurilishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Issiq o‘lkalarda paxta, uzum, issiq va nam o‘lkalarda kofe, sitrus

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

mevalar, choy, sholi, salqin o‘lkalarda bug‘doy, arpa, sovuq o‘lkalarda esa, faqatgina issiqxonalarda sabzavot va ko‘katlar, gullar yetishtiriladi. Bino va inshootlar, ayniqsa, turarjoy binolarining arxitekturasi, ishlatiladigan qurilish materiali turli tabiat zonalarida bir-biridan farq qiladi.

Sektorlik – quruqlik ichkarisiga tomon okeanlardan uzoqlashgan sari iqlim xususiyatlarining o‘zgarishi hisobiga tabiat komponentlari va geotizimlarning o‘zgarib borishi.

Sektorlik quruqliklarda iqlim mintaqalarining ichida iqlim tiplarining ajratilishida aniq namoyon bo‘ladi. Masalan, mo‘tadil iqlim mintaqasida quruqlikda dengiz, mo‘tadil kontinental, keskin kontinental va musson iqlim o‘lkalari shakllangan. Bu esa tuproq-o‘simlik qoplami va, umuman, tabiat zonalarida ham aks etgan. Iqlim o‘lkalariga bog‘liq holda aralash va keng bargli o‘rmonlar, o‘rmon-dasht va dashtlar, chalacho‘llar va cho‘llar, musson o‘rmonlari tabiat zonalari shakllangan. Iqlim o‘lkalarining xususiyatiga monand aralash va keng bargli o‘rmonlar hamda musson o‘rmonlari meridional yo‘nalishda, o‘rmon-dasht va dashtlar hamda chalacho‘llar va cho‘llar esa kenglik bo‘ylab cho‘zilgan.

Azonallik qonuniyati zonallik qonuniyatidan farq qilib, Yerning ichki jarayonlari va mahalliy omillar tufayli tabiat komponentlari va geotizimlarning o‘zgarishi. Azonallikning *omillari* – Yer yuzini qoplagan tog‘ jinslaridagi va relyef tuzilishidagi tafovutlar, grunt suvlari sathining relyef va tog‘ jinslarining suv o‘tkazuvchanlik xususiyatiga qarab o‘zgarishi, insonning xo‘jalik faoliyati va h.k. Bu omillar kenglik zonallik qonuniyatiga bo‘ysinmaydi. Ayniqsa, geologik-geomorfologik omillar Yerning ichki kuchlari bilan bog‘liq bo‘lgani uchun boshqalariga nisbatan keng qamrovlidir. Geologik omillar ichida neotektonik (hozirgi zamon tektonik) harakatlar, ularning Yer yuzining turli joylarida har xil kuch va jadallikda ro‘y berayotgani eng muhim omillardir. Shuningdek, tog‘ jinslaring kimyoviy va fizik xususiyatlari ham faol ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, tarkibida tuzlar keng tarqalgan tog‘ jinslari tarqalgan joylarda sho‘rxoklar, suvda tez eriydigan tog‘ jinslari tarqalgan joylarda esa karstlar avj olib, tuproq-o‘simlik qoplamining va, oxir-oqibatda, landshaftlarning zonal xususiyatlarini o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Yer yuzasining nishabligi kichik bo‘lgan joylarda, odatda, grunt suvlarining sathi yuza joylashgan bo‘ladi. Bunday sharoitda atmosfera yog‘inlari va atrofdan kelgan oqar suvlar hisobiga ortiqcha namlik to‘planib, botqoqliklar vujudga keladi. Masalan, G‘arbiy Sibir, Kongo

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

botig‘i, La-Plata, Orinoko pasttekisliklarida botqoqliklar keng tarqalgan. *Botqoqlik* – ortiqcha namlik sharoitida doimo yoki uzoq vaqt zax bo‘lib yotadigan, namsevar o‘simliklar va torf qatlami (30 sm va undan ortiq) mavjud bo‘lgan yerlar. Botqoqlarda o‘simlik ildizlari torf ostidagi tuproq-gruntga yetib bormaydi. Agar torf qatlami bo‘lmasa yoki yupqa (30 sm dan kam) bo‘lsa, *botqoqlashgan* yerlar deyiladi. Botqoqlar tundra, o‘rmon tundra, tayga va nam ekvatorial o‘rmonlar kabi tabiat zonalarida keng tarqalgan.

Cho‘l tabiat zonasida joylashgan O‘zbekistonda ham azonal omillar tufayli zonallik qonuniyati “buzilib”, o‘ziga xos landshaftlar shakllangan. Qizilqum va Ustyurtning botiq relyef shakllarida sho‘rxoklar vujudga kelgan. Sho‘rxoklarning, ayniqsa, Ustyurtda keng tarqalishiga sabab relyefning botiqligidan tashqari bu yerda tez eruvchan ohaktosh, gips, mergel kabi jinslarning keng tarqalganligidir. Daryolarning qayirlarida esa relyefning tekisligi, grunt suvlarining yer betiga yaqinligi va mikroiqlimning atrofdagi cho‘ldan namroq va salqinroq bo‘lganidan to‘qaylar shakllangan. *To‘qay* – daryo bo‘ylaridagi daraxt – buta – o‘t o‘simliklaridan iborat qalin changalzor o‘rmon.

Insonning xo‘jalik faoliyati ham tabiat zonalari ichida ularga xos bo‘lmagan, ya’ni “azonal” landshaftlarni vujudga keltirmoqda. Masalan, O‘zbekistonda cho‘llarga suv chiqarilib, o‘zlashtirilishi oqibatida katta-katta maydonlar vohalarga aylantirilgan. *Voha* – cho‘l va chalacho‘llarda suv chiqarilib obod qilingan yer. Agar O‘zbekistonning aholi xaritasiga qarasangiz, aholisi eng zich hududlar, yirik va katta shaharlarning barchasi vohalarda ekanini ko‘rasiz.

Yer yuzi tabiiy sharoitining xilma-xilligi va rivojlanishi zonal va azonal omillarning yig‘indisi va o‘zaro ta’siri natijasidir. Geografik qobiqda faqat zonal xususiyatlar yoki faqat azonal xususiyatlar uchraydigan bironta joy yo‘q. Zonal hamda azonal xususiyatlar hamma vaqt va har doim birga uchrab, o‘zaro ta’sirda bo‘ladi.

Zonallik qonuniyati, kenglik zonalligi, sektorlik, tabiat zonalari, azonallik, azonal omillar, botqoqlik, to‘qay, voha.

1. Geografik qobiqda zonallik qonuniyati nima sababdan yuzaga keladi?
2. Kenglik zonalligi va sektorlik nima?
3. Azonal omillarga nimalar kiradi?
4. O‘zingiz yashab turgan joydagi azonal tabiat komplekslari haqida aytib bering.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

8-§. BALANDLIK MINTAQALANISHI QONUNIYATI

Sizga ma’lumki, o‘lkamizdagi baland tog‘larning tepalaridagi qorlar jazirama yoz oylarida ham erimaydi. O‘quvchilar dam olish uchun tog‘ yonbag‘irlaridagi so‘lim oromgohlarga boradilar. Xo‘sh, bularga sabab nima? Buning sababi tekislikdan tog‘larga tomon balandlik ortib borgani sari tabiiy sharoitning o‘zgarib borishidir. Ya’ni tog‘ yonbag‘irlarida yuqoriga ko‘tarilgan sayin havo haroratining pasayib borishi, namlikning ortib borishi, shunga bog‘liq holda o‘simliklarning turli-tuman bo‘lishi, tabiiy sharoitning so‘lim va xushmanzara, musaffo bo‘lib borishidir. Tabiiy sharoitning bunday o‘zgarib borishiga balandlik mintaqalanishi qonuniyati sabab bo‘ladi.

Balandlik mintaqalanishi – tog‘larning etagidan suvayirg‘ich tomon tabiatning qonuniy o‘zgarib borishi. Balandlik mintaqalari tekisliklardagi tabiat zonalariga o‘xshash, lekin aynan o‘zi emas. Ularning shakllanishiga yuqoriga ko‘tarilgan sari havo harorati va bosimining pasayishi, quyosh radiatsiyasining kuchayishi, suv bug‘lari kondensatsiyasi sharoitining o‘zgarishi sabab bo‘ladi. Yog‘inlar ma’lum balandlikkacha ko‘payib, so‘ng kamayadi. Shunga bog‘liq holda tuproqlar, o‘simlik va hayvonot olami, umuman, geotizimlar o‘zgarib boradi.

Balandlikka ko‘tarilgan sari o‘simliklarning, tabiiy sharoitning o‘zgarib borishi haqidagi ma’lumotlar Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida Movarounnahr, Afg‘oniston tog‘larining ta’rifida keltiriladi. Lekin balandlik mintaqalanishi qonuniyatini ilk bor A. Gumboldt Alp va And tog‘larida o‘rganib, ilmiy asoslab bergan.

Tekislikdagi tabiat zonalari ekvatordan qutblarga tomon birin-ketin almashinib borgani kabi balandlik mintaqalari ham tog‘larning etagidan suvayirg‘ich tomon almashinib boradi. Biroq tog‘larda balandlik mintaqalari ularga nisbatan tezroq aemashinadi, ayrim balandlik mintaqalarining o‘xshashi bo‘lgan tabiat zonalari tekisliklarda mavjud emas. Masalan, tog‘larda subalp va alp o‘tloqlari mintaqasi mavjud, tekisliklarda esa bunday tabiat zonasi yo‘q.

Balandlik mintaqalarining soni va tuzilishi tog‘larning balandligiga, qaysi iqlim mintaqasida (shuningdek, iqlim o‘lkasida) joylashganiga, yo‘nalishiga, havo massalariga nisbatan joylashishiga bog‘liq. Tog‘lar qanchalik baland bo‘lsa va quyi kengliklarda (ekvatorga yaqin) joylashgan bo‘lsa shunchalik ko‘p balandlik mintaqalari yuzaga keladi. Iqlim

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

o‘lkalari ham balandlik mintaqalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Kontinental iqlim o‘lkasida joylashgan tog‘larda tog‘ cho‘l va chalacho‘l mintaqalari katta maydonni egallaydi. Qor chizig‘i dengiz iqlim mintaqasida joylashgan tog‘larga nisbatan 700–1000 m balandroqdan o‘tadi. Dengiz iqlim o‘lkasida joylashgan tog‘larda esa tog‘–o‘rmon mintaqasi keng tarqalgan, qor chizig‘i ancha pastdan o‘tadi.

Balandlik mintaqalanishi tog‘larning relyef xususiyatlariga ham bog‘liq. Ayniqsa, yonbag‘irlar *ekspozitsiyasi* muhim ahamiyatga ega. janubiy va shimoliy, havo massalariga ro‘para va teskari yonbag‘irlarda, balandlik mintaqalari turlicha bo‘ladi. Masalan, O‘zbekistondagi tog‘larda janubiy yonbag‘irda adir (tog‘ quruq dasht) mintaqasi bo‘lsa, ayni shu balandlikdagi shimoliy yonbag‘irda esa tog‘ (tog‘–o‘rmon–dasht) balandlik mintaqasi shakllanganini ko‘rish mumkin.

Yonbag‘ir ekspozitsiyasi – tog‘ va tepalik yonbag‘irlarining ufq tomonlariga, quyosh nurlari tushadigan tomonga nisbatan joylashuvi. Masalan, yonbag‘ir janubga qaragan bo‘lsa janubiy ekspozitsiya bo‘ladi.

Balandlik mintaqalanishi kenglik zonalligi (tabiat zonalari) bilan chambarchas bog‘liq. Balandlik mintaqasi tog‘ning etagi qaysi tabiat zonasida joylashgan bo‘lsa o‘sha tabiat zonasidan boshlanadi. Masalan, O‘zbekiston mo‘tadil mintaqa cho‘l tabiat zonasida joylashgani uchun tog‘larning aksariyatida birinchi balandlik mintaqasi cho‘l hisoblanadi. So‘ngra adir (tog‘ cho‘l-dasht va quruq dasht), tog‘ (tog‘-o‘rmon), yaylov (tog‘-dasht va tog‘ o‘tloq dasht) va nihoyat glyatsial-nival (muzqor, sovuq) balandlik mintaqalari almashinib keladi.

O‘zbekiston tog‘larida o‘simliklarning balandlik mintaqalanishini K. Z. Zokirov o‘rganib, to‘rtta balandlik mintaqasini ajratgan va mahalliy atamalardan foydalanib quyidagicha nomlaydi: *cho‘l, adir, tog‘, yaylov. Cho‘l* balandlik mintaqasi Respublikamizning mutlaq balandligi 400-500 m gacha bo‘lgan hududlarini o‘z ichiga oladi. *Adir* balandlik mintaqasi dengiz sathidan 400–500 m dan 1000–1200 m gacha, respublika janubida janubiy ekspozitsiyada 1600 m gacha bo‘lgan tog‘ oldi hududlarini o‘z ichiga oladi. *Tog‘* balandlik mintaqasi tog‘larning 1000–1200 m, ayrim joylarda 1600 m dan 2700–2800 m gacha bo‘lgan balandliklarini, *yaylov* balandlik mintaqasi esa 2700–2800 m dan boshlanib, doimiy qor va muzlargacha, ya’ni qor chizig‘igacha davom etadi. K. Z. Zokirov doimiy qor va muzliklarni alohida mintaqa sifatida ajratmaydi. Sababi, u yerlarda o‘simliklar o‘smaydi. O‘simliklar tarqalishi qor chizig‘i bilan

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

chegaralanadi. Shuning uchun qor chizig‘idan baland yerlarni glyatsial-nival zonasiga birlashtiradi. Bu mintaqa Piskom daryo havzasida 3600 m, Qashqadaryo havzasida 3820 m, To‘polongdaryo havzasida 3860 m, Sangardak havzasida 3850 m balandlikdan boshlanadi.

Qor chizig‘i – tog‘lardagi shunday chegaraki, undan balandda qor yil bo‘yi erimay turadi. Qor chizig‘ining balandligi joyning geografik o‘rniga, iqlimi, yog‘in miqdori, yonbag‘ir ekspozitsiyasiga bog‘liq. Qanchalik havo harorati past va yog‘inlar ko‘p bo‘lsa, shunchalik qor chizig‘i pastda joylashadi. Qutbiy kengliklarda u dengiz sathidan o‘tadi. Qutbiy kengliklardan tropiklargacha qor chizig‘ining balandligi ko‘tarilib boradi. Frans-Iosif Yerida 50–100 m, Shpitsbergen arxipelagida 400–450 m, Kavkazda 2700–3800 m balandlikdan o‘tadi. Uning eng baland joylashishi tropiklarga to‘g‘ri kelib 5800–6000 m balandlikdan o‘tadi. Tropiklarda bunday balandlikdan o‘tishiga sabab haroratning yuqoriligi va yog‘inlarning juda kamligidir. Ekvatorda esa qor chizig‘ining balandligi 4500 m gacha pasayadi. Bunga sabab yog‘inlarning ko‘pligi, haroratning biroz pastligidir.

Qor chizig‘ining balandligi faqatgina qutblardan ekvatorga tomon emas, dengiz va okeanlardan materik ichkarisiga tomon, ya’ni uzoqlik bo‘yicha ham ko‘tarilib boradi. Mo‘tadil mintaqada qor chizig‘ining chegarasi g‘arbiy okeanbo‘yidagi dengiz iqlim o‘lkasidan materik ichkarisidagi keskin kontinetal iqlim o‘lkasiga tomon ko‘tarilib boradi. Masalan, Alpda qor chizig‘i 1000–1300 m, G‘arbiy Kavkazda 2700 m, Tyanshanning Xontangri qismida 4200 m balandlikda joylashgan. Bunga sabab, dengiz iqlim o‘lkasida yog‘inlar ko‘p, yoz salqin. Keskin kontinental iqlim o‘lkasida esa, aksincha, yog‘inlar kam, yoz esa issiq va quyoshli, uzoq davom etadi.

Balandlik mintaqalanishi, yonbag‘ir ekspozitsiyasi, qor chizig‘i, cho‘l, adir, tog‘, yaylov, qor va muzliklar.

1. Balandlik mintaqalanishiga nima sabab bo‘ladi?
2. Qor chizig‘i nima?
3. Balandlik mintaqalari soni nimalarga bog‘liq?
4. Quyi sinflarda va biologiya fanidan olgan bilimlaringizdan foydalanib O‘zbekistondagi balandlik mintaqalari tabiiy sharoitining o‘ziga xos xususiyatlarini daftaringizga jadval shaklida yozing.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

9-§. GEOTIZIMLAR VA ULARNING POG‘ONASIMONLIGI

Quyi sinflarda Siz tabiat kompleksi, tabiiy hududiy kompleks, geografik kompleks degan tushunchalar bilan tanishdingiz, ularning barchasi tabiiy geografik kompleks atamasining sinonimi ekanligini bilib oldingiz. Ushbu tushunchalar ancha umumiy va soddaroq bo‘lib, Sizning yoshingiz va fikrlash doirangizni inobatga olib yozilgan. Endi esa, ularga nisbatan murakkabroq bo‘lgan geotizim tushunchasi bilan tanishasiz.

Har bir fan rivojlanib, takomillashib borgani sari uning tadqiqot obyekti, predmeti va vazifalari haqidagi tushunchalar ham aniqlashib, muayyanlashib boradi. O‘tgan asrning o‘rtalariga kelib, barcha fanlarda bo‘lgani kabi geografiya faniga ham tizimlar haqidagi ta’limot kirib keldi. Natijada geografik tadqiqotlarda tekshirish obyektini, o‘sha vaqtlarda bo‘lganidek, kompleks deb emas, tizim deb qarash yuzaga keldi. Shu munosabat bilan 1963-yilda akademik V. B. Sochava tomonidan ***geotizim*** tushunchasi fanga kiritildi va ta’limoti yaratildi. Bu tushuncha geografiyaning obyektini aniqroq va mukammalroq ta’riflashi barcha tomonidan e’tirof etildi. Hozirgi paytda geografik tadqiqotlarda tizimlar haqidagi ta’limotga amal qilinadi va o‘rganish obyekti tizim deb qaraladi.

Akademik V. B. Sochava quyidagicha ta’rif beradi: ***Geotizim*** – boshqariluvchan tizimlarning alohida, o‘ziga xos sinfi; Yer yuzasidagi komponentlari bir-biri bilan tizimli aloqada bo‘lgan hamda ma’lum yaxlitlik sifatida fazo qobig‘i va kishilik jamiyati bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan barcha o‘lchamdagi makon. Yaxlit bo‘lish bilan birga, kichik tizimlarga bo‘linadigan bu tizimlar sayyoraning yuzasini to‘liq qamrab oladi, shu bilan bir qatorda uning bir bo‘lagi sifatida uncha katta bo‘lmagan makonda mustaqil mavjud bo‘ladi va maxsus faoliyatni bajaradi.

Mazkur ta’rifga ko‘ra, geotizimni o‘zaro bog‘liq komponentlarning to‘g‘ri va teskari aloqalar orqali birlashgan hamda bir-biri bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan tabiat va jamiyat kichik tizimlaridan iborat, moddiy-energetik bir butun yaxlit holdagi hududiy tizim deb qarasak bo‘ladi. Geotizim insonning haqiqiy yashash muhiti, xo‘jalik faoliyati bevosita yoki bilvosita ta’sir etadigan tabiiy, tabiiy-antropogen (o‘zgartirilgan tabiiy) yoki antropogenlashgan (inson tomonidan kuchli o‘zgartirilgan) hududiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Geotizimni tashkil qiluvchi va uni rivojlantiruvchi komponentlarning o‘zaro ta’sir va aloqadorliklari

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ular orasida muttasil ro‘y berib turadigan modda va energiya almashinishining natijasi bo‘lib, bu almashinish moddaning aylanishi va energiya oqimi shaklida bo‘ladi. Geotizimdagi modda va energiyaning harakati uning tarkibiy qismlarini – kichikroq geotizimlarni va tabiat komponentlarini hamda antropogen obyektlarini bog‘lab turadi hamda bir butunligini ta’minlaydi.

Geotizimlarning *modda va energiya almashinuvi xususiyatiga* ko‘ra ikki turi ajratiladi:

a) modda va energiya almashinuvi chegarasidan tashqariga chiqmaydigan yopiq geotizimlar. Masalan, geografik qobiq;

b) modda va energiya almashinuvi chegarasidan tashqariga chiqadigan ochiq geotizimlar. Masalan, landshaftlar.

Geotizimlarning *ko‘lamiga*, ya’ni katta-kichikligiga qarab V. B. Sochava *sayyoraviy, regional, topologik* darajalarini ajratadi. Mazkur sayyoraviy, regional va topologik (mahalliy) ko‘lamdagi geotizimlarning har biri o‘ziga xos hajmi, yoshi bilan tavsiflanib, o‘ziga xos modda va energiya almashinishi shakliga egadir. Ushbu uch ko‘lamdagi geotizimlar yoshi jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, sayyoraviy va regional ko‘lamdagi geotizimlarning yoshi geologik davrlar o‘lchami bilan o‘lchansa, topologik ko‘lamdagi geotizimlarning yoshi esa bir necha o‘nlab, yuzlab ming yillar bilan o‘lchanishi mumkin.

Sayyoraviy ko‘lamdagi geotizimlarga geografik qobiq kiradi. U eng katta va eng murakkab geotizim bo‘lishi bilan bir vaqtda juda ko‘p va turli taksonomik qiymatga ega bo‘lgan geotizimlarga tabaqalangandir. Regional darajadagi geotizimlar quyidagilar: materiklar, o‘lkalar, zonalar, provinsiyalar, okruglar, rayonlar. Bu yerda biz faqat quruqlikning geotizimlarga bo‘linishini ko‘rsatdik. Suvlik esa boshqacha bo‘linadi. Topologik (kichik) ko‘lamdagi geotizimlar – landshaft, joy, urochishe, fatsiya.

Geotizimlar (fatsiyadan boshqalari) o‘z ichki tuzilishi jihatidan bir vaqtning o‘zida ham bir butundir, ham xilma-xildir, ya’ni o‘zidan kichik bo‘lgan geotizimlardan tashkil topgan. Bu geotizimlar o‘zining katta-kichikligiga bog‘liq holda pog‘onasimon taksonomik qiymatga egadir. Masalan, geografik qobiq o‘zidan kichikroq bo‘lgan geotizimlar – quruqlik va okeanlarga, quruqlik esa, o‘z navbatida, materiklarga, materiklar esa o‘zidan kichikroq bo‘lgan geotizimlar – tabiiy geografik o‘lkalardan tashkil topgan va h.k.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Geotizimlarni katta-kichikligi bo‘yicha, ya’ni pog‘onasimon qo‘yib chiqilsa, quyidagicha bo‘ladi: geografik qobiq–quruqlik–materiklar –tabiiy geografik o‘lkalar–tabiiy geografik zonalar–tabiiy geografik provinsiyalar– tabiiy geografik okruglar – tabiiy geografik rayonlar – landshaftlar – joylar – urochishelar – fatsiyalar. Lekin geotizimlar, odatda, yuqorida aks ettirganimizdek, birin-ketin emas, balki kichik geotizimlar birgalikda kattalarini, ular esa, o‘z navbatida, undan kattaroqlarini hosil qilib, ya’ni “kattasining ichida kichiklari” joylashgandir.

Geografik tadqiqotlarda yuqorida keltirilgan geotizimlardan, asosan, landshaft va uning qismlari bo‘lgan joy, urochishe va fatsiya o‘rganiladi.

Landshaft nemischa so‘z bo‘lib, (*land*-yer va *schaft* – o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikni aks ettiruvchi suffiks), umumadabiy tilda manzara, joyning ko‘rinishi ma’nolarini anglatadi. Geografiyada esa ilmiy termin bo‘lib, geotizimlarning bir taksonomik pog‘onasini nomlash va tavsiflash uchun ishlatiladi. Landshaft – bir xil geologik tuzilishi, bitta relyef turi, bir xil iqlimi hamda faqat shu landshaftga xos bo‘lgan, o‘zaro bog‘liq kichik geotizimlar yig‘indisidan iborat genetik jihatdan bir butun geotizimdir. Landshaft bir jihatdan qaraganda zona, provinsiya, okrug, rayon kabi regional geotizimlarni tashkil qiluvchi eng oddiy geotizim, geografik qobiqning eng oddiy va eng kichik birligidir. Ikkinchi jihatdan, o‘zidan kichik bo‘lgan urochishe, fatsiya kabi qismlar va oddiy geotizimlar bog‘lamidan hosil bo‘lgan murakkab ko‘p yarusli va dinamik geotizimdir. Landshaft yon-atrofdagi landshaftlar bilan modda va energiya almashinishi orqali doim o‘zaro ta’sirda bo‘lib turadigan ochiq geotizimdir.

Landshaftlar joylardan, joylar urochishelardan, urochishelar esa fatsiyalar tizimidan iborat.

3-rasm. *a)* Qizilqumdagi cho‘l landshaftlari. *b)* Chotqol tizmasidagi tog‘ landshaftlari

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Joy – o‘zaro bog‘liq va o‘xshash urochishelarning mujassamligidan iborat geotizim. Landshaftlarning joylarga tabaqalanishida relyef asosiy ahamiyatga ega. Joy relyefning mezoshakllariga to‘g‘ri keladi. Daryolarning quyi terrasalari, qayir joylarni tashkil qiladi. Ushbu joylar guruhi uchun grunt suvlarining yer betiga yaqin joylashishi, tuproq hosil bo‘lishida ularning faol qatnashishi, asosan, gidromorf, ya’ni allyuvial tuproqlar rivojlanishi, namsevar o‘simliklarning tarqalishiga sabab bo‘ladi. Daryo terrasalarining yuqori va quyi qismlari O‘zbekistonda deyarli to‘liq o‘zlashtirilgan va ularda sug‘oriladigan dehqonchilik bilan shug‘ullaniladi. Shuning uchun bu joylar qadimdan dehqonchilik yerlari hisoblanadi.

Urochishe relyefning mezoshaklida joylashgan bo‘lib, kelib chiqishi va rivojlanishi jihatdan uzviy bog‘liq bo‘lgan fatsiyalardan iborat geotizimdir. Joylarning alohida urochishelarga bo‘linishida uning litogen asosi – relyef hamda tog‘ jinslarining litologik tuzilishi asosiy ahamiyatga egadir. Tekisliklarda urochishe ko‘proq jarliklarga, murakkab tuzilgan qayirga, quyi terrasalarga, yuqori terrasalardagi botiqlarga, deltalardagi qurigan kichikroq ko‘llarning botiqlariga, tog‘larda esa soylarga, adiroldi qirlarga, past va o‘rtacha balandlikdagi tog‘larning turli qismlari va boshqalarga mos keladi.

Fatsiya – (lotincha *facies* – tashqi qiyofa ma’nosini anglatadi) tog‘ jinslarning litologik tarkibi bir xil, relyef tuzilishi, namlanishi bir xil, mikroiqlimi, tuproqlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi bir xil, ya’ni uni hosil qiluvchi komponentlariga xos bo‘lgan belgilari bir xilligi bilan tavsiflanadigan eng oddiy tuzilgan va eng kichik geotizimdir. Fatsiyalar relyefning mikroshakllariga to‘g‘ri keladi. Masalan, jarlarning ichi, pastqamliklarning tubi fatsiyalari. Fatsiyalar geotizimlar ichida eng ochig‘i hisoblanadi va faqat qo‘shni fatsiyalar bilan o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi sharoitidagina shakllanadi, rivojlanadi. Ular o‘zidan katta bo‘lgan boshqa geotizimlarga nisbatan tashqi kuchlar ta’siriga beriluvchan va tez o‘zgaruvchan bo‘ladi. Buning sababi shundaki, fatsiya doirasida uning komponentlari orasidagi aloqadorlik va bog‘liqlik boshqa geotizimlardagidan ko‘ra mo‘rtroq, tez shikastlanuvchan, tashqi omillar ta’siriga chidamsizroq ekanligidadir. Shuning uchun ham, insonning xo‘jalikdagi faoliyatini geotizimlarga ta’siri va uning o‘ziga xos oqibatlari dastavval fatsiyalar miqyosida ro‘y beradi. Jumladan, bunday o‘zgarishlar fatsiyalarning eng harakatchan, o‘zgarishga moyilroq bo‘lgan o‘simliklarida ko‘zga tashlanadi va keyinchalik ularning bosh-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

qa xususiyatlari: mikroiqlimi, namlanishi, issiqlik tartibi kabilarning o‘zgarishiga olib keladi. Tog‘ jinslari ko‘pincha o‘zgarmay qoladi. Shu sababli fatsiyalarga bo‘ladigan inson ta’siri to‘xtatilsa, o‘zgargan fatsiyalar yana o‘zining avvalgi holatiga qaytishga harakat qiladi.

Geotizimlarning bir xil tabiiy sharoitga ega ekanligi, ularni ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganish muhim ekanligini ko‘rsatadi. Chunki, ularning o‘zgaruvchanligi, rivojlanishi, resurslarning joylashuvi, mahsuldorlik va boshqa xususiyatlarini tadqiq qilish, ulardan xo‘jalikni rivojlantirish maqsadlarida foydalanishning eng samarali yo‘llarini ochib beradi.

Geotizim, geotizimlarning tabaqalanishi, sayyoraviy, regional va topologik geotizimlar, landshaft, joy, urochishe, fatsiya.

1. Geotizimlar nima?
2. Geotizimlar qanday tuzilgan?
3. Landshaftlar qanaqa geotizimlardan iborat?
4. O‘zingiz yashab turgan hududda joy, urochishe va fatsiya bo‘yicha misollar keltiring.

III BOB. JAMIYAT VA TABIAT

10-§. JAMIYAT VA TABIAT O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR

Inson o‘z hayoti davomida ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan moddiy narsalarning barchasini tabiatdan oladi. U tabiat bilan o‘zaro chambarchas bog‘langan. Fan-texnika rivojlangani sari insonning mehnat qurollari takomillashib boradi. Natijada u o‘zini o‘rab turgan tabiatning xususiyatlarini o‘zgartirib, o‘ziga xos “muhit” yaratadi. Shuning uchun, jamiyat va tabiat munosabatlari haqida gapirganda tabiiy muhit, geografik muhit, atrof-muhit, texnogen muhit kabi tushunchalar qo‘llaniladi.

Tabiat – bizni o‘rab olgan borliq, olam. Tabiat vaqt va fazoda cheksizdir, to‘xtovsiz ravishda harakatda, rivojlanishda va o‘zgarishda bo‘ladi. Jamiyat ham tabiatning, moddiy olamning o‘ziga xos bir bo‘lagidir.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Tabiiy muhit – tabiiy jism va moddalarning, nimanidir yoki kimnidir o‘rab turuvchi, uning hayotiy faoliyati kechadigan tabiiy sharoit yoki tabiiy sharoitlar mujassamligi. Geografik adabiyotlarda mazkur tushuncha, ko‘pincha, geografik qobiqning inson va uning xo‘jalik faoliyatini o‘rab turgan qismiga nisbatan ishlatiladi.

Geografik muhit – jamiyatni o‘rab turgan tabiiy sharoit; ijtimoiy ishlab chiqarishning muayyan tarixiy bosqichida tabiatning jamiyat bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan bir qismi. Geografik muhit jamiyat taraqqiyotining doimiy va zaruriy sharoitlaridan biri, u mehnat taqsimotiga va xo‘jalik tarmoqlarining joylashishiga faol ta’sir etadi. O‘z navbatida, jamiyat ham geografik muhitga ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyat rivojlanib borgani sari geografik muhit doirasi o‘zgarib, kengayib boradi.

Texnogen muhit – aholini o‘rab turgan atrof-muhitning bir qismi bo‘lib, inson tomonidan yaratilgan obyektlar, jism va moddalar tushuniladi. Jamiyat rivojlanib borgan sari texnogen muhit takomillashib boradi.

Atrof-muhit – aholini o‘rab turgan tabiiy va texnogen muhitni qamrab olgan yashash va mehnat qilish sharoiti.

Jamiyat bilan tabiat o‘rtasidagi ta’sir va munosabatlar makon va zamonda o‘zgarib, xilma-xillashib boradi. Inson faoliyati maqsadga to‘g‘ri yo‘naltirilgan bo‘lsa, tabiatdan oqilona foydalanish shu joy, hudud, o‘lkaning yashnashiga olib kelgan. Aks ta’sir esa, noqulay sharoitning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Insoniyat tarixi davomida uning tabiat bilan bo‘lgan munosabati doim o‘zgarib, murakkablashib borgan.

Jamiyatning tabiatga ta’sirining ortib borishi va tabiatga munosabatining o‘zgarib borishini besh bosqichga bo‘lish mumkin.

1. Ibtidoiy jamoa davri – jamiyatning geotizimlar tabiiy holatini buzmaydigan hayot tarzi. Odam paydo bo‘lgandan boshlangan. Bu davrning xususiyatlari: dastlab tayyor tabiat ne’matlaridan termachilik bilan kun ko‘rilgan; tosh qurollari ixtiro qilinib, ovchilik va baliqchilik bilan shug‘ullanilgan; olov kashf qilingan; dastlabki uy hayvoni, ya’ni it xonakilashtirilgan; inson tabiatga butkul qaram bo‘lib, tabiatning bir bo‘lagi sifatida hayot kechirgan; tabiatni o‘ziga moslashtirlmagan; geotizimlar to‘la qayta tiklanish imkoniga ega bo‘lgan va h.k. Ibtidoiy odamni iqlimi qulay, biologik resurslarga boy (yirik hayvonlar, mevalar) joylar ko‘proq qiziqtirgan. Bu bosqichda inson tabiatni o‘zgartirmagan, balki unga moslashgan. Inson xo‘jalik faoliyati juda sodda bo‘lib, tabiiy muhitning o‘zgarishiga sababchi bo‘lmagan. Mevali o‘simliklarni

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

asrash va me’yorida terish, hayvonlarni me’yorida ovlash qoidalari u davrda yozuv bo‘lmaganligi sababli og‘zaki tarzda o‘rnatilgan.

2. Qishloq xo‘jaligi inqilobi davri – jamiyatning geotizimlarni kichik hududlarda, kam buzilishiga sababchi bo‘ladigan hayot tarzi. Bundan 6–8 ming yil ilgari boshlangan. Ushbu davrda odam ovchilik va baliqchilikdan dehqonchilikka o‘tgan. Tabiiy landshaftlarning kuchsiz o‘zgarishi ro‘y bera boshlagan. Bu davrning xususiyatlari: neolit davrida «Qishloq xo‘jaligi inqilobi» natijasida dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullana boshlangan; mug‘onalik – insonning tabiatga ta’sir ko‘rsatishi va uni o‘zgartirishi mumkinligi haqidagi qarash paydo bo‘lgan. Mehnat qurollari ancha takomillashib borishi natijasida inson tabiat bilan muvozanatni buza boshlagan, ayrim ov hayvonlari va o‘simliklar miqdor jihatdan kamaygan; xo‘jalik sohalarining dastlabki ko‘rinishlari paydo bo‘lgan va rivojlangan; aholi o‘troq hayot kechira boshlagan va dastlabki shaharlar paydo bo‘lgan. Bunday aholi to‘plangan joylarda fatsiya yoki urochishe miqyosida ekologik muvozanat buzilib, turli geoekologik muammolar tarkib topishiga olib kelgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston hududida er. av. II asrda dastlabki ariqlar, eramizning IV–VI asrlarida esa kanallar qurilgan. IX–XIII asrlarda sug‘orishning turli usullari va yirik gidrotexnik inshootlar qurilib, shu davr mobaynida jami 3,5–3,8 mln gektar yer sug‘orilgan.

Bu davrda insonning tabiatga bo‘lgan ta’siri kuchaya borgan, hunarmandchilik rivojlangan, xo‘jalikda tabiiy resurslardan keng qo‘llanila boshlangan. Dehqonchilik va chorvachilik yanada rivojlangan, ammo ular, asosan, qo‘l kuchiga asoslangani uchun ekologik muvozanatga ta’sir etmagan. Demak, bu davrda tabiatga ta’sir, asosan, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida bo‘lgan. Nisbatan uzoq davom etgan bosqich bo‘lib, tabiatga kuchsiz, ba’zi tabiat komponentlariga kuchliroq ta’sir ko‘rsatilgan (4-jadval). Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan qonunlar yozma ravishda o‘rnatilgan va amal qilingan, diniy manbalarga asoslanib, hukmdorlar turli davrlarda har xil ekologik qonunlar va farmoyishlar chiqarganlar.

3. Sanoat inqilobi davri – jamiyatning o‘z moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiatdan ayovsiz foydalanadigan hayot tarzi. Bu davr XVIII asrdan boshlangan bo‘lib, asosiy xususiyatlari: 1784 yil bug‘ mashinasining yaratilishi bilan “sanoat inqilobi”, XX asrning o‘rtalarida esa – “Yashil inqilob”, ya’ni qishloq xo‘jaligida tub

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

burilish amalga oshirildi va bu “inqilob”lar keyinchalik geotizimlarda ekologik tanglikni keltirib chiqardi; inson eng asosiy “geologik kuch”-ga aylandi; regional miqyosdagi geoekologik muammolar tarkib topdi; tabiiy muhitga kuchli ta’sir ko‘rsatildi (4-jadval). Jamiyatning tabiatga ta’siri kuchaydi. Tabiiy landshaftlar tez sur’atlarda o‘zgara boshlandi. Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli boshqa qit’alar ham o‘zlashtirila boshladi. Sanoat rivojlangani sayin jamiyatning tabiatga ta’siri ham ortib bordi. Jamiyatning ehtiyojini qondirish, turmush darajasini ko‘tarish, kun sayin ortib borayotgan harbiy xarajatlarni qoplash maqsadida tabiat bag‘ridan uning boyliklari ayovsiz, pala-partish «yulib olindi». Bu davr ko‘pgina mamlakatlarda hozir ham davom etmoqda.

4. Fan-texnika inqilobi davri – jamiyatning tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va mavjud tabiiy muhitni saqlab qolish darajasidagi hayot tarzi. Bu davr XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Bu davrda: ekologik bilim, ong, madaniyat shakllandi va rivojlandi; ekologik tashkilotlar tuzila boshladi; aholi soni juda tez o‘sdi va inson ilm bilan “qurollandi”, ya’ni «fan-texnika inqilobi» amalga oshirildi; fazoni o‘zlashtirish boshlandi; Mendeleyev davriy sistemasidagi barcha elementlardan foydalanildi va tabiatga “begona” bo‘lgan sun’iy birikmalar paydo bo‘ldi; tabiat qonunlari ijtimoiy qonunlarga moslashtirilmoqchi bo‘lindi; geoekologik vaziyat inqirozli hududlar va global geoekologik muammolar vujudga keldi; tabiat komponentlarining barchasiga kuchli ta’sir etildi. Shu bilan birga, bu davrda suv, tuproq, o‘simlik va hayvonlar muhofazasiga ham alohida e’tibor qaratildi, ixtisoslashtirilgan ekologik qonunlar qabul qilindi. Ayniqsa, respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng ushbu qonunlar xalqaro andozalarga moslashtirildi va ekologik qonunchilik ta’lim tizimida o‘qitila boshlandi. «Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologiya davlat qo‘mitasi» tashkil etildi, davlatning ekologik boshqaruv va nazorat tizimi yuzaga keldi. Demak, bu davr nisbatan eng qisqa davom etgan bo‘lib, geotizimlarning eng kuchli o‘zgarganligi bilan ajralib turadi. Fan va texnikaning yuksak darajada rivojlanishi munosabati bilan tabiiy resurslar juda katta miqyosda o‘zlashtirila boshlandi. Katta-katta hududlar qishloq xo‘jaligi maqsadida o‘zlashtirildi, ulkan zavodlar qurildi, cho‘llar, shimoliy o‘lkalar, tog‘lar, hamda Dunyo okeani o‘zlashtirildi va ekologik muvozanat buzila boshladi. Turli shakl va miqyosdagi geoekologik muammolarning tarkib topishi va tabiiy ofatlarning kuchayishi jamiyat qonunlarini tabiat qonunlariga uyg‘unlashtirishni taqozo etmoqda.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

4-jadval

Jamiyatning tabiatga ta’sirini ortib borishi

Tabiiy muhitning tarkibiy qismlari	Jamiyatning tabiatga ta’siri				
	Ibtidoiy jamoa davri	Qishloq xo‘jalik inqilobi davri	Sanoat inqilobi bosqichi	Fan-texnika inqilobi davri	Ekologik munosabat davri
Tog‘ jinslari		1	2	3	5
Relyef		1	2	4	5
Tuproq		1	3	4	5
O‘simlik	1	2	3	4	5
Hayvonlar	1	2	3	5	5
Havo (iqlim)		1	3	3	5
Suv		1	3	4	5
Geotizimlar	1	1	3	4	5

Jadvalda ta’sir darajasi: 1 – kuchsiz; 2 – kuchliroq; 3 – kuchli; 4 – juda kuchli, lekin tejamkor; 5 – o‘ta kuchli va qayta tiklash, muhofaza qilish.

5. Ekologik munosabatlar davri – jamiyatning sog‘lom va ekologik toza atrof-muhitni iqtisodiy o‘sish bilan teng darajada qadrlanishga asoslangan hayot tarzi. Bu davrning belgilari ayrim rivojlangan davlatlarda kuzatilib, insonni biologik va ijtimoiy organizm sifatida saqlab qolish hamda uning atrof tabiiy muhitini ekologik xavfsiz holda saqlash maqsadida muhofaza qilish asosiy vazifaga olib chiqilgan, resurslarning qayta tiklanishi jamiyat hisobidan amalga oshirilmoqda, ekologik qonunchilik yanada takomillashgan, tabiatga yetkazilgan zararni qoplashda har bir geotizimning geoekologik vaziyati hisobga olinib, tabaqalashgan holda belgilanadi, «ekologik madaniyat inqilobi» yuzaga kelmoqda. Umumiy qilib aytganda, bu bosqich jamiyat va tabiat o‘zaro uyg‘un rivojlanishda bo‘ladigan davr hisoblanadi.

Tabiat, jamiyat, tabiiy resurslar, geografik muhit, tabiiy muhit, texnogen muhit, atrof-muhit, qishloq xo‘jaligi, sanoat inqilobi, fan-texnika inqilobi, tabiatga ta’sir.

1. Qaysi bosqichda inson tabiatni o‘zgartirmasdan, unga moslashgan?
2. Sanoat inqilobi qachon sodir bo‘ldi?
3. Qaysi bosqichda ekologik muvozanat buzila boshladi?
4. Sanoat va fan-texnika inqilobi bosqichlarini taqqoslang.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

11-§. ANTROPOGEN LANDSHAFTLAR

Yer yuzida inson paydo bo‘libdiki, to‘xtovsiz ravishda tabiatga ta’sir ko‘rsatib, undan foydalanish va o‘ziga qulay qilish maqsadida o‘zgartirib kelmoqda. Insonning xo‘jalikdagi faoliyati ta’siri *antropogen ta’sir* deyilib, uning oqibatida geotizimlarning o‘zgarish darajasi, miqyosi va jadalligi turlicha bo‘ladi. Bu bir tomondan geotizimlarning o‘ziga xos tabiiy xususiyati bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan insonning geotizimga ta’sir ko‘rsatishiga bog‘liqdir.

Geotizimlarning tabiiy xususiyatlari, ya’ni o‘zini o‘zi boshqarishi va qayta tiklanish xususiyatining kuchli yoki kuchsizligi, antropogen ta’sirga chidamliligi yoki chidamsizligi turli geotizimlarda har xil bo‘ladi. Shu bilan birga, inson faoliyati ham turlichadir. Masalan, inson geotizimlarga konchilik sanoati orqali bir xil ta’sir ko‘rsatsa, shahar qurilishida boshqa xil, dehqonchilik, chorvachilik, o‘rmon xo‘jaligida esa yana boshqacharoq ta’sir etadi. Natijada har xil daraja va ko‘rinishda inson uchun ijobiy va salbiy o‘zgargan geotizimlar hosil bo‘ladi.

Ko‘pincha insonning xo‘jalik faoliyati ma’lum tabiat komponentlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Lalmi dehqonchilikda tuproq, chorvachilikda va o‘rmonchilikda o‘simlik (o‘t o‘simliklar va daraxt), konchilik sanoatida tog‘ jinsi (foydali qazilma) bilan bog‘liq bo‘ladi. Binobarin, ushbu komponentlar o‘sha hududlarda ma’lum darajada o‘zgarishga uchraydi. Ba’zan bu o‘zgarishlar boshqa komponentlarning ham u yoki bu darajada o‘zgarishiga olib keladi. Ayrim xo‘jalik sohalarida inson ikki va undan ortiq tabiat komponentlari bilan munosabatda bo‘ladi. Sug‘oriladigan dehqonchilikda tuproq va suv, sanoat ishlab chiqarishida tuproq, suv, havo, o‘simlik bilan munosabatda bo‘ladi.

Tabiat komponentlarining, shuningdek, yonma-yon geotizimlarning uzviy bog‘liqligi komponentlardan biriga biror maqsadda qilingan ta’sir, ko‘pincha boshqa komponentlarga ataylab qilinmagan ta’sirning sodir bo‘lishiga olib keladi (suvomborlarini qurish – atrofdagi yerlarni suv bosishiga, yerosti suvlarining olinishi – yer yuzasining cho‘kishiga va h.k.). Aslida, xo‘jalik faoliyatining deyarli barcha turi (ishlab chiqarish, rekreatsiya, tabiatni muhofazalash, ilmiy-tekshirish) amalda doimiy yoki vaqti-vaqti bilan geotizimlarga ta’sir etadi. Mazkur ta’sirning miqyosi, tezligi va boshqa ko‘rsatkichlari asosida geotizimlar ma’lum darajada

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

o‘zgarishga uchraydi. Geotizimlardagi o‘zgarish, o‘z navbatida, aholining sog‘lig‘i va xo‘jalik faoliyatida ijobiy yoki salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Aslini olganda, geotizimlar juda ko‘p va turli-tuman omillar ta’sirida shakllanadi, rivojlanadi, o‘zgaradi. O‘tgan asrning 70-yillariga kelib, inson xo‘jalik faoliyati ta’sirida o‘zgargan geotizimlarni **antropogen landshaftlar** deb, ularni alohida o‘ziga xos geotizim sifatida ilmiy tadqiq etish boshlandi.

Aslini olganda, inson, hozircha, butun boshli landshaftlarni yaratishga qodir emas. Inson o‘z xo‘jalik faoliyati davomida tabiiy landshaftlarning u yoki bu xususiyatini o‘zgartiradi. Landshaftga kiritayotgan biron o‘zgarish (ya’ni, shu landshaftga xos bo‘lmagan o‘simlik, hayvon, tog‘ jinsi, suv va boshqlar) ham, aslida, boshqa bir landshaftdan olingan bo‘ladi. Shuningdek, inson tomonidan kiritilgan “begona” tarkibiy qismlar ham shu landshaftdagi tabiiy qonuniyatlar asosida rivojlanadi. Masalan, kanallar daryolarga o‘xshab qirg‘oqlarini va tubini yemiradi, ulardan suv bug‘lanadi, qirg‘oqlarida to‘qayga xos o‘simliklar paydo bo‘ladi. Suvomborlari ko‘llarga o‘xshab qirg‘oqlarini yemiradi, tagi oqiziq jinslar bilan to‘ladi, atrofdagi grunt suvlari sathiga ta’sir etadi. Muhandislik inshootlari va yo‘llar nurab, yemiriladi. Madaniy o‘simliklar shu landshaftga xos o‘simliklar bilan aralashib, moslashib ketadi va h.k. Shu nuqtayi nazardan antropogen ta’sir natijasida o‘zgargan landshaftlarni antropogen landshaftlar deb atashdan ko‘ra, antropogen omil ta’sirida o‘zgargan landshaftlar, deb atash to‘g‘riroq bo‘lar edi. Lekin bu atama qo‘llashda qulay emasligidan antropogen landshaftlar atamasidan foydalaniladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, geotizimlar xususiyatlarining turli-tumanligi va insonning xo‘jalik faoliyati har xilligi munosabati bilan Yer yuzida turli-tuman antropogen landshaftlar vujudga keldi, fan-texnika rivojlangani sayin ularning yangi-yangi xillari paydo bo‘lmoqda. Bu esa tabiatdan foydalanishni to‘g‘ri va oqilona tashkil etish uchun ularni tasniflashni taqozo etadi. Olimlar tomonidan antropogen landshaftlarning quyidagi turlari ajratiladi.

F. N. Milkov inson faoliyatining turi va landshaftlarda qay darajada aks etganini hisobga olib, barcha antropogen landshaftlarni 8 xil landshaft sinfiga ajratadi (5-jadval). Landshaft sinflari turlarga bo‘linib ketadi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

5-jadval

Antropogen landshaftlarning turlari

№	Antropogen landshaft sinflari	Antropogen landshaft turlari
1	Qishloq xo‘jalik landshaftlari	Dehqonchilik, bog‘dorchilik, o‘tloq-yaylov, aralash.
2	Sanoat landshaftlari	Karyer va tashlamalar, terrikonlar, psevdokarst va boshq.
3	Chiziqli-yo‘l landshaftlari	Avtomobil yo‘llari, temiryo‘llar, neft va gaz quvurlari va boshq.
4	O‘rmon antropogen landshaftlari	Daraxtzorlar (ihotazorlar), kesilgan o‘rmonlar o‘rnidagi ikkilamchi o‘rmonlar va boshq.
5	Suv antropogen landshaftlari	Suvomborlar, kanallar, ko‘llar, baliqchilik hovuzlari va boshq.
6	Rekreatsion landshaftlar	Sanatoriylar, dam olish maskanlari atrofidagi bog‘-daraxtzorlar va boshq.
7	Seliteb landshaftlar	Shaharlar, qishloqlar
8	Belligerativ (lot. velligero – urush)	Qo‘riqchilik tepalari, himoya qo‘rg‘onlari, devorlar, qal’alar, xandaqlar, okoplar va boshq.

A. G. Isachenko antropogen ta’sir oqibatida geotizimlarning qay darajada o‘zgarganligini asos qilib oladi va barcha antropogen landshaftlarni 4 guruhga ajratadi:

1. *Shartli o‘zgartirilmagan (ibtidoiy landshaftlar)*. Ular bevosita inson ta’siriga va xo‘jalikdagi faoliyatiga duchor bo‘lmagan landshaftlardir. Ularda inson faoliyatining kuchsiz va bilvosita ta’siri izlarinigina payqash mumkin, xolos. Masalan, baland tog‘lardagi qor-muzliklar va o‘rmonlar, qo‘riqxonalar, va h.k.

2. *Kuchsiz o‘zgartirilgan landshaftlar.* Bular, asosan, inson faoliyatining ekstensiv (ovchilik, baliqchilik kabi) xili ta’siriga duchor bo‘lgan landshaftlar. Bunday landshaftlarda inson faoliyati ayrim komponentlargagina ta’sir etib, tabiiy aloqadorliklar hali buzilmagan va avvalgi o‘z holatini tiklab olishi mumkin;

3. *Kuchli o‘zgartirilgan (buzilgan) landshaftlar.* Bu guruhdagi landshaftlar, asosan, inson faoliyatining jadal ta’sirida o‘zgargan landshaftlardir. Ularning ko‘p komponentlari o‘zgarib, landshaftlar tuzilishining sezilarli darajada buzilishiga olib kelgan. Masalan, karyerlar, konchilik sanoati chiqindilari uyumlari va h.k.

4. *Madaniy landshaftlar.* Tuzilishi inson tomonidan jamiyat manfaatlarini ko‘zlagan va ilmiy asoslangan holda oqilona o‘zgartirilgan landshaftlar. Masalan, sifatli ishlov berilayotgan bog‘lar, paxtazorlar, plantatsiyalar va h.k.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

4-rasm. *a)* Vohalar – madaniy landshaftlar. *b)* Karyerlar –buzilgan yerlar

Antropogen landshaftlar haqida so‘z borganda *madaniy va buzilgan landshaftlar* atamalari ko‘p ishlatiladi. **Madaniy landshaft** – jamiyat manfaatlarini ko‘zlab xususiyatlari inson tomonidan ilmiy asosda va oqilona o‘zgartirilgan landshaftlar. Ularga quyidagi eng muhim ikki sifat xos: 1) odamlarning yashashi uchun qulay, sog‘lig‘ini saqlashi, jismoniy va ma’naviy rivojlanishiga yordam beradigan muhit; 2) yuqori mahsuldorlik va iqtisodiy samaradorlik. Bunda inson tomonidan landshaftlarning ichki imkoniyatini rivojlantirish, tabiiy jarayonlarni faollashtirish va landshaftlarning samaradorligini oshirish asosiy maqsad bo‘ladi. Respublikamizda uzoq yillardan buyon o‘zlashtirilib, obodonlashtirib kelinayotgan vohalar – madaniy landshaftlardir (4 *a*-rasm). Vohalarda atrofdagi cho‘l yoki tog‘ geotizimlariga nisbatan aholi yashashi uchun ekologik muhit qulay, xo‘jalik faoliyati esa bir necha barobar samaralidir. Buni quyidagilarda ko‘rish mumkin: Respublika aholisining qariyb 9/10 qismi vohalarda yashaydi. Sug‘oriladigan yerlar respublikamiz yer fondining 1/10 qismini tashkil etgani holda qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan mahsulotlarning qariyb 9/10 qismini beradi.

Buzilgan landshaftlar bu umumiy tushuncha bo‘lib, aslida, landshaftlar biron tabiiy yoki antropogen ta’sirlar natijasida to‘liq buzilishga uchramaydi. Balki ularning tarkibiy qismlari – biron komponenti yoki ayrim qismlarida kuchli o‘zgarish, buzilish ro‘y beradi. Shuning uchun “buzilgan yerlar” deb ifodalangani ma’qul. **Buzilgan yerlar** – inson faoliyati va tabiiy jarayonlar oqibatida xo‘jalik qiymatini yo‘qotgan, yaroqsiz yoki kam yaroqli holga kelgan, tuproq-o‘simlik qoplamining va gidrologik rejimining o‘zgarishi, texnogen relyefning vujudga keltirilishi munosabati bilan atrof-muhitga salbiy ta’sir manbayi bo‘lgan, yoqimsiz manzarali hududlar. Ular tuproq, suv, havoning ifloslanish manbayi

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

hisoblanadi, odamlarning yashash va mehnat faoliyati muhitini murakkablashtiradi. Bunday yerlar, ko‘pincha, insonning tabiatga nooqilona ta’siri natijasida vujudga keladi. Ekin dalalaridagi jarlar, suvomborlari yonidagi botqoqlar, konchilik sanoati hududlaridagi surilmalar, o‘pirilishlar va tashlamalar, chiqindixonalar va h.k. (4 *b*-rasm). Ularni qayta tiklash ishlariga juda katta mablag‘ talab qilinadi. Respublikamizda hozirgi paytda bunday yerlarda yaylovlar, bog‘lar, ko‘llar, rekreatsiya maskanlari barpo etilib, xo‘jalikda foydalanilmoqda.

Antropogen omilning tabiatga bo‘ladigan ta’sirining bir ko‘rinishi texnika ta’siri bo‘lib, texnikaning tabiat bilan o‘zaro tutashib ketishi natijasida yaxlit tabiiy-texnik tizimlar vujudga keladi. Ularni fanda *geotextizimlar* deb yuritiladi. **Geotextizim** tabiiy-texnik tizimlarning alohida o‘ziga xos geografik xili; texnika va tabiat, yoki tabiiy va texnik kichik tizimlarning uyg‘unligi tushuniladi va tizimning bir butunligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Geotextizimlarga misol tariqasida suvomborlari, yirik kanallar, sug‘oriladigan ekin maydonlari, turli xil zavod va fabrikalar, ular joylashgan landshaftlar hamda yon atrofdagi o‘zaro aloqada bo‘lishi mumkin bo‘lgan landshaftlarni aytish mumkin.

Geotextizimlarda ularning texnik qismida ro‘y beradigan jarayonlar bilan landshaftda yuz beradigan jarayonlar o‘zaro jadal kirishib ketgan bo‘ladi. Masalan, sug‘orib dehqonchilik qilinadigan landshaftlarda o‘simlik, tuproq kabi komponentlarning xususiyatlari texnika yordamida inson tomonidan belgilanib, sozlanib turiladi. O‘z navbatida, sug‘orish tizimining rejimi esa landshaftning holati bilan belgilanadi, ya’ni boshqariladigan geotextizimdagi aloqadorliklar to‘g‘ri va teskari aloqalar yordamida hosil bo‘ladi. Bunday hollarda texnika yordamida boshqariladigan obyekt sifatida landshaftning biotik komponentlari, suv va hokazolar xizmat qiladi. Buni respublikamizdagi ko‘plab kanallar yoki suvomborlar misolida ko‘rish mumkin.

Geotextizimlar faqat kanallar yoki suvomborlardagina emas, balki yirik sanoat obyektlari atrofida ham shakllanishi mumkin. Bunday geotextizimlarda kichik tizimlar sifatida tabiat, ya’ni landshaft bilan sanoat obyekti o‘zaro aloqa va ta’sirda bo‘ladi. Asosiy aloqalar esa yana suv yoki havo orqali amalga oshadi. Geotextizimlarning texnika qismi vazifasini turli xil issiqlik elektr stansiyalari, tog‘-kon metallurgiya kombinatlari, yirik qazilma konlar va boshqalar bajarishi mumkin.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Antropogen ta’sir, antropogen landshaft, antropogen landshaftlarning turlari, madaniy landshaftlar, buzilgan yerlar, geotextizimlar.

1. Inson tabiatga nima uchun ta’sir ko‘rsatadi?
2. Antropogen landshaftlarning qanday turlarini bilasiz?
3. Madaniy landshaftlar qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak?
4. O‘zingiz yashab turgan joyingizdagi geotextizimlarni tavsiflab daftaringizga yozing.

12-§. TABIATNI MUHOFAZA QILISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI

Aholining tez ko‘payishi va fan-texnika taraqqiyoti munosabati bilan jamiyatning tabiatga ta’siri tobora kuchaymoqda. Bu ta’sir ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Shu tufayli tabiatni muhofaza qilish, inson uchun qulay ekologik muhitni saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish – eng dolzarb masalalardan bo‘lib qolmoqda.

Tabiatni muhofaza qilish deganda, tabiatni insoniyat manfaatlarini ko‘zlab saqlashga va ongli ravishda o‘zgartirishga, uning mahsuldorligini saqlab qolishga, hamda resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan barcha turdagi tadbirlar tushuniladi. Bu tadbirlar davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Tabiatni muhofaza qilishning *eng asosiy masalalari* – atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va barcha turdagi tabiiy resurslar: suv, yer, iqlim, o‘simlik, hayvonot resurslari hamda qazilma boyliklardan oqilona va isrof qilmay foydalanish.

Tabiatni muhofaza qilishning ikki xil yo‘li mavjud. *Birinchisi,* alohida muhofaza etiladigan hududlar ajratilib, u yerdagi tabiiy landshaftlar yoki noyob tabiat yodgorliklarini saqlab qolish, ayrim turdagi o‘simlik va hayvonlarni saqlash va ko‘paytirish tadbirlari amalga oshiriladi. *Ikkinchisi,* keng qamrovli bo‘lib, tabiatni undan xo‘jalik maqsadlarida foydalanish jarayonida muhofaza qilishni o‘z ichiga oladi.

Alohida muhofaza etiladigan hududlar – tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya, tarixiy-madaniy maqsadlar uchun ajratilgan yer va suv (akvatoriya) maydonlari hisoblanadi. Ularga milliy bog‘lar, qo‘riqxonalar, biosfera rezervatlari, buyurtmaxonalar kiradi.

Milliy bog‘ – alohida muhofaza etiladigan hududlarning eng yirik shakli bo‘lib, ilmiy, madaniy, estetik yoki tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan tabiat komplekslarini, nodir tabiat obyektlari, xushmanzara

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

landshaftlarini saqlash uchun tashkil qilinadi va tabiatni muhofaza qilishning maxsus rejimi bilan saqlanadi. Milliy bog‘lar xorijiy mamlakatlarda hududlarni muhofaza qilishning asosiy shaklidir. «Milliy» so‘zi mazkur hududning xususiy mulk emas, balki butun millatga qarashli ekanligini bildiradi va muhofaza tadbirlari davlat tomonidan amalga oshiriladi. Milliy bog‘ hududi foydalanish va muhofaza qilish rejimi turlicha bo‘lgan maydonlarga – zonalar (qo‘riqxona, buyurtmaxona, tabiat yodgorliklari, dam olish zonasi va boshqalar)ga bo‘lib qo‘yiladi. Shunday qilib, tabiiy bog‘larni tashkil qilishda bog‘ maydoni, tabiiy sharoiti (relyef, o‘simlik)ni hisobga olish zarur. Bu esa bog‘ tabiiy landshaftlarini uzoq muddat saqlashga imkon beradi. Respublikamizda 3 ta milliy bog‘ mavjud. Bular: Ugom–Chotqol va Zomin davlat milliy tabiat bog‘lari hamda Do‘rmon tabiat bog‘i.

Qo‘riqxona – har qanday xo‘jalik faoliyati taqiqlangan, tabiat komponentlari va landshaftlar qonun asosida qat’iy muhofazaga olingan joy.

Qo‘riqxona tabiatni muhofaza qilishning eng samarali shakllaridan biri. Alohida muhofaza etiladigan hududlar orasida qo‘riqxonalar muhim rol o‘ynaydi. Ularning asosiy vazifasi – tabiati o‘zgarmagan yoki kam o‘zgargan hududlarni, qimmatli landshaftlarini jamiyat manfaatlari uchun saqlashdan iborat. Qo‘riqxona hududidan xo‘jalikda foydalanish, hatto, pichan tayyorlash, ov qilish, baliq tutish, qo‘ziqorin terish umuman ta’qiqlanadi. Ularning atrofi kam foydalaniladigan, muhofaza qilinadigan zona bo‘lishi kerak. Hududidagi mavjud tabiiy sharoit o‘z holicha saqlanadi. Qo‘riqxona hududi turli hayvon va o‘simlik turlarini, ovlanadigan hayvonlarning miqdori va genetik fondini saqlash uchun ajratiladi. Ular inson tomonidan o‘zlashtirilayotgan va o‘zgargan qo‘shni hududlar uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi. Bunday namunalar inson xo‘jalik faoliyatining biz uchun qulay yoki noqulay ekanligini taqqoslashga, tabiatdan amaliy foydalanishda u yoki bu usulning qanchalik maqsadga muvofiqligini nazorat qilishga imkon beradi. U tabiat komponentlari o‘rtasidagi uzviy aloqadorlikni o‘rganib, tabiiy boyliklardan unumli foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish uchun zarur. Qo‘riqxonalar ilmiy muassasalar hisoblanadi. Respublikamizda 8 ta qo‘riqxona faoliyat ko‘rsatmoqda.

Biosfera rezervati (lot. rezervo – saqlayman) – biologik xilma-xillikni saqlashni va bir vaqtda mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash maqsadida tabiiy va madaniy landshaftlar muhofaza qilinadigan joy.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Biosfera rezervati konsepsiyasi UNESKO tomonidan «Inson va biosfera» dasturi doirasida ishlab chiqilgan. Birinchi biosfera hududlari 1976-yilda tashkil etilgan. Hozirgi kunda biosfera rezervatlari 411 ta bo‘lib, 97 mamlakatga tegishli. Xalqaro mezonlarga ko‘ra, biosfera rezervatlari hududi uchta zonaga ajratiladi: *qo‘riqlanadigan zona, bufer zona* va *oraliq zona.* Respublikamizda Quyi Amudaryo biosfera rezervati tashkil etilgan.

Buyurtmaxona – ayrim tabiiy obyektlar va landshaftlarni saqlab qolish, takror ko‘paytirish va tiklash uchun mo‘ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hudud yoki suv havzasi. Ularning hududida ayrim tabiiy resurslardan foydalanishga, tabiatga kuchli ta’sir ko‘rsatmaydigan xo‘jalik faoliyatiga ruxsat beriladi. Qo‘riqxonalardan farq qilib, buyurtmaxonalarning maydonlari yer fondidan ajratib olinmaydi. Buyurtmaxonalar doimiy va vaqtincha bo‘ladi. Vaqtincha buyurtmaxonalar ko‘pincha ovchilik xo‘jaliklarida ov qilinadigan hayvon va qushlarning sonini tiklash va ko‘paytirish maqsadida ma’lum muddatga tashkil qilinadi. Muhofaza qilinayotgan turlarning o‘rtacha soni tiklangandan keyin cheklov bekor qilinadi va buyurtmaxona yana ov qilinadigan joyga aylanadi. Keyingi yillarda *botanik, zoologik, geologik, ixtiologik, ornitologik* va boshqa xil buyurtmaxonalar tashkil qilinmoqda.

Tabiat yodgorliklari – jonli va jonsiz tabiat yaratgan noyob, diqqatga sazovor obyektlar: g‘orlar, sharsharalar, ajoyib shaklli qoyatoshlar (5-rasm), daralar, geyzerlar, buloqlar, relyefning g‘aroyib shakllari, geologik ochilib qolgan joylar, katta yoshli ulkan daraxtlar va boshqalar. Tabiat yodgorliklari milliy bog‘, qo‘riqxona va buyurtmaxonalardan farq qilib, asosan, muhofazaga olingan ayrim nodir tabiiy yoki antropogen obyektlardir. Tabiat yodgorliklarining ko‘zga yaqqol tashlanib turadigan xo‘jalik ahamiyati bo‘lmasligi mumkin, lekin ulardan ilmiy, estetik, rekreatsiya, sayohat, turizm, istirohat, tarbiyaviy maqsadlarda foydalaniladi. Shuning uchun ham ularni muhofaza qilish zarur.

5-rasm. «Qirqqiz» tabiat yodgorligi

Tabiat yodgorliklarini umumiy xususiyatiga qarab *geologik-geomorfologik, botanik, paleontologik, astronomik va landshaft yodgorliklariga* bo‘linadi.

Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish murak-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

kab tadbirlar tizimi bo‘lib, ularni oqilona tashkil etish uchun quyidagi geografik-ekologik tamoyillarga amal qilinadi.

Geotizimlarda jonli va jonsiz tabiat o‘rtasidagi o‘zaro ekologik muvozanat tamoyiliga ko‘ra, har bir tabiiy chegaralangan hududda jonli va jonsiz tabiat orasida shunday teng munosabat mavjudki, bunda ular bir-biri bilan muayyan tabiiy muvozanatda bo‘ladi. Lekin, ulardan birining tashqi ta’sir natijasida buzilishi uzoq muddatli muvozanatni izdan chiqishiga olib keladi. Ekologik muvozanat tabiatda juda ham mo‘rt bo‘lib, ko‘p hollarda o‘simlik olamining qashshoqlanishi, suv maromining buzilishi va tuproq qoplamining yemirilishi bilan bog‘liq.

Ekologik muvozanat barqarorligi geotizimlarning qaysi taksonomik pog‘onadaligiga bog‘liq. Masalan, ekologik muvozanat landshaftda joyga nisbatan, joyda esa urochishega nisbatan, urochisheda esa fatsiyaga nisbatan barqaror hisoblanadi.

Inson mehnat faoliyatining ekologik jihatdan tozalik tamoyiliga asosan ishlab chiqarish jarayonida va kundalik turmushda vujudga kelayotgan turli chiqindilarni atrof-muhitga tashlashdan oldin ularni tozalab, butunlay zararsizlantirish lozim. Ushbu tamoyilning amaliyotga tatbiq etilishi ekologik xavfsizlikni ta’minlash, aholi sog‘lig‘ini mustahkamlash, kasallik keltirib chiqaruvchi va tarqatuvchi manbalarni yo‘qotish va shu kabi ekologik muammolarning oldini olishda yuqori samara beradi.

Tabiiy resurslardan me’yorga yarasha foydalanish tamoyili tabiiy resurslarning ma’lum miqdorga egaligi, ularning o‘z miqdori va foydalanish me’yori mavjud ekanligiga asoslanadi. Ushbu me’yorga amal qilmaslik ularning qashshoqlanishi va ifloslanishiga, modda va energiya almashinuvining buzilishiga sabab bo‘ladi. Natijada geotizimlarning ekologik muvozanati buzilib, o‘zgarishiga olib keladi, tabiiy resurslardan foydalanish jarayonini murakkablashtiradi, sun’iy taqchilliklarga sabab bo‘ladi. Masalan, dehqonchilikda suvdan ortiqcha foydalanish tog‘oldi va yuqori terrasa landshaftlarida eroziya, suffoziya, karst, surilma kabi tabiiy geografik jarayonlarni tezlashtiradi yoki yuzaga keltiradi. Quyi terrasalardagi landshaftlarda esa suv tanqisligi, botqoqlanish, flora va faunaning kamayishi kabi ko‘plab ekologik, iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Axborotning to‘liqligi tamoyili. Geotizimlarning xususiyatlari va rivojlanishi haqida mutlaqo ishonchli, ilmiy asoslangan ma’lumotga ega bo‘lmasdan, uni o‘zlashtirishga urinib, osongina zarar keltirish mum-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

kin. Geotizimlar haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lmay turib, amalga oshirilgan tadbirlar oqibatida tabiatda muayyan o'zgarishlar ro'y beradi, tabiatning aks ta'siri unga bo'lgan ta'sir hajmidan bir necha barobar oshib ketishi mumkin. Masalan, Orol va Orolbo'yidagi ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar.

Xilma-xillikning zarurligi tamoyili. Tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish tadbirlarini qo'llayotganda turli usullar, ayniqsa, biologik xilma-xillikga, asosan, mahalliy elementlarga katta e'tibor berish kerak. Chunki, o'simliklar eroziya, sel, ko'chki kabi jarayonlarning oldini olishda va geotizimlarning barqarorligini ta'minlashda eng muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, antropogen landshaftlar bir xil ekinlardan iborat bo'lib qolsa (masalan, paxta, sholi, bug'doy, makkajo'xori) ob-havodagi ozgina o'zgarish yoki ayrim kasallik va zararkunandalar bunday landshaftlarni birdaniga xarob qilishi mumkin. Tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishda bunday holatlarni hisobga olish zarur.

Tabiatni muhofaza qilish, alohida muhofaza etiladigan hududlar, milliy bog', qo'riqxona, biosfera rezervati, buyurtmaxona, tabiat yodgorligi.

1. Tabiatni muhofaza qilish deganda nima tushuniladi?
2. Tabiatni muhofaza qilishning qanday shakllari bor?
3. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish tadbirlarida qanday geografik-ekologik tamoyillarga amal qilinadi?
4. Respublikamizdagi alohida muhofaza etiladigan hududlardan birontasi haqida axborot tayyorlang.

IV BOB. AMALIY GEOGRAFIK TADQIQOTLAR

13-§. TABIIY GEOGRAFIK JARAYONLAR

Ma'lumki, tabiatda sodir bo'ladigan barcha jarayonlar tashqi va ichki kuchlar ta'siri natijasida yuzaga keladi. Tabiiy geografik jarayonlarning tabiiy omillar ta'sirida sodir bo'ladigan, ya'ni nurash, sel, eroziya, abraziya, surilma, karst, sho'rlanish kabilarning kelib chiqish sabablarini o'rganish va sodir bo'lish jarayonlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Tabiatda sodir bo'layotgan jarayonlarga ta'sir qiluvchi antro-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

pogen omillar: masalan, yerlarning sho‘rlanishi, irrigatsiya eroziyasi, o‘pirilishlar, cho‘llashish kabilarni tahlil qilish, ularning oldini olish choralarini ishlab chiqish muhim ekanini mavzuni o‘rganish davomida bilib olasiz.

Tabiiy geografik jarayonlar deb, Yerning tashqi (ekzogen) kuchlari va inson xo‘jalik faoliyati ta’sirida sodir bo‘ladigan jarayonlarga aytiladi.

Tabiiy geografik jarayonlar tog‘ jinslarining yemirilishida, tog‘ jinslari fizik holatining o‘zgarishida, yer yuzasi relyefining shakllanishi va o‘zgarishida, atmosfera hodisalari rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Ular rivojlangan hududlarda turli xil inshootlarni joylashtirish, qurish va ishlatishda ma’lum bir qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shuning uchun bunday jarayonlar rivojlangan va tarqalgan joylarda turli xil inshootlar qurishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish muammosi vujudga kelmoqda.

Sel, surilma, ko‘chki, botqoqlanish, ko‘p yillik muzloq, qurg‘oqchilik, o‘pirilma tarqalgan joylarda qurilish ishlari olib borish uchun hozirgi paytda maxsus qoidalar, yo‘riqnomalar ishlab chiqilgan.

Tabiiy omillar, o‘z navbatida, ikki katta guruhga bo‘linadi: Yerning ichki kuchlari bilan bog‘liq va tashqi kuchlar bilan bog‘liq bo‘lgan omillar.

Yerning ichki kuchlari *endogen* (yunoncha «endo» – ichki, «genos» – kelib chiqish) kuchlar deb ataladi. Ular ta’sirida vulqonlar otiladi, zilzilalar, tektonik harakatlar sodir bo‘ladi. Bunday jarayonlar endogen yoki geologik jarayonlar deb ataladi.

Tashqi omillar *ekzogen* (yunoncha «ekzo» – tashqi, «genos» – kelib chiqish) omillar yoki kuchlar deb ataladi. Tashqi kuchlar ta’sirida vujudga keladigan jarayonlar ekzogen jarayonlar yoki tabiiy geografik jarayonlar deb ataladi. Bunday jarayonlar Quyosh issiqligi, og‘irlik kuchi, yer usti va osti suvlari hamda organizmlar ta’sirida vujudga keladi va rivojlanadi. Ekzogen jarayonlarga nurash, eroziya, abraziya, deflyatsiya, surilma, karst, sel, qor ko‘chkisi kabi hodisalar kiradi.

Nurash deb, haroratning o‘zgarishi, kimyoviy jarayonlar, atmosfera, suv va organizmlar ta’sirida tog‘ jinslarining yemirilishiga aytiladi. Nurash uch turga ajratiladi: *fizik, kimyoviy va organik* nurash.

Fizik nurash, asosan, harorat va namlikning o‘zgarishi natijasida sodir bo‘ladi. Kunduzi havo haroratining ko‘tarilib ketishi natijasida tog‘ jinslarida darzlar hosil bo‘lib, ular bo‘laklarga bo‘linib ketadi. Ammo tog‘ jinsla-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

rining kimyoviy tarkibi o‘zgarmaydi. Fizik nurash cho‘llarda va qoyali tog‘larda keng tarqalgan.

Kimyoviy nurash deb, havo, suv ta’sirida tog‘ jinslarining yemirilishi va kimyoviy o‘zgarishiga aytiladi. Kimyoviy nurash ta’sirida barqaror minerallar hosil bo‘ladi.

Organik nurash deb, tog‘ jinslarining organizmlar (o‘simlik, hayvonot dunyosi, mikroorganizmlar) ta’sirida yemirilishiga aytiladi.

Eroziya (lotincha «erosio» – yemirish, yuvilish) deb tog‘ jinslari va tuproqning oqar suvlar ta’sirida yuvilishiga aytiladi. Eroziya *yuzalama* va *chiziqli* turlarga bo‘linadi. *Yuzalama eroziya* jarayoni tog‘ yonbag‘irlarida keng tarqalgan. Uning oqibatida tog‘ yonbag‘irlaridagi jinslar yuvilib, pastga tushadi. Yumshoq jinslardan tashkil topgan qiya joylarda yuvilish natijasida jarlar vujudga keladi. *Chiziqli eroziya* daryo eroziyasi deb ham ataladi. Buning natijasida daryo o‘zanlari va qirg‘oqlari yuviladi.

Daryo qirg‘oqlarining yuvilishi Xorazm va Qoraqalpog‘istonda «deygish» deyiladi. Amudaryo 1925-yilda sobiq To‘rtko‘l shahrining yaqinidan oqqan. 1938-yilga kelib Amudaryo shaharni yuvib keta boshladi, 1950-yilga kelib esa daryo To‘rtko‘l shahrini butunlay yuvib ketgan. Keyinchalik daryodan ancha uzoqda yangi, hozirgi To‘rtko‘l shahri bunyod etildi.

Abraziya (lotincha «abrasio» – qirish, qirtishlash) deb, okean, dengiz va ko‘l qirg‘oqlarining to‘lqinlar tomonidan yemirilishi va tekislanishiga aytiladi. Abraziya natijasida okean va dengiz, ko‘l qirg‘oqlarida tekisliklar hosil bo‘ladi. Respublikamizdagi yirik ko‘llar va suvomborlarining qirg‘oqlarida abraziya jarayonini kuzatish mumkin.

Deflyatsiya (lotincha “deflatsio” – puflash) – tog‘ jinslarining shamol ta’sirida yemirilib, maydalangan zarralarning boshqa joylarga ko‘chishi. Deflyatsiya qurg‘oqchil o‘lkalarda, ayniqsa, qumli cho‘llarda kuchli bo‘ladi. Shamol qumlarni to‘zg‘itib, bir joydan ikkinchi joyga tashib uylarga, yo‘llarga, quduqlarga zarar yetkazadi. Ayniqsa, o‘simlik qoplamini zararlab chorvachilikka ziyon keltiradi. Deflyatsiyaning oldini olish va zararini kamaytirish uchun daraxt va buta o‘simliklarini ekish lozim.

Sel – tog‘ vodiylari, soylar va jarlardan qisqa vaqt ichida juda katta tezlik bilan oqib keluvchi tosh aralash loyqa suv oqimi. Sellar tog‘li o‘lkalarda jala yog‘ishi natijasida yuzaga keladi. Sellar o‘zi bilan birga loyqa va toshlarni olib keladi. Tezligi soatiga 10–15 km ni tashkil eti-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

shi mumkin. U yo‘lda uchragan hamma narsani yuvib ketadi va juda katta moddiy va ma’naviy zarar yetkazadi. Sel hodisasi O‘rta Osiyoda, Kavkaz, G‘arbiy Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerikaning tog‘li o‘lkalarida ko‘proq sodir bo‘ladi. Respublikamizning tog‘li hududlarida ham sel hodisalari tez-tez bo‘lib turadi. Ularning zararini kamaytirish va sel suvlaridan foydalanish uchun tog‘ yonbag‘irlari va tog‘oldilarida selxonalar qurilgan.

Karst deb, suvda yaxshi eriydigan tog‘ jinslarining yer usti va osti suvlari ta’sirida eritilib, oqizib ketilishiga va yerostida turli xil bo‘shliqlar (g‘orlar)ning, yer yuzasida esa o‘pirilmalar va chuqurliklar hosil bo‘lishiga aytiladi. Suvda tez eriydigan jinslarga ohaktosh, dolomit, bo‘r, mergel, gips va turli xil tuzlar kiradi. Bunday jinslar tarqalgan joylarda qurilish ishlari olib borish ancha murakkab jarayon hisoblanadi.

Surilma deb, tog‘ jinslarining og‘irlik kuchi ta’sirida yonbag‘ir bo‘ylab pastga surilib tushishiga aytiladi. Surilmalar, asosan, tog‘li o‘lkalarda sodir bo‘ladi (6-rasm). Ko‘pincha suvli va suv o‘tkazmaydigan gilli qatlamlar ustma-ust joylashgan tik yonbag‘irlarda ro‘y beradi. Surilmalar ham sellar kabi xo‘jalikka juda katta moddiy zarar yetkazadi. Yonbag‘irlar tuproq va o‘simliklarini olib ketib, yo‘l va inshootlarni ko‘mib yuboradi. Surilmaning oldini olish uchun yonbag‘irlarda suvli qatlamga tushadigan suv miqdorini kamaytirish tadbirlari amalga oshiriladi.

Sug‘orma dehqonchilik natijasida o‘pqonlar avj olib, yerlar qishloq xo‘jaligida foydalanishga yaroqsiz holga keladi.

Antropogen omillarga insonning turli xil xo‘jalik faoliyati kiradi: qishloq xo‘jaligi, suv xo‘jaligi, konchilik sanoati, metallurgiya, qurilish, transport va boshqalar. Antropogen omillar ta’sirida antropogen yoki texnogen jarayonlar sodir bo‘ladi. Bunday jarayonlarga surilmalar, yer yuzasining cho‘kishi, o‘pirilmalar, yerosti suvlari sathining ko‘tarilishi yoki pasayishi, daryo va ko‘llarning qurishi, yangi suv havzalarining vujudga kelishi, yerlarning sho‘rlanishi kabilar kiradi. Mazkur jarayonlar xo‘jalik faoliyatiga katta zarar yetkazadi.

6-rasm. Orqutsoydagi surilma

Qishloq xo‘jaligining rivojlanishi natijasida *sho‘rlanish, shamol* va *suv*

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

eroziyasi ham rivojlanadi. Yerosti suvlari sathi yer yuzasiga yaqin joylashgan bo‘lsa, suvlarning bug‘lanishi oqibatida tuproq sho‘rlana boshlaydi. Chunki, suv bug‘langanda uning tarkibidagi tuzlar tuproqda qolib, tuz miqdorining ortib ketishiga olib keladi. Bunday holat Xorazm vohasida va Mirzacho‘lda namoyon bo‘lmoqda.

Deflyatsiya doimiy shamollar esadigan joylarda ko‘proq uchraydi, haydalgan yerlarda tuproqning yuqori unumdor qismi uchib ketadi.

Yerlarni o‘zlashtirib, haydash va sug‘orish natijasida eroziya jadallashadi. Bunday jarayonga *irrigatsiya eroziyasi* deyiladi. Irrigatsiya eroziyasi tog‘oldi hududlarida lyoss va lyossimon jinslar tarqalgan, nishabligi 2° dan katta bo‘lgan yerlarda sug‘orish me’yori va qoidalariga amal qilinmagan hollarda juda kuchli yuz beradi. Natijada yerlar jarlanib, unumdor tuproq qoplami yuvilib ketadi. Buning oldini olish uchun yerdan foydalanishda agrotexnika qoidalariga qat’iy amal qilish lozim.

Suv inshootlarining qurilishi ham ayrim noxush hodisalarni keltirib chiqaradi. Qoraqum kanalining qurilishi, Amudaryo va Sirdaryo suvlarining sug‘orishga sarflanishi natijasida, Orol dengizining sathi 1960-yildan so‘ng pasaya boshladi. Orol dengizi tubining ochilib qolgan qismidan tuzlarni shamollar uchirib olib kelishi oqibatida Orolbo‘yi atrofidagi yerlarning sho‘rlanish darajasi ortib bormoqda. Hozirgi paytda buning oldini olish maqsadida sho‘rga chidamli o‘simliklar ekilmoqda.

Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi munosabati bilan turli noxush tabiiy geografik jarayonlar vujudga keladi. Masalan, konchilik sanoatining rivojlanishi natijasida juda ulkan surilmalar, yer yuzasining cho‘kishi, o‘pirilishlar, yerosti suvlari sathining pasayishi va boshqa hodisalar ro‘y beradi. Ohangaron vodiysida 20–25 yil davomida ko‘mirni gazga aylantirilishi oqibatida yerostida 1 km^2 dan ortiqroq maydonda bo‘shliq hosil bo‘lgan. Natijada, tog‘ yonbag‘rining barqarorligi buzilib, hajmi 700–800 mln m^3 ni tashkil qilgan surilma hosil bo‘ldi va xo‘jalikka katta moddiy zarar yetkazdi. Foydali qazilma konlarini qazib olish jarayonida suvlarni kondan tashqariga chiqarib yuborish oqibatida yerosti suvlarining sathi keskin pasayib ketadi. Juda katta maydonlarda neft va gaz qazib olish esa, yer yuzasining cho‘kishiga olib keladi. Masalan, neft va gaz qazib olish natijasida Rossiyaning G‘arbiy Sibir pasttekisligi cho‘kmoqda, oqibatda bu tekislikda yerosti suvlari sathi ko‘tarilib, botqoqliklar va ko‘llar maydoni kengayib bormoqda.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Sanoat korxonalaridan atmosferaga chiqarilayotgan changlar havoni ifloslab, «issiqxona samarasi»ni keltirib chiqarmoqda, oqibatda Yer yuzida o‘rtacha harorat ortib bormoqda.

Tabiiy geografik jarayonlar, tabiiy omillar, antropogen omillar, nurash, sel, eroziya, abraziya, deflyatsiya, surilma, karst.

1. Tabiiy geografik jarayonlar deb nimaga aytiladi?
2. Tashqi kuchlar ta’sirida qanday tabiiy geografik jarayonlar vujudga keladi?
3. Siz yashab turgan joyda qanday tabiiy geografik jarayonlar sodir bo‘lib turadi?
4. Konchilik sanoatining rivojlanishi oqibatida sodir bo‘ladigan jarayonlar ro‘yxatini tuzing.

14-§. GEOGRAFIK BAHOLASH

Tabiiy muhit baholanishi natijasida uning ijtimoiy ehtiyoj nuqtayi nazaridan qulayligi yoki yaroqliligi o‘rganiladi. Baholash natijasida biror hududning yoki tabiat komponentining dehqonchilik, chorvachilik, dam olish, qurilish va boshqa sohalarda foydalanishga qanchalik qulayligi aniqlanadi.

Tabiiy sharoit va resurslar yoki geotizimlarni foydalanish maqsadlarida baholash – ***geografik baholash*** deb ataladi. Masalan, dehqonchilik, chorvachilik, sanoat, transport, rekreatsiya, suv xo‘jaligi va boshqa maqsadlarda baholash amalga oshirilishi mumkin.

Geografik baholash quyidagi bosqichlardan iborat:

a) baholash ishlarining maqsad va vazifalarini aniqlash (masalan, daryo vodiysining ma’lum bir qismini suvombori qurish maqsadida baholash);

b) baholash uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatkichlar yoki ma’lumotlar ro‘yxatini tuzish;

d) o‘rganilayotgan hudud daryo vodiysining hozirgi va kelajakdagi holatini belgilaydigan ko‘rsatkichlar yoki xossalarni o‘rganish va o‘lchash (vodiyning geologik tuzilishi, uzunligi, kengligi, balandligi, yonbag‘irlar qiyaligi, suv sarfi, loyqaligi, me’yori va h.k.);

e) olingan ma’lumotlar va ko‘rsatkichlarni bir-biriga taqqoslash asosida har bir komponent bo‘yicha alohida baholashni amalga oshirish (relyef, geologik tuzilish, suv o‘lchamlari va h.k.);

f) alohida baholashlar asosida umumiy baholashni amalga oshirish (suvomborini mazkur joyda qurish mumkinmi yoki yo‘qmi);

g) yakuniy jadval va xaritalar tuzish.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Tabiiy geografik baholashning aniq maqsadiga ko‘ra sifat va miqdor usullaridan foydalaniladi. Sifat ko‘rsatkichlari qulaylik darajasiga qarab «juda qulay», «qulay», «o‘rtacha qulay», «kamroq qulay», «qulay emas», deb baholanadi.

Masalan, tekisliklar yo‘l qurilishi uchun juda qulay, qumli cho‘llar qulay, to‘lqinsimon tekisliklar o‘rtacha qulay, adirlar kamroq qulay, tog‘lar esa qulay emas.

Baholash miqdor usulida sonli ko‘rsatkichlar asosida amalga oshiriladi. Masalan, arpaning pishib yetilishi uchun quyidagi haroratlar yig‘indisi bo‘lishi shart. Vegetatsiya davrida havoning + 10° C dan yuqori haroratlari yig‘indisi 1000° C gacha bo‘lishi eng tezpishar arpa navining yetilishi uchun yetarli emas, mazkur arpa navi 1000–1400° C da pishadi, 1400–1800° C da esa o‘rta pishar, 1800° C dan oshganda esa eng kechki navlar yetiladi. Ko‘rsatilgan ushbu miqdor ko‘rsatkichlari baholashning ma’lum bonitetli darajalari hisoblanadi.

Yer resurslarini baholash. Yer resurslari xo‘jalik jihatdan juda ko‘p maqsadlarda baholanadi. Ayniqsa, dehqonchilik maqsadlarida baholash keng tarqalgan.

Dehqonchilikni amalga oshirish, asosan, relyef, agroiqlimiy resurslar, tuproq sharoiti, yerosti suvlarining joylashishi va xossalarining qulayligi, suvning mavjudligi va boshqa omillar bilan belgilanadi.

Dehqonchilik uchun yaroqli yerlarni o‘zlashtirish va ulardan foydalanishning murakkablik darajalari geotizimlarning xususiyatlariga qarab turlicha bo‘ladi. Yuqorida ko‘rsatilgan omillarning tahlili asosida O‘zbekiston geotizimlari murakkablik darajasiga ko‘ra to‘rt guruhga bo‘linadi: oddiy, o‘rtacha murakkab, murakkab va juda murakkab geotizimlar (6-jadval).

Oddiy geotizimlarga tog‘oldi prolyuvial tekisliklari va daryo vodiylarining yuqori terrasalari kiradi. Yerosti suvlarining gorizontal harakati yuqori darajada ta’minlangan bo‘lib, bu suvlarning sathi ko‘tarilmaydi, chunki lyossimon jinslar ostida shag‘al toshlar yotadi. Mazkur joylar dehqonchilik uchun juda qulay.

O‘rtacha murakkablikdagi geotizimlarga konussimon yoyilmalar va daryo deltalarining yuqori qismlari kiradi. Yerosti suvlarining gorizontal harakati ta’minlangan, ammo ayrim pastqam joylarda u yer yuzasiga yaqin ko‘tariladi va sho‘rlanishga sabab bo‘lishi mumkin. Shamol va suv eroziyasi yuz berishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun ihota daraxtzorlarini vujudga keltirish zarur.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

6-jadval. **O‘zbekistonning cho‘l va chalacho‘l mintaqalarida sug‘orishga yaroqli geotizimlarning murakkablik darajalarini aniqlovchi mezonlar**

Geotizimlar va melioratsiya murakkabligi	Relyef		Yotqiziqlarning tarkibi	Tuproqlar			Grunt suvlari		Yerlarning meliorativ holati
	Turi	Yuzasining xususiyati		Nomi	Sho‘rlanishga beriluvchanligi	Eroziyaga beriluvchanligi	Chuqurligi, m	Minerallashuv darajasi	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Oddiy (maxsus tadbirlar talab qilmaydi)	Tog‘oldi prolyuvial tekislik, yuqori allyuvial terrasalar	Qiyaroq	Lyoss va lyossimon yotqiziqlar ostida dag‘al jinslar mavjud	Tipik bo‘z, sur-bo‘z	Berilmagan	Yuvilmagan, joylarda kamroq yuvilgan	20–100	3 g/l gacha	Barqaror
O‘rtacha murakkab (oldini oluvchi tadbirlar zarur)	Konussimon yoyilmalar va daryo deltalarining bosh qismi	To‘lqinsimon	Lyossimon yotqiziqlar qum, ba’zan shag‘al bilan aralash holda uchraydi, ular ostida dag‘al jinslar bor	Tipik bo‘z sur-bo‘z, qumli cho‘l, taqirli	Berilmagan	Turli darajada yuvilgan, joylarda shamol eroziyasi mavjud	10–15 va undan past	3–10 g/l va undan ko‘p	Ko‘proq barqaror
Murakkab (maxsus tadbirlar kompleksi zarur)	Konussimon yoyilmalar va daryo deltalarining o‘rta qismlari, quyi terrasalar	Qiya	Qumoq, qumloq yotqiziqlari qum qatlamlari qum qatlamchalari bilan aralash holda uchraydi	Sur-bo‘z, qumli cho‘l, taqirli	Turli darajada	Shamol eroziyasiga berilgan	5–10	5–10 g/l va 10–30 gr/l	Barqaror emas
Juda murakkab (katta hajmda maxsus tadbirlar kompleksi zarur)	Konussimon yoyilmalar va daryo deltalarining etak qismlari, qirlar, adirlar, platolar	Yassi, qiya to‘lqinsimon botiq	Og‘ir mexanik tarkibli yotqiziqlar (gil, og‘ir qumoq) shag‘al, aralash qumoq (jipslashgan)	Sur-bo‘z, taqir o‘tloq, taqirli, sho‘rxok	Yotqiziqlar tarkibida tuz va gips mavjud	Shamol eroziyasiga turli darajada berilgan	3–5, 10–20 va undan pastda	10–30 g/l va undan ko‘p	Juda barqaror

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях UZEDU.ONLINE
Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Murakkab geotizimlarga konussimon yoyilmalar va deltalarning o‘rta qismlari va allyuvial terrasalar kiradi. Yerosti suvlarining gorizontal harakati yaxshi emas, sug‘orish davomida ularning sathi ko‘tariladi va tuproqda tuz to‘plana boshlaydi. Buning oldini olish uchun gorizontal va tik zovurlar qurilishi lozim.

Juda murakkab geotizimlarga deltalarning etak qismlari, prolyuvial tekisliklarning quyi yoki chekka joylari, adirlar, plato va balandliklar kiradi. Yerosti suvlarining gorizontal harakati ta’minlanmagan, ularning sathi sug‘orish paytida tezda ko‘tarilib ketadi. Buning oldini olish maqsadida zich zovurlar tarmog‘ini qurish, yerni sifatli qilib yuvish va tekislash, shamol eroziyasiga qarshi ihota daraxtzorlarini vujudga keltirish lozim. Suv shimilishining oldini olish uchun tomchilatib, yomg‘irlatib va tuproq ostidan sug‘orish usullarini qo‘llash zarur.

Rekreatsiya resurslarini baholash. Geotizimlarning dam olish maqsadlarida foydalaniladigan xususiyatlari yoki komponentlari *rekreatsion* resurslar deb ataladi. Masalan, xushmanzara o‘rmon, dengiz va okean qirg‘oqlari, tog‘ vodiylari, ko‘llar, g‘orlar, manzarali, chiroyli o‘simliklar, g‘aroyib relyef shakllari, muzliklar shular jumlasidandir.

Rekreatsiya (tiklash, o‘rnini to‘ldirish)ning qamrovi katta bo‘lib, odamlarning dam olishi, salomatligini tiklashi, madaniy hordiq chiqarishi ma’nosida ishlatiladi.

Geotizimlarni rekreatsiya nuqtayi nazaridan tadqiq qilish, asosan, ularning rekreatsion imkoniyatlarini va ularga rekreatsion bosimning ta’sirini baholashdan iborat.

Dam olish tashkiliy va notashkiliy (ixtiyoriy) bo‘lishi mumkin. Tashkiliy dam olish turli muassasalar tomonidan uyushtiriladi. Notashkiliy (ixtiyoriy) dam olish esa odamlarning o‘z xohishlari bo‘yicha bir yoki bir necha kishi bo‘lib, tanlangan hududlarda uyushtiriladi.

Dam olishdan ko‘zlangan maqsad turlicha bo‘lishi mumkin: davolanish, sog‘lomlashtirish, sport, tanishuv va h.k.

Dam olish mavsumga qarab ham turlicha bo‘lishi mumkin. Yozgi dam olish turlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: cho‘milish, quyosh vannalari olish, piyoda sayr (davolanish, salomatlikni tiklash, ekskursiya), qayiq sporti, baliq ovi, turli xil mevalar va qo‘ziqorin terish, otda sayr qilish, alpinizm bilan shug‘ullanish va h.k. Qishki mavsumda quyidagi dam olish turlari bilan shug‘ullanish mumkin: chang‘i sporti, muzosti baliq ovi, sport ovchiligi, davolanish, salomatlikni tiklash, piyoda sayr.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Rekreatsion baholash obyekti – landshaftlar va ularning qismlari bo‘lishi mumkin. Rekreatsiya komplekslarini joylashtirishni loyihalashda landshaftlarni tahlil qilish yaxshi natija beradi. Bunda turli landshaftlardan rekreatsion maqsadlarda foydalanish darajasiga qarab eng qulay landshaft turi tanlanadi. Masalan, daryo vodiysi, tog‘ yonbag‘ri, ko‘l yoki suvombori qirg‘og‘i, tekislik, okean yoki dengiz qirg‘og‘i, o‘rmon va h.k.

Alohida rekreatsion komplekslarni (dam olish uylari, sanatoriylar, sayyohlik komplekslari va h.k.) loyihalashtirayotganda aniq bir joyni baholash yaxshi natija beradi.

Rekreatsion maqsadlarda baholashda ularni estetik jihatdan baholash ham muhim o‘rin tutadi. Bunda tabiiy sharoitning, relyefning, o‘simliklarning, landshaft umumiy ko‘rinishining estetik jihatdan zavq bera olish imkoniyati e’tiborga olinadi. Baholashning oxirgi bosqichida geotizimlarning rekreatsion binolarni joylashtirish uchun yaroqliligi va rekreatsion bosimga barqarorlik darajasi hisobga olinadi.

Geografik baholash, dehqonchilik, rekreatsiya, baholash bosqichlari, baholashning sifat va miqdor usuli.

1. Geografik baholash deb nimaga aytiladi?
2. Geografik baholash qanday bosqichlardan iborat?
3. Geografik baholashning qanday usullarini bilasiz?
4. O‘zingiz yashab turgan joy dehqonchilik uchun qulaymi yoki noqulaymi? Fikringizni asoslab, daftaringizga yozing.

15-§. GEOGRAFIK PROGNOZ

Inson xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanar ekan, tabiiy sharoitning shu kundagi holati bilangina emas, balki kelajakda ro‘y beradigan turli o‘zgarishlar bilan ham qiziqadi. Binobarin, tabiiy sharoit o‘zgarishini inson manfaatlari nuqtayi nazaridan oldindan prognoz qilish va chuqur tahlil qilish katta ahamiyatga ega.

Fanda biror hodisa yoki biron-bir obyekt holatining o‘zgarishini oldindan ko‘ra bilish va ayta olish *prognoz* deb ataladi.

Geografik prognozlash – tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy muhitning rivojlanishi va o‘zgarishi haqida ma’lumotlar to‘plash va qayta ishlash jarayonidir.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Geografik prognoz deb, tabiiy muhit va hududiy ishlab chiqarish majmualarining o‘zgarishidagi asosiy yo‘nalishlarni ilmiy jihatdan oldindan asoslab berishga aytiladi.

Geografik prognozlar bir necha variantlarda amalga oshiriladi. Ulardan avvaliga nisbatan yaxshi bo‘lgan bir nechtasi, keyinchalik esa eng maqbul varianti tanlab olinadi va mazkur variant asosida barcha hisob-kitob ishlari bajariladi.

Geografik prognozlar turli *muddatlarga* tuziladi. Shuning uchun prognozlar muddatiga ko‘ra, quyidagi turlarga bo‘linadi: *operativ prognoz* 1 oy muddatga, *qisqa muddatli prognoz* 1 oydan 1 yilgacha, *o‘rta muddatli prognoz* 1 yildan 5 yilgacha, *uzoq muddatli prognoz* 5 yildan 15 yilgacha, *juda uzoq muddatli prognozlar* 15 yildan ko‘proq muddatga ishlab chiqiladi.

Tabiiy geografik prognozni amalga oshirish uchun geotizimlar komponentlarining prognozli xossalarini aniqlab olish talab etiladi. Ma’lum bir joyning relyefi, tog‘ jinslari, tuproqlari, suvlari, o‘simligi va hayvonot dunyosi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bu xususiyatlar haqidagi ma’lumotlar tabiiy geografik prognozlarda ishlatiladi.

Geotizimlar komponentlarining tabiiy muhit ifloslanishini kamaytirish xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. *Relyef*. Botiqlar texnogen mahsulotlarni (chiqindilarni) to‘plovchidir. Balandliklar esa ularni tarqatib yuboruvchidir. Yonbag‘irlar qiyaligi ularning parchalanish darajasi, zichligi, yerosti suvlarining harakatiga ijobiy yoki salbiy ta’sir qilishi mumkin.
2. *Tog‘ jinslari*. Suv o‘tkazadigan, suv o‘tkazmaydigan jinslar, ularning qalinligi tabiiy muhitga ta’sir ko‘rsatadi.
3. *Suvlar*. Ularda erigan organik moddalarning miqdori, yillik oqim miqdori, oqim tezligi muhim ahamiyatga ega. Oqim tezligi qancha yuqori bo‘lsa, ifloslovchi moddalar shuncha tez olib ketiladi. Suvdagi organik moddalar og‘ir metallarning eruvchanligini tezlashtiradi.
4. *Tuproqlar*. Oksidlanish-qaytarilish, kislotali-ishqorli sharoit. Tuproqni ifloslovchi moddalardan o‘z-o‘zini tozalash qobiliyatini belgilab beradi.
5. *O‘simliklar*. Ifloslovchi moddalarni yutadigan o‘simliklar turlari.

Mazkur xususiyatlar asosida tabiiy muhitning o‘zgarishini oldindan aytib berish mumkin.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Geografik prognozlar *sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy* miqyoslarda olib boriladi.

Sayyoraviy prognozlar ma'lum bir hududga bog'lanmagan bo'lib, geografik qobiq doirasidagi, butun insoiyatga daxldor muammolarga bag'ishlanadi. Sayyoraviy geografik prognozlarning asosiy maqsadi insoniyatning kelajakdagi hayotini va Yerni saqlab qolishga qaratilgan muammolarni oldindan prognoz qilishdir. Shuning uchun ham mutaxassis va olimlarning ko'pchiligi hozirgi paytda butun dunyo miqyosida kelajakda kutilayotgan turli noxush hodisalarni prognoz qilish bilan shug'ullanadi. Atmosfera havosining ifloslanishi, ozon qatlamining yupqalanishi, «issiqxona samarasi»ning vujudga kelishi, cho'llashish jarayoni, gidrosferaning ifloslanishi va toza ichimlik suvi muammosi shular jumlasidan. Insoniyatning kelajakdagi hayoti yuqoridagi muammolarning qanday prognoz qilinishi va bartaraf etilishiga bog'liq.

Mintaqaviy prognozlar biron mintaqa doirasida bir nechta davlatlarga daxldor muammolarning kelajakdagi o'zgarishini oldindan asoslab berishga qaratiladi. Jahonning xo'jaligi yuksak darajada rivojlangan qismlarida jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar o'ta keskinlashdi. Buning oqibatida turli xil ekologik muammolar yuzaga keldi, natijada ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar murakkablashdi. Mazkur mintaqalarga O'rta, Boltiq, Shimoliy, Qora dengizlar, Meksika, Fors qo'ltiqlari va boshqa joylar kiradi. Ushbu joylarda neft tashilishi, daryolar orqali turli xil zararli moddalarning oqib kelishi, turli sanoat chiqindilarining dengizlarga tashlanishi natijasida tobora ifloslanib bormoqda. Oqibatda dengiz o'simlik va hayvonot dunyosiga katta zarar yetkazilmoqda, dengiz qirg'oqlarining rekreatsion imkoniyatlari cheklanmoqda va aholining yashash sharoiti yomonlashmoqda.

Mahalliy geografik prognozlar. Ma'lum bir muhandislik inshooti yoki inshootlar guruhining tabiiy muhitga ta'sirini oldindan asoslab berish mahalliy geografik prognoz deb ataladi. Tabiatga ta'sir etadigan muhandislik inshootlari sanoat korxonasi, suvombori, shaxtalar, yo'llar, aerodromlar, shaharlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Masalan, foydali qazilma koni ochiq usulda qazib olinadigan bo'lsa, hududda botiq hosil bo'ladi, tashlamalar vujudga keladi, yerosti suvlari sathi pasayadi, noxush jarayon (surilma, ko'chki, o'pirilma)lar rivojlanadi, suv, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi ma'lum joylarda butunlay yo'qoladi, ma'lum bir joylarda esa katta o'zgarishlarga uchraydi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

7-jadval

O‘zbekiston yaylov tabiat komplekslarining inson faoliyati ta’sirida o‘zgarishi prognozi

Tabiat kompleksi	Ta’sir etuvchi omillar					
	Chorva boqish	**Daraxt va butalarni qirqish**	**Texnik eroziya: avtomobil va boshqa mexanizmlar harakati**	**Ihotazorlarni vujudga keltirish, yaylovlar mahsuldorligini oshirish**	**Ehtimol qilinayotgan tabiiy geografik jarayonlar**	**Prognoz qilinayotgan o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlari**
1	2	3	4	5	6	7
Plato va qoldiq balandliklarning bo‘z-qo‘ng‘ir tuproqlarida shuvoq va sho‘ra mavjud	Kuchsiz	Kuchli	Betartib harakat kuchli	Hozirgacha amalga oshirilmagan	Avtomobil yo‘llarida deflyatsiya kuchayadi, tuproq yo‘qolib boradi	Ustyurtning markaziy qismida tuproq va o‘simlik 10-20 % kamayishi mumkin
Botiqlardagi sho‘rxoklar galofitlar, ba’zan sho‘r bilan band	Kuchsiz	Joylarda kuchli	Kamroq		Deflyatsiya, burg‘ulash natijasida ko‘p hajmda suv chiqariladi, ko‘l, botqoq vujudga keladi	Butalar qirqilishi kuchayadi, yangi ko‘l, ko‘lmak va botqoqliklar tarkib topadi
Qumli tekisliklarda psammofitlar tarqalgan	Borgan sari kuchayadi	Qirqish kamayishi mumkin, lekin uzoq yaylovlarda kuchayadi	Yangi konlarni qidirish jarayonida kuchayadi	Sur’ati nihoyatda past	Aholi punktlari atrofida va burg‘ulash maydonida barxanlar maydoni kengayadi	Harakatdagi qumliklarning maydoni kengayadi, yaylovlarning mahsuldorligi kamayadi
Deltalarning taqirli tuproqlarida va taqirlarda boyalichli qora saksovul mavjud	Kuchsiz	Joylarda kuchli	Joylarda kuchayadi		Avtomobillarning betartib harakati deflyatsiyani kuchaytiradi	Tuproqning deflyatsiyaga berilishi kuchayadi, ularning maydoni 15–25 % ga yetadi

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Dengiz tekisliklaridagi qum va sho‘rxoklarda psammofitlar tarqalgan			Kamroq	Amaliy ishlar boshlanmagan	Sho‘rxoklar taqirli va qoldiq sho‘rxoklarga evolyutsiya yo‘li bilan o‘tadi, deflyatsiya kuchayadi	Barxanli qumlarning maydoni kengayadi, sho‘rxoklarning yuzasi sho‘rsizlanadi, keyinchalik o‘simlik bilan qoplanishi kuchayadi
Past tog‘larda shuvoqzorlar bo‘z-qo‘ng‘ir tuproqlarni egallagan	Kuchsiz		Kelajakda harakat kuchayadi		Texnogen jarayonlar kuchayishi bilan terrikon va karyerlarning soni ko‘payadi	Texnogen landshaftlar va buzilgan yerlar maydonlari kengayadi
Tog‘oldi prolyuvial tekisliklardagi bo‘z-qo‘ng‘ir tuproqlarda sho‘rali shuvoqzorlar tarqalgan	Kuchli		Ma’lum yo‘llar bo‘yicha kelajakda kuchayadi	Nihoyatda past	Burg‘ulash va avtomobillar harakatining kelajakda kuchayishi deflyatsiya va eroziyani katta miqyosda tezlashtiradi	Relyefning o‘ydim-chuqurligi oshadi, yaylovlar ishdan chiqadi
Deltalarda o‘tloq tuproqlarda qamishzorlar, qoldiq sho‘rxoklarda turli o‘tli yulg‘unzorlar, taqirlarda qora saksovul mavjud	Kuchli	Kamayishi mumkin	Joylarda kuchayadi	Nihoyatda past	Amudaryo deltasida deflyatsiya, yaylovlar buzilishi, to‘qaylar qurishi kuchayadi	Qum relyef shakllari vujudga keladi, yaylovlar mahsuldorligi pasayadi
Tog‘oldi, adir va past tog‘lardagi bo‘z tuproqlarda turli o‘tli dasht mavjud	Kuchli	Joylarda kuchli	Betartib harakat kuchli	Amalga oshirilmagan	Tuproqning deflyatsiya, eroziyaga berilishi va yaylovlarning degradatsiyasi tezkor	Relyef o‘ydim-chuqurligi ortadi, yaylovlarning mahsuldorligi pasayadi
Past va o‘rtacha balandlikdagi tog‘larda turli o‘tli bug‘doyiqlar o‘sadi	Kuchli	Kuchli	Tartibli	Nihoyatda past	Betartib mol boqish, qiya yerlarni haydash, daraxtlarni qirqish tabiiy jarayonlarning vujudga kelishini kuchaytiradi	Tuproqning yuvilishi, jar eroziyasi, surilma, sel kuchayadi
Baland tog‘lar yonbag‘irlaridagi och qo‘ng‘ir tuproqlarda kserofitlar shashir bilan almashib keladi	Kuchsiz				Tabiiy jarayonlar harakatida insonning ta’siri kuchsiz	Tabiat komplekslari tabiiy holda rivojlanadi

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях UZEDU.ONLINE
Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

O‘zbekiston tabiat komplekslarining o‘zgarishini prognozlash. O‘zbekistonda shakllangan tabiat komplekslari rivojlanishi va tuzilishining asosiy qonuniyatlarini, ularda vujudga keladigan tabiiy geografik jarayonlarni, inson faoliyati ta’sirida ro‘y beradigan o‘zgarishlarni o‘rganish asosida kelajakdagi o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlarini prognoz qilish mumkin (7-jadval).

O‘zbekistonda, asosan, tekislik, tog‘oldi va tog‘ tabiat komplekslari tarqalgan, shuning uchun prognozlash ishlari ikki yo‘nalishda olib borilishi lozim.

O‘zbekistonda tekislik tabiat komplekslaridan hozirgi paytda, asosan, chorvachilik va sug‘orma dehqonchilik maqsadlarida foydalaniladi. Foydali qazilmalar topilgan joylarda konchilik sanoatida foydalaniladi. Inson xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq holda tekislik tabiat komplekslari turli darajada o‘zgargan.

Tog‘oldi va tog‘ tabiat komplekslarida xo‘jalik faoliyati xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Tog‘oldi tabiat komplekslari kuchli o‘zgargan, adirlar va past tog‘lar kamroq o‘zgargan, o‘rtacha va baland tog‘lar tabiat komplekslari kuchsiz o‘zgargan hisoblanadi.

Prognoz, geografik prognoz, geografik prognozlash, geografik prognoz muddatlari, geografik prognoz turlari, sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy geografik prognozlar.

1. Geografik prognozlash deb nimaga aytiladi?
2. Geografik prognozlar qanday muddatlarga tuziladi?
3. Tabiat komponentlarining qanday xususiyatlari atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishi mumkin?
4. O‘zingiz yashab turgan joyda tabiiy muhit qanday omillar ta’sirida o‘zgarayotganini daftaringizga yozing.

16-§. ATROF-MUHIT MONITORINGI VA GEOGRAFIK-EKOLOGIK EKSPERTIZA ASOSLARI

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab fan-texnika inqilobi natijasida jamiyatning tabiatga ta’siri kuchayib borayotganligini e’tiborga olib, maxsus kuzatish tizimini tashkil qilish zarurati paydo bo‘ldi. Mazkur kuzatish natijasida to‘plangan ma’lumotlar tabiiy muhitda yuz berayotgan o‘zgarishlarni baholash va tegishli xulosalar chiqarishga imkon beradi. Shuning uchun

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ham monitoring tizimini tashkil qilish bo‘yicha takliflar o‘rtaga qo‘yildi. Atrof-muhit holatining monitoringi masalasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1972-yilda Stokgolmda bo‘lib o‘tgan tabiiy muhit muhofazasiga bag‘ishlangan konferensiyasi arafasida vujudga keldi. Shu munosabat bilan fanda yangi monitoring (lotincha «monitor» – esga soladigan, ogohlantiradigan) tushunchasi paydo bo‘ldi.

Monitoring – tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida ma’lum bir hudud tabiiy sharoitining holatini kuzatish, nazorat qilish va boshqarish tizimidir.

Monitoringning asosiy maqsadi tabiiy muhitning inson faoliyati ta’sirida o‘zgarishini kuzatish, olingan ma’lumotlar asosida baholash va tegishli boshqaruv tadbirlarini qo‘llashdir.

Monitoring asosida atmosfera havosi, suv havzalari, yerosti suvlari, tuproq, o‘simlik qoplamining turli chiqindilar, zaharli kimyoviy moddalar, radioaktiv elementlar bilan ifloslanishi kuzatiladi. Kuzatish ishlari insonning ma’lum ekologik sharoitda yashashining buzilishiga qaratiladi. Atrof-muhitning o‘zgarish darajasi hali ifloslanmagan tabiiy sharoit holatiga nisbatan olinadi.

Akademik I. P. Gerasimov tomonidan monitoring tashkil qilishning *bioekologik, geoekologik* va *biosfera bosqichlari* ajratilgan.

Bioekologik monitoring bosqichida atrof-muhitning ifloslanishi uning inson salomatligiga ta’siri nuqtayi nazaridan kuzatiladi. Mazkur bosqichda odamlarning kasallanishi, o‘lim, tug‘ilish, uzoq umr ko‘rish va boshqa ma’lumotlardan foydalaniladi. Bu ma’lumotlar insonning atrof-muhit o‘zgarishiga aks ta’siri hisoblanadi. Ushbu bosqichda monitoring kuzatish shoxobchalari va sanitariya-gigiyena xizmati ma’lumotlariga tayanib ish ko‘riladi.

Bioekologik monitoring inson salomatligi uchun zararli bo‘lgan chiqindi va moddalar bo‘yicha kuzatishni tashkil qiladi.

Geoekologik monitoring bosqichida, asosan, tabiiy, tabiiy-antropogen geotizimlar, rekreatsion hududlar kuzatiladi va nazorat qilinadi. Mazkur bosqich uchun tabiatni ifloslantiruvchi moddalarning ruxsat etilgan miqdori va geotizimlarning o‘z-o‘zini tozalash qobiliyati haqidagi ma’lumotlar muhim hisoblanadi. Kuzatishlar geografik statsionarlarda, maxsus zona yoki poligonlarda olib boriladi.

Geotizimli monitoringni amalga oshirishda hududda havo, suv, tuproq, o‘simlik, hayvonot dunyosi, inson salomatligiga salbiy ta’sir etuvchi omil-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

lar va ifloslantiruvchi manbalar bo‘yicha kuzatish tashkil etiladi. Bu borada geotizimlarning o‘ziga xos xususiyatlari e’tiborga olinmog‘i lozim.

Biosfera monitoringi bosqichining asosiy vazifasi atrof-muhitni dunyo miqyosida kuzatishdan iborat. Bunda atmosferaning changlanishiga, Dunyo okeanining ifloslanishiga va boshqa ko‘rsatkichlarga ko‘proq e’tibor beriladi. Kuzatishning asosiy maqsadi dunyo miqyosida bo‘ladigan o‘zgarishlarning aholi salomatligi va faoliyatiga ta’sirini baholashdir. Kuzatishlar biosfera poligonlari tizimida olib boriladi. Biosfera poligonlari tizimiga qo‘riqxonalar va aholining xo‘jalik faoliyati zonalari kiradi.

Atmosferani kuzatishda asosiy e’tibor chang miqdorining ortib ketishiga, «issiqxona samarasi»ning vujudga kelishiga, qutbiy mintaqalarda ozon qatlamining yupqalanishiga qaratiladi.

O‘zbekistonda atrof-muhit monitoringini amalga oshirish. O‘zbekistonda qishloq va suv xo‘jaligi, konchilik, kimyo, metallurgiya va boshqa sanoat tarmoqlarining so‘nggi 50–60 yil davomida tez sur’atlar bilan rivojlanishi natijasida atrof-muhitda kuchli o‘zgarishlar ro‘y berdi, mintaqaviy va mahalliy ekologik muammolar kelib chiqdi. Natijada atrof-muhit holatini muntazam kuzatish, nazorat qilish va boshqarishning yagona davlat tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish zarurati yuzaga keldi.

Atrof-muhit monitoringi mamlakatimizdagi bir qancha muassasa va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Atmosfera havosi va suv havzalarining ifloslanishi O‘zbekiston Gidrometeorologiya Bosh boshqarmasi tomonidan, yerosti suvlarining ifloslanishi, noxush tabiiy geografik jarayonlarning rivojlanishi O‘zbekiston Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasiga qarashli «O‘zbekgidrogeologiya» korxonasi tomonidan, tuproqlarning sho‘rlanishi va grunt suvlari me’yori, kollektor suvlari minerallashuv darajasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan, o‘rmonlar holati O‘rmon xo‘jaligi qo‘mitasi tomonidan, atrof-muhitning inson salomatligiga ta’siri bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan kuzatilib, nazorat qilib turiladi. Bu tashkilot va muassasalarning monitoring sohasidagi faoliyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan boshqariladi. Bu qo‘mita atrof-muhit holati bo‘yicha turli axborot va ma’lumotlarni yig‘ib, yuzaga kelgan ekologik vaziyatni baholaydi. Noxush ahvol vujudga kelgan bo‘lsa, tegishli tashkilotlarga xabar berish bilan birga uning oldini olish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Yil davomida mamlakatimiz bo‘yicha olib borilgan kuzatish va nazorat ma’lumotlari yig‘ilib, o‘rtacha oylik ko‘rsatkichlar aniqlanadi.

Geografik-ekologik ekspertiza asoslari. XX asrning 60–70-yillaridan e’tiboran yirik xo‘jalik korxonalarini qurish va boshqa tadbirlar loyihalari mutaxassislarning har tomonlama ko‘rigidan o‘tib, ularning ruxsati bilangina amalga oshirila boshlandi. Bu jarayon umumiy ma’noda ekspertiza deb ataladi.

Ekspertiza deb, yirik muhandislik inshootlarini qurish loyihalarining mutaxassislar ko‘rigidan o‘tkazilishiga aytiladi. «Ekspert» so‘zi lotin tilida «tajribali» degan ma’noni bildiradi. *Ekspert* – biror sohada ekspertiza o‘tkazuvchi mutaxassis. Masalan, qurilish, geologiya, qishloq xo‘jaligi, suv xo‘jaligi, atom energetikasi, mashinasozlik va h.k. sohalar bo‘yicha ekspertiza, asosan, loyihalanayotgan muhandislik inshootining atrof-muhitga ta’sirini baholash yuzasidan o‘tkaziladi. Ekspertizalar geografik va ekologik ekspertizaga bo‘linadi.

Geografik ekspertiza deb, loyihalashtirilayotgan muhandislik inshootining atrof-muhit talablariga mos kelish-kelmasligini aniqlashga aytiladi.

Ekologik ekspertiza deb, inson faoliyatining atrof-muhit biologik (o‘simlik, hayvonot dunyosi va mikroorganizmlar) qismiga ta’sirini baholashga aytiladi.

Geografik va ekologik ekspertiza bir-biriga barcha jihatdan yaqin va bir-birini taqozo qilishini e’tiborga olib, geografik-ekologik ekspertiza deb ataladi. Geografik-ekologik ekspertiza ekspertiza jarayonida muhandislik inshootining atrof-muhitga, aholi salomatligiga qanday ta’sir qilishi e’tiborga olinadi.

Ekspertiza turli darajalarda amalga oshiriladi. Davlat ekspertizasi, Vazirlik ekspertizasi, Davlat fan va texnika qo‘mitasi ekpertizasi, ilmiy va jamoatchilik ekspertizasi va boshqalar. Atrof-muhit bo‘yicha ekspertiza Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan belgilanadi. Ushbu tashkilotda ekologik-geografik ekspertiza boshqarmasi mavjud.

O‘zbekistonda geografik-ekologik ekspertiza o‘tkazish. O‘zbekistonda o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab yirik inshoot va obyektlarning loyihalari geografik-ekologik ekspertizadan o‘tkazila boshlandi. Hozirgi paytda O‘zbekistonda yangi sanoat korxonalarini ekologik talablarga mos holda joylashtirish, mavjud korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar, atrof-muhitga chiqarayotgan chiqindilar masalasi atroflicha tahlil qilinib, texnologik jarayonlarni mukammallashtirish, gaz va changni tutib qoluv-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

chi, ularni tozalovchi zamonaviy moslamalarni o‘rnatishga katta ahamiyat berilmoqda. Mamlakatimizda qurilayotgan yirik va o‘rtacha korxonalar ekologik tartib-qoida, belgilangan me’yorlar asosida qurilish bilan birga ishlash jarayonida atrof-muhitga zararli chiqindilarni chiqarishi me’yorda bo‘lishi kafolatlangan. Masalan, Asaka shahridagi yengil avtomobil zavodi, Qorovulbozordagi neftni qayta ishlash zavodi va boshqa korxonalar ekologik ekspertizadan chuqur va har tomonlama o‘tkazilgan.

Monitoring, bioekologik monitoring, geoekologik monitoring, ekspertiza, ekspert, geografik ekspertiza, ekologik ekspertiza.

1. Monitoring tushunchasining mohiyati va asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. O‘zbekistonda monitoringni amalga oshirish qaysi tashkilot tomonidan boshqariladi?
3. Geografik va ekologik ekspertizalarning o‘zaro farqi va o‘xshashligi nimada?
4. O‘zingiz yashab turgan joyda tuproq, suv va havoni ifloslaydigan korxonalar ro‘yxatini tuzing.

V BOB. DUNYO AHOLISI

17-§. DUNYO AHOLISI VA ZAMONAVIY DEMOGRAFIK VAZIYAT

XIX asrgacha dunyo aholisining soni ancha sekin o‘sib, 1820-yilga kelib 1 milliard kishiga yetdi. Bu jarayon aholining tabiiy o‘sishi pastligi bilan belgilangan edi, chunki o‘tgan tarixiy bosqichlarda ham tug‘ilish, ham o‘lim ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lib, ular orasidagi farq juda kichik darajada edi. Lekin 1 milliarddan 2 milliardgacha ko‘payish uchun insoniyatga birmuncha kamroq vaqt, ya’ni 107 yil kerak bo‘ldi (1820–1927-yillar orasi). Keyingi yillarda dunyo aholisi soni yanada tezroq o‘sib bordi. 1960-yilga kelib dunyo aholisi 3 milliard kishiga yetdi. 1975-yilga kelib 4 milliard kishi, 1987-yilda 5 milliard kishi, 1999-yilda 6 milliard kishi, 2011-yilga kelib esa 7 milliard kishiga teng bo‘ldi. 2017-yil holatiga jahon aholisi soni 7,5 milliard kishi atrofida va o‘sishi davom etmoqda.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Demak, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib jahon aholi sonining ko‘payishi keskin tezlashdi. Bu jarayon fanda *demografik portlash* deb ataladi. Bu hodisaning sababi – ijtimoiy-iqtisodiy va fan-texnika taraqqiyoti tufayli aholining turmush darajasi yuksalishi, yashash sharoiti yaxshilanishi va sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishi, odamlarning o‘rtacha umr davomiyligining o‘sishi, o‘lim darajasi esa pasayib ketganligidir. Dastlab demografik portlash XIX asrning boshi – XX asrning birinchi yarmida G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada ro‘y bergan bo‘lsa, XX asrning ikkinchi yarmida esa Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Okeaniyadagi rivojlanayotgan mamlakatlar aholi sonining yuqori sur’atlar bilan o‘sishida o‘z aksini topdi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi yuqori tezlik bilan o‘sib kelgan bir paytning o‘zida, Yevropa davlatlari va Yaponiyada aholining tabiiy ko‘payishi keskin sekinlashdi. Hattoki, ayrim hollarda tug‘ilish o‘limdan ham pastroq darajaga tushib ketib, aholining tabiiy kamayish *(depopulyatsiya)* jarayoni ham ro‘y berdi.

Demografik portlashdan keyingi tug‘ilishning pasayib ketish jarayoni sabablarini *demografik o‘tish nazariyasi* yordamida izohlash mumkin. Bu nazariyaga ko‘ra, jamiyatda aholining takror barpo bo‘lishi 4 ta bosqichdan o‘tib o‘zgarib boradi (7-rasm). Dastlabki, 1-bosqichda tug‘ilish bilan o‘lim juda yuqori bo‘lib, orasidagi tafovut, ya’ni aholi tabiiy ko‘payishi minimal darajada saqlanadi. Bunday demografik vaziyat “an’anaviy turg‘unlik” deb ataladi. Keyingi, 2-bosqich davomida o‘lim darajasi keskin kamayib, yuqorida ta’riflangan demografik portlash hodisasi ro‘y beradi. Demografik o‘tishning 3-bosqichida o‘limning pasayish jarayoni o‘z poyoniga yetib, tug‘ilish darajasi kamayishni boshlaydi. Tug‘ilishning pasayib ketishi aholining yashash tarzi o‘zgarganligi (shaharlashuv, sanoatlashuv, mehnat unumdorligining yuksalishi, tibbiyotning rivojlanishi, ayollarning jamiyatdagi o‘rni o‘zgarishi va hokazo) natijasida yuzaga keladi. Yakuniy, 4-bosqichda esa tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari ancha past bo‘lib, tabiiy ko‘payish minimal darajada kuzatiladi va “zamonaviy barqarorlik”



7-rasm. Demografik o‘tish bosqichlari

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

deb ataluvchi demografik vaziyat vujudga keladi. Ba’zida demografik o‘tish jarayoni bu holat bilan chegaralanib qolmasdan, depopulyatsiya bosqichiga ham o‘tib ketadi.

Dunyoning turli mamlakatlari demografik o‘tishning har xil bosqichini boshdan kechirmoqda. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi rivojlangan mamlakatlar 4-bosqichda bo‘lib, tug‘ilish va aholi tabiiy ko‘payishining pastligi bilan ajralib turibdi. Osiyoda Janubiy va Shimoliy Koreya, Singapur, Tailand va hattoki aholi soni jihatidan dunyoda yetakchilik qilayotgan Xitoy ham demografik o‘tishning yakuniy bosqichiga kirdi. Lotin Amerikasi va Okeaniyaning ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarida ham o‘xshash demografik vaziyat kuzatilmoqda. Tug‘ilish va aholining tabiiy ko‘payishining eng past ko‘rsatkichlari esa Vengriya, Bolgariya, Serbiya, Ruminiya, Latviya, Litva, Ukraina kabi Yevropaning o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlariga xos. Bu davlatlarda bir necha yildan buyon aholining tabiiy kamayishi sodir bo‘lmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligi demografik o‘tishning 3-bosqichini kechirmoqda, ularda tug‘ilish ko‘rsatkichlari asta-sekin pasayib bormoqda. Demografik o‘tish jarayonining eng past sur’atlari esa Afrika davlatlari uchun xos. Ayniqsa, G‘arbiy, Markaziy va Sharqiy Afrika mamlakatlarida tug‘ilish va aholi tabiiy ko‘payishining yuqori darajalari saqlanib qolmoqda. Jumladan, 2016-yil yakunlari bo‘yicha, jahonning aholi tabiiy ko‘payish sur’atlari bo‘yicha 10 ta yetakchi davlat ichida 9 tasi Afrika materigida joylashgan, birinchi beshlikdan esa faqat Afrika mamlakatlari (Malavi, Uganda, Burundi, Niger, Mali) joy olgan.

Demak, dunyoning eng rivojlangan davlatlari hamda o‘tish iqtisodiyotidagi ko‘p davlatlar demografik o‘tishni yakunlab qo‘ygan bo‘lsalar, Afrikaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatidan eng sust rivojlangan mamlakatlari 2-bosqichdan 3-bosqichga o‘tish arafasida turibdi. Shuning uchun hozirgi sharoitda dunyo aholisi, asosan, rivojlanayotgan va eng qoloq mamlakatlar hisobiga ko‘payib bormoqda. Hozirgi davrda dunyo aholisi har yili o‘rtacha 70–80 mln kishiga ko‘paysa, bu ko‘payishning 97% Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan davlatlariga to‘g‘ri keladi (8-jadval). Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning demografik vaziyatidagi tafovutlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, shaharlashuv, aholining turmush tarzi va an’anaviy qadriyatlarning saqlanganlik darajasi kabi omillar bilan bog‘liq.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

8-jadval.

Dunyo va yirik regionlarning asosiy demografik ko‘rsatkichlari (2016-y.)

№	Hududlar	Tug‘ilish (har 1000 kishiga	O‘lim (har 1000 kishiga)	Aholi tabiiy ko‘payishi	
				Har 1000 kishiga	%
1	Dunyo	20	8	12	1,2
2	Rivojlangan davlatlar	11	10	1	0,1
3	Rivojlanayotgan davlatlar	22	7	15	1,5
4	Yevropa	11	11	0	0
5	Osiyo	18	7	11	1,1
6	Afrika	36	10	26	2,6
7	Shimoliy Amerika (AQSH va Kanada)	12	8	4	0,4
8	Lotin Amerikasi	17	6	11	1,1
9	Avstraliya va Okeaniya	17	7	10	1,0

Tabiiy ko‘payishning yuqori sur’atlari saqlanishi yoki o‘ta past darajaga tushishi mamlakat iqtisodiyoti uchun turli muammolarni keltirib chiqaradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu muammolar ishsizlik, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi kamchiliklar bo‘lsa, rivojlangan davlatlarda ular mehnat resurslari yetishmasligi, nafaqa va soliq tizimlarining beqarorligida bilinadi. Ayrim davlatlar demografik vaziyatini o‘zgartirish maqsadida maxsus moddiy, ma’muriy va targ‘ibot choralarini qo‘llab kelmoqda. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshiriladigan bunday choralar tizimi *demografik* siyosat deb ataladi. Demografik siyosat, asosan, ikki xil: mamlakat aholisi tabiiy o‘sishini kamaytirishga qaratilgan yoki uni ko‘tarish maqsadini ko‘zlaydigan bo‘ladi. Birinchi yo‘nalishdagi demografik siyosat tajribalari Xitoy, Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Eron va boshqa rivojlanayotgan davlatlarda mavjud bo‘lsa, ikkinchisi Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilmoqda.

Aholi soni, tug‘ilish, o‘lim, aholining tabiiy o‘sishi, demografik portlash, demografik o‘tish, demografik vaziyat, demografik siyosat.

1. Demografik portlash tushunchasi nimani anglatadi va u nima sababdan ro‘y beradi?
2. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda demografik vaziyat qanday farqlanadi?
3. Turli maqsadlarga yo‘naltirilgan demografik siyosat haqida fikringizni bildiring.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

18-§. URBANIZATSIYA JARAYONINING GLOBAL VA REGIONAL JIHATLARI

Ma’lumki, **urbanizatsiya** (lotincha *urb* – “shahar”) – bu shaharlar va shahar aholisining o‘sish, shahar turmush tarzining keng tarqalish jarayonidir. Shaharlar eng qadimgi davrlarda vujudga kelib, qishloqlar bilan birgalikda aholi manzilgohlarining ikkita asosiy turidan birini tashkil qiladi. Shaharlar tarixan ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida paydo bo‘lgan va rivojlangan. Qadimgi davrlarda shaharlar hunarmandchilik, savdo-sotiq, ma’muriy boshqaruv, mudofaa ishlari, diniy ibodatxona va ziyoratgohlar negizida vujudga kelgan. Tarixdan ma’lumki, bir necha ming yillar avval Yer yuzida Fiva, Bobil (Vavilon), Ur, Afina, Rim, Iskandariya, Karfagen, Moxenjo-Daro, Samarqand (Marokand) kabi yirik shaharlar mavjud bo‘lgan. Ammo haqiqiy shaharlashuv jarayoni qizg‘in sur’atlar bilan faqat XIX asrda, dastlab Yevropada, keyinchalik esa Shimoliy Amerikada boshlandi. Bu hodisa G‘arb davlatlarida o‘sha paytda ro‘y bergan sanoat inqilobining natijasi bo‘ldi. Dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlarida esa urbanizatsiya jarayonlari XX asrning o‘rtalarida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalardagi ijobiy o‘zgarishlar tufayli boshlandi va hozirgi kungacha yuqori sur’atlar bilan davom etmoqda.

Oxirgi 200 yil davomida dunyo aholisida shahar aholisining ulushi muntazam ravishda o‘sib borgan. 1800-yilda insoniyatning taxminan 3 % i shahar joylarida istiqomat qilgan edi. 1900-yilga kelib bu raqam 14 % gacha ko‘tarildi. Yarim asrdan so‘ng, 1950-yilda jahon urbanizatsiya darajasi 29 % ni tashkil etdi, 1990-yilda bu ko‘rsatkich 45 %, 2001-yilda – 47 % ga yetadi. 2010-yilga kelib shaharliklarning jahon aholisi tarkibidagi ulushi 50 % dan ortdi va hozirgi kunda u 54 % ga teng.

Urbanizatsiya jarayoni 3 ta asosiy bosqichdan o‘tib rivojlanadi.

I. *Shakllanayotgan urbanizatsiya* bosqichida shahar aholisining ulushi 50 % dan past bo‘lib, yangi shaharlar vujudga keladi, ayrim qishloq joylar shahar manzilgohlari toifasiga o‘tib ketadi. Ayniqsa, yirik shaharlar tez o‘sishni boshlaydi. Bunda eng yirik shahar boshqalarga nisbatan ancha ilgarilab ketadi. Eng yirik shaharlarning o‘sishi ayrim hollarda “soxta” urbanizatsiya tarzida, ya’ni shahar chekkalarida qishloqdan ko‘chib kelgan past daromadli aholi uy-joylarining zichlashib borishi ko‘rinishida kechadi. Hozirda Osiyo va Afrikadagi qator rivojlanayotgan mamlakatlar urbanizatsiyaning ana shu bosqichini kechirmoqdalar.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

II. *Rivojlangan urbanizatsiya* bosqichi “millioner” shaharlarning yuqori sur’atlar bilan o‘sishi hamda yirik shaharlar atrofida aglomeratsiyalarning vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Shaharliklarning jami aholidagi ulushi 50 % dan ortib ketadi, yangi shaharlar deyarli vujudga kelmaydi, mavjud shaharlar esa, ayniqsa, yiriklari tez rivojlanadi, shahar manzilgohlarining tizimlari shakllanib boradi. Urbanizatsiyaning bu bosqichi Sharqiy Yevropa, MDH davlatlari, Lotin Amerikasi, Shimoliy Afrika, Janubi-g‘arbiy Osiyo, Okeaniyadagi ko‘p mamlakatlarga xos.

III. *Yetuk urbanizatsiya* bosqichi Yevropaning eng rivojlangan davlatlari, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yaponiya, Isroilda kuzatilmoqda. Bunda aholi yirik shaharlarning markazlaridan asta-sekin shahar atrofiga ko‘chib boradi, lekin shaharda ishlash, o‘qish, turli faoliyat yuritishni davom ettiradi. Natijada shaharlar markazlari, asosan, tadbirkorlik, bank-moliya sektori, boshqaruv sohalarining rivojlanish maskanlariga aylanib, aholi yashash massivlari esa tobora markazdan uzoqlashib boraveradi. Bunday ijtimoiy-geografik jarayon *suburbanizatsiya* deb ataladi. Transport va aloqaning zamonaviy texnologiyalari rivojlangan sari urbanizatsiyaning bu bosqichida shahar iqtisodiyoti tarmoqlari va shahar turmush tarzi qishloq joylarda ham keng tarqalib boradi, natijada shahar va qishloqlardagi yashash sharoiti tobora yaqinlashadi, ya’ni, qishloq joylar rasman o‘zining qishloq maqomini saqlab tursa-da, aslida, tub ma’noda shaharlashib ketadi. Shahar bilan qishloq joylar orasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farq va chegaralarning yo‘qolib borish jarayoni *rurbanizatsiya* atamasi bilan yuritiladi.

9-jadval

Dunyo va yirik regionlarning urbanizatsiya darajasi (2016-y.)

№	Hududlar	Urbanizatsiya, %
1	Dunyo	54
2	Rivojlangan davlatlar	78
3	Rivojlanayotgan davlatlar	49
4	Yevropa	74
5	Osiyo	48
6	Afrika	41
7	Shimoliy Amerika (AQSH va Kanada)	81
8	Lotin Amerikasi	80
9	Avstraliya va Okeaniya	70

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Demak, jahon mamlakatlarida urbanizatsiya jarayoni turli bosqichlarida rivojlanib bormoqda va bu, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Yevropa, Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi, Avstraliya va Okeaniya kabi yirik mintaqalardagi davlatlarda urbanizatsiya ko‘rsatkichi o‘rtacha hisobda 70 foizdan oshgan (9-jadval). Bu borada, ayniqsa, Islandiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Niderlandiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Argentina, Venesuela kabi shaharlashuv darajasi 90 foizdan yuqori bo‘lgan davlatlar ko‘zga tashlanadi.

Jahon aholisining 60 foizi va dunyodagi shaharliklarning yarmi yashaydigan Osiyo qit’asida urbanizatsiyaning umumiy darajasi birmuncha pastroq, 50 foiz atrofida bo‘lib, o‘sishi davom etmoqda. Afrikada esa urbanizatsiya ko‘rsatkichi 40 foizdan sal ko‘proq. Lekin har ikkala qit’ada ham yuqori urbanizatsiyalashgan mamlakatlar bor. Jumladan, Osiyoda bu borada Yaponiya, Janubiy Koreya, Isroil, Fors qo‘ltig‘i arab mamlakatlari, Tailand, Afrikada esa Liviya, Jazoir, Misr, Marokash, JAR kabi davlatlar ajralib turibdi. Shu bilan birga, Butan, Burundi, Malavi, Uganda, Chad, Afg‘oniston va boshqa mamlakatlarda urbanizatsiya darajasi 25 foizga ham yetmaydi. Ammo oxirgi yillarda shahar aholisining umumiy soni va jahon aholisidagi ulushi aynan Osiyo va Afrika davlatlarida kechayotgan urbanizatsiya jarayonlari hisobiga ko‘paymoqda. Bunda eng salmoqli hissa shaharlari ancha yuqori sur’atlar bilan o‘sib borayotgan Xitoy va Hindiston davlatlariga tegishli.

Jahon urbanizatsiyasining hozirgi bosqichida xalqaro savdo-iqtisodiy va bank-moliya munosabatlari rivojlanishi, transmilliy korporatsiyalar faoliyati doirasining kengayishi, zamonaviy transport va aloqa tarmoqlari vujudga kelganligi hisobiga ayrim juda yirik shaharlarning ta’sir doirasi joylashgan davlati bilan chegaralanib qolmasdan, boshqa mamlakat va mintaqalar, ba’zan esa jahonni qamrab olmoqda. Bunday shaharlarning aholisi soni bir necha million kishiga teng bo‘lib, yirik transmilliy korporatsiyalar va xalqaro tashkilotlar qarorgohlari, dunyodagi eng yirik port, sanoat korxonalari, bank, moliyaviy jamg‘arma va birjalar joylashganligi bilan boshqa shaharlardan ajralib turadilar. Shu toifadagi shaharlarga nisbatan *global* (yoki jahon) *shaharlari* atamasi qo‘llaniladi. Global shaharlar qatoriga, eng avvalo, Nyu-York, London, Tokio, Shanxay, Gonkong, Parij, Dubay, Singapur kabi savdo-moliyaviy va transport salohiyati o‘ta katta shaharlar kiritiladi. Global shaharlar

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

safi borgan sari kengaymoqda, ularning ta’sir doirasi esa barcha qit’a va ularning yirik qismlarini qamrab olishga intilmoqda.

Urbanizatsiya jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismi va ularning bevosita hosilasi bo‘lib, qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarning qamrovi keng bo‘lib, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, tibbiy, madaniy, ma’naviy-axloqiy jihatlar bilan tavsiflanadi. Bunda ishlab chiqarish atrof-muhitga o‘tkazadigan bosimining kuchayishi, suv ta’minotidagi kamchiliklar, transport tarmoqlariga me’yoridan ortiq yuk tushayotgani, shahar turmush tarzi bilan bog‘liq kasalliklarning tarqalishi, jinoyatchilikning ortishi va boshqa muammolar eng dolzarb hisoblanadi. Demak, jahon urbanizatsiyasining zamonaviy bosqichi miqdor va sifat xususiyatlari, shuningdek, turli ko‘rinishdagi muammoli jihatlari bilan tavsiflanadi.

Urbanizatsiya, shahar, shahar aholisi, urbanizatsiya bosqichlari, “soxta” urbanizatsiya, suburbanizatsiya, rurbanizatsiya, global shaharlar, urbanizatsiya muammolari.

1. Nima sababdan urbanizatsiya jarayoni aynan so‘nggi ikki asr mobaynida yuqori tezlik bilan rivojlandi?
2. Urbanizatsiya rivojlanishi qanday bosqichlarni bosib o‘tadi?
3. Yirik shaharlarning ijobiy va salbiy tomonlarini jadval shaklida daftaringizga yozib chiqing.

19-§. XALQARO MIGRATSIYA JARAYONLARI VA MUAMMOLARI

Jahon mamlakatlarida aholi tarkibi va joylashuviga migratsiyalar katta ta’sir ko‘rsatadi. **Migratsiya** (lotincha *migratio* – “ko‘chish”) – aholining bir hududdan boshqa hududga doimiy yoki vaqtincha muddatga ko‘chishi. Bitta manzilgoh ichidagi ko‘chish migratsiya hisoblanmaydi. Migratsiyalar bir necha mezonlarga ko‘ra tasniflanishi mumkin. Hududiy miqyosi jihatidan *tashqi* va *ichki* migratsiyalar ajratiladi. Tashqi migratsiya deganda, boshqa davlatga ko‘chish tushuniladi. Ba’zida tashqi migratsiyalar materik ichidagi va materiklararo migratsiyalarga bo‘linadi. Ichki migratsiya bir davlat ichidagi boshqa hududga ko‘chish hisoblanadi. U, o‘z navbatida, rayon ichidagi va rayonlararo migratsiyalarga bo‘linadi.

Muddatiga ko‘ra migratsiyalar *doimiy* va *vaqtincha* turlarga bo‘linadi. Vaqtincha migratsiyalar mavsumiy, vaxtali hamda mayatniksimon (tebran-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ma) bo‘ladi. Mavsumiy migratsiyalar ko‘proq qishloq xo‘jalik ishlari bilan bog‘liq bo‘lsa, vaxtali migratsiyalar, asosan, tabiiy sharoiti noqulay hududlardagi foydali qazilma konlarida yoki qurilish obyektlarida mehnat qilish bilan bog‘liq. Mayatniksimon migratsiyalar esa shahar va uning atrofi o‘rtasida kunlik va haftalik tartibda kechadi: shaharga uning atrofidagi qishloq va kichikroq shaharlardan aholi ishlashga, o‘qishga va boshqa maqsadlarda, shaharliklar esa chetga, asosan, dam olish, ziyorat qilish yoki dehqonchilik bilan shug‘ullanish uchun tez-tez qatnab turishadi.

Aholi migratsiyasiga *iqtisodiy, oilaviy, etnik, diniy, siyosiy, ekologik (tabiiy)* kabi omillar sabab bo‘ladi. Migratsiyalar, asosan, iqtisodiy sabablar, ya’ni muayyan yashash sharoiti va ish o‘rinlarini qidirish bilan bog‘liq. Oilaviy migratsiyalar turli joylarda yashayotgan oila a’zolarining o‘zaro birlashuvi borasida amalga oshadi. Etnik va diniy migratsiyalar deganda, ma’lum millat yoki din vakillarining boshqa davlat yoki hududga ko‘chishi tushuniladi. Siyosiy migratsiyalar urush yoki siyosiy inqiloblar natijasida ro‘y beradi. Ekologik migrantlar tabiiy muhitning buzilishi tufayli yashash hududini tark etadilar. Bundan tashqari, aholi migratsiyalari *ixtiyoriy* va *majburiy, tashkillashtirilgan* va *tashkillashtirilmagan* kabi turlarga ham bo‘linadi.

Hozirgi vaqtda eng katta migratsiya to‘lqini rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga tomon yo‘nalgan (8-rasm). Bunda eng ko‘p xorijiy migrantlarni AQSH qabul qiladi. Oxirgi yillarda bu davlatdagi immigrantlar soni 45 mln kishidan oshgani qayd etilgan. G‘arbiy Yevropa davlatlari orasida esa eng ko‘p immigrantlar Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiyaga kelgan. Bu davlatlarning har birida 7–10 mln immigrant yashamoqda. G‘arbiy Yevropaga immigrantlarning asosiy qismi Janubi-g‘arbiy va Janubiy Osiyo, Shimoliy Afrika hamda Sharqiy Yevropa davlatlaridan bormoqdalar. Boshqa rivojlangan davlatlardan Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya, Isroil va JAR ko‘plab xorijiy migrantlarni qabul qilmoqda. Shunday ekan, barcha rivojlangan davlatlarda migratsiya saldosi (balansi) musbat hisoblanadi.

Aksariyat qismi manfiy migratsiya balansiga ega bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida ham yirik migratsion oqimlar vujudga kelgan. Jumladan, katta miqdordagi xorijiy migrantlarni Fors qo‘ltig‘idagi arab mamlakatlari, ayniqsa, Saudiya Arabistoni va BAA hamda Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya singari yangi sanoatlashgan davlatlar jalb qilmoqda. Bu davlatlarga Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Yaman,

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE



8-rasm. Xalqaro aholi migratsiyasining asosiy yo‘nalishlari

Indoneziya, Vyetnam, Misr kabi Osiyo hamda Afrika mamlakatlaridan millionlab immigrantlar borib mehnat qilishmoqda.

Lotin Amerikasi, Osiyo va Afrika qit’alarida qo‘shni davlatlar orasida nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy, ekologik, etnik omillarga bog‘liq holda soni jihatidan yirik, lekin hududiy ko‘lami nuqtayi nazaridan lokal (mahalliy) migratsion oqimlar ham ro‘y bermoqda. Masalan, Suriyadan Turkiyaga, Afg‘onistondan Eronga, Ugandadan Keniyaga millionlab kishilar ko‘chib bormoqdalar. Yirik migratsiya oqimlari MDH hududida ham mavjud bo‘lib, ko‘proq Rossiyaga yo‘nalgan.

Hozirgi zamondagi xalqaro aholi migratsiyalariga qator xususiyatlar va muammoli jihatlar xos. Eng ahamiyatlisi shundaki, migratsiya jarayonlari bugungi kunga kelib chindan ham globallashdi, deyarli barcha mintaqa va mamlakatlarni o‘z doirasi bilan qamrab oldi. Tashqi migratsiya ayrim hollarda, ayniqsa, rivojlangan va o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar uchun aholining umumiy ko‘payishida katta rol o‘ynaydigan bo‘ldi. Ammo xalqaro migratsiya oqimlari immigratsiya markaziga aylangan davlatlar aholisining tarkibi va harakatiga, jamiyatdagi etnik va konfessional (diniy) xilma-xillikka, millatlararo va dinlararo muno-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

sabatlarga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazmoqda. Ba’zida mahalliy aholi va kelgindilar orasida to‘qnashuv, mojarolar ham sodir bo‘lib turibdi.

Shu bilan birga, oxirgi yillarda dunyoda aholining majburiy migratsiyalari kuchayib bormoqda. Bu migratsion to‘lqinlarning o‘choqlari sifatida Suriya, Iroq, Falastin, Liviya, Afg‘oniston va boshqa harbiy-siyosiy vaziyati og‘ir va aholining keng qatlamlari uchun xavfli bo‘lgan davlatlar alohida ajralib turibdi.

Zamonaviy migratsiyaning yana bir muhim jihati shundan iboratki, xalqaro migrantlarning sifat tarkibi (masalan, ta’lim darajasi nuqtayi nazaridan) o‘zgarib bormoqda, davlatlararo migratsiya oqimlarida yuqori malakali mutaxassislarning ishtiroki faollashmoqda. Bu vaziyat immigratsiya markazlari bo‘lmish rivojlangan davlatlar uchun ijobiy ahamiyat kasb etsa, emigratsiya o‘choqlari – rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar uchun esa buning aksi, ya’ni salbiy holat hisoblanadi.

Aholi migratsiyalari, tashqi va ichki migratsiya, migratsiya sabablari, migratsion oqimlar, immigratsiya markazi, emigratsiya o‘chog‘i, majburiy migratsiya.

1. Aholi migratsiyalari qanday mezonlar bo‘yicha qanday turlarga bo‘linadi?
2. Dunyodagi eng yirik xalqaro migratsiya oqimlari qaysi davlatlarga yo‘nalgan?
3. Qanday holatlarda davlat tashqi migratsiyaga nisbatan uni ma’lum yo‘nalishda o‘zgartirish yoki tartibga solish maqsadida maxsus siyosat olib borishi kerak, deb o‘ylaysiz? Bu borada o‘z fikrlaringizni bildiring.

VI BOB. DUNYONING GEOSIYOSIY MANZARASI VA GLOBAL MUAMMOLAR

20-§. DUNYONING GEOSIYOSIY TIZIMI VA UNING SHAKLLANISHI

“Geosiyosat” tushunchasi fanga birinchi marotaba shvetsiyalik olim Rudolf Chellen tomonidan kiritilgan bo‘lsa-da, fanga oid ilmiy manbalarda fanning “otasi” sifatida nemis olimi Fridrix Ratsel nomi qayd qilinadi. Fanning rivojlanishida geografiya, siyosatshunoslik, tarix, etnogeografiya, sotsiologiya kabi fanlarning ahamiyati katta. Fanning obyekti bo‘lib, dunyoning geosiyosiy tuzilishi va xalqaro dunyoviy targ‘ibot tushunilsa,

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

jamiyatda kechayotgan har xil darajadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ularning yuzaga kelishi, harakatlanishi va o‘zgarib borishini o‘zida aks ettiruvchi voqealar rivojini tahlil qilish uning predmetini tashkil etadi.

Geosiyosat fani, asosan, uch xil ilmiy yondashuv ta’sirida rivojlangan. *Sivilizatsion* yondashuv tarafdorlari insoniyat tarixini davlatlar yoki yirik imperiyalar emas, balki turli madaniy-diniy jamoalar – sivilizatsiyalar rivojlantiradi degan fikrni bildiradilar. N. Y. Danilevskiy, K. N. Leontyev, P. N. Savitskiy, L. N. Gumilyov, A.Toynbi, S. Xantington kabilar ushbu oqim g‘oyalari rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar. Garvard universiteti professori S. Xantingtonning 1993-yil chop etilgan “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” deb nomlangan kitobida XXI asrning asosiy munozarali to‘qnashuvlar negizi bo‘lib iqtisod yoki mafkura emas, balki sivilizatsiyalar chegaralari kesishgan hududlar hisoblanishini ta’kidlab o‘tadi.

Harbiy-strategik yondashuv tarafdorlari N. Makiavelli, K. fon Klauzes, X. I. Moltke, A. Mexen, D. A. Milyutin kabilar dengizbo‘yi davlatlarining tarixi geografik o‘rni, qirg‘oq chegara chiziqlarining uzunligi va ko‘rinishi, istiqomat qiluvchi aholi soni hamda ularga xos bo‘lgan xususiyat kabi omillar ta’sirida shakllanadi degan fikrni bildirganlar. Mazkur oqim vakillarining g‘oyalari umumiy holda dengizbo‘yi davlatlarining kontinental (quruqlik ichkarisidagi) davlatlarga nisbatan jahon siyosiy sahnasida yetakchilikka erishish uchun amalga oshirilishi lozim bo‘lgan, harakatlar yo‘nalishini ko‘rsatib berishdan iborat bo‘lgan, deb hisoblash mumkin.

Geografik determinizm geosiyosatda mavjud bo‘lgan eng qadimiy yondashuv hisoblanadi. Ushbu g‘oya tarafdorlari tabiiy muhit (iqlim, tuproq, daryo, dengiz va b.) jahon tarixi hamda insonlar hayot tarziga ta’sir ko‘rsatadi deb hisoblaydilar. Bu fikrlar qadimiy dunyo olimlaridan Gerodot, Gippokrat, Polibiy, Aristotel kabilar tomonidan shakllantirilgan, keyinchalik uning rivojlanishida J. Baden, Sh. Monteskye, A. fon Gumboldt kabilarning xizmatlari katta bo‘lgan. Ular tomonidan ko‘rsatib berilgan tabiiy muhit unsurlari orasida aynan iqlim insonlar atvorining shakllanishi va davlatlarda mavjud siyosat xususiyatlarni yuzaga kelishida sababchi bo‘lgan asosiy omil sifatida qaralgan.

Geosiyosatda mavjud barcha qarashlar makon (hudud) ustidan nazorat g‘oyasini rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur fan aynan davlat yoki davlatlar ittifoqi tomonidan makon ustidan nazorat o‘rnatishning asosiy yo‘nalishlari va shakllarini tadqiq qilishi bilan ajralib turadi. Nazorat qilinayotgan

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

yoki nazorat qilinishi rejalashtirilayotgan hudud *geosiyosiy maydon* deb nomlanadi. Bundan tashqari kuchlar nisbati, siyosiy makon, chegara, geosiyosiy qiziqish kabi geosiyosiy tushunchalar ham mavjud.

Geosiyosat nuqtayi nazaridan insoniyat tarixi turli geosiyosiy davrlarning qat'iy ketma-ketligidan iborat. Dunyo geosiyosiy tizimining shakllanishida Vestfal, Vena, Versal, Potsdam va Belovej davrlarining ahamiyati katta. 1648-yil O'ttiz yillik urushning tugashi munosabati bilan imzolangan Vestfal shartnomasi Yevropada Ispaniya, Portugaliya, Gollandiya keyinchalik Angliya, Shvetsiya va Fransiya kabi markazlashgan kuchli davlatlarning jahon siyosiy maydonida hukmronlik qilish uchun o'zaro kurashga kirishishiga sababchi bo'lgan. Bu bosqich XIX asrning boshlarigacha davom etgan.

1814-yil sentabr – 1815-yil iyun oylarida fransuz inqilobi yuz berishi va Napoleon armiyasi mag'lubiyati bilan Yevropada yuzaga kelgan siyosiy holat Vena kongressida o'rganib chiqilgan va bu jarayon yangi – Vena geosiyosiy davrining boshlanishiga sababchi bo'lgan. Rossiya, Avstro-Vengriya, Britaniya, Germaniya, Fransiya va Usmoniylar imperiyasining siyosiy mavqelarining ortishi va ular o'rtasida dunyoni bo'lib olishga bo'lgan siyosiy raqobatning kuchayishi; XIX asr oxirlarida AQSH va Germaniyaning iqtisodiy jihatdan tez sur'atlar bilan rivojlanishi; Germaniya, Avstro-Vengriya va Italiyaning siyosiy jihatdan birlashuvi natijasida Uchlar ittifoqining yuzaga kelishi; Fransiya, Angliya va Rossiyaning esa Antanta ittifoqiga birlashuvi; ikki ittifoq o'rtasida yuzaga kelgan Birinchi jahon urushining Uchlar ittifoqi mag'lubiyati bilan tugashi bu davrning muhim geosiyosiy voqeliklari hisoblanadi.

1919-yil 28-iyun kuni Fransiyaning Versal shahrida Birinchi Jahon urushi tugashi munosabati bilan shartnoma imzolanishi bilan geosiyosatda Versal davri boshlandi. Shartnomaga ko'ra, Fransiyaning kontinental, Angliyaning esa dengizdagi qudratli imperiyalarga aylanishi; Germaniya, Avstro-Vengriya, Rossiya va Turk imperiyalarining inqirozga uchrashi; 1917-yil oktabridan boshlab jahonda ilk sotsialistik tuzumga ega bo'lgan respublikalar ittifoqining paydo bo'lishi; jahon davlatlari orasida AQSH siyosiy va iqtisodiy mavqeining kuchayishi; 1939-yilda Ikkinchi jahon urushining boshlanishi ushbu davrga xos asosiy tarixiy voqeliklar hisoblanadi.

1945-yil Germaniyaning Potsdam shahrida Ikkinchi jahon urushi tugashi munosabati bilan Potsdam shartnomasining imzolanishi bilan to'rtinchi

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

geosiyosiy davr boshlandi. Dunyoda biopolyar (ikki qutbli) holatning yuzaga kelishi: Sobiq Ittifoq va uning tarafdorlari kontinental, AQSH va uning tarafdorlari esa dengizdagi qudratli davlatlarga aylanishi; ikki qudratli blok o‘rtasidagi sovuq yadroviy urush xavfining yuzaga kelishi mazkur davrdagi asosiy siyosiy jarayon hisoblanadi.

1991-yil 8-dekabr kuni Belarusdagi Belovej Pushchasi qo‘riqxonasida SSSR davlati rasman tugatilishi munosabati bilan Belovej shartnomasining imzolanishi hozirgi davrda eng so‘nggi geosiyosiy bosqichning boshlanishiga turtki bo‘ldi. Uning o‘rnida 12 ta mustaqil davlatning yuzaga kelishi va ularning MDH tarkibida birlashuvi; jahonda sotsialistik tuzumning yemirilishi; Yevropaning bir qator davlatlarida (GFR, Yugoslaviya, Chexoslavakiya) yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar; NATO harbiy bloki mavqeyining kuchayishi kabilar davrga xos asosiy siyosiy o‘zgarishlar hisoblanadi. Aytib o‘tilganidek, bu davr hali o‘z nihoyasiga yetgan emas. Bundan kelib chiqadiki, Belovej davriga xos bo‘lgan yana bir qator siyosiy o‘zgarishlar yuz berishi mumkin.

Geosiyosat, geosiyosiy yondashuvlar, sivilizatsion yondashuv, harbiy-strategik yondashuv, geografik determinizm, geosiyosiy kategoriyalar, makon ustidan nazorat, geosiyosiy maydon, geosiyosiy davrlar, Vestfal, Vena, Versal, Potsdam va Belovej davrlari.

1. Geosiyosat fani qaysi jihatlari bilan boshqa geografik fanlardan ajralib turadi?
2. Rudolf Chellenning “Geosiyosat – bu borliqdagi davlatlarni geografik organizm sifatida o‘rganuvchi fandir” deb bildirgan fikrini qanday izohlaysiz?
3. Mavzudagi ma’lumotlardan foydalanib, Belovej davrida jahon mintaqalarida yuz bergan siyosiy o‘zgarishlarni quyidagi jadvalda ifodalang.

№	Mintaqalar	Asosiy geosiyosiy voqeliklar

21-§. JAHONDAGI ZAMONAVIY GEOSIYOSIY VAZIYAT. DAVLATLARNING INTEGRATSION UYUSHMALARI

Jahon siyosiy sahnasidan kontinental davlatlar qudratini namoyon etuvchi Sobiq Ittifoqning parchalanib ketishi ko‘plab siyosiy o‘zgarishlarning yuzaga kelishiga sababchi bo‘ldi. Uzoq davrlardan buyon ikki qutbli ya’ni bipolyar bo‘lgan dunyoda qisqa fursat ichida bir qator geosiyosiy markazlar shakllandi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Ma’lumki, **Yevropa** jahon mintaqalari orasida eng ko‘p turli siyosiy jarayonlar va o‘zgarishlarni boshidan kechirgan mintaqa hisoblanadi. Potsdam shartnomasi urushdan keyingi davrlarda G‘arbiy Yevropaning AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya davlatlari yordamida siyosiy jihatdan yuksalishi, kapitalistik munosabatlarga asoslangan iqtisodning rivojlanishiga sababchi bo‘ldi. Sharqiy Yevropa davlatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi esa Sobiq Ittifoq davlati ta’sirida amalga oshgan va bu yerda sotsialistik tuzum asosiy mafkuraga aylangan.

Urush talofatlari bartaraf etilgach, ushbu subregionning asosiy davlatlari hamkorlikda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish, sharqiy davlatlarda yuzaga kelgan sotsialistik tuzumning g‘arbiy hududlarga yoyilishining oldini olish maqsadida keyinchalik jahondagi eng kuchli integratsion uyushmalardan biri deb tan olingan Yevropa Ittifoqi shakllantirildi. Sharqiy Yevropa hududida sotsialistik tuzum yemirilgach, undagi davlatlarni o‘z geosiyosiy nazoratida ushlash maqsadida 2004–2013 yillar oralig‘ida subregionning 11 ta davlati Yevropa Ittifoqi tarkibiga kiritildi.

Yevropa davlatlari iqtisodiyotida 2008-yil yuz bergan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlari hali ham sezilib turgan davrda Afrika va Yaqin Sharq davlatlarida yuz berayotgan turli siyosiy notinchliklar natijasida mintaqa hududiga katta miqdorda migrantlarning kirib kelishi bir qator siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy muammolarning yuzaga kelishiga sababchi bo‘lmoqda. Turli toifadagi migrantlar bilan birga Yevropaga turli g‘oyalar, turli madaniyat va urf-odatlar ham kirib kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida migrantlar va tub aholi o‘rtasida turli ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

1776-yil Angliyaning Amerikadagi 13 ta mustamlakasi o‘z siyosiy mustaqilligini e’lon qildi. Asosan, zamonaviy **AQSH** hududining shimoli-sharqiy va sharqiy qismlarini egallagan 13 ta shtat keyingi davrlarda o‘z hududlarini kengaytirish maqsadida bu yerdagi turli davlatlarga tegishli bo‘lgan bir qism yerlarni sotib olgan bo‘lsa (masalan: Fransiyadan Luizianani, Rossiyadan Alyaskani), janubiy va markaziy shtatlarning katta qismini esa urushlar natijasida Ispaniya, Meksika kabi davlatlardan tortib oldi. XIX asrning oxiridan boshlab, avval meridinal yo‘nalishda butun Amerika qit’asini, keyinchalik esa Yevropa, Osiyo, Afrika va Avstraliya hamda Okeaniya hududlari nazoratini sekin-astalik bilan qo‘lga kiritdi. Hozirgi davrda AQSH o‘zining asosiy raqiblari deb bilgan Rossiya, Xitoy, Germaniya, Eron, islom diniga e’tiqod qiluvchi Arab davlatlari atrofida o‘z geosiyosiy tayanch nuqtalarini shakllantirib, ularni qirg‘oqbo‘yi

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

hududlariga chiqish imkoniyatini iloji boricha cheklashga harakat qilmoqda. Shu orqali bir qutbli dunyoni shakllantirib, butun dunyo mintaqalarini nazoratini qo‘lga olishga intiladi.

SSSRning parchalanishi uning eng qudratli davlati hisoblangan **Rossiya** oldida bir tarafdan ichki ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish, ikkinchi tarafdan, qaytadan jahondagi siyosiy mavqeyini tiklashdek murakkab vazifani ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Rossiya o‘z muammolarini hal etish uchun zarur bo‘lgan vaqtni qo‘ldan boy bermaslik uchun, avvalo, MDH hududida tinchlikni saqlanib turishidan manfaatdordir. Shu bilan birga g‘arb ta’siriga tushib qolayotgan MDH davlatlarini o‘z ta’sir doirasida saqlab turishga ham harakat qilmoqda.

Sobiq sho‘rolar tizimidan qolgan ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga ega bo‘lgan ichki, Rossiyaning ta’sir doirasini toraytirishga qaratilgan NATO hududining sharqqa qarab kengayib borishi, xalqaro terroristik va boshqa guruhlarning Rossiya geosiyosiy mavqeini pasaytirishga bo‘lgan harakatlari ko‘rinishidagi tashqi omillar uning jahondagi asosiy geosiyosiy markazlaridan biriga aylanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Jahonning qadimiy madaniy markazlaridan biri bo‘lgan **Xitoy**da 1910-yil monarxiya tuzumining ag‘darilishi Sharqiy Osiyo mintaqasida katta o‘zgarishlarning yuz berishiga sababchi bo‘ldi. 1949-yil ichki siyosiy kelishmovchiliklarni SSSR yordamida hal qilgan kommunistik partiya bu yerda sotsialistik tuzumni o‘rnatishga erishdi. Bugungi Xitoy geosiyosati davlatning izchil iqtisodiy rivojlanishi, sotsialistik rejali iqtisodiyotdan erkin bozor munosabatlariga o‘tishiga qaratilgan. Xitoyning 1976–1989-yillardagi rahbari Den Syaopin tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya asosida Xitoyda iqtisodiyot va jamiyatni erkinlashtirish borasidagi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Qisqa fursatda iqtisodiyotda ijobiy natijalarga erishildi. Buni Xitoyning umumiy YMM ko‘rsatkichiga ko‘ra jahonda birinchi o‘rinni egallashida ham ko‘rish mumkin. 2016-yil ma’lumotlariga ko‘ra, jahon umumiy YMMning 17,8 % ga yaqini aynan ushbu davlat hissasiga to‘g‘ri keladi. Tabiiyki, iqtisodiy qudratini oshirib borayotgan Xitoy jahonda o‘zining geosiyosiy ta’sir doirasini ham kengaytirishga intilmoqda. U birinchi navbatda, yaqin qo‘shnilari, katta tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy resurs imkoniyatiga ega davlatlar bilan aloqalarini mustahkamlab bormoqda.

Ma’lumki, **Yaqin Sharq** davlatlari o‘ta qulay geosiyosiy o‘ringa ega. Uch qit’a – Yevropa, Osiyo va Afrika chorrahasida joylashganligi mintaqaga

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ko‘plab yirik davlatlarning geoosiyosiy qiziqishlariga sabab bo‘ladi. So‘nggi yillarda bu yerda topilgan energiya resurslarining katta zaxirasi bu qiziqishning yanada ortishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga bu hudud jahonning eng notinch mintaqalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bunga, birinchi navbatda, diniy omil asosiy sababchi hisoblanadi.

1947-yil 29-noyabrda BMT tomonidan taklif etilgan rejaga muvofiq Falastin hududlarida yahudiy va arab davlatlari tashkil etish ko‘zda tutildi. 1948-yil 14-mayida bu hududda yahudiy diniga e’tiqod qiluvchi Isroil davlatining tashkil topishi arab davlatlarining noroziliklariga sabab bo‘ldi. Natijada, 1948-yil 15-may arab davlatlar ligasi o‘z qo‘shinlarini Falastin yerlariga olib kirdi. Harbiy harakatlar uzoq muddat davom etmagan bo‘lsada, u hozirgacha o‘z yechimini topmagan “Falastin - Isroil” muammolarining shakllanishiga olib keldi.

Bundan tashqari, so‘nggi yillarda mintaqa hududining Suriyaga tegishli hududlariga kelib o‘rnashgan radikal islom guruhlari tomonidan tashkil etgan davlatchilik ko‘rinishining yuzaga kelishi, unga qarshi avval Suriya Armiyasi, so‘ngra Rossiya, AQSH, bir qator Yevropa davlatlari ittifoqi birlashgan qo‘shinlarining kurashi mintaqadagi geosiyosiy vaziyatning yomonlashuviga olib kelgan. Harbiy harakatlar olib borilayotgan hududlarda tinch aholining o‘z uylaridan bosh olib ketishlariga, mavjud iqtisodiy obyektlarning yakson bo‘lishiga sababchi bo‘lmoqda. Yaqin Sharq davlatlari muammosi jahon siyosiy hayotidagi hal qilinmagan munozarali masalalardan biri hisoblanadi.

Davlatlarning integratsion uyushmalari. Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonining yuzaga kelishi iqtisodiy integratsiyalarning shakllanishiga sababchi bo‘lgan. Ma’lumki, iqtisodiy integratsiya davlatlararo kelishuv siyosati asosida ular o‘rtasida o‘zaro uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi (YI) mintaqaviy integratsion guruhlar orasida a’zo davlatlar soni ko‘pligi, ularning jahon iqtisodiyotida muhim o‘rin egallashi bilan ajralib turadi. Uning shakllanishi 1951-yil Yevropa ko‘mir va temir ishlab chiqaruvchilar birlashmasi tashkil etilishi bilan bog‘liq. Ushbu birlashmaga Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg davlatlari a’zo bo‘lgan. 1957-yil mazkur davlatlar Yevropa iqtisodiy hamkorligi va atom energiyasi bo‘yicha Yevropa hamjamiyati tashkil qilish bo‘yicha shartnoma imzolaganlar. 1967-yil yuqorida nomlari qayd qilingan uch tashkilot birlashuvi Yevropa Ittifoqining tashkil topishiga

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

asos bo‘ldi. 1973-yil – Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya, 1981-yil – Gretsiya, 1986-yil Ispaniya, Portugaliya, 1995-yil – Avstriya, Shvetsiya, Finlyandiya, 2004-yil – Polsha, Chexiya, Vengriya, Slovakiya, Sloveniya, Litva, Latviya, Estoniya, Kipr, Malta, 2007-yil – Ruminiya, Bolgariya, 2013-yil – Xorvatiya davlatlari mazkur tashkilotga a’zo bo‘ldilar. 2016-yil Buyuk Britaniyada o‘tkazilgan referendum natijalariga ko‘ra ushbu davlat Yevropa Ittifoqi tarkibidan chiqib ketdi. Uning mazkur tashkilotdan to‘liq ajralib chiqishi 2017-yil yozida yuz berdi.

Ichki chegaralarga ega bo‘lmagan yagona iqtisodiy makonni yaratish, ushbu hududda ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini tenglashtirish maqsadida muomala uchun yagona valyutani joriy etish Yevropa Ittifoqining asosiy maqsadi hisoblanadi.

*Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH)*ga 1991-yil 8-dekabrda asos solingan bo‘lib, o‘z faoliyatini o‘sha yilning 21-dekabrida boshlagan. Hamdo‘stlik nizomiga ko‘ra a’zo davlatlar inson huquqlari va erkinligini ta’minlash, davlatlar tashqi siyosatini nazorat qilish, iqtisodiy hamkorlik, transport va aloqa tizimini rivojlantirish, aholi salomatligini muhofaza qilish, tabiatni muhofaza qilish, ijtimoiy va migratsion siyosat masalalarini hal etish; uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish masalarini hamkorlikda hal qilishlari zarur. Hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Moldova, Ozarbayjon, Armaniston Respublikalari tashkilot a’zolari bo‘lib hisoblanadilar. Turkmaniston esa assotsiatsiyalashgan davlat maqomiga ega. Shu bilan birga Mongoliya, Afg‘oniston tashkilot kuzatuvchilari sifatida turli darajadagi yig‘ilishlarda ishtirok etadi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) ning shakllanishi 1996-yil 26-aprelda Xitoyning Shanxay shahrida Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, XXR va Tojikiston harbiy sohada hamkorlik bo‘yicha kelishuv imzolashi bilan bog‘liq. Avvaliga “Shanxay beshligi” deb nom olgan ushbu tashkilot 2001-yil O‘zbekistonning unga a’zo bo‘lgandan so‘ng hozirgi rasmiy nomdagi tashkilot tuzilganligi haqidagi deklaratsiyani e’lon qildi. 2017-

9-rasm. SHHT dunyo xaritasida

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

yil Hindiston va Pokiston ushbu tashkilotning teng huquqli a'zolariga aylandilar. Shu bilan birga 6 ta muloqot hamkor davlatlar, 4 ta kuzatuvchi va 2 ta nomzod davlatlar ham ishtirok etadi (9-rasm). A'zo davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch, do'stlik va yaxshi qo'shnichilikni ta'minlash, mintaqada tinchlikni saqlash, xavfsizlik masalalarini o'zaro hamkorlikda hal qilish, terrorizm va ekstremizmga qarshi birgalikda harakat qilish, qurol-yarog', narkotik vositalar hamda noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash, iqtisodiy masalalarda o'zaro hamkorlikni rivojlantirish kabilar tashkilotning asosiy maqsadi hisoblanadi. Hozirgi kunda tashkilot tarkibida jahonning qudratli davlatlaridan uchtasi – Rossiya, Xitoy, Hindistonning faoliyat olib borishi uning jahondagi mavqeyi oshib borishiga sabab bo'lmoqda.

Geosiyosiy vaziyat, sotsialistik tuzum, kapitalistik tuzum, bufer davlat, notinch mintaqa, geosiyosiy o'rin, geosiyosiy qiziqish, iqtisodiy integratsiya.

1. AQSHning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rniga baho bering. Uning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotdagi mavqeyining oshishiga qanday omillar sababchi bo'ladi?
2. O'zbekiston qanday integratsion uyushmalar tarkibida faoliyat olib boradi?
3. Daftaringizga jahon iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega bo'lgan integratsion uyushmalarning nomlarini yozing.

22-§. INSONIYATNING GLOBAL MUAMMOLARI

Sanoat va fan-texnika inqilobi davrida insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tubdan o'zgarib ketdi. Bu o'zgarishlar natijasida bir qator dolzarb ahamiyatli, ta'sir doirasi jahon hamjamiyatini qamrab olgan, bashariyatning kelajakdagi ijtimoiy taraqqiyotini belgilab berayotgan muammolar vujudga keldi. Bu muammolar insoniyatning global muammolari deb ataladi hamda ularning yechimini topish yo'lida barcha davlatlarning kuch-qudrati, imkoniyat-harakatlari jamlanishi maqsadga muvofiq.

Global muammolarning vujudga kelishi va keskinlashuvi sabablari jahon aholisi sonining qisqa vaqt ichida bir necha barobar o'sganligi, sanoat va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, tabiiy muhitdagi muvozanatning inson xo'jalik faoliyati ta'sirida buzilishi, jahon xo'jaligida xalqaro iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi tufayli yagona global tizim sifatida shakllanishi, fan-texnika inqilobi va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining salbiy oqibatlari, davlatlar va siyosiy kuchlar o'rtasida ziddiyatlar kuchayishi kabilardan iborat.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Asosiy global muammolar qatoriga, odatda, quyidagilar kiritiladi: tinchlikni saqlash va jahon xavfsizligini ta'minlash muammosi; ekologik muammo; rivojlanayotgan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy qoloqligi va qashshoqlik muammosi; demografik muammo (rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining yuqori sur'atlar bilan o'sishi va rivojlangan mamlakatlardagi demografik inqiroz); oziq-ovqat muammosi, energetika muammosi, xomashyo resurslari muammosi, Dunyo okeanidan oqilona foydalanish muammosi; millatlararo va dinlararo munosabatlar muammosi; qon-yurak, onkologik kasalliklar va OITSga qarshi kurashish muammosi. Bundan tashqari, boshqa bir guruh muammolar ham ayrim adabiyotlarda global muammolar toifasiga kiritiladi, masalan, favqulodda vaziyatlarga qarshi kurashish va oldini olish muammosi, koinotni o'zlashtirish va fazoviy ekologiya muammosi yoki ma'naviy qadriyatlar inqirozi muammosi.

Insoniyatning global muammolari chambarchas ravishda o'zaro bog'liq, bir muammo boshqalarining keskinlashuviga olib kelmoqda. Shunday ekan, muayyan muammoni boshqa muammolarga e'tibor qaratmasdan yechish imkoniyati mavjud emas. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlardagi *demografik* va *oziq-ovqat muammolari* orasida ma'lum aloqadorlik mavjud, chunki aholining yuqori sur'atlar bilan ko'payishi oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmovchiligi va ocharchilikni keskinlashtiradi. *Energetika* va *ekologik muammolar* ham bevosita bir-biriga aloqador hisoblanadi, chunonchi yangi energiya manbalarini izlash va ishlab chiqarishga joriy etish atrof-muhit sifatiga ham ma'lum darajada ta'sir etadi.

Global muammolardan *tinchlikni saqlash va qurolsizlanish muammosi* eng universal ahamiyatga ega, chunki bu muammo hal etilmasa, Yer yuzida hayot va sivilizatsiyaning kelajagi o'ta achinarli ahvolga kelishi muqarrar. Insoniyat tarixida, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, jami 14 mingdan ortiq urushlar ro'y bergan va, ming afsuski, harbiy mojaro va ziddiyatlar sayyoramizning turli hududlarida hanuzgacha yuz bermoqda. Lekin, global darajada bu muammo jami 70 milliondan ziyod kishi qurbon bo'lgan ikkita jahon urush bo'lib o'tgan XX asrda keskinlashdi.

Urushdan keyingi davrda esa kapitalistik va sotsialistik davlatlar, ayniqsa, AQSH va Ittifoq o'rtasidagi o'tkir qarama-qarshiliklar sharoitida "qurol poygasi" keskinlashib ketdi.

Hozirgi vaqtda AQSH, Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, Hindiston va Pokiston jahon hamjamiyatining rasman tan olingan yadroviy qurolga ega davlatlari hisoblanadi. Shuningdek, ras-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

miy yadroviy maqomga ega bo‘lmagan KXDR ham bu turdagi qurolga ega ekani barchaga ma’lum.

Dunyoning turli mintaqalarida urush va harbiy to‘qnashuvlar sodir bo‘lmoqda. Harbiy harakatlar va fuqarolik urushlari tufayli ayrim davlatlar gumanitar falokat vaziyatiga kelib qoldi. Bunga Suriya, Iroq, Liviya, Somali, Afg‘oniston, Janubiy Sudan va boshqa davlatlarni misol tariqasida keltirilishi mumkin.

Shuningdek, *sust rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy qoloqligi va qashshoqligi* ham muhim muammolardan hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyoda 1,2 milliardgacha kishi ocharchilikka duch kelmoqda, 1,7 milliarddan ortiq aholining o‘rtacha umr ko‘rishi 60 yoshga etmaydi, 1,5 milliard odamlarning tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati umuman yo‘q, 1 milliarddan ortiq odamlar o‘ta kambag‘al turmush kechirmoqda, 200 milliondan ortiq bola maktab ta’limini ololmayapti, jahonda 800 milliondan ziyod kishi butunlay savodsiz, ya’ni yozish va o‘qishni bilmaydi. Eng og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat BMT tomonidan eng sust rivojlangan (eng qoloq) mamlakatlar guruhiga kiritilgan davlatlarda kuzatiladi. Bu ro‘yxat dastlab 1971-yilda tuzilib, unga 24 davlat kiritilgan edi. 2014 yil holatiga ko‘ra unda 48 ta davlat qayd qilingan (10-rasm).



10-rasm. BMTning eng sust rivojlangan davlatlar ro‘yxatiga kiritilgan (ko‘k rangdagi) va bu ro‘yxatdan oxirgi yillarda chiqib ketgan (yashil rangda) davlatlar

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Bulardan 34 tasi Afrikada, 9 tasi Osiyoda, 4 tasi Okeaniyada va 1 tasi (Gaiti) Lotin Amerikasida joylashgan. Bu toifadagi mamlakatlarda jahon aholisining 11 foizdan ortig‘i yashaydi.

Hozirgi kunda *oziq-ovqat muammosi* ham ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dolzarb hisoblanadi. Bu muammoning mohiyati dunyoda jami 1,2 milliardga yaqin odamlar yetarli darajada ozuqa moddalarni iste’mol qila olmayotganligi, u yoki bu darajada ocharchilikka duch kelganidan iborat. Aholisi eng yuqori sur’atlar bilan ko‘payotgan, Afrika mamlakatlarida bu muammo eng keskin darajada ro‘y bermoqda. Jumladan, Somali, Janubiy Sudan, Chad va boshqa mamlakatlarda ocharchilik umummilliy gumanitar falokat darajasiga yetdi. Shuningdek, Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyo hamda Lotin Amerikasining ayrim mamlakatlarida ham bir necha million kishi ocharchilik sharoitida yashamoqda. Oziq-ovqat muammosining yechimiga, asosan, qishloq xo‘jaligidagi texnika va texnologiyalarni tubdan takomillashtirish, bu sohada mehnat unumdorligini oshirish yo‘llari bilan erishish mumkin.

Energetika muammosi ham dolzarb global muammolaridan biri bo‘lib, uning mohiyati jahon energetika balansining aksariyat qismi tugaydigan energiya manbalariga to‘g‘ri kelishi bilan tavsiflanadi. Ya’ni, mineral yoqilg‘i resurslari (neft, tabiiy gaz, ko‘mir, slanes, torf) zaxiralarining kamayishi yoki ularni qazib olish tannarxining ancha ko‘tarilishi, aholi va ishlab chiqarishning energiyaga bo‘lgan ehtiyojlari orasidagi tafovut bilan bog‘liq muammoni yuzaga keltiradi. Bu muammoning yechimi, ko‘pchilik mutaxassislar fikricha, asosan ikkita yo‘nalishdagi harakatlar bilan bog‘liq: energiyani tejaydigan texnologiyalarning amaliyotga keng joriy etilishi hamda quyosh energiyasi, shamol, qalqishlar, geotermal energiya, bioyoqilg‘i singari noan’anaviy (muqobil) energiya manbalaridan foydalanishga bosqichma-bosqich o‘tish.

Insoniyatning global muammolari, tinchlikni saqlash va qurolsizlanish muammosi, oziq-ovqat muammosi, energetika muammosi.

1. Global muammolarining o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
2. Global muammolar qanday guruhlarga bo‘linadi?
3. Qo‘shimcha ma’lumot manbalariga asoslanib, jahonda va O‘zbekistonda turli muqobil energiya resurslaridan foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida axborot tayyorlang.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

VII BOB. YEVROPA VA AMERIKA SUBREGIONLARI

23-§. YEVROPA SUBREGIONLARI

11-rasm. Yevropa subregionlari (Yevropa Ittifoqi tashkiloti tasnifi bo‘yicha)

Yevropa – Yevrosiyo materigining g‘arbiy qismini egallagan qit’a. Yevropa hududining maydoni 10 mln km^2 ga teng. Shundan 4,1 mln km^2 Rossiyaning Yevropada joylashgan qismiga to‘g‘ri keladi. Yevropa siyosiy xaritasida 44 mustaqil davlat (Rossiya bilan birga) joylashgan. Bundan tashqari, Turkiya va Qozog‘iston davlatlari ham qisman Yevropada joylashgan, ammo xalqaro statistikasida ular Osiyo qit’asi tarkibiga kiritilgan. Yevropa davlatlari odatda 4 ta yirik subregionlarga bo‘linadi: Shimoliy, G‘arbiy, Janubiy va Sharqiy Yevropa (11-rasm).

Shimoliy Yevropa davlatlari. Bu subregion tarkibiga qit’aning Shimoliy Muz okeani hamda Atlantika okeanining Shimoliy va Boltiq dengiziga tutash 8 ta davlati kiradi. Bu davlatlar, odatda, 2 ta tarixiy-geografik guruhga bo‘linadi: Skandinaviya davlatlari – Norvegiya, Shvetsiya, Daniya, Finlyandiya, Islandiya hamda Boltiq davlatlari – Estoniya, Latviya, Litva. Bu ikki guruh davlatlar o‘rtasida tarixan shakllangan mustahkam siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari mavjud. Daniya, Shvetsiya va Norvegiya konstitutsiyaviy monarxiya, qolgan davlatlar esa parlamentar respublika hisoblanadi.

Tabiiy sharoitining umumiy jihatlari asosan iqlimining ko‘proq mo‘tadil va dengiz xarakterga egaligida o‘z aksini topadi. Faqat Islandiya hamda Norvegiya, Shvetsiya va Finlyandiyaning Shimoliy hududlariga subarktika va arktika iqlim tiplari xos. Norvegiya va Islandiyaga tog‘li relyef xos bo‘lsa, qolgan davlatlar yer yuzasi, asosan, tekisliklardan iborat. Subregion davlatlaridan faqat Islandiya tektonik jihatdan faol mintaqada joylashgan bo‘lib, vulqon va geyzerlari bilan butun

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

12-rasm. Stokgolm – Shvetsiya poytaxti

dunyoga mashhur. Islandiya jahondagi geotermal resurslaridan keng va oqilona foydalanayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. Norvegiya va Daniya Shimoliy dengiz tubidan tabiiy gaz va neftni qazib oladilar, ayniqsa, bu jihatdan Yevropadagi eng yirik gaz eksportyorlaridan biri hisoblangan Norvegiyaning salohiyati yuqori. Estoniya – energetikasi yonuvchi slanesga asoslangan dunyodagi yagona mamlakatdir, bu davlatda elektroenergiyaning 90 foizidan ortig‘i yoqilg‘ining bu turidan foydalanadigan IESlar ishlab chiqaradi. Subregionning ko‘p davlatlarida gidroenergetika sohasi yaxshi rivojlangan, va bu borada Norvegiya va Islandiya kabi tog‘li mamlakatlar yetakchilik qilmoqdalar. Shvetsiyada yuqori sifatli temir rudalari, Estoniyada esa fosforit zaxiralari katta. Shuningdek, subregion davlatlari o‘rmon resurslariga ham boy.

Shimoliy Yevropa mamlakatlaridagi demografik vaziyatning umumiy jihatlari tug‘ilish va o‘limning past ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Biroq Skandinaviya va Boltiq mamlakatlarida demografik holat bir xil emas. Litva, Latviya va Estoniyada, uzoq muddat mobaynida Skandinaviya davlatlariga xos bo‘lmagan aholining tabiiy kamayishi va migratsiyaning manfiy balansi kuzatilmoqda, ya’ni bu uch davlatning aholisi vaqt o‘tgan sari kamayib bormoqda. Shimoliy Yevropa, ayniqsa, Skandinaviya davlatlari uchun aholi zichligining birmuncha past ko‘rsatkichlari xos. Urbanizatsiya barcha davlatlarda 70 foizdan yuqori darajada, Islandiya, Norvegiya, Daniya va Shvetsiyada esa bu ko‘rsatkich 90 foizdan ham o‘tib ketadi. Shimoliy Yevropadagi eng yirik aglomeratsiyalar poytaxti shaharlari negizida vujudga kelgan (12-rasm).

Skandinaviya davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jihatidan dunyodagi eng rivojlangan davlatlar safidan joy olgan. Turmush darajasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha bu mamlakatlar ko‘plab xalqaro reytinglarda eng yuqori qatorlarini egallaydi. Boltiq davlatlari esa sobiq sotsialistik tuzumidagi mamlakatlar sifatida o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar hisoblanadi. Lekin bu blokdagi davlatlar ichida Litva, Latviya va, ayniqsa, Estoniya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha peshqadamlikka erishib, ko‘p jihatlari bilan rivojlangan mamlakatlarga yaqinlashgan.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Xalqaro mehnat taqsimotida Shimoliy Yevropa davlatlari o‘rmon va tsellyuloza-qog‘oz sanoati, elektr energiyani ko‘p talab qiladigan rangli metallurgiya sanoati, ko‘p tarmoqli mashinasozlik (kemasozlik, avtomobilsozlik, elektronika va elektrotexnika va boshqalar), baliqchilik, sutgo‘sht chorvachiligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, dengiz transporti hamda turizm xizmatlarini ko‘rsatish bilan faol ishtirok etadilar. Shuningdek, Shimoliy Yevropa davlatlarida tarixiy-madaniy va ekologik turizm ham yaxshi rivojlangan. Finlyandiyaga, ayniqsa, Rojdestvo bayrami (25-dekabr) arafasida millionlab turistlar tashrif buyuradilar, chunki bu davlatda Santa-Klaus (ya’ni, Qorbobo)ning “rasmiy qarorgohi” joylashgan. Latviya esa dengiz turizmi (Riga, Yurmala shaharlari) rivojlanishi bilan alohida ajralib turadi.

G‘arbiy Yevropa davlatlari. Yevropaning bu subregioniga qit’adagi eng ulkan iqtisodiy salohiyatga ega uchta davlat – Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya, shuningdek, Avstriya, Shveytsariya, Belgiya, Niderlandiya, Irlandiya hamda “mitti” davlatlar safiga mansub Lixtenshteyn, Lyuksemburg va Monako kabi mamlakatlar kiradi. Alp tog‘larida joylashgan Avstriya, Shveytsariya va Lixtenshteyn *Alp mamlakatlari* guruhini tashkil qiladilar. Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg davlatlariga nisbatan esa ular o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlari juda yuqori darajada ekanligini hisobga olgan holda “*Benilyuks*” umumiy nomi ishlatiladi.

Subregion mamlakatlarining iqlim sharoiti mo‘tadil, Fransiya janubida esa iqlimi subtropik. Foydali qazilmalardan Shimoliy dengiz akvatoriyasidagi neft-gaz (Niderlandiya, Buyuk Britaniya), qo‘ng‘ir va toshko‘mir (Germaniya, Fransiya, Belgiya, Buyuk Britaniya), temir rudalari (Fransiya, Germaniya, Lyuksemburg, Belgiya) va kaliy tuzlari (Germaniya) konlari diqqatga sazovor. Alp mamlakatlari gidroenergiya resurslariga boy.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida tug‘ilish va tabiiy ko‘payish ko‘rsatkichlari juda past, Germaniyada esa ko‘p yillardan buyon depopulyatsiya jarayoni ro‘y bermoqda. Lekin tashqi migratsiya balansi yuqori musbat ko‘rsatkichlarga ega bo‘lganligi bois, subregion davlatlarida aholi o‘sishi davom etmoqda. G‘arbiy Yevropa qit’a subregionlari ichida aholisi eng zich joylashgan hudud hisoblanadi. Urbanizatsiya ko‘rsatkichlari, Lixtenshteyndan tashqari, barcha davlatlarda yuqori bo‘lib, Buyuk Britaniya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburgda 90 foizdan baland, Monakoda esa 100 foizga teng. Yevropa va butun jahon miqyosida katta ta’sir doirasiga ega London, Parij, Berlin, Gamburg,

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Bryussel, Amsterdam, Syurix va ular singari boshqa yirik shaharlarning aynan G‘arbiy Yevropada joylashganligi ham bu subregionning muhim o‘ziga xos xususiyatidir.

G‘arbiy Yevropa davlatlarining barchasi rivojlangan davlatlar safiga mansub bo‘lib, jahon xo‘jaligining hududiy tarkibida juda muhim o‘ringa ega. Jahon iqtisodiyotida G‘arbiy Yevropa davlatlari ko‘p tarmoqli mashinasozlik va kimyo sanoati, intensiv chorvachilik va dehqonchilik, bank-moliya va turizm sohalarining xalqaro ahamiyatli darajada rivojlanganligi bilan alohida ajralib turadilar.

Janubiy Yevropa mamlakatlari. Janubiy Yevropa siyosiy xaritasida Ispaniya, Portugaliya, Italiya, Gretsiya hamda Andorra, San-Marino, Malta va Vatikan “mitti” davlatlari joylashgan. Bu davlatlar iqtisodiy-geografik o‘rni va xo‘jalik rivojlanishi jihatidan uzoq tarixi davomida O‘rta dengiz bilan chambarchas bog‘liqligi sababli Yevropaning O‘rta dengizbo‘yi mamlakatlari deb ham ataladi. Bu mintaqa Yevropa sivilizatsiyasi va madaniyatining chin beshigi hisoblanadi, chunki bu qit’adagi eng qadimgi davlatlar – Gretsiya bilan Rim aynan O‘rta dengiz qirg‘oqlarida rivoj topgan.

Malta O‘rta dengizdagi orollarda joylashgan kichik davlat bo‘lsa, subregionning qolgan davlatlari geografik o‘rni nuqtayi nazaridan yarimorol mamlakatlari hisoblanadi. Andorra, San-Marino, Vatikan davlatlari yarim orollarda joylashsada, dengizga chiqish imkoniyati yo‘q. San-Marino bilan Vatikan *anklav davlatlar* hisoblanadi, chunki ular faqat bitta davlat, ya’ni Italiya bilan chegaradosh bo‘lib, butunligicha uning hududi bilan o‘ralgan. Janubiy Yevropa mamlakatlaridan Ispaniya va Andorra boshqaruv shakli jihatidan konstitutsiyaviy monarxiya, Vatikan davlati Yevropada yagona mutlaq teokratik monarxiya (davlat rahbari – Rim-katolik cherkovi yetakchisi hisoblanmish Rim Papasi), qolganlari esa respublikadir.

Janubiy Yevropa davlatlari O‘rta dengiz geosinklinal mintaqasida joylashganligi tufayli seysmik jihatdan faol hudud hisoblanadi. Qadimdan olamga mashhur Etna, Vezuviy, Stromboli vulqonlari ham Yevropaning shu qismida joylashgan. Foydali qazilmalardan rangli metall rudalari va mineral tuzlar zaxiralari mavjud. O‘rta dengiz tipidagi subtropik iqlim (yozi issiq, birmuncha quruq, qishi esa iliq va yomg‘irli) qishloq xo‘jaligi va turizm uchun juda qulay sharoit yaratadi. Lekin Yevropaning boshqa subregionlarga nisbatan suv resurslar bilan ta’minlanish darajasi pastroq bo‘ib, ayrim hududlarda suv tanqisligi ham sezilmoqda.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Janubiy Yevropadagi demografik vaziyatga aholining tabiiy va migratsion ko‘payishining past ko‘rsatkichlari xos. Ular orasida, ayniqsa, aholisi kamayib borayotgan Ispaniya, Portugaliya va Gretsiya davlatlari alohida ajralib turadi. Rivojlanayotgan davlatlardan, xususan Shimoliy Afrikadan, ko‘plab immigrantlar ko‘chib kelishi bilan bir vaqtda bu yerdan G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga tomon emigratsion oqimning faolligi subregionning migratsiya qoldig‘ini ancha pasaytiradi, yuqorida aytib o‘tilgan davlatlarda esa manfiy ko‘rsatkichlargacha tushirmoqda. Janubiy Yevropa relyefi, asosan, tog‘lardan iborat bo‘lganligi tufayli aholisi juda notekis joylashib, asosan qirg‘oqbo‘yi tekisliklari va daryo vodiylarida joylashgan. Urbanizatsiya Shimoliy va G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga nisbatan biroz pastroq bo‘lsa-da, 60 foizdan yuqori darajada.

Yevropaning O‘rta dengizbo‘yi mamlakatlari Shimoliy va G‘arbiy Yevropa davlatlariga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari nisbatan past. Ayniqsa, Gretsiya, Ispaniya va Portugaliya iqtisodiyotidagi inqirozli vaziyat Yevropa Ittifoqi doirasida ko‘zga tashlanadi. Italiya garchi “katta yettilik” guruhi a’zosi bo‘lsada, mamlakatning turli hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi keskin farq qiladi. Shimoliy Italiya Yevropadagi eng rivojlangan iqtisodiy rayonlardan biri hisoblansa, Janubiy Italiya, aksincha, Yevroittifoqning eng qoloq rayonlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro mehnat taqsimotida Janubiy Yevropa mamlakatlari, eng avvalo, subtropik dehqonchilik (uzum, sitrus mevalari, yong‘oq, zaytun va hokazo) bilan turizmga ixtisoslashgan (13-rasm). Bu subregion dengiz turizmining dunyodagi eng yirik rayoni hisoblanadi. Sanoat tarmoqlari ichida eng rivojlanganlari – yengil (to‘qimachilik, tikuvchilik, charm-poyabzal) va oziq-ovqat (yog‘-moy, konserva, vino) sanoatlari. Italiya va Ispaniya mashinasozlik sanoati, ayniqsa, avtomobilsozlikning rivojlanishi bilan ham ajralib turadilar.

13-rasm. Venetsiya – Italiyaning eng go‘zal shaharlaridan biri

Sharqiy Yevropa davlatlari. Bu subregionga qit’ada joylashgan sobiq Ittifoqdosh respublikalar (Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belarus, Moldova) hamda sobiq sotsialistik mamlakatlar (Polsha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Sloveniya, Ser-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

biya, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina, Chernogoriya, Makedoniya, Albaniya) kiradi. Bu mamlakatlarning muhim umumiy jihatlaridan biri o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar blokiga mansubligidir. Yettita davlati – Belarus, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Moldova, Serbiya, Makedoniya – dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas. Bolgariya, Albaniya, Makedoniya, Serbiya, Bosniya va Gersegovina, Xorvatiya, Chernogoriya davlatlari Bolqon yarimorolida joylashganligi bois odatda Bolqon mamlakatlari deb nomlanadi.

Sharqiy Yevropaning siyosiy xaritasida o‘tgan asrning oxirida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Sovet Ittifoqi tarqalib ketganligi natijasida Rossiya, Ukraina, Belarus va Moldova davlatlari tashkil topdi. Yugoslaviya Sotsialistik Federativ respublikasining parchalanishi chog‘ida birin-ketin Sloveniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina, Makedoniya, Chernogoriya, Serbiya kabi davlatlar mustaqilligini e’lon qildi. Chexiya va Slovakiya respublikalari Chexoslovakiya davlati tarkibidan ajralib chiqdi. Jahon hamjamiyati tomonidan to‘laligicha tan olingan oxirgi siyosiy-geografik o‘zgarish 2006-yildagi Serbiya va Chernogoriya federatsiyasining tarqalishi bo‘ldi. Ahamiyatlisi shundaki, Bolqon yarimorolidagi ayrim davlatlarning mustaqillikka erishish jarayoni tinch ravishda kechmasdan, harbiy ziddiyat, millatlararo va dinlararo fuqarolik urushlarni keltirib chiqardi. Bunday urushlarning eng qonlilari Bosniya va Gersegovina hamda Xorvatiya davlatlarida 1992–1995-yillarda sodir bo‘ldi. Sobiq Yugoslaviya hududida, xususan Serbiya va Makedoniya davlatlarida, geosiyosiy vaziyat haligacha to‘liq barqarorlashgani yo‘q. Sharqiy Yevropa subregionining yana bir xususiyati bironta ham monarxiya davlati yo‘qligidan iborat. Rossiya hamda Bosniya va Gersegovina hududiy-davlat tuzilish jihatidan federativ, boshqa davlatlar esa unitar tuzilishga ega.

Subregion hududi asosan, ulkan Sharqiy Yevropa tekisligidan iborat bo‘lsada, yirik tog‘ tizimlari ham mavjud. Tog‘lar Chexiya, Slovakiya, Ruminiya, Albaniya va sobiq Yugoslaviya davlatlari hududining katta qismini egallaydi. Foydali qazilmalardan neft va tabiiy gaz (Rossiya, Ruminiya), tosh va qo‘ng‘ir ko‘mir (Ukraina, Rossiya, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Serbiya), temir rudalari (Rossiya, Ukraina, Polsha), rangli metallar (Albaniya, Serbiya, Bosniya va Gersegovina, Ruminiya), kaliy tuzlari (Belarus, Rossiya), torf (Belarus, Rossiya) zaxiralarini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Sharqiy Yevropaning tog‘li mamlakatlari gidroenergiya resurslariga boy bo‘lib, ulardan samarali ravishda foydalanilmoqda. Shuning uchun ham Slovakiya, Bosniya va Gersegovina,

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

14-rasm. Budapesht – Vengriya poytaxti

Ruminiya, Albaniyaning energetika balansida GES ulushi yuqori.

Aholi daryo vodiylari, dengiz bo‘ylarida hamda yirik sanoat rayonlarida zich joylashgan. Urbanizatsiya darajasi, Moldova, Bosniya va Gersegovina hamda Sloveniyadan tashqari, 50 foizdan yuqori, ayrim davlatlarda esa 70 foizdan ham ortib ketadi. Lekin o‘rtacha olganda, boshqa subregionlarga nisbatan Sharqiy Yevropaning shaharlashuv darajasi biroz pastroq. Eng yirik shahar aglomeratsiyalari Moskva, Sankt-Peterburg, Praga, Kiyev, Budapesht negizida (14-rasm), Ukrainadagi Donetsk-Dneprbo‘yi va Polshadagi Sileziya sanoat rayonlarida, Rossiya hamda Bolgariyaning Qora dengizbo‘yi sohillarida shakllangan.

Sharqiy Yevropa davlatlarida oxirgi yillarda shakllangan demografik vaziyat inqirozli ko‘rinishga ega bo‘lib, tug‘ilishning o‘lim darajasidan pasayib ketganligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham Sharqiy Yevropadagi aksariyat mamlakatlar aholi soni tez sur’atlar bilan kamayib borayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Aholining milliy tarkibida slavyan xalqlari yetakchilik qiladi. Slavyan xalqlari guruhiga rus, ukrain, belarus, polyak, bolgar, serb, xorvat, chex, slovak, bosniyalik, sloven, makedoniyalik, chernogoriyaliklar kiradi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy darajasi bir-biridan ancha farq qiladi. Garchi bu yerdagi hamma mamlakatlar o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar safiga kiritilgan bo‘lsada, Sloveniya, Chexiya, Vengriya, Slovakiya, Xorvatiya, Polsha kabi davlatlarning aksariyat iqtisodiy ko‘rsatkichlari Yevropadagi rivojlangan davlatlar pog‘onasiga yaqinlashgan bo‘lsa, Albaniya, Makedoniya, Moldovaning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari birmuncha past bo‘lib, ko‘proq rivojlanayotgan mamlakatlarning darajasiga tortadi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarining xalqaro ixtisoslashuvi asosan ko‘p tarmoqli sanoat, jumladan, yoqilg‘i-energetika (Rossiya, Polsha, Chexiya, Ruminiya), qora metallurgiya (Rossiya, Ukraina, Polsha, Serbiya, Chernogoriya), rangli metallurgiya (Serbiya, Chernogoriya, Albaniya), kimyo (Rossiya, Belarus, Ukraina, Polsha), mashinasozlik (Rossiya, Ukraina, Belarus, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Sloveniya), yengil sanoati (Rossiya, Polsha, Chexiya), oziq-ovqat (Chexiya, Ukraina, Bolgariya, Serbiya, Ruminiya, Makedoniya, Moldova) ishlab chiqarishlari bilan belgilanadi. Ba’zi davlatlar dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

eksporti bilan ham ajralib turadi (Vengriya, Polsha, Serbiya, Bolgariya). Ko‘p davlatlari uchun turizm sohasi ham muhim daromad manbayi hisoblanadi. Iqtisodiyotning bu tarmog‘i, ayniqsa, Bolgariya, Ruminiya, Chexiya, Slovakiya, Xorvatiya, Chernogoriya, Sloveniya, Vengriya kabi davlatlar uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Yevropa subregionlari, Shimoliy Yevropa, Skandinaviya davlatlari, Boltiq davlatlari, G‘arbiy Yevropa, “mitti” davlatlar, Janubiy Yevropa, Sharqiy Yevropa, Bolqon mamlakatlari, o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar.

1. Yevropa mamlakatlari odatda nechta va qaysi subregionlarga bo‘linadi?
2. Sharqiy Yevropa siyosiy xaritasida o‘tgan asrning oxirida qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi? Qaysi davlatlar mustaqillikka erishgach, fuqarolik urushlarni boshlaridan kechirdi?
3. Daftaringizga Yevropa subregionlardagi davlatlarni orol, yarimorol, dengiz-bo‘yi va quruqlik ichkarisida joylashgan mamlakatlar guruhlariga ajratgan holda yozib oling.

24-§. LOTIN AMERIKASI

Dunyoning yirik siyosiy-geografik mintaqalaridan biri – Lotin Amerikasi – Yerning G‘arbiy yarimsharida joylashgan bo‘lib, Amerika qit’asidagi AQSH, Kanada davlatlari va Grenlandiya orolidan tashqari barcha mamlakatlarni o‘z ichiga oladi. Aholisining aksariyat qismi qadimgi lotin tili negizida vujudga kelgan ispan va portugal tillarida so‘zlashayotganligi bois bu mintaqa Lotin Amerikasi deb ataladi.

Lotin Amerikasining siyosiy xaritasida hozirgi kunda 33 ta mustaqil davlat hamda qator mustamlakalar mavjud. Uning hududida bir necha kichikroq mintaqalar ham ajratiladi. Jumladan, Shimoliy Amerika materigining AQSHdan janubdagi qismi va Karib dengizidagi orollarda joylashgan davlatlar *O‘rta Amerika (Mezoamerika)* mintaqasini tashkil etadi. Bu regiondagi davlatlar orasida hududi, aholisi va iqtisodiy salohiyati bilan Meksika alohida ajralib turadi. O‘rta Amerikaning Meksikadan boshqa davlatlari Karib dengizi akvatoriyasi, uning tabiiy resurslari va transport yo‘llari bilan tarixan chambarchas bog‘liqligi sababli, *Karib havzasi davlatlari* deb ham yuritiladi. Materikda, Meksikadan janubi-sharqqa tomon joylashgan 7 ta davlat (Beliz, Gvatemala, Salvador, Gonduras, Nikaragua, Kosta-Rika, Panama) *Markaziy Amerika* deb nomlanadi. Karib dengizidagi 13 ta orol mamlakatlar, o‘z navbatida, *Vest-Indiya* umumiy nomi ostida birlashtiriladi. Janubiy Amerika materigida esa 12 ta mustaqil davlat va 1 ta mustamlaka

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

(Fransiya Gvianasi) joylashgan. Janubiy Amerikada Lotin Amerikasidagi okeanga chiqish imkoniyati bo‘lmagan 2 ta davlat joylashgan bo‘lib, bular Boliviya va Paragvaydir.

Hududi kattaligi jihatidan Braziliya (jahon mamlakatlari orasida 5-o‘rin), Argentina (8-o‘rin), Meksika, Peru, Venesuela va Kolumbiya ajralib turadi. Vest-Indiyada “mitti” davlatlar safiga mansub bir necha davlatlar joylashgan. Lotin Amerikasidagi aksariyat davlatlarida prezidentlik respublikasi boshqaruv shakli joriy etilgan. Vest-Indiyadagi ayrim kichik davlatlar hamda Markaziy Amerikada joylashgan Beliz Britaniya Hamdo‘stligi tarkibidagi konstitutsiyaviy monarxiyalar bo‘lib, rasman ularning davlat rahbari Buyuk Britaniya qirolichasi Yelizaveta II hisoblanadi. Braziliya, Argentina, Meksika, Venesuela singari yirik davlatlar hamda Karib dengizidagi 2 ta kichik oroldan iborat Sent-Kits va Nevis mamlakati federativ davlat tuzilishiga ega. Mintaqaning qolgan mamlakatlari unitar tuzilishga ega.

Lotin Amerikasining g‘arbiy qismida Kordilyera va And tog‘lari bir necha ming kilometrga cho‘zilgan. Meksika, Markaziy Amerika davlatlari, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya, Chili mamlakatlarining hududini asosan shu tog‘lar egallaydi. Venesuela bilan Paragvay davlatlari ham qisman And tog‘lari bilan band. Shuningdek, Karib dengizidagi orol mamlakatlarining yer yuzasi ham ko‘proq tog‘li ko‘rinishga ega. Braziliya, Argentina, Urugvay, Surinam, Gayana kabi davlatlar hududi, asosan, tekislik va parchalangan yassi tog‘liklardan iborat. Kordilyera-And tog‘lari va Karib dengizidagi orollar seysmik va vulqonik jihatidan Yer yuzidagi eng faol mintaqalar qatoriga kiradi. Shuning uchun Lotin Amerikasidagi tog‘li mamlakatlarda kuchli zilzilalar vaqti-vaqti bilan sodir bo‘ladi. Masalan, 2010-yili Chili, 2012-yili Gvatemala, 2010-yili Gaitida ro‘y bergan kuchli zilzilalar falokatli ziyon yetkazgan edi.

Lotin Amerikasining ba’zi davlatlari turli foydali qazilmalarining jahon xo‘jaligi miqyosida ahamiyatli zaxiralariga ega. Jumladan, neft-gaz resurslariga Venesuela, Meksika, temir rudalariga Braziliya, Kuba, Venesuela, boksit (alyuminiy) rudalariga Yamayka, Braziliya, Venesuela, Gayana, Surinam, misga Chili, Peru, nikelga Kuba, litiy, qalay va mineral tuzlariga Boliviya, tabiiy selitraga Chili, qimmatbaho toshlarga Kolumbiya boy hisoblanadi. Hududi asosan issiq iqlim mintaqalarida joylashganligi bois Lotin Amerikasi agroiqlim resurslariga boy, dehqonchilik ishlari esa bu yerda yil bo‘yi davom etadi. Lekin O‘rta Amerikada tropik to‘fonlar tez-tez sodir bo‘lib, aholi

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

va xo‘jalikka katta ziyon yetkazadi. Iqlimi sernamligi hisobiga Lotin Amerikasi suv va gidroenergiya resurslari bilan yaxshi ta’minlangan. Mintaqadagi qator davlatlar o‘rmon resurslariga juda boy, bu borada Braziliya, Kolumbiya, Venesuela yetakchi hisoblanadi.

Lotin Amerikasi davlatlarida, 2017-yil holatiga, jami 650 millionga yaqin aholi yashaydi, va bu Yer shari aholisining 8,5 foizini tashkil qilmoqda. O‘tgan asrda Lotin Amerikasida aholining tabiiy ko‘payishi “demografik portlash” bosqichini kechirib, mintaqa aholisi va uning jahon aholisi tarkibidagi ulushi yuqori sur’atlar bilan o‘sib kelgan. Hozirgi davrga kelib esa, Lotin Amerikasi mamlakatlari tug‘ilish darajasi asta-sekin pasayishi bilan tavsiflanadigan demografik o‘tishning 3-bosqichini kechirmoqda. Kuba, Urugvay va Argentina esa demografik o‘tish jarayonini yakunlab, aholi tabiiy ko‘payishining past darajasi bilan ajralib turibdi.

Aholi soni jihatidan mintaqada Braziliya (206 mln, 2016-y., jahon bo‘yicha 5-o‘rin) va Meksika (121 mln, 2015-y., jahon bo‘yicha 11-o‘rin) yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, Kolumbiya, Argentina, Venesuela va Peru kabi mamlakatlarning aholisi soni 20–50 mln kishi oralig‘ida. Shu vaqtning o‘zida, Vest-Indiyadagi ayrim “mitti” orol davlatlarida aholi soni 0,5 mln kishiga ham yetmaydi.

Lotin Amerikasi aksariyat davlatlari yuqori urbanizatsiyalashgan mamlakatlar guruhiga mansub. Xususan, shaharlashuv ko‘rsatkichi Argentina, Venesuela va Urugvayda 90 foizdan, Braziliya va Chilida 80 foizdan oshadi. Lotin Amerikasining Mexiko, San-Paulu, Rio-de-Janeyro, Lima, Buenos-Ayres, Santa-fe-de-Bogota singari eng yirik shaharlari negizida jahon miqyosida eng yiriklari qatorida joy olgan shahar aglomeratsiyalari vujudga keldi. Lekin bu “gigant” shaharlarda millionlab odamlar qishloq joylardan kelib, juda katta maydonlarni egallagan xarob massivlarda turmush kechirmoqda. Masalan, Braziliyaning Rio-de-Janeyro va San-Paulu shaharlaridagi Favela deb ataladigan bunday kvartallar odatda “soxta” urbanizatsiyaning tipik misollari tariqasida keltiriladi. Bunday, shartli ravishdagi shahar joylarida ijtimoiy va ekologik muhit muammoli bo‘lishi tabiiy hol.

Lotin Amerikasi aholisining hozirgi irqiy tarkibi xilma-xil bo‘lib, asosan, Yevropa mustamlakachiligi davrida shakllangan. Bu mintaqada yevropaliklar avlodlari (kreollar), qora tanlilar, amerikalik hindular hamda metislar, mulatlar va sambolar singari aralash irq vakillari yashaydilar. Lotin Amerikasining tub aholisi mongoloid irqiga mansub amerikalik hindular hisoblanadi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

15-rasm. Lotin Amerikasi mamlakatlarining davlat tillari

Lotin Amerikasi davlatlarining ko‘pida davlat tili sifatida ispan tili qabul qilingan (15-rasm). Hududining maydoni va aholisi soni bo‘yicha subregionda yetakchi bo‘lgan Braziliyada davlat tili va muomaladagi asosiy til – portugal tili. Gaiti, Gviana va ayrim orol mamlakatlarida davlat tili fransuz, Janubiy Amerikadagi Gayana, Markaziy Amerikadagi Beliz hamda Vest-Indiyaning qator mamlakatlarida esa bu funksiyani ingliz tili bajaradi. Shuningdek, Janubiy Amerikadagi Surinam davlatida va Karib dengizidagi ba’zi mamlakatlarda niderland (golland) tili keng qo‘llaniladi. Lotin Amerikada Rim-katolik cherkovi nasroniylari ko‘pchilikni tashkil qiladi va bu mintaqa katoliklar soni bo‘yicha dunyoda yetakchidir. Inglizzabon mamlakatlarida protestantlik, “Gviana uchburchagi” mamlakatlarida esa induizm va islom dinlari keng tarqalgan.

Lotin Amerikasi mamlakatlari aholisi, asosan, ikki xil hududlarda – Atlantika okeani va Karib dengizi qirg‘oqbo‘yi tekisliklari hamda Kordilyera-And tog‘larining ichki rayonlarida mujassamlangan. Aholining bunday joylashuvi tabiiy sharoit, ayniqsa, iqlim qulayligiga mos ravishda tarixan shakllangan. Meksika, Peru, Kolumbiya, Ekvador kabi mamlakatlar aholisining aksariyat qismi yuqori balandlikdagi tog‘li rayonlarda yashashi bilan ajralib turadi. Bu borada o‘ziga xos “geografik rekord” aholisining yarmidan ortig‘i 3300–3800 metr mutlaq balandlikka ega Altiplano yassitog‘ligida joylashgan Boliviya davlatiga tegishli. Uning poytaxti – La-Pas shahri – dunyodagi eng yuqori balandlikda joylashgan poytaxt hisoblanib, bunday relyef sharoitida shakllangan jahondagi yagona “millioner” shahardir. Braziliya, Urugvay, Argentina, Venesuela va, ayniqsa, orol davlatlarida, o‘z navbatida, aholi, asosan, okean va dengizga tutash tekisliklarda mujassamlangan.

Lotin Amerikasi mamlakatlari xalqaro ixtisoslashuvi, eng avvalo, yoqilg‘i, konchilik, metallurgiya sanoati hamda ko‘p tarmoqli qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq. Hozirgi davrda ayrim mamlakatlar uchun mashinasozlik ham muhim ishlab chiqarish tarmog‘iga aylandi. Yoqilg‘i sanoatida asosiy eksportbop ahamiyat neft va neftni qayta ishlash sanoatiga tegishli bo‘lib, iqtisodiyotning bu tarmog‘i, eng avvalo, Venesue-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

la bilan Meksikada yuqori darajada rivojlangan. Shuningdek, Ekvador, Boliviya davlatlarida ham neft-gaz sanoati rivojlanib bormoqda. Oxirgi yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlarining umumiy eksporti tarkibida neft va neft mahsulotlari ulushi 20 foizdan ko‘proq bo‘lmoqda. Lotin Amerikasi mamlakatlariga jahon yoqilg‘i eksporti umumiy hajmining 8 foizga yaqin qismi to‘g‘ri keladi.

Mintaqa mamlakatlarida konchilik va metallurgiya sanoati ham yaxshi rivojlangan. Braziliya jahon mamlakatlari orasida temir rudani qazish va eksport qilish bo‘yicha yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Shuningdek, Braziliya marganes, alyuminiy, mis, uran rudalarini qazib olishga ham ixtisoslashgan. Juda yirik GESlarning qurilishi hisobiga Braziliyadagi metallurgiya korxonalari arzon elektrenergiyasi bilan ta’minlandi va bu ishlab chiqarish tarmog‘i mamlakatda tobora rivojlanmoqda. Lotin Amerikasi metallurgiya sanoati mahsulotlari umumiy eksportining eng katta qismi misga to‘g‘ri keladi. Bu metallni qazish va eritish sanoati, ayniqsa, Chili va Peru uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Boliviyada qalay, surma, kumush va turli nodir metallarning qazish sanoati yaxshi rivojlanib, mamlakatning xalqaro ixtisoslashuvini ko‘p jihatidan belgilaydi. Kuba esa dunyo bo‘yicha nikel va kobalt metallarini ishlab chiqarishda yetakchi mamlakatlar qatorida joy olgan.

Mashinasozlik sanoati, asosan, Braziliya, Meksika va Argentinada yaxshi rivojlangan bo‘lib, jahon xo‘jaligi miqyosida ko‘proq avtomobilsozlik, elektronika va elektrotexnika tarmoqlariga ixtisoslashgan. Bu mamlakatlar uchun yengil avtomobillar eng asosiy eksportbop mahsulotga aylangan. Lotin Amerikasining eng yirik davlatlarida mashinasozlikning yaxshi rivojlanishi uchun metallurgiya bazasining yaxshi rivojlanganligi, arzon va nisbatan malakali ishchi kuchi, yirik ichki bozorining mavjudligi, rivojlangan davlatlar, eng avvalo, AQSHning yirik korporatsiyalari bilan hamkorligi muhim sanaladi.

Qishloq xo‘jaligi ham Lotin Amerikasi mamlakatlarning xalqaro ixtisoslashuvini ko‘p jihatdan belgilaydi. Shakarqamish, kofe, banan, kakao, soya va paxta yetishtirish Lotin Amerikasi mamlakatlari qishloq xo‘jaligining eksportga yo‘naltirilgan eng muhim tarmoqlari hisoblanadi. Shakarqamish ko‘proq Vest-Indiya orollari hamda Janubiy Amerikaning shimoliy hududlarida issiq va fasliy nam iqlim sharoitida yetishtiriladi. Ayniqsa, Braziliya va Kuba iqtisodiyoti uchun shakarqamish yetishtirish va eksport qilish juda katta ahamiyatga ega. Bu ikki davlat shakar eksporti bo‘yicha dunyo bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallaydi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

16-rasm. Braziliyadagi kofe plantatsiyalari

Kofe eksporti bo‘yicha jahonda Braziliya yetakchilik qiladi. Braziliya yassitog‘ligining janubi-sharqiy yonbag‘irlarida kofe plantatsiyalari katta maydon egallaydi (16-rasm). Meksika qo‘ltig‘i va Karib dengiziga ro‘para bo‘lib turgan Meksika, Markaziy Amerika davlatlari va Kolumbiyaning tog‘ oldi (500–1500 m) hududlarida ham kofe yetishtirishga ixtisoslashgan yirik qishloq xo‘jalik rayonlari shakllangan. Bu yerda yetishtiriladigan “arabika” navli kofe jahon bo‘yicha eng sifatli va qimmatbaho hisoblanadi.

Banan Lotin Amerikasiga Osiyodan olib kelinib, o‘tgan asrning boshida Markaziy Amerika davlatlarida eng asosiy qishloq xo‘jalik ekiniga aylandi. Hozirgi kunda Braziliya, Ekvador, Kosta-Rika, Meksika, Kolumbiya eng ko‘p banan yetishtiradi, bananlarni eksport qilishda esa Ekvador va Kosta-Rika peshqadamlik qiladilar. Banan plantatsiyalari ko‘proq Tinch okeani qirg‘oqlarida joylashgan.

Soya yetishtirish va eksport qilish bo‘yicha Lotin Amerikasi davlatlari ichida Braziliya, Paragvay va Argentina, kakao Braziliya, Ekvador va Dominikana Respublikasida, paxta esa Braziliya, Paragvay, Meksika va Argentina tomonidan ko‘p eksport qilinadi.

Lotin Amerikasining yana bir yirik qishloq xo‘jalik rayoni – Argentinadagi Pampa deb ataladigan dasht yerlaridir. Argentina Pampasi uchun tekis relyef, issiq va nam subtropik iqlim, serhosil qora tuproq xosligi bois, bu hudud donchilik va go‘sht chorvachiligi uchun juda qulay sharoitga ega. Shu rayondagi fermer xo‘jaliklarining hisobiga Argentina bug‘doy, makkajo‘xori va go‘shtning jahon bo‘yicha yetakchi eksportyorlaridan biriga aylangan.

Xalqaro dengiz transport tizimida alohida o‘rin tutadigan Panama kanali ikkita materik, ya’ni Shimoliy va Janubiy Amerikada joylashgan Panama davlati hududidan o‘tadi. Bu kanal Atlantika okeani havzasiga tegishli Karib dengizi bilan Tinch okeanini tutashtiradigan, eng serqatnov dengiz yo‘llardan biri hisoblanadi. Panama davlati, o‘z navbatida, dengiz kompaniyalari uchun past stavkadagi soliqlarni joriy qilib, jahon bo‘yicha eng katta dengiz flotiga ega mamlakatga aylandi. Bunga, asosan, xorijiy transport kompaniyalarning rasman Panamada ro‘yxatdan o‘tganligi hisobiga erishilgan.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Ma’lumki, Lotin Amerikasi davlatlari rivojlanayotgan mamlakatlar blokiga mansub. Mintaqa umumiy YIMning 2/3 qismi to‘g‘ri keladigan Braziliya, Meksika va Argentina *tayanch rivojlanayotgan davlatlar* guruhiga kiradi. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholi turmush darajasining nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari mintaqa mamlakatlari orasida Chili, Urugvay, Barbados va Bagama orollariga xos. Mintaqaning eng sust rivojlangan davlati esa Gaiti Respublikasi hisoblanadi.

Iqtisodiy geografik o‘rni, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati, xalqaro ixtisoslashuvi, aholining irqiy, etnik va din tarkibi xususiyatlari hamda davlatlararo iqtisodiy integratsiya jarayonlarini hisobga olgan holda, Lotin Amerikasi quyidagi 7 ta subregionga ajratiladi:

- Meksika;
- Markaziy Amerika (Beliz, Gvatemala, Salvador, Gonduras, Nikaragua, Kosta-Rika, Panama);
- Vest-Indiya (Karib dengizidagi orol mamlakatlar);
- And mamlakatlari (Venesuela, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya, Chili);
- “Gviana uchburchagi” (Gayana, Surinam, Fransiya Gvianasi);
- Braziliya;
- La-Plata mamlakatlari (Argentina, Urugvay, Paragvay).

Lotin Amerikasi, O‘rta Amerika (Mezoamerika), Karib havzasi mamlakatlari, Markaziy Amerika, Vest-Indiya, Janubiy Amerika, “Gviana uchburchagi”, amerikalik hindular, metislar, mulatlar, sambo, negrlar, kreollar, tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar, And mamlakatlari, La-Plata mamlakatlari.

1. Lotin Amerikasi mamlakatlari qanday tabiiy resurslarga boy? mintaqa davlatlarida qaysi foydali qazilmalarining jahon ahamiyatidagi zaxiralari mavjud?
2. Lotin Amerikasi qanday subregionlarga bo‘linadi va bunda qanday mezonlar hisobga olindi?
3. Lotin Amerikasi davlatlari aholisiga irqiy, til, tarkibi va joylashuvi nuqti nazaridan yozma tavsif bering.

25-§. KARIB HAVZASI OROL MAMLAKATLARI

Shimoliy va Janubiy Amerika materiklari oralig‘ida, Meksika qo‘ltig‘i va Karib dengizi bilan Atlantika okeani tutashgan akvatoriyada joylashgan orollar Xristofor Kolumbning birinchi ekspeditsiyasi

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

tomonidan 1492-yilda Amerika qit'asining dastlab ochilgan yerlari hisoblanadi. Kolumb unga Vest-Indiya, ya'ni "G'arbiy Hindiston", nomini bergan. Bu hudud keyinchalik Amerikaning bir qismi ekanligi aniqlangan bo'lsa-da, mazkur nom hanuzgacha keng ishlatilmoqda.

Vest-Indiya uchta yirik arxipelagdan iborat: Karib dengizining shimoliy chegarasi bo'ylab cho'zilgan Katta Antil orollari (eng yiriklari - Kuba, Gaiti, Yamayka, Puerto-Riko), Karib dengizining sharqiy va janubi-sharqiy chekkasidagi Kichik Antil orollari hamda Katta Antil orollaridan shimolda joylashgan Bagama orollari. Vest-Indiyaning umumiy maydoni 245 ming km^2 atrofida bo'lib, shundan 216 ming km^2ni Katta Antil orollari egallaydi. Kichik Antil va Bagama orollarining maydonlari esa deyarli bir xil bo'lib, har ikkala arxipelagga 14 ming km^2dan ziyodroq hudud to'g'ri keladi.

Vest-Indiya orollarida jami 13 ta mustaqil davlat joylashgan. Katta Antil orollarida Kuba, Gaiti, Dominikana Respublikasi va Yamayka davlatlari, Kichik Antil orollarida Antigua va Barbuda, Barbados, Grenada, Dominika, Sent-Vinsent va Grenadinalar, Sent-Kits va Nevis, Sent-Lyusiya, Trinidad va Tobago "mitti" davlatlari, Bagama orollarida esa shu nomdagi davlat joylashgan. Bundan tashqari, Vest-Indiyaning siyosiy xaritasida jami bo'lib 15 taga yaqin, Buyuk Britaniya, Fransiya, Niderlandiya va AQSHning mustamlaka, dengizorti hududlari hamda o'zini-o'zi boshqaradigan hududlari ham mavjud. Hududining kattaligi va aholisi soni bo'yicha subregion davlatlari ichida birinchi o'rinda Kuba Respublikasi turadi. Mustaqil bo'lmagan mamlakatlardan maydoni va aholisi jihatidan eng yirigi – AQSHga tegishli o'zini-o'zi boshqaradigan hudud hisoblangan Puerto-Rikodir. Boshqaruv shakli jihatidan 10 ta davlat respublika, 3 tasi esa Britaniya Hamdo'stligi qirolliklari (rasmiy davlat rahbari Buyuk Britaniya qirolichasi hisoblanadigan mustaqil konstitutsiyaviy monarxiyalar) hisoblanadi. Kuba – zamonaviy dunyo siyosiy xaritasidagi sotsialistik respublika tuzumidagi sanoqli davlatlardan biri.

Vest-Indiya orollari Karib va Shimoliy Amerika litosfera plitalari to'qnashgan chegarada joylashganligi bois, u yerda vaqti-vaqti bilan kuchli zilzilalar sodir bo'lib turadi. Kichik Antil orollarida harakatdagi vulqonlarni ko'p. Bunday tektonik tuzilishi tufayli Vest-Indiya orollarining yer yuzasi tog'lardan iborat. Tekisliklar faqat Kubada katta maydon egallaydi. Orollarning qirg'oqlari ko'p joylarda kemalar turishi uchun qulay sharoitga ega. Foydali qazilmalardan asosan boksit (Yamayka, Dominikana Respublikasi), nikel va kobalt (Kuba) rudalari, osh

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

tuzi (Dominikana Respublikasi) sanoat ahamiyatiga ega. Neft ko‘proq Bagama orollari, hamda Trinidad va Tobago davlatlarida qazib olinadi. Shuningdek, Trinidad orolida tabiiy asfalt qazib olinadigan ko‘l joylashgan.

Iqlimi tropik – yil davomida issiq, lekin Atlantika okeanidan doimo esib turuvchi passat shamollari tufayli ancha yumshoq va nam. May oyidan noyabrgacha jazirama va seryomg‘ir yoz davom etadi, iliq va nisbatan quruq qish esa noyabrning oxirida boshlanib, maygacha kuzatiladi. Aynan tropik qish fasli dam olish uchun eng yaxshi va yoqimli mavsum bo‘lib, eng “qaynoq” sayyohlik davri hisoblanadi. Iqlimning salbiy jihatlaridan biri – kuchli dovullarning tez-tez takrorlanib turishidir.

Vest-Indiya aholisining umumiy soni 43 mln kishiga teng (2016-yil holatiga). Kuba (11,2 mln), Gaiti (11,1 mln) va Dominikana Respublikasi (10,6 mln). Mintaqa aholisi soni bo‘yicha yetakchilik qiladi. Shuningdek, Puerto-Riko, Yamayka hamda Trinidad va Tobago davlatlarida aholi soni 1 million kishidan ko‘p. Boshqa mamlakatlarning har birida aholi soni 500 mingga ham yetmaydi.

Vest-Indiya mamlakatlarining aksariyatida tug‘ilish va aholi tabiiy ko‘payishi ko‘rsatkichlari o‘rtacha va past darajada. Gaiti va Dominikana Respublikasida tug‘ilish va tabiiy ko‘payish subregion bo‘yicha eng yuqori bo‘lib, aholi soni bu davlatlarda tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Ko‘p davlatlarda aholi soni o‘sishiga emigratsiyaning yuqoriligi salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu, ayniqsa, aholisi AQSHga ommaviy tarzda ko‘chayotgan Puerto-Riko uchun xos holat.

Urbanizatsiya darajasi ko‘p davlatlarda yuqori (subregion bo‘yicha jami o‘rtacha 70 foiz), ammo ayrim “mitti” davlatlarda shahar aholisi salmog‘i ancha past, masalan, Sent-Lyusiya, Trinidad va Tobago davlatlarida 20 foizga ham yetmaydi. Vest-Indiyadagi eng yirik shaharlar – Kuba poytaxti Gavana, Dominikana Respublikasi poytaxti Santo-Domingo, Gaiti poytaxti Port-o-Prens va Yamayka poytaxti Kingston hisoblanadi.

Kuba va Puerto-Rikoda aholisining irqiy tarkibida yevropaliklarning avlodlari (kreollar), Dominikana Respublikasida mulatlar, boshqa davlatlarda esa qora tanlilar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Kuba va Dominikana Respublikasida davlat tili ispan, Gaiti Respublikasida fransuz, qolgan davlatlarida esa ingliz tilidir.

Karib dengizidagi orol mamlakatlar iqtisodiy geografik o‘rni, tabiiy sharoit va resurslari, aholi va mehnat resurslari omillari ta’sirida xalqaro mehnat taqsimoti tizimida, asosan, turizm, tropik ekinlarni yetishtirish,

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

konchilik, yengil va oziq-ovqat sanoati, moliya-bank xizmatlari sektori kabi iqtisodiyot tarmoqlariga ixtisoslashgan. Aksariyat mamlakatlarning xo‘jalik ixtisoslashuvi tor, masalan, Trinidad va Tobago, asosan, neftni qayta ishlash va ammiak ishlab chiqarishga, Grenada muskat yong‘og‘i va kakao yetishtirishga, Sent-Vinsent va Grenadina esa kraxmal va sport anjomlari (xususan, tennis raketkalari)ni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Tashqi savdo aloqalari ko‘proq AQSH hamda Lotin Amerikasining boshqa davlatlari bilan amalga oshiriladi.

17-rasm. Vest-Indiya davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlar: Bagama orollari poytaxti Nassau shahri (chap tomonda) va Gaiti poytaxti Port-o-Prens shahridagi xarob mavzelardan biri (o‘ng tomonda)

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘ra Vest-Indiya mamlakatlari rivojlanayotgan davlatlar toifasiga mansub. Ammo iqtisodiyotning rivojlanganligi va aholining turmush darajasi bo‘yicha mamlakatlar orasida keskin tafovutlar mavjud (17-rasm). Subregiondagi davlatlardan bu borada eng peshqadam davlatlar Barbados bilan Bagama orollari hisoblansa, eng qoloqlari qatoriga Dominika va ayniqsa, Gaiti Respublikasi kiradi.

Karib dengizi, Vest-Indiya, Katta Antil orollari, Kichik Antil orollari, Bagama orollari, “mitti” davlatlar, mustamlaka, dengizorti hudud, o‘zini-o‘zi boshqaradigan hudud.

1. “Vest-Indiya” geografik nomining lug‘aviy ma’nosi va kelib chiqishini tushuntiring.
2. Vest-Indiya qaysi orol guruhlaridan iborat va siyosiy xaritada qanday davlatlar mavjud?
3. Karib dengizi orol mamlakatlari aholisi tabiiy ko‘payishi, irqiy va til tarkibining xususiyatlari nimalardan iborat?

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

VIII BOB. AFRIKA SUBREGIONLARI. OKEANIYA DAVLATLARI

26-§. AFRIKA SUBREGIONLARI

Afrika tabiiy resurslarga boy bo‘lishiga qaramay, mavjud siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy muammolar natijasida rivojlanish darajasi past bo‘lgan ko‘p davlatlar jam bo‘lgan qit’a hamdir. Umumiy maydoni – 30,3 mln km² dan ortiq bo‘lgan ushbu qit’ada 62 ta davlat joylashgan. Ularning 54 tasi mustaqil davlatlardan iborat. Qit’ada 10 ta orol, 15 ta quruqlik ichkarisidagi, 37 tasi dengiz chegaralariga ega. Afrika hududi 5 ta subregionga ajratiladi (18-rasm).

Shimoliy, G‘arbiy, Markaziy, Sharqiy va Janubiy Afrika subregionlari bir-birlaridan geografik o‘rni xususiyatlari, tabiiy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi, maydonda joylashgan davlatlar soni kabi ko‘rsatkichlariga ko‘ra farq qiladi (10-jadval).

10-jadval

Afrika subregionlari haqida umumiy ma’lumot

Subregionlar	Maydoni, mln km²	Aholisi soni, mln kishi	Davlatlar soni
Shimoliy	8,5	218	7
G‘arbiy	6,0	341	16
Sharqiy	6,3	379	17
Markaziy	6,6	142	9
Janubiy	2,7	61	5

Shimoliy Afrika O‘rta va Qizil dengizlar, Atlantika okeaniga chiqa olish imkoniyati mavjud bo‘lgan sababli qadimdan Yevropa hamda G‘arbiy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni yo‘lga qo‘ygan edi. Hududining katta qismi subtropik mintaqaga to‘g‘ri kelganligi davlatlarning paxta, zaytun, uzum, sitrus mevalar yetishtirishga ixtisoslashishga sabab bo‘lgan. Sanoat tarmoqlari rivojlanishi esa, birinchi navbatda mineral xomashyolarni qazib olish (neft, tabiiy gaz, fosforit, temir rudasi) hamda qayta ishlash bilan bog‘liq. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

18-rasm. Afrika subregionlari

mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan yengil va oziq-ovqat sanoati ham yaxshi rivojlangan. Bu yerda dengiz transporti ahamiyatli hisoblanadi. Ayniqsa, Suvaysh kanalining bu mintaqa hududida joylashganligi transport xizmatlarining yuqori darajada rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Bundan tashqari, xizmatlar sohasida turizm xizmatining ham o‘rni katta.

Aholisining asosiy qismini arab tilida so‘zlashuvchi xalqlar tashkil qiladi. Ko‘p asrlik tarixga egaligi sababli, mintaqa davlatlari iqtisodiyoti uchun an’anaviy hisoblangan sug‘orma dehqonchilik, ko‘chmanchi chorvachilik, hunarmandchilik kabi tarmoqlar o‘ziga xos an’analarga egaligi bilan ajralib turadi. Misr va Jazoir subregionning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘ra peshqadam davlatlar hisoblanadi.

G‘arbiy Afrika Sahroyi Kabir va Gvineya qo‘ltiqlari oralig‘ida joylashgan bo‘lib, hududi tropik cho‘llar, savanna, hamda nam ekvatorial mintaqaga to‘g‘ri keladi. Ushbu subregionda Afrikaning aholi soni jihatidan yetakchi davlati - Nigeriya joylashgan. Aholisining milliy tarkibi ancha murakkab. Mustamlakachilik davrida qulchilik eng avj olgan mintaqa hisoblanadi.

Subregionning zamonaviy qiyofasini, birinchi navbatda, bu yerda qadimdan rivojlanib kelgan qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashuv belgilaydi. Plantatsiya xo‘jaligining rivojlanishi bo‘yicha katta tajribaga ega bo‘lgan subregion davlatlari, asosan, texnik ekinlar yetishtirishga ixtisoslashgan. Qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan monokultura ekinlarining (yeryong‘oq, turli mevalar, tabiiy kauchuk, kakao, kofe) asosiy qismi eksportga yo‘naltiriladi. Konchilik sanoati asosiy rivojlangan sanoat tarmog‘i hisoblanadi. Asosan, temir va uran rudalari, boksit, qalay, neft, olmos, oltin qazib olinadi. Nigeriya G‘arbiy Afrikaning iqtisodiyoti nisbatan rivojlangan davlatlariga misol bo‘la oladi.

Markaziy Afrika mamlakatlari materikning markaziy qismida, nam ekvatorial o‘rmonlar hamda savanna mintaqalarida joylashgan. Sub-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

region mineral resurslar turi va zaxirasiga ko‘ra, nafaqat Afrikada, balki jahonda oldingi o‘rinlarning birini egallaydi. Bundan tashqari, mintaqa suv, biologik (asosan o‘rmon) resurslariga ham boy bo‘lsa-da, mavjud tabiiy resurs imkoniyatlaridan to‘lig‘icha foydalanilmaydi. Markaziy Afrika ishlov berilmagan olmos, mis, kobalt, marganes, qalay, neft kabi mineral resurslarning asosiy qismini jahonning turli davlatlariga eksport qiladi. Bundan tashqari, subregion eksportida o‘rmon resurslarining salmog‘i ham katta. Asosiy sanoat tarmog‘i konchilik sanoati bo‘lib, so‘nggi yillarda yirik shaharlarda asta-sekinlik bilan qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari ham rivojlanmoqda. Aholisi, asosan, bantu oilasiga mansub xalqlardan tashkil topganligi bilan ajralib turadi. Kongo Demokratik Respublikasi subregion bo’yicha iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlat hisoblanadi.

Sharqiy Afrika uchun, asosan, subekvatorial va tropik iqlim xosdir. U Hind okeaniga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lganligi sababli, qadimdan Hindiston va turli arab davlatlari bilan savdo aloqalarini o‘rnatib kelgan. Boshqa subregionlardan farqli ravishda bu mintaqa mineral resurslarga nisbatan kambag‘al ekanligi bilan ajralib turadi. Shu sababli iqtisodiyotini rivojlantirishda mavjud bo‘lgan boshqa tabiiy resurslardan samarali foydalanishga harakat qiladi. Asosan, tropik qishloq xo‘jaligi rivojlangan bo‘lib, jahon bozoriga kofe, choy, kokos palmasi mahsulotlari, turli ziravorlar olib chiqadi. Mintaqaning ba’zi davlatlari konchilik sanoati mahsulotlarini (mis) ham eksport qiladi. Qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari rivojlanib bormoqda. Tashkil qilingan tabiiy bog‘lar va qo‘riqxonalar turizmni rivojlanishiga yordam beradi (19-rasm). Sharqiy

19-rasm. Afrikaning turistik resurslari

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Afrika aholisi etnik jihatdan turli qabila va urug‘, elat va millatlardan tashkil topgan. Keniya subregiondagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘ra peshqadam davlat hisoblanadi.

Janubiy Afrika – Yevropa, Osiyo, Amerika qit’alaridan ancha uzoqda joylashgan bo‘lsada, qulay transport-geografik o‘ringa ega. Uning qirg‘oqlaridan muhim dengiz yo‘li yo‘nalishlari o‘tadi. Janubiy yarimsharning tropik va subtropik mintaqalarida joylashgan subregion turli tabiiy resurslarga (ayniqsa, mineral resurslarga) boy. Janubiy Afrika Respublikasi nafaqat subregiondagi, balki qit’adagi iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlat hisoblanadi. U jahon bozoriga turli mineral resurslarni yetkazib beruvchi davlatlardan biri. Uning iqtisodiyotida konchilik sanoatidan tashqari, qayta ishlovchi tarmoqlar ham salmoqli miqdorda mahsulot tayyorlab beradi. Subregionning boshqa davlatlari iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi muhim o‘rin tutadi. Aholisi etnik jihatdan rang-barangligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga JAR aholisi milliy tarkibida yevropaliklarning salmog‘i ham yuqori.

Afrika katta miqdorda tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy resurs imkoniyatlariga ega. Lekin, mintaqa davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi pastligi, aholisining milliy va diniy tarkibidagi o‘ziga xosliklar, uning turmush hamda savodxonlik darajasining past ko‘rsatkichlari, siyosiy mustaqillikka erishish davrida etnik xususiyatlar e’tiborga olinmagan holda milliy chegaralanishning amalga oshirilganligi kabi holatlar ko‘plab geosiyosiy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik esa ekologik muammolarning (masalan, cho‘llashish muammosi) yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

Subregionlar, Shimoliy Afrika davlatlari, G‘arbiy Afrika davlatlari, Sharqiy Afrika davlatlari, Markaziy Afrika davlatlari, Janubiy Afrika davlatlari, cho‘llashish muammosi, monokultura.

1. Afrikadagi davlatlar iqtisodiy taraqqiyotda ortda qolayotgan davlatlar hisoblanadi. Bunga qanday omillar sabab bo‘lgan?
2. Afrika davlatlariga xos bo‘lgan demografik vaziyatga baho bering.
3. Daftaringizga Afrikaning har bir subregionida joylashgan davlatlarga beshtadan misol yozing.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

27-§. OKEANIYA DAVLATLARI

Okeaniya Tinch okeanining janubi-g‘arbiy va markaziy qismlarida joylashgan orollar guruhidan tashkil topgan bo‘lib, uning umumiy maydoni – 1,26 mln km² ni tashkil etadi. Mazkur mintaqada 11 mln kishidan ortiq aholi istiqomat qiladi. Uning tarkibida 40 ga yaqin turli davlat, mamlakat va hududlar mavjud bo‘lib, ularning 13 tasi mustaqil davlat hisoblanadi. Okeaniya siyosiy xartasida 1 federativ davlat (Mikroneziya Federativ shtatlari), 1 ta monarxiya davlati (Tonga) va turli davlatlarning qator mustamlaka hududlari (masalan: Amerika Samoasi, Guam, Kingmen rifi (AQSH), Pitkern (Buyuk Britaniya), Norfolk, Ashmor va Kartye orollari (Avstraliya), Fransuz Polineziyasi, Yangi Kaledoniya (Fransiya) va b.) mavjud. Okeaniya davlatlari tarkibiy jihatdan Melaneziya, Polineziya va Mikroneziya mintaqalariga ajratiladi (20-rasm).

Relyef xususiyatiga ko‘ra, Okeaniya kontinental, marjon va vulqon kelib chiqishiga ega orollardan tarkib topgan. Yangi Zelandiya, Yangi Gvineya (orolning sharqiy qismi Okeaniya tarkibiga kiradi), Yangi Kaledoniya kabi yirik orollar kontinental xususiyatga ega. Ular umumiy Okeaniya hududining 87% ni egallaydi. Tog‘li relyefga ega, maydoni



20-rasm. Okeaniyaning tarkibiy qismlari

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

nisbatan yirik orollar, asosan, mintaqaning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lsa, qolgan kichik va mayda orollar Tinch okean akvatoriyasida keng maydonda tarqoq ravishda joylashgan. Tinch okean akvatoriyasining 1/3 qismini Okeaniya orollari tashkil qiladi.

Asosan ekvatorial, subekvatorial, tropik, subtropik va mo‘tadil mintaqalar hududida joylashgan. Yog‘in miqdori 1500–4000 mmni, o‘rtacha harorat esa +24° C; +28° C ni tashkil etadi. Yirik tog‘li orollarda qizil, tog‘ laterit, tog‘ o‘tloq, jigarrang qo‘ng‘ir, jigarrang tuproq turlari tarqalgan. Atollarda esa nisbatan past unumli, g‘ovaksimon, suvni o‘zida saqlash imkoniyatiga ega bo‘lmagan tuproqlar mavjud. Suv resurslari bilan yaxshi ta’minlangan. Sepik (1126 km), Flay (1050 km), Uaikato (425 km) Okeaniyaning eng yirik daryolari hisoblanadi. Orollarda mineral resurslardan nikel (Yangi Kaledoniya), neft va gaz (Papua-Yangi Gvineya, Yangi Zelandiya), mis (Papua-Yangi Gvineya), oltin (Papua-Yangi Gvineya, Fidji), fosfat (Nauru), dengiz hudularidagi iqtisodiy zonalarda temir-marganes qotishmalari, kobalt kabilar qazib olinadi.

Okeaniya orollari davlatlarining asosiy qismi aholi soni kam bo‘lgan davlatlar hisoblanadi. Aholisi, asosan, avstraloid kichik irqiga mansub polinez, melanez, mikronez va papuaslardan tashkil topgan. Milliy tarkibida turli qabila va urug‘ vakillarining salmog‘i yuqori. Ular papuas va avstronez oilalariga mansub. Lekin, mahalliy tillar deyarli muomalada emas. Asosan, muloqotda ingliz va fransuz tillaridan foydalaniladi. Xristian diniga e’tiqod qiluvchilar salmog‘i yuqori, bundan tashqari, qabilalarda an’anaviy dinlarga e’tiqod qiluvchilar ham bor.

Tabiiy resurslarga kambag‘alligi, orollararo aloqalarda qiyinchiliklarning mavjudligi, mineral resurslar miqdorining chegaralanganligi, asosiy eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish jarayoni xalqaro monopoliyalar qo‘l ostida to‘planganligi Okeaniya davlatlari iqtisodiyoti rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Aholining asosiy faoliyat sohasi qishloq xo‘jaligi hisoblanadi. Unda eksportbop monokul’tura ekinlari yetishtirish (kokos pal’masi, shakarqamish, ananas, banan, kofe, kakao) asosiy o‘rin tutadi. Okeaniya davlatlari jahon bo‘yicha kopra (quritilgan kokos) eksportining 10%, ananas hosilining 90% ini beradi. Chorvachilik, asosan, yirik orollar hududida rivojlangan. Chorva mollari soni bo‘yicha mintaqa davlatlari orasida Yangi Zelandiya yetakchilik qiladi (21-rasm).

Dengiz biologik resurslariga ega bo‘lgan mintaqa davlatlari qishloq xo‘jaligida baliqchilik sohasi so‘nggi yillarda rivojlanib bormoqda.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Ananas ekilgan maydonlar.

Yangi Zelandiya yaylovlari.

21-rasm. Okeaniyaning asosiy qishloq xo‘jalik mahsulotlari

Sanoatida asosan eksportbop qishloq xo‘jalik mahsulotlarga birlamchi qayta ishlov berish, o‘rmon va konchilik sanoati korxonalari faoliyat olib boradi. Tabiiy rekreatsion resurslar ta’sirida xalqaro turizm rivojlanmoqda. Ayniqsa, Fidji, Solomon orollari sayyohlar eng ko‘p tashrif buyuradigan hududlar bo‘lib hisoblanadi.

Okeaniya davlatlari orasida **Yangi Zelandiya** ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga ko‘ra oldingi o‘rinda turadi. Rivojlanish xususiyatiga ko‘ra “ko‘chirilgan kapitalizm” davlati hisoblangan ushbu davlat ikkita yirik (Shimoliy va Janubiy orollar) va 700 dan ortiq kichik orollardan tashkil topgan. Hududining 75% i dengiz sathidan 2000 m balandda joylashgan bo‘lib, hududida mineral resurslardan oltin, kumush, tabiiy neft, ko‘mir, turli rangli metallar tarqalgan. Suv resurslariga bilan yetarlicha ta’minlangan bo‘lib, bu yerda 40 dan ortiq daryo va 3280 ta ko‘llar mavjud. Iqtisodiyoti rivojlanishida bu yerda tarqalgan to‘q qo‘ng‘ir, sariq-qo‘ng‘ir, tog‘ tipli tuproqlar katta ahamiyatga ega. 2 mln gektarga yaqin o‘rmon hududlari ham bor. Shu bilan birga tabiiy rekreatsion resurs imkoniyatlari yuqori. Iqtisodiyoti industrial tipda bo‘lgan Yangi Zelandiya sanoatida konchilik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika va oziq-ovqat tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Chorvachilikda sut chorvachiligi va qo‘ychilik, dehqonchilikda esa bog‘dorchilik va uzumchilik asosiy qishloq xo‘jalik sohasi hisoblanadi. Transportida quruqlik transport turlari bilan birga dengiz transportining ahamiyati katta. Oklend (Yangi Zelandiyaning yagona millioner shahri), Gamilton, Vellington shaharlarini davlatning eng yirik iqtisodiy markazlari sifatida ko‘rish mumkin.

Okeaniya davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish muammosidan tashqari, aholi orasida ishsizlik darajasining yuqoriligi, dav-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

latlarning mintaqa hududidagi orollar nazorati ustidan yuzaga keladigan nizoli holatlar uning asosiy muammolaridan bo‘lib hisoblanadi.

Okeaniya, Melaneziya, Polineziya va Mikroneziya, atollar, avstroloid kichik irqi, kopra, monokultura ekinlari, industrial tip, nizoli holat.

1. Okeaniya davlatlarining geografik o‘rniga qanday baho berasiz?
2. Okeaniya davlatlari bir-biridan qanday jihatlari bilan farq qiladi?
3. Qo‘shimcha ma’lumotlardan foydalangan holda quyidagi jadvalni to‘ldiring.

№	Davlatlar	Maydoni, ming km²	Aholisi, mln. kishi	Boshqaruv shakli	Ixtisoslashgan tarmoqlari
1	Yangi Zelandiya				
2	Mikroneziya Qo‘shma Shtatlari				
3	Tongo				
4	Nauru				
5	Kiribati				

IX BOB. OSIYO SUBREGIONLARI

28-§. JANUBI-G‘ARBIY VA JANUBIY OSIYO DAVLATLARI

Osiyo jahondagi eng yirik qit’a hisoblanib, uning maydoni 43,4 mln km² (jahon quruqlik yuzasining 29,2 %)ni, aholisi soni esa 4,4 mlrd kishiga yaqin (jahon aholisining 59,5% ni tashkil etadi). Zamonaviy Osiyo siyosiy xaritasida 47 ta mustaqil davlat mavjud. Bu davlatlarning 13 tasi monarxiya boshqaruv shakliga, 7 tasi federativ ma’muriy-hududiy tuzilishga ega. Qit’a hududi 5 ta subregionga – Janubi-g‘arbiy, Janubiy, Sharqiy, Janubi-sharqiy va Markaziy Osiyoga ajratiladi (22-rasm). Mazkur subregionlarni madaniy-tarixiy mintaqalar sifatida ham ko‘rish mumkin. Ularni ajratishda tarixiy, etnik, diniy omillar bilan bir qatorda, tabiiy belgilarga ham e’tibor qaratilgan.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE



22-rasm. Osiyo subregionlari

Janubi-g‘arbiy Osiyo. Aholi soniga ko‘ra Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Iroq, Saudiya Arabistoni davlatlari yetakchilik qiladi. Umumiy aholining 60% qishloqlarda istiqomat qiladi.

Subregionda, asosan, neft (Fors ko‘rfazi davlatlari, Turkiya, Ozarbayjon, Armaniston) mashinasozlik (Turkiya, Eron, Gruziya, Ozarbayjon, Armaniston), metallurgiya (Turkiya, Eron, BAA) va kimyo sanoatlari (Eron, Turkiya, Ozarbayjon) rivojlanmoqda. Yengil va oziq-ovqat sanoati Janubi-g‘arbiy Osiyoning barcha davlatlarida rivojlangan.

Qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i dehqonchilik hisoblanadi. Asosan, sug‘orma dehqonchilik rivojlangan, iste’mol uchun bug‘doy, makajo‘xori, arpa yetishtiriladi. O‘rta dengizbo‘yi davlatlarida sabza-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

votchilik, mevachilik, uzumchilik rivojlangan bo‘lib, ular bilan bir qatorda zaytun yetishtirish katta o‘rin egallaydi va aynan mazkur dehqonchilik turi bo‘yicha mintaqa jahonda yetakchilik qiladi. Turkiyada paxtachilik, tamaki, sitrus meva, donchilik, Eronda xurmo, sitrus mevalari, qand lavlagi, paxta, Iroq, Suriya va Isroilda paxta, tamaki va xurmo yetishtirish rivojlangan. Chorvachilikda Turkiya angor echkilar boqishga, Arabiston yarimoroli davlatlari tuyachilikka, Eron va Afg‘onistonda qorako‘lchilikka ixtisoslashgan. Xizmat ko‘rsatish sohalari orasida transport va turizm katta salmoqqa ega.

Janubiy Osiyo davlatlari. Janubiy Osiyo subregionining umumiy maydoni 4,5 mln km² ni tashkil etadi. Mintaqada 2 mlrdga yaqin aholi istiqomat qiladi. Mazkur subregion tarkibiga Hindiston yarimoroli, Hind-Gang tekisligi, Shri-Lanka, Maldiv, Andaman, Nikobar hamda Lakkadiv orollari kiradi. Uning hududida 7 ta davlat joylashgan. Mintaqa davlatlari orasida bitta monarxiya davlat tuzumiga ega bo‘lgan Butan Qirolligi bilan 6 ta respublika mavjud. Ma’muriy-hududiy tuzilishiga ko‘ra esa Hindiston va Pokiston federativ, qolganlari unitar davlatlar hisoblanadi.

Janubiy Osiyoning dunyo miqyosida tutgan o‘rni quyidagicha: bu subregion Yer shari quruqlik maydoning 3,1 % ni egallaydi; dunyo aholisining 25,4 % ushbu mintaqa aholisidan tarkib topadi; dunyo bo‘yicha YMM ning 9 % dan ortig‘i shu subregion hissasiga to‘g‘ri keladi.

Dunyo okeaniga bevosita chiqish imkoniyatining mavjudligi, Hind okeani havzasi qirg‘oqbo‘yi hududlarining markazida joylashganligi, uning hududida qadimiy tarixiy markazlarning mavjudligi, mintaqa geografik o‘rnining o‘ziga xos jihatlari hisoblanadi.

Janubiy Osiyoni shimolda Himolay tog‘ tizmasi va Qoraqurum o‘rab turadi. Shimoli-sharqda u o‘rmonlar bilan qoplangan Assam-Birma tog‘lari, shimoli-g‘arbda esa Hindukush va Eron tog‘liklari orqali chegaralanadi. Mintaqa shimoldan janubga qarab dunyodagi eng baland tog‘ Himolaydan ekvatorda joylashgan Maldiv orollariga tomon pasayib boradi (23-rasm).

Mazkur mintaqaga musson tipli iqlim xos bo‘lib, yil davomida ob-havoning keskin o‘zgarishi bilan ajralib turadi. Bu yerda aniq ifodalangan ikki iqlimiy mavsum (nam yoz va quruq qish mavsumlari) ajratiladi. Mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishida tabiiy resurslar, ayniqsa, mineral resurslar katta ahamiyatga ega. Bu yerda yoqilg‘i-energetika resurslaridan boshlab (ko‘mir, tabiiy gaz, tarkibida radioaktiv toriy mavjud

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

23-rasm. Janubiy Osiyo subregioni davlatlarining relyef tuzilishidagi tafovvutlar

bo‘lgan monatsitli qumlar) qimmatbaho metall hamda toshlar mavjud (oltin, zumrad, olmos). Subregion jahonda qora metall rudalar (temir, marganes, xrom) zaxirasiga ko‘ra ajralib turadi. So‘nggi yillarda mintaqaning dengiz shelf zonasida neft va gaz qazib olish rivojlanmoqda.

Suv resurslari bilan nisbatan yaxshi ta’minlangan. Hind, Gang, Brahmaputra eng yirik daryolari hisoblanadi. Subregionda yuqori unumdorlikka ega bo‘lgan allyuvial tuproqlar, qora tuproq xususiyatli gilli tuproqlar – regurlar keng tarqalgan. Janubiy Osiyoning barcha davlatlarida milliy, diniy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omillari bilan bog‘liq holda, aholining tabiiy o‘sish sur’atlari yuqori.

Janubiy Osiyoda 1 mln dan ortiq 33 ta etnos istiqomat qilib, mintaqa aholisining 98% ularning hissasiga to‘g‘ri keladi. Asosan, induizm (Hindiston, Nepal), islom (Pokiston, Bangladesh, Maldiv), buddizm (Butan, Shri-Lanka) dinlari tarqalgan.

Ma’lumki, Janubiy Osiyo qadimiy sug‘orma dehqonchilik markazlaridan biri sifatida jahonning aholisi eng zich joylashgan areallardan biridir. Bu yerda o‘rtacha zichlik 355 kishi/km^2 dan ortiq bo‘lib, o‘rtacha jahon ko‘rsatkichidan 6,7 marta ortiqdir. Tekislik hududlari, yirik daryo vodiylari (ayniqsa, Gang daryosi vodiysi) hamda dengizbo‘yi hududlarida aholining yuqori zichlik ko‘rsatkichlari qayd qilinadi. Janubiy Osiyo dunyoning eng kam urbanizatsiyalashgan mintaqalaridan biri hisoblanadi (46%). Bu holat mintaqa davlatlarining past ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti sabablidir. Shu bilan bir qatorda mintaqaning ko‘plab davlatlarida soxta urbanizatsiya jarayoni ham tez sur’atlarda rivojlanib bormoqda.

Janubiy Osiyo iqtisodiyoida rivojlanish darajasiga ko‘ra, Osiyoning boshqa subregionlariga nisbatan past ko‘rsatkichlar qayd etadi. Butan

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

va Nepal agrar, Maldiv agrar-industrial, Bangladesh, Pokiston, Hindiston hamda Shri-Lanka industrial-agrar davlatlar hisoblanadi. Janubiy Osiyo davlatlari jahon iqtisodiyotida asosan konchilik (Hindiston, Nepal, Butan), qora va rangli metallurgiya (Pokiston, Hindiston, Shri-Lanka), kimyo (Hindiston, Pokiston), yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari (barcha davlatlarda) rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda dehqonchilik sohasi ustun hisoblanadi. Janubiy Osiyo jahondagi donli ekinlar (ayniqsa, sholi) yetishtiruvchi yirik mintaqa sifatida tanilgan. Bundan tashqari, bu yerda jut (Hindiston, Bangladesh), tabiiy kauchuk, kokos (Shri-Lanka), shakarqamish, paxta, yeryong‘oq ham yetishtiriladi. Hindiston va Shri-Lanka jahon choy hosilining 40% ni yetishtirib, uning eksporti bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Shuningdek, subregion turli xil ziravorlar yetishtirish bo‘yicha ham jahonda peshqadamlik qiladi. Chorvachilikda qoramolchilik, qo‘y va echkichilik, baliqchilik kabi tarmoqlari rivojlangan. Shu bilan birga, mintaqa davlatlarida xizmat ko‘rsatish tarmoqlaridan turizm, tibbiyot, transport xizmatlar ko‘rsatish katta o‘rniga ega.

Osiyo subregionlari, Janubi-g‘arbiy Osiyo davlatlari, Fors ko‘rfazi davlatlari, Suvaysh kanali, Kavkaz davlatlari, Hindiston yarim oroli, regur tuproqlar.

1. Janubi-g‘arbiy Osiyo davlatlari jahon xo‘jaligida qanday sohalarga ixtisoslashgani bilan ajralib turadi?
2. Janubi-g‘arbiy Osiyo davlatlari orasida quruqlik ichkarisida joylashganlarini xaritadan ko‘rsating.
3. Xaritadan foydalangan holda quyidagi jadvalni to‘ldiring**:**

Tabiiy geografik o‘rin ko‘rinishlari	**Janubi-g‘arbiy va Janubiy Osiyo davlatlari**
Dengiz chegaralariga ega bo‘lgan davlatlar	
Quruqlik ichkarisida joylashgan davlatlar	
Orol davlatlar	
Yarimorol davlatlar	
Arxipelag davlatlar	

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

29-§. SHARQIY VA JANUBI – SHARQIY OSIYO DAVLATLARI

Sharqiy Osiyo davlatlari. Osiyoning sharqiy qismida joylashgan hududlari Sharqiy Osiyo subregioni hisoblanadi. Shimoliy, g‘arbiy, janubiy qismlaridan mintaqaning quruqlik chegaralari o‘tsa, sharqi Yapon, Sariq, Sharqiy Xitoy, Janubiy Xitoy dengizlari zanjiri bilan o‘ralgan. Uning umumiy maydoni 11,8 mln km^2, aholisi soni esa 1,5 mlrd.dan ortiq. Mazkur mintaqa Yer shari quruqlik maydoning deyarli 8% ini egallaydi; dunyo aholisining 22,2% ni o‘z ichiga oladi; dunyo bo‘yicha YMM ning 1/4 qismidan ortiq shu mintaqa hissasiga to‘g‘ri keladi. Subregion hududida 5 ta mustaqil davlat joylashgan.

Sharqiy Osiyo subregioni Osiyoning maydon jihatdan eng katta mintaqasi hisoblanadi. Uning davlatlari orasida Xitoy maydon kattaligiga ko‘ra jahonda uchinchi, aholi soniga ko‘ra esa, birinchi o‘rinni egallaydi. Koreya Respublikasi mintaqaning maydon jihatdan kichik davlati hisoblansa, Mongoliya aholi soniga ko‘ra guruhda so‘nggi o‘rinni egallaydi. Subregion davlatlarining yana bir o‘ziga xos jihati shuki, har bir davlat o‘z siyosati, rivojlanish holatiga ko‘ra deyarli bir-biriga o‘xshamaydi. Bu yerda bozor iqtisodiyoti talablarini o‘zida singdirgan sotsialistik tuzum asosida rivojlanayotgan Xitoy Xalq Respublikasi, jahonning eng harbiylashgan, yopiq davlat siyosat yurituvchi, totalitar tuzumga ega bo‘lgan Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (KXDR), mintaqadagi yagona monarxiya tuzumiga ega bo‘lgan, jahonning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlatlaridan biri – postindustrial davlat Yaponiya, yangi sanoatlashgan davlat – Koreya Respublikasi bilan bir qatorda iqtisodiyoti nisbatan past darajada rivojlangan Mongoliya joylashgan.

To‘g‘ridan to‘g‘ri Tinch okeaniga chiqish imkoniyatiga ega (Mongoliyadan tashqari) ekanligi, subregionning qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri ekanligi geografik o‘rnining ijobiy jihatlari hisoblansa, g‘arbiy va janubiy qismlarining baland tog‘liklardan iboratligi, asosiy qismi Tinch okeanbo‘yi seysmik zonasida joylashganligi, salbiy jihat sifatida namoyon bo‘ladi.

Sharqiy Osiyo davlatlari relyef xususiyatlari nisbatan o‘xshash. Barcha davlatlarda tog‘li hududlar katta maydonni tashkil qiladi. Shu

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

bilan bir qatorda, Gobi, Taklamakon kabi cho‘llar ham mavjud. Tog‘oldi, daryo vodiylari, dengizbo‘yi hududlari mintaqaning asosiy tekislik hududlarini tashkil qiladi (24-rasm).

Taklamakon cho‘li

Yaponiya

Tibet tog‘lari

24-rasm. Sharqiy Osiyo mamlakatlari tabiati manzaralari

Sharqiy Osiyo davlatlari, asosan, mo‘tadil, subtropik va subekvatorial mintaqalarda joylashgan. Mazkur davlatlar iqtisodiyotida ularning hududida mavjud bo‘lgan tabiiy resurslar katta ahamiyatga ega. Mineral resurslarning turli ko‘rinishlari Yaponiyadan boshqa barcha davlatlarda tarqalgan bo‘lsa, Yaponiya, Koreya yarimoroli davlatlari suv resurslariga boyligi bilan ajralib turadi. Undan tashqari, yer (Xitoy), o‘rmon (Xitoy, Koreya yarimoroli davlatlari), rekreatsion (Yaponiya, Xitoy, Koreya Respublikasi) resurslar ham katta iqtisodiy ahamiyatga ega.

Subregion aholi soni, uning zichlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili Yaponiya, Koreya Respublikasi aholisining tabiiy ko‘payish darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ularda tug‘ilish darajasi pastligi sababli aholi orasida katta yoshlilar hamda qariyalarning salmog‘i ortib bormoqda. Xitoyda aholi sonining sekin o‘sishiga, bu yerda so‘nggi yillargacha olib borilgan aholi sonini qisqartirishga qaratilgan demografik siyosat sabab bo‘lmoqda. Mintaqa davlatlari orasida KXDR va Mongoliyada tabiiy ko‘payish jarayoni yuz bermoqda. Subregionda aholi o‘rtacha zichligi 1 km^2ga 136 kishiga teng. Aholi zichlik ko‘rsatkichlari Koreya Respublikasida eng yuqori (1 km^2ga 510 kishi), Mongoliyada esa eng past (2 kishi).

Subregionda o‘rtacha urbanizatsiya darajasi 58% bo‘lgan holda, uning davlatlari orasida iqtisodiyoti rivojlangan Yaponiya (93%), Koreya Respublikasida (82%) baland, KXDRda esa past (60%) ko‘rsatkichlar kuzatiladi. Sanoatida konchilik (Xitoy, Mongoliya, KXDR),

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

yoqilg‘i-energetika (Xitoy, Koreya Respublikasi, Yaponiya), qora va rangli metallurgiya (Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi), mashinasozlik (Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi), kimyo (Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi, KXDR), o‘rmon va yog‘ochsozlik (Xitoy, Koreya Respublikasi), yengil va oziq-ovqat (subregionning barcha davlatlari) tarmoqlari muhim ahamiyatga ega. Turli tarmoqlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi davlatlari jahonda yetakchi davlatlardan hisoblanadilar. Ayniqsa, ushbu davlatlarning qora metallurgiya, kemasozlik, avtomobilsozlik, elektronika va elektrotexnika, kimyo sanoatlaridagi ulushi katta.

Sharqiy Osiyo davlatlari iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi katta ahamiyatga ega. Mongoliya va Yaponiya qishloq xo‘jaligida chorvachilikning, qolgan davlatlarda esa dehqonchilikning hissasi yuqori. Dehqonchilik tarmoqlaridan donchilik (bug‘doy, sholi, makkajo‘xori), texnik ekinlar yetishtirish (paxta, tamaki, choy, kartoshka, soya), bog‘dorchilik yaxshi rivojlangan. Chorvachilikda qoramolchilik, cho‘chqachilik, parrandachilik va baliqchilik muhim o‘rin tutadi. Mongoliyada qo‘y va echkichilik, yilqichilik, tuyachilik va bug‘uchilik tarmoqlari ham rivojlangan. Transportida quruqlik transporti muhim ahamiyatga ega. Dengizbo‘yida joylashgan davlatlarda suv transporti ham yaxshi rivojlangan.

Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari. Janubi-sharqiy Osiyo subregioni tarkibiga Hindixitoy yarimoroli, Malay arxipelagi orollari, Yangi Gvineyaning g‘arbiy qismi kiradi. Uning maydoni 4,5 mln km^2 bo‘lib, umumiy quruqlik maydonining 3% ni egallaydi. Aholisi soni 630 mlnga yaqin. Ya’ni bu subregionda jahon aholisining 8,5% dan ko‘prog‘i istiqomat qiladi. Geografik joylashuvi jihatidan Vyetnam, Kambodja, Laos, Myanma, Tailand va Malayziya yarimorol, Bruney, Indoneziya, Singapur, Filippin va Sharqiy Timor esa orol davlatlar hisoblanadi. Bu yerda maydon kattaligi, aholi soni, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi 11 ta davlat joylashgan. Ular orasida faqat Laos quruqlik ichkarisida joylashgan davlat bo‘lganligi sababli to‘g‘ridan to‘g‘ri dengizga chiqa olmaydi.

Davlatlarning 4 tasi monarxiya boshqaruv shakliga ega. Ma’muriy-hududiy tuzilishiga ko‘ra, Malayziya va Myanma davlatlari federativ davlatlar hisoblanadi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Hind va Tinch okeanlari oralig‘ida joylashganligi; mintaqa davlatlari iqtisodiyoti rivojida ikki yirik sivilizatsiya – Xitoy va Hindiston ta’sirining kuchli ekanligi; buyuk geografik kashfiyotlar davrida rivojlanishni boshlagan xalqaro savdo va dengiz yo‘llari ustida joylashganligi mintaqa geografik o‘rnining asosiy xususiyatlari hisoblanadi.

Subregion relyefida tog‘li va tekislik hududlar salmog‘i deyarli teng. Mintaqada yirik tekislik hududlari mavjud emas. Asosan, subekvatorial va ekvatorial iqlim mintaqalarida joylashgan bo‘lib, iqlim xususiyatlari bu yerda doimiy yashil tropik o‘rmonlarning mavjud bo‘lishiga sababchi bo‘lgan. Mintaqaning 42% hududi o‘rmonlar bilan qoplangan. Suv resurslari bilan yaxshi ta’minlangan. Mekong, Iravadi, Chao-Praya, Xongxa daryolari eng asosiy chuchuk suv manbalari hisoblanadi. Mintaqaning yirik daryolari, asosan, yarim orol davlatlar hududidan oqib o‘tadi.

Dunyo okeani biologik resurslari ham davlatlar iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega. Ular aholi tomonidan iste’molda keng foydalaniladi. Malay arxipelagining ba’zi orollarida tabiiy dur yetishtiriladi.

Mintaqa tabiiy resurslari orasida mineral resurslar muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Myanma hududidan to Indoneziyagacha cho‘zilgan qalay-volfram belbog‘i o‘tgani sabab barcha yarimorol davlatlari hamda Indoneziya hududidan katta miqdorda qalay rudalariga qazib olinadi. Subregion qalayning umumiy zaxiralari bo‘yicha jahonda birinchi o‘rinni egallaydi. Surma zaxiralari bo‘yicha Janubi-sharqiy Osiyo qit’ada birinchi, jahonda esa ikkinchi o‘rinni egallaydi. Bundan tashqari, ushbu hududdan neft (Indoneziya, Malayziya, Bruney), toshko‘mir (Vyetnam, Indoneziya), uran rudalari (Indoneziya, Filippin), oltin (Myanma, Vyetnam, Filippin), volfram (Myanma, Tailand), boksit (Indoneziya, Filippin, Malayziya) kabi mineral resurslar ham qazib olinadi.

Janubi-sharqiy Osiyoning deyarli barcha davlatlarida aholining tabiiy ko‘payish darajasi yuqori. Bunga birinchi navbatda milliy, diniy omillar katta ta’sir ko‘rsatadi. Indoneziya, Filippin, Vyetnam mintaqaning aholi soni ko‘p bo‘lgan davlatlari hisoblanadi. Janubi-sharqiy Osiyo hududida 200 dan ortiq xalqlar yashaydi. Ular orasida malayliklar, laolar, tayliklar, vyetnamliklar, semanglar, birmaliklar, filippinliklar, yavaliklar, xitoylar katta salmoqa ega.

Indoneziya, Malayziya, Bruneyda islom diniga e’tiqod qiluvchilar oldingi o‘rinda turadi. Tailand, Laos, Kambodja, Myanma hamda Vyetnamda buddizm, Singapurda esa konfusiylik dini keng tarqalgan.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Ayrim davlatlarda katoliklarning salmog‘i katta (Filippin, Sharqiy Timor).

Subregionda o‘rtacha zichlik 1 km^{2}ga 140 kishini tashkil etadi. Kichik hududli davlatlarda bu ko‘rsatkich ancha yuqori (masalan, Singapurda o‘rtacha zichlik 1 km^2 ga 8000 kishidan oshadi).

25-rasm. Janubi-sharqiy Osiyoning zamonaviy shaharlaridan biri

Urbanizatsiya darajasi 50% atrofida. Industrlashgan hududlarda bu ko‘rsatkich yuqori (Singapurda 100%), qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotida katta salmoqqa ega davlatlarda esa past (Sharqiy Timor 30% atrofida). Jakarta, Bangkok, Manila mintaqaning eng yirik shaharlari bo‘lib hisoblanadi (25-rasm).

Mintaqa davlatlari tarixiy rivojlanishida Xitoy va Hindistonning ta’siri katta bo‘lsada, ushbu davlatlarning aksariyat qismi o‘z ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘lini belgilashda yapon modeliga murojaat qilishgan. Natijada Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari ichida Singapur, Tailand, Malayziya kabi yangi sanoatlashgan davlatlar (so‘nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarda ijobiy o‘zgarishlar yuz berayotgan rivojlanayotgan davlatlar guruhi) soni ortib bormoqda. Bundan tashqari, bu yerda Bruney kabi neft eksport qiluvchi davlat, Sharqiy Timor, Laos kabi iqtisodiyoti past darajada rivojlangan davlatlar ham mavjud.

Subregionda konchilik (deyarli mintaqaning barcha davlatlarida), yoqilg‘i-energetika (Indoneziya, Malayziya, Bruney va b.), rangli metallurgiya (Indoneziya, Malayziya, Tailand, Vyetnam va b.), mashinasozlik (Indoneziya, Singapur, Malayziya va b.), kimyo (Indoneziya, Malayziya, Singapur, Vyetnam va b.), yengil va oziq-ovqat (deyarli mintaqaning barcha davlatlarida) sanoatlari tarmoqlari rivojlangan.

Qishloq xo‘jaligida dehqonchilik ustun soha bo‘lib, sholi asosiy ekin turi hisoblanadi. Bundan tashqari, mintaqa davlatlarida turli ziravorlar, choy, kofe, kopra, geveya (tabiiy kauchuk olish uchun) kabilar ham yetishtiriladi. Chorvachilikda baliqchilik rivojlangan. Geografik o‘rin xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari uchun asosiy transport turlari suv va avtomobil transporti hisoblanadi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Sharqiy Osiyo davlatlari, totalitar tuzum, depopulyasiya, Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari, Hindixitoy yarim oroli, yangi sanoatlashgan davlatlar.

1. Sharqiy Osiyo davlatlari iqtisodiyotida asosiy o‘rin tutadigan og‘ir sanoat tarmoqlariga tavsif bering.
2. Sharqiy Osiyoning 10 mln dan ortiq aholisi bo‘lgan mega shaharlarining nomlarini ular joylashgan davlatlar bilan birgalikda daftaringizga yozing.
3. Mosliklarni toping:

1) Vyetnam; 2) Malayziya; 3) Laos; 4) Tailand; 5) Myanma
A) Bangkok; B) Xanoy; V) Kuala-Lumpur; G) Vyentyan; D) Yangon.

30-§. MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI

Markaziy Osiyo siyosiy-geografik subregioni Yevrosiyo materigining ichkarisida joylashgan. 1991-yildan buyon mustaqil davlatlar sifatida rivojlanayotgan 5 ta sobiq ittifoqdosh respublika - Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekistonni birlashtiradi. Sanab o‘tilgan davlatlar iqtisodiy-geografik o‘rnining umumiy jihati shundan iboratki, birortasida ham Dunyo okeaniga bevosita chiqish imkoniyati yo‘q, ya’ni beshtasining barchasi ichki kontinental mamlakatlar hisoblanadi. Jumladan, Qozog‘iston Respublikasi dunyodagi jami 44 ta bunday geografik joylashuvga ega davlatlardan maydoni bo‘yicha eng yirigi hisoblanadi. Subregionning o‘rta qismida joylashgan O‘zbekiston Respublikasi geografik o‘rnining o‘ziga xosligi esa, nafaqat o‘zi, balki biror bir qo‘shni mamlakati ham dengizga tutash emasligidir. Bunday geografik xususiyat jahon mamlakatlari ichida, respublikamizdan tashqari, faqatgina G‘arbiy Yevropadagi “mitti” davlatlaridan biri – Lixtenshteyn knyazligiga xos, hududi kattaroq davlatlardan esa hech qaysi birida geografik joylashuvining bunday jihati mavjud emas.

Qozog‘iston bilan Turkmaniston Respublikalari Kaspiy dengiziga tutash bo‘lib, bu holat ikkala davlatning iqtisodiy-geografik o‘rni, transport-geografik imkoniyatlari va tabiiy-resurs salohiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan farqli o‘laroq, transport-geografik sharoiti ancha murakkab bo‘lgan Tyanshan va Pomir baland tog‘lari hududida joylashgan Qirg‘iziston va Tojikiston Respublikalarining iqtisodiy-geografik o‘rni, subregiondagi boshqa davlatlarning joylashuviga nisbatan birmuncha noqulay hisoblanadi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Markaziy Osiyo subregioni iqtisodiy-geografik o‘rnining ijobiy tarafi uning tranzitligi, ya’ni Yevropa va Osiyo turli qismlarining quruqlik transporti tizimlarini bog‘lay olish imkoniyatlarida o‘z aksini topadi. Bu holat tarixda Buyuk Ipak yo‘li hozirgi Markaziy Osiyo davlatlari hududidan o‘tganligida namoyon bo‘lgan. Hozirgi davrda ham subregion mamlakatlarining iqtisodiy-geografik imkoniyatlari shu jihatdan yuqori baholanishi asosli. Markaziy Osiyoning geosiyosiy o‘rni o‘ziga xos bo‘lib, Yevrosiyodagi asosiy geosiyosiy kuch markazlari – Xitoy, Rossiya, Eronga tutashligi va ushbu bevosita qo‘shnilaridan tashqari, AQSH, Yevropa Ittifoqi, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Pokiston kabi geosiyosiy “o‘yinchi”larning tashqi manfaatlari kesishgan hududda joylashganligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, harbiy mojarolar tugamayotgan Afg‘oniston bilan chegaradoshligi hamda boshqa real va ehtimoliy harbiy-siyosiy ziddiyat zonalariga yaqin joylashganligi, Markaziy Osiyo geosiyosiy o‘rnining salbiy tomonlarini belgilaydi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy maydoni 4 mln km^2 ga, jami aholisi esa 2017-yil 1-yanvar holatiga 70,5 mln kishiga teng. Subregion davlatlari hududi kattaligi va aholisi soni jihatidan bir-biridan ancha farq qiladi (26-rasm). Markaziy Osiyo davlatlarining hududiy va demografik salohiyati orasidagi tafovutlariga tabiiy sharoit va resurslarining xususiyatlari katta ta’sir ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo davlatlari Yevrosiyo va Hind-Avstraliya litosfera plitalarining chegarasi bo‘ylab o‘tgan Alp-Himolay burmali mintaqaga yaqin joylashgan. Shu bois, mintaqaning janubi-sharqiy va markaziy qismlari seysmik jihatdan xavfli hisoblanadi. Kuchli zilzilalar sodir

26-rasm. Markaziy Osiyo davlatlarining subregion umumiy hududi (chap tomonda, ming km^2 va % hisobida) hamda aholisidagi (o‘ng tomonda, mln kishi va % hisobida, 1.01.2017 yil holatiga) ulushlari

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

bo‘lishi, ayniqsa, Tojikiston va Qirg‘iziston hududlari uchun xos holat. Mintaqaning g‘arbiy va shimoliy qismlari asosan platformali tektonik tuzilishiga ega. Yer yuzasi tuzilishiga ko‘ra, subregion janubi-sharqida joylashgan Tojikiston va Qirg‘iziston Respublikalari tog‘li, Qozog‘iston, O‘zbekiston va Turkmaniston esa asosan, tekislik keng tarqalgan mamlakatlar hisoblanadi (27-rasm). Lekin, bu uchta davlat hududida ham baland tog‘ tizmalari bo‘lib, maydonlarining 10–20 foizini egallaydi.

27-rasm. Turkmaniston (chap tomonda) va Tojikiston (o‘ng tomonda) hududlarining kosmik fotosuratlari

Markaziy Osiyo mamlakatlari ulkan mineral-resurs salohiyatiga ega. Neft zaxiralari bo‘yicha Qozog‘iston va Turkmaniston, tabiiy gaz zaxiralari jihatidan Turkmaniston, O‘zbekiston va Qozog‘iston alohida ajralib turadi, toshko‘mirga Qozog‘iston, qo‘ng‘ir ko‘mirga esa O‘zbekiston boy hisoblanadi. Neft-gaz zaxiralari, asosan, Kaspiybo‘yi pasttekisligi, Qoraqum va Qizilqum cho‘llari, Ustyurt platosi hamda tog‘ oralig‘idagi botiqlarda, toshko‘mirning eng katta zaxiralari esa Qozog‘iston past tog‘laridagi Qarag‘anda va Ekibastuz ko‘mir havzalarida joylashgan. Temir, marganes va xrom kabi qora metallarning rudalariga Qozog‘iston boy. Turli rangli, jumladan qimmatbaho va nodir metallarning yirik konlari esa, Turkmanistondan tashqari, subregionning barcha davlatlarida mavjud. Jumladan, O‘zbekiston oltin, uran, kadmiy, mis, molibden, Qozog‘iston uran, volfram, molibden, qo‘rg‘oshin, rux, Qirg‘iziston oltin, simob, surma, Tojikiston kumush, uran zaxiralari bo‘yicha alohida ajralib turadi. Turli mineral tuzlarning ulkan zaxiralariga esa Turkmaniston, O‘zbekiston va Qozog‘iston ega.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Markaziy Osiyo davlatlari iqlimining umumiy xususiyatlari mo‘tadil va subtropik iqlim jihatlarining turkumlanishi, keskin kontinentalligi va qurg‘oqchilligida o‘z ifodasini topadi. Shu tufayli Markaziy Osiyo davlatlari hududi asosan cho‘l, chalacho‘l va dasht tabiat zonalaridan iborat.

Markaziy Osiyo sharoitida qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan omil – suv resurslari – subregion hududi bo‘yicha juda notekis taqsimlangan. Subregiondagi barcha yirik daryolar – Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Ili, Irtish va boshqalar transchegaraviy (ikki va undan ortiq davlat hududidan oqadigan) bo‘lib, Tyanshan, Jung‘oriya Olotovi hamda Pomir tog‘laridan, ya’ni Tojikiston, Qirg‘iziston va Xitoy hududidan boshlanadi. Shuning uchun Tojikiston bilan Qirg‘iziston suv va gidroenergetika resurslariga boy, Qozog‘iston, O‘zbekiston va, ayniqsa, Turkmanistonning ko‘p hududlari esa ularga taqchildir.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining aholisi suv va yer resurslari omillari (gidrografik tarmoqlar va relyef)ga bog‘liq holda notekis joylashib, asosan, sug‘orma dehqonchilik yaxshi rivojlangan daryo vodiy va deltalari, tog‘ oralig‘idagi botiqlarda mujassamlangan. Bunday yerlar eng ko‘p O‘zbekiston hududida bo‘lganligi bois, respublikamiz aholi soni jihatidan subregionda yetakchi o‘rin egallaydi. Aholi zichligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha Markaziy Osiyoda, 1.01.2017-yil holatiga, O‘zbekiston (71,5 kishi/km^2) va Tojikiston (61,3 kishi/km^2) yetakchi, Qozog‘iston (6,6 kishi/km^2) esa eng oxirgi o‘rinda turadi. Jahon mamlakatlari orasida ham, Qozog‘iston aholisi eng siyrak joylashgan davlatlar safiga kiradi (o‘rtacha aholi zichligi bo‘yicha dunyoda 184-o‘rin).

Markaziy Osiyo davlatlarining demografik vaziyatiga tug‘ilish va aholi tabiiy o‘sishining ancha yuqori ko‘rsatkichlari xos. Aytilgan ko‘rsatkichlar Tojikiston va Qirg‘izistonda subregion bo‘yicha eng baland, Qozog‘iston va Turkmanistonda eng past, O‘zbekistonda esa o‘rtacha darajada. Shuningdek, beshta respublikada ham migratsiyaning salbiy saldosi kuzatilmoqda (11-jadval). Urbanizatsiya darajasi Qozog‘istonda 53 %, O‘zbekistonda 51 %, Turkmanistonda 50 %, Qirg‘izistonda 36 %, Tojikistonda esa 26 % ga teng. Ko‘rinib turibdiki, eng yuqori va eng past ko‘rsatkichlari orasidagi tafovut 2 martaga teng. Markaziy Osiyoda 2 ta “millioner” shahar mavjud: Toshkent (2,4 mln kishi) va Almati (1,7 mln kishi).

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

11-jadval

Markaziy Osiyo davlatlarining ba'zi demografik ko'rsatkichlari (2016-y.)

№	Davlatlar	Tug'ilish (har 1000 kishiga)	O'lim (har 1000 kishiga)	Tabiiy ko'payish		Migratsiya saldosi (har 1000 kishiga)	Umumiy ko'payish	
				Har 1000 kishiga	%		Har 1000 kishiga	%
1	Qozog'iston	23	8	15	1,5	-1	14	1,4
2	Qirg'iziston	28	6	22	2,2	-1	21	2,1
3	Tojikiston	31	6	25	2,5	-3	22	2,2
4	Turkmaniston	21	8	13	1,3	-1	12	1,2
5	O'zbekiston	23	5	18	1,8	-1	17	1,7

Astana, Bishkek, Dushanbe, Ashxobod, Shimkent, Namangan, Samarqand esa eng yirik (aholi soni 500 ming kishidan ortiq bo'lgan) shaharlar qatoriga kiradi.

Mahalliy xalqlardan o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoqlar oltoy tillar oilasining turkiy guruhiga mansub bo'lsa, tojiklar va ularga qardosh Pomirdagi kichik xalqlar (shug'nonlar, vaxanlar, ishkashimlar va boshq.) hind-yevropa tillar oilasining eroniy guruhi tarkibiga kiradi. Sanab o'tilgan millat vakillari, nafaqat tegishli respublikalarda, balki qo'shni davlatlar hududida ham keng tarqalgan. Masalan, o'zbeklar O'zbekistonga qo'shni Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmanistonda son jihatidan 2-chi, Qozog'istonda esa 3-chi millat hisoblanadi. O'z navbatda, O'zbekistonda ham tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar va turkmanlar vakillari salmoqlidir.

Markaziy Osiyo davlatlari, BMT tomonidan qabul qilingan jahon mamlakatlarining tasnifi nuqtayi nazaridan, o'tish iqtisodiyotidagi davlatlar toifasiga mansub. Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy YIM hajmi 2016-yil yakunlari bo'yicha, Xalqaro valyuta fondi (XVF) ma'lumotlariga ko'ra, 800 mlrd AQSH dollariga teng. Beshta mamlakat ichida YIM hajmi bo'yicha birinchi o'rin Qozog'iston, ikkinchi O'zbekiston, uchinchi Turkmaniston, to'rtinchi Tojikiston va beshinchi o'rinda Qirg'iziston turadi. Subregion bo'yicha umumiy ishlab chiqarish hajmining 56,4 % Qozog'istonga, 25,8 % esa O'zbekistonga to'g'ri kelsa, Turkmaniston,Tojikiston va Qirg'iziston ulushlari, mos ravishda, 11,8, 3,3 va 2,7 % ga teng.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Subregion davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatining umumiy xususiyatlari, ularning yaqin o‘tmishgacha yagona siyosiy va iqtisodiy makonda rivojlanganligidan kelib chiqib, iqtisodiyoti asosan mineral hom ashyo va yer-suv resurslariga tayanganligi, sanoatni rivojlantirish, uning yangi korxona, tarmoq va hududiy markazlarini tashkil etishga intilish, qishloq xo‘jalik ixtisoslashuvi o‘xshashligi, tashqi iqtisodiy aloqalarning umumiy yo‘nalishlarida, ya’ni Xitoy, Rossiya, Koreya Respublikasi, Turkiya, Yevropa davlatlari bilan amalga oshirilishida o‘z aksini topmoqda. Biroq, Markaziy Osiyo davlatlari har birining xo‘jaligining, albatta, o‘ziga xos jihatlari ham mavjud. Sanoat ishlab chiqarish Qozog‘iston, Turkmaniston va O‘zbekistonda iqtisodiy ahamiyati bo‘yicha qishloq xo‘jalik tarmoqlariga nisbatan birmuncha ustunlikka ega bo‘lganligi bois, bu uchta respublika industrial-agrar davlat hisoblanadi. Tojikiston bilan Qirg‘iziston esa iqtisodiyot agrar-industrial yo‘nalishda rivojlanmoqda.

Yoqilg‘i-energetika majmuasi Qozog‘iston, Turkmaniston va O‘zbekistonda eng yaxshi rivojlangan. Qozog‘iston neft zaxiralari, uni qazib olish va eksport hajmi bo‘yicha subregionda yetakchi bo‘lib, yiliga 100 mln tonnadan ortiq neft qazib oladi va katta qismini eksport qiladi. Turkmaniston uchun esa iqtisodiyot va milliy boylikning negizi gaz sanoati hisoblanadi. Bu mamlakat tabiiy gaz zaxiralari bo‘yicha jahonda 4-, MDHda 2-, Markaziy Osiyoda esa 1-o‘rinda turadi. Dunyo bo‘yicha zaxiralar hajmi jihatidan ikkinchi hisoblanadigan Galqinish gaz koni ham Turkmanistonda joylashgan. Qozog‘iston, O‘zbekiston va Turkmanistonda elektr energiyasi asosan IESlarda ishlab chiqariladi. Yoqilg‘i zaxiralariga boy bo‘lmagan Tojikiston va Qirg‘izistonda elektr energiyaning 90 foizdan ko‘prog‘i GESlarda ishlab chiqariladi.

Qora metallurgiya Markaziy Osiyo davlatlari ichida Qozog‘istonda eng yaxshi rivojlangan. Qozog‘istonda bu tarmoqning asosiy korxonalari temir rudasining yirik konlari negizida Qarag‘anda (Temirtov sh.) va Qostanay (Rudniy sh.) viloyatlarida joylashgan. Rangli metallurgiya, Turkmaniston Respublikasidan tashqari, barcha Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiyoti va tashqi savdosida katta ahamiyatga ega. Jumladan, Tojikiston uchun Tursunzoda shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan alyuminiy zavodi, Qirg‘iziston uchun esa Issiqko‘l viloyatidagi Qumtar oltin koni eng katta moliyaviy daromad keltiruvchi iqtisodiy obyektlar hisoblanadi. O‘zbekiston oltin, uran, mis, kadmiy, Qozog‘iston uran, qo‘rg‘oshin, rux, volfram, molibden, mis, Qirg‘iziston oltin, simob, surma, Tojikiston alyuminiy ishlab chiqarishda

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ancha yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Kimyo sanoati Qozog‘iston, O‘zbekiston va Turkmanistonda nisbatan yaxshi rivojlangan bo‘lib, asosan mineral o‘g‘itlar, sulfat kislotasi, soda, mirabilit ishlab chiqarish, neft va tabiiy gazni qayta ishlashga ixtisoslashgan. Mashinasozlik bo‘yicha esa O‘zbekiston va Qozog‘iston yetakchilik qilmoqda. Bu borada O‘zbekistonda rivojlanib borayotgan avtomobilsozlik sanoati alohida e’tiborga sazovor.

Qishloq xo‘jaligi Markaziy Osiyo mamlakatlarining barchasida ham yaxshi rivojlanib, yuqori iqtisodiy ahamiyatga ega. Qozog‘istonda qishloq xo‘jalikning tovar tarmoqlari tarkibiga, asosan, donchilik va chorvachilik kiradi. O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik tarmoqlaridan paxtachilik, ipakchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va qorako‘lchilik tovar ahamiyatiga ega. Turkmanistonda iqtisodiyotning agrar sektori paxtachilik, donchilik, polizchilik, qorako‘lchilik va yilqichilikka ixtisoslashgan. Turkmaniston chorvachiligida dunyoga mashhur Axaltaka otlarini boqish alohida ahamiyat kasb etadi. Tojikistonda qishloq xo‘jaligi paxtachilik, bog‘dorchilik va ipakchilikka, Qirg‘izistonda esa sabzavotchilik, tamakichilik va ko‘p tarmoqli chorvachilikka ixtisoslashgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi istiqbollari ko‘p jihatdan ularning uzaro iqtisodiy integratsiyasiga bog‘liq. Subregion davlatlari o‘zaro integratsiyalashuvining bir qator muhim geografik omillarini ajratish mumkin:

- iqtisodiy-geografik o‘rnining umumiyligi;
- temiryo‘l va avtomobil transport tizimlarining yagonaligi, o‘zaro bog‘langanligi;
- yirik daryolar va sug‘orish kanallarining transchegaraviyligi;
- tog‘li va tekislikli mamlakatlar tabiiy resurslari, ayniqsa energiya manbalarining bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega ekanligi;
- subregion xalqlarining qardoshligi, tarixiy-madaniy jihatdanyaqinligi;
- Orolning qurishi, cho‘llashish, yerlarning sho‘rlanishi, tog‘ muzliklarining intensiv erishi, havo va suv havzalarining zararli chiqindilar bilan ifloslanishi kabi umumiy dolzarb ekologik muammolarining mavjudligi;
- zilzila, sel va suv toshqinlari, qor ko‘chkilari va boshqa tabiiy ofatlarga birgalikda qarshi kurashishning zarurati.

Markaziy Osiyo, ichki kontinental mamlakatlar, tranzit iqtisodiy-geografik o‘rin, geosiyosiy o‘rin, transchegaraviy daryolar, o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar, industrial-agrar iqtisodiyot, agrar-industrial iqtisodiyot, iqtisodiy integratsiyalashuv.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

1. Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy-geografik va geosiyosiy o‘rni qanday ijobiy va salbiy jihatlar bilan tavsiflanadi?
2. Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro iqtisodiy integratsiyalashuvining geografik omillarini izohlab bering.
3. Daftaringizga Markaziy Osiyo davlatlaridagi asosiy sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini yozib oling.

MAVZUGA QO‘SHIMCHA MA’LUMOT

Markaziy Osiyo subregioniga tavsif berganda, bu geografik tushunchaning “O‘rta Osiyo” atamasi bilan bog‘liqligini, ularning o‘zaro farqini izohlash o‘rinli. O‘rta Osiyo – Yevrosiyo materigining 14 ta tabiiy geografik o‘lkalaridan biri bo‘lib, g‘arbda Kaspiy dengizi, sharqda Tyanshan tog‘lari, shimolda Qozog‘iston past tog‘larining etaklari, janubda Hindukush va Turkman-Xuroson tog‘lari bilan chegaralangan, asosan Orol va Balxash ko‘llarining berk havzalariga to‘g‘ri keladi. Demak, O‘rta Osiyo o‘lkasi tabiiy geografik xususiyati va chegaralari asosida ajratiladigan hududiy birlik hisoblanadi. O‘rta Osiyoning tabiiy chegaralari doirasida 4 ta mamlakat, ya’ni O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston butunligicha joylashgan, shuningdek, Qozog‘iston Respublikasining markaziy va janubi-sharqiy, Afg‘oniston va Eronning shimoliy, Xitoyning esa chekka shimoli-g‘arbiy qismi ham O‘rta Osiyo hududiga to‘g‘ri keladi. Markaziy Osiyo siyosiy-geografik subregioni esa ayni davlat chegaralari bo‘yicha ajratiladigan hududiy birlik hisoblanadi.

Tabiiy geografiyada ham “Markaziy Osiyo” tushunchasi o‘ziga xos mazmun-mohiyat anglatgan holda qo‘llaniladi. Bunda O‘rta Osiyodan sharqda joylashgan, Tyanshan va Jung‘oriya Olotovi tog‘larining sharqiy yonbag‘irlaridan Buyuk Xitoy tekisligining g‘arbiy chegaralarigacha davom etgan tog‘li va cho‘lli landshaftlardan iborat hududni egallagan Yevrosiyo materigining tabiiy geografik o‘lkalaridan biri Markaziy Osiyo deb ataladi. Siyosiy-geografik jihatdan qaraganda, Markaziy Osiyo tabiiy geografik o‘lkasi Xitoy va Mongoliya davlatlari hududida joylashgan bo‘lib, Sharqiy Osiyo subregioniga mos keladi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

X BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

31-§. O‘ZBEKISTONNING GEOSIYOSIY O‘RNI VA MUNOSABATLARI

O‘zbekiston dunyo hamjamiyati va siyosiy xaritasida o‘ziga xos mavqega ega. U hozirgi kunda Birlashgan Millatlar tashkilotiga a’zo bo‘lgan 193 davlatdan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi BMT-ga 2-mart 1992-yilda qabul qilingan.

O‘zbekiston Yevrosiyo va Markaziy Osiyoning deyarli qoq o‘rtasida joylashgan. Respublika hududi g‘arbdan sharqga 1425 kmga cho‘zilgan, shimoldan janubgacha masofa esa 930 km. Eng baland nuqtasi Hazrat Sulton cho‘qqisi (Hisor tizmasi) – dengiz sathidan 4643 m balandlikda, eng past nuqtasi Mingbuloq botig‘i –12 m.

Davlat chegaralarining umumiy uzunligi 6221 km bo‘lib, shundan 2203 km yoki 1/3 qismi Qozog‘iston Respublikasiga, 1721 km Turkmanistonga, 1161 km Tojikistonga, 1069 km Qirg‘izistonga va 137 km Afg‘oniston Respublikasiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekistonning *mikroiqtisodiy geografik o‘rni* (hududning o‘ziga qo‘shni bo‘lgan davlatlarga nisbatan tutgan o‘rni) ancha qulayligi bilan xarakterlanadi. Bu holat, avvalo, uning Markaziy Osiyo respublikalarining qoq o‘rtasida joylashganligi va barcha mintaqa davlatlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri chegaradoshligi tufayli kelib chiqadi. O‘zbekistonning mikro IGO‘ qulayligi qo‘shni respublikalar bilan barcha turdagi quruqlik transporti (avtomobil, temiryo‘l, quvur) tuzilmalari bilan nisbatan yaxshi bog‘langanligida ham o‘z ifodasini topadi. Mikro IGO‘dagi bunday qulayliklar tarixiy davrlardan hozirgacha O‘zbekistonni mintaqa davlatlari orasida aholisi eng zich, yirik shaharlarga boy, iqtisodiyoti nisbatan rivojlangan darajaga olib chiqqan.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida bu borada quyidagi fikrni keltirgan: «O‘zbekistonning hududiy makon xususiyatlari, uning geografik o‘rni bizning ichki va tashqi siyosatimizni tanlash va amal-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ga oshirishda katta ahamiyatga ega… O‘zbekiston bugungi kunda qo‘shni davlatlar – Qozog‘iston, Qirg‘izston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘oniston o‘rtasida bog‘lovchi halqa vazifasini o‘taydi. Bularning barchasi respublikaning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, chet el investitsiyalarini jalb qilish, O‘zbekistonni davlatlar o‘rtasida o‘zaro foydali hamkorlikning, tovarlar va kapital tranzitining o‘zida xos mintaqaviy markaziga aylantiradi».

O‘zbekistonning bunday qulay iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlari har bir qo‘shnilari tomonidan aholisi zich joylashgan tutash (kontakt) hududlarda (Farg‘ona vodiysi, Zarafshon, Quyi Amudaryo mintaqalari, Surxondaryo viloyati) hozirgi davrda ko‘plab turli ixtisosdagi respublikalararo hududiy ishlab chiqarish majmualari, qo‘shma korxonalardan tortib erkin iqtisodiy hudularni tashkil qilishgacha keng imkoniyatlar beradi. Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud bo‘lgan transchegaraviy daryolar va yo‘llar muammolari hal etilishi respublika mikrogeografik o‘rnining yanada qulaylashuviga olib keladi.

Yaqin atrofida joylashgan davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Afg‘oniston, Eron, Kavkaz respublikalari)ga nisbatan O‘zbekistonning *mezoiqtisodiy geografik o‘rni* (yaqin mintaqalarga nisbatan tutgan o‘rni) o‘rtacha qulayliklarga egaligi bilan tavsiflanadi. Mezo IGO‘ni bunday baholanishining sababi shundaki, O‘zbekiston bir tomondan, Kavkaz respublikalari, ayniqsa, Rossiya Federatsiyasi bilan, asosan, zamonaviy transport vositalari orqali samarali bog‘langan va bu davlatlar bilan an’anaviy ravishda ko‘p tomonlama yaqin aloqalar olib boradi. Jahon davlatlari orasida eksport–import aloqalari hajmiga ko‘ra, Rossiyaning yetakchilik qilib kelayotganligi buning isbotidir. Ikkinchi tomondan, janubda joylashgan va O‘zbekistonning mezo IGO‘ guruh davlatlari toifasiga kiruvchi Afg‘oniston, Eron davlatlari butun o‘tgan tarixiy davrlar davomida respublikamiz bilan har tomonlama keng ijtimoiy aloqada bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, hozirgi vaqtda bunday aloqalarni olib borishga mavjud texnik va siyosiy qiyinchiliklar to‘siq bo‘lib turibdi.

Davlatlararo iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarning yanada samarali natijalar berishi uchun jahonning uzoqroq mamlakatlari bilan bog‘lanish, boshqacha aytganda, makrokengliklar talab etiladi. Ammo, dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqa o‘rnatishda materik ichkarisida joylashgan davlatlar dengiz bo‘yidagilarga nisbatan bir qancha noqu-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

layliklarga duch keladi. O‘zbekiston yaqin dengizlarga chiqishi uchun kamida ikki davlat hududini bosib o‘tishiga to‘g‘ri keladigan jahondagi kamdan kam davlatlaridan biri bo‘lganligi sababidan *makroiqtisodiy geografik o‘rni* (jahon davlatlariga nisbatan tutgan o‘rin) nisbatan noqulaydir. Mustaqillik yillarida turli yo‘nalishlarda O‘zbekistonni dunyo okeani bilan bog‘lovchi xalqaro yo‘l loyihalarida faol ishtirok etishi mazkur holatni biroz yengillashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasining siyosiy geografik o‘rni klassik geosiyosatchilar tomonidan ajratilgan Yevrosiyoning ichki kontinental qismi, ya’ni *Xartlend* (ingl. Heartland – “dunyoning yuragi”), hamda Yevrosiyoning janubi-g‘arbiy dengizga yaqin mintaqasi *Rimlend* (Rimland – “ichki yarim oy”)ning o‘zaro tutashgan hududda joylashganligi bilan tavsiflanadi. Bu holat esa jahonda yetakchilikni qo‘lga kiritishni rejalashtirayotgan ko‘plab davlatlarning respublikamizga nisbatan geosiyosiy qiziqishlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekistonning qulay transport geografik o‘rinnga egaligi, davlatimizning strategik resurslar hisoblanmish – neft, gaz, oltin, uran va boshqa ko‘plab yerosti va usti boyliklariga egaligi, qulay tabiiy iqlim sharoiti, insoniyat tarixiy taraqqiyoti va sivilizatsiyasida salmoqli o‘rin tutishi, katta demografik salohiyatning mavjudligi uning o‘ziga xos geosiyosiy imkoniyatlarga egaligini ko‘rsatib beradi.

Shu bilan birga, uning siyosiy geografik o‘rniga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ham mavjud. Xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm xavfi, respublikamiz hududini narkotrafik yo‘laklari sifatida foydalanishga harakat, global miqyosdagi ekologik muammolar, turli davlatlar orasidagi geosiyosiy raqobat, Afg‘onistondagi beqaror siyosiy vaziyat O‘zbekiston mazkur geografik o‘rin ko‘rinishiga ta’sir etuvchi salbiy omillar bo‘lib hisoblanadi. Mazkur salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida respublika rahbariyati tomonidan katta miqyosdagi ishlar amalga oshirilgan.

Respublikamizning birinchi Prezidenti I. A. Karimov BMT Bosh Assambleyasi yig‘ilishlaridagi ma’ruzalarida jahon hamjamiyati diqqatini birinchi navbatda aynan Afg‘oniston va Orol muammolariga qaratishga undagan edi. Respublikamizning Afg‘oniston muammosini hal qilish bo‘yicha **“6+2” guruhi**dagi faoliyati qo‘shni davlatda tinchlikni o‘rnatish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yordam berishga qaratilgan. BMT rahbarlarining yurtimizga tashrifi chog‘ida Orol dengizi muam-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

mosiga e’tibor qaratishlari natijasida u xalqaro ekologik muammolar qatoridan joy oldi hamda buning natijasida ushbu muammoga turli davlatlar e’tiborini jalb qilishga erishildi.

Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi transchegaraviy daryolar, O‘zbekiston-Qirg‘iziston o‘rtasidagi *eksklav* (tegishli davlat hududining asosiy qismidan boshqa davlat hududi bilan ajralib turgan yerlar) va ba’zi chegara hududlari, Tojikiston bilan davlat chegarasida oxiriga yetkazilmagan *delimitatsiya* (chegara chizig‘ini aniqlashtirib, mustahkamlash) ishlari bo‘yicha yuzaga kelgan muammolar birinchi navbatda hal qilinishi lozim bo‘lgan muhim geosiyosiy muammolardan bo‘lib hisoblanadi.

Hududi yadroviy quroldan xoli bo‘lgan, qo‘shilmaslik siyosatini qo‘llab-quvvatlovchi davlatga aylanishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan O‘zbekiston siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish, iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun qator davlatlar bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Atrof qo‘shnilaridan tashqari, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy kabi davlatlar bilan yaqin aloqalar o‘rnatgan. Shu bilan birga SHHT, MDH kabi tashkilotlarning faoliyatida doimiy ishtirokchi hisoblanadi.

O‘zbekistonning geografik o‘rni, mikroiqtisodiy-geografik o‘rin, mezoiqtisodiy geografik o‘rin, makroiqtisodiy geografik o‘rin, siyosiy geografik o‘rin, Heartland, Rimland, 6+2 guruhi, transchegaraviy daryo, delimitatsiya.

1. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng birinchi navbatda qaysi sohalarda islohotlarni amalga oshirdi?
2. So‘nggi yillarda Orol muammosini hal etish bo‘yicha qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
3. O‘zbekistonning iqtisodiy geografik o‘rni xususiyatlarini o‘rganib chiqib, quyidagi jadvalni to‘ldiring:

Iqtisodiy geografik o‘rin (IGO‘) ko‘rinishlari	IGO‘ga ta’sir etuvchi ijobiy omillar	IGO‘ga ta’sir etuvchi salbiy omillar
Mikro IGO‘		
Mezo IGO‘		
Makro IGO‘		

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

32-§. O‘ZBEKISTONNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHI

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Hattoki, 2008–2009 yillarda ro‘y bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining o‘sish sur’atlari bo‘yicha dunyo mamlakatlari ichida eng yuqorilaridan biri bo‘ldi. 2010-yildan buyon O‘zbekiston YIMning yillik o‘sish sur’atlari 8 foizdan past bo‘lmagan darajada qayd etilmoqda. Jahon hamjamiyati ekspertlari tomonidan tan olingan bu ijobiy natijalar zamirida respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ulkan salohiyati hamda mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning “o‘zbek modeli” asosida bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirilayotgan aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan islohotlar yotadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo doirasida tranzit imkoniyatlari qulay iqtisodiy-geografik o‘ringa ega bo‘lib, subregion davlatlarining o‘zaro integratsiyalashuvida juda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, respublikamiz ko‘p tarmoqli milliy iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi uchun ulkan imkoniyatlarni yaratadigan tabiiy boyliklariga ega. Eng avvalo, davlatimizning mineral-resurs salohiyati alohida e’tiborga sazovor. O‘zbekiston hududida jami 120 ga yaqin turdagi foydali qazilmalarning 2700 ta konlari topilgan. Jumladan, O‘zbekiston jahon mamlakatlari orasida oltin zaxiralari bo‘yicha 4-o‘rin, uran bo‘yicha 7-o‘rin, molibden bo‘yicha 8-o‘rin, mis bo‘yicha esa 10-o‘rinda turadi. Yoqilg‘i-energetika resurslari ichida tabiiy gaz eng katta ahamiyatga ega bo‘lib, uning zaxiralari bo‘yicha O‘zbekiston dunyoda 14-o‘rin egallaydi. Noruda qazilma boyliklar bo‘yicha kaliy tuzlari va fosforitlar qazishda dunyoda yetakchi o‘rinlaridan birida turadi. Turli foydali qazilmalarning yirik konlariga, asosan, Navoiy, Toshkent, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi boy hisoblanadi. Demak, mineral resurslarning ulkan zaxiralari yurtimizda rangli metallurgiya, yoqilg‘i, kimyo va qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jalikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratuvchi agroiqlim resurslariga ega. Vegetasiya davrning davomiyligi, issiq va quyoshli kunlarning ko‘pligi tufayli O‘zbekistonda paxtachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik, polizchilik kabi yuqori daro-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

madli dehqonchilik tarmoqlari intensiv ravishda rivojlanmoqda. Lekin, qishloq xo‘jaligi asosan sun’iy sug‘orish yordamida rivojlanayotganligi sababli, respublikamiz qishloq xo‘jaligi qat’iy darajada suv resurslariga bog‘liq. Tabiiy boyliklarning bu turi bilan Toshkent, Andijon va Surxondaryo va Samarqand viloyatlari nisbatan yaxshi darajada ta’minlangan. Shuningdek, davlatimiz g‘arbida joylashgan, katta qismini cho‘llar egallagan Navoiy, Buxoro, Qoraqalpog‘iston Respublikasida bu jihatdan ancha murakkab vaziyat shakllangan. Ammo hududlarimizda suv resurslarning yetishmovchiligiga qaramay, O‘zbekiston jahon mamlakatlari ichida sug‘oriladigan yerlar maydoni bo‘yicha 11-o‘rinda turadi.

O‘zbekiston aholisi va mehnat resurslari ham mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining poydevori hisoblanadi. Respublikamiz aholisi muntazam ravishda o‘sib bormoqda. 1990-yilda 20,2 mln kishiga teng bo‘lgan respublikamiz aholisi 2017-yilga kelib 32,1 mln kishigacha ko‘paydi. 2010-yildan keyingi davrda O‘zbekistonda demografik ko‘rsatkichlardan tug‘ilish har 1000 kishi hisobiga 23-24, o‘lim 5-6, tabiiy ko‘payish esa, bunga mos ravishda, 18, ya’ni 1,8 foizga teng bo‘lmoqda. Lekin migratsiya qoldig‘i minimal manfiy darajada (-0,1-0,2 foiz) bo‘lganligi tufayli, aholining yalpi ko‘payish sur’atlari 1,6-1,7 foizga teng.

Qisqa tarixiy davr mobaynida O‘zbekiston xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlarga kirishish, milliy iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, sanoatni rivojlantirish, mamlakatning oziq-ovqat, energetika va transport xavfsizligini ta’minlash kabi murakkab vazifalar yechimiga bosqichma-bosqich, muvaffaqqiyatli erishdi.

Respublikamiz YIMning o‘zgarish dinamikasida 3 ta davrni ajratish mumkin. Birinchisi, 1991–1996 yillarni o‘z ichiga olib, iqtisodiy pasayish bilan tavsiflangan. Bu holat, asosan, sobiq Ittifoq doirasidagi hududiy mehnat taqsimoti tizimi, O‘zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlari va korxonalarining boshqa respublikalarning xo‘jaligi o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarning uzilishi natijasida kelib chiqdi. 1997–2003 yillar oralig‘idagi ikkinchi bosqich milliy iqtisodiyotning barqarorlashuvi va YIM o‘sishining boshlanishi davri bo‘ldi. Uchinchi davr 2004-yilda boshlanib, hozirgacha davom etmoqda. Bu yillarda uchun O‘zbekiston YIMning 8,0 foizdan past bo‘lmagan sur’atlar bilan o‘smoqda.

Shuningdek, milliy iqtisodiyotimiz tarmoq tarkibida ham muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. Eng avvalo, sanoatning YIMdagi ulushi ancha

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

o‘sganligi diqqatga sazovordir. 1995-yilda YIMning 17,1 foizi sanoatga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2014-yilda bu ko‘rsatkich 26 foizgacha ko‘tarildi. Qishloq xo‘jaligining milliy iqtisodiyotidagi ulushi, mos ravishda, 28,1 foizdan 17,6 foizgacha pasaydi. Sanoatning tarmoq tarkibi ham sezilarli darajada o‘zgarib ketdi. Respublika sanoatida elektr energetikasi, yoqilg‘i, kimyo, rangli metallurgiya, mashinasozlik va boshqa og‘ir sanoati tarmoqlarining o‘rni va ahamiyati o‘sib, mustaqillikdan oldingi davrda respublika ixtisoslashuvini belgilab turgan yengil sanoatining ulushi esa deyarli 3 barobar kamaydi. 2000-yil boshidan buyon sanoat ishlab chiqarish hajmi O‘zbekistonda muntazam ravishda o‘sib kelib, qayta ishlash tarmoqlarining o‘sish sur’atlari undiruvchi sanoatga nisbatan bir necha barobar yuqori. Natijada, 2016-yil yakunlari bo‘yicha, mamlakatimiz sanoati tarkibida salkam 20 foizlik ulush bilan mashinasozlik mahsulotlari yetakchi o‘ringa chiqib oldi.

So‘nggi yillarida O‘zbekistonda avtomobilsozlik, mikroelektronika sanoati, kaliy o‘g‘itlari va soda ishlab chiqarish, farmatsevtika, shakar sanoati va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari bunyod etildi. Neft va gaz-kimyo tarmoqlarida juda yirik korxonalar ishga tushirildi. 2010-yildan keyingi davrda To‘palang GES, Ustyurt gaz-kimyo majmuasi, Xondiza tog‘-metallurgiya kombinati, Dehqonobod kaliy zavodi, Xorazm avtomobil zavodi, Zafarobod sement zavodi va boshqa muhim ishlab chiqarish obyektlari qurib bitirildi (28-rasm). Hozirgi paytga kelib O‘zbekistonda mustahkam sanoat ishlab chiqarish salohiyati yaratildi. Respublikamiz MDH mamlakatlari va jahon miqyosida oltin, uran, tabiiy gaz, kadmiy, molibden, sulfat kislotasi, azot o‘g‘itlari, gazlamalar, yengil avtomobillar va boshqa mahsulotlarning yetakchi ishlab chiqaruvchilari qatoridan joy egallaydi.

28-rasm. O‘zbekistondagi yangi sanoat korxonasi – Dehqonobod kaliy zavodi

O‘zbekiston sanoatining hududiy tarkibida ham o‘zgarishlar yuz berdi. Masalan, 1980-yillar oxirida Toshkent shahri va viloyatiga respublika yalpi sanoat mahsulotining 50 foizi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, hozirgi davrda esa bu hududlarga 30 foiz ko‘rsatkich to‘g‘ri kelmoqda. O‘z navbatida, qator yan-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

gi korxonalar barpo etilganligi hisobiga Andijon, Qashqadaryo, Navoiy, Buxoro, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasining mamlakat sanoati tarkibidagi ulushlari sezilarli darajada ortdi. Demak, borgan sari O‘zbekiston hududida sanoat markazlarining soni ko‘payib bormoqda.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida ham katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan dastlabki islohotlarning ustuvor maqsadlari paxta yakkahokimligini tugatish, don mustaqilligiga erishish hamda xususiy fermer va dehqon xo‘jaliklarini rivojlantirishdan iborat bo‘lgan. Paxta ekin maydonlarining keskin qisqartirilishi hisobiga g‘alla maydonlari 1,5 barobar kengaytirildi. Shu tufayli O‘zbekistonda bug‘doyning yalpi hosili 3,5-4 barobar oshirilib, qisqa vaqt ichida respublikamizda don mustaqilligiga erishildi. Bundan tashqari, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etadigan sabzavotchilik, kartoshka yetishtirish, bog‘dorchilik, uzumchilik, sut-go‘sht chorvachiligi kabi qishloq xo‘jalik tarmoqlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. Natijada, mustaqillik yillarida paxta hosili 5,5 mln tonnadan 3,4 mln tonnagacha kamayib, sabzavot hosili 2,5 barobar, kartoshka 6 barobar, meva 4 barobar, uzum 2,5 borabar oshdi, go‘sht va sut ishlab chiqarish hajmi ham 2 barobar o‘sdi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston uzum, poliz ekinlari, ayrim mevalarni yetishtirish va eksport qilish bo‘yicha jahondagi yetakchi mamlakatlar qatoriga kirdi. Shuningdek, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida an’anaviy ixtisoslashgan tarmoqlar – paxtachilik, pillachilik, qorako‘lchilik ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Jumladan, 2016-yil holatiga respublikamiz jahonda paxta yalpi hosili bo‘yicha 6-o‘rin, eksporti bo‘yicha 3-o‘rin, ipak ishlab chiqarish bo‘yicha 6-o‘rin, qorako‘l terisini ishlab chiqarish bo‘yicha esa 2-o‘rinda turadi.

Transport tizimi rivojlanishida ham salmoqli natijalarga erishildi. Bulardan eng ahamiyatlisi – respublika temiryo‘l transporti tizimining bir butunligiga erishilganligidir. O‘zbekiston hududi shimoli-g‘arbdan janubi-sharqqa yuzlab kilometr masofaga cho‘zilganligi, hamda davlat chegaralarining o‘ziga xos shaklda tog‘ tizmalari va keng yastanib yotgan cho‘llar orqali o‘tganligini hisobga olsak, bu masala dolzarb strategik ahamiyatga ega ekanligiga amin bo‘lamiz. Surxondaryo viloyati hududi Toshg‘uzor – Boysun – Qumqo‘rg‘on, Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Uchquduq – Miskin – Nukus, Farg‘ona vodiy-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

si Angren – Pop temiryo‘llari qurilishi bilan O‘zbekistonning yagona temiryo‘llar tarmog‘i bilan bog‘landi. Natijada mamlakatimizning transport xavfsizligi va mustaqilligi ta’minlandi. Hozirgi vaqtda Navoiy va Buxoro viloyatlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan nisbatan qisqa masofada bog‘lab qo‘yadigan Konimex-Miskin temiryo‘li hamda Urganchdan xalqaro turizm markazi hisoblangan Xiva shahriga tomon temiryo‘l qurilmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda temiryo‘llarni elektrlashtirish va tezyurar poyezd yo‘nalishlarini barpo etish bo‘yicha ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Toshkent – Samarqand yo‘nalishi bo‘yicha “Afrosiyob”, Toshkent – Qarshi yo‘nalishida “Nasaf”, Toshkentdan Buxorogacha “Sharq” tezyurar poyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Endi esa Qarshi – Termiz, Qarshi – Kitob va boshqa temiryo‘llarini elektrlashtirish ishlari ham boshlangan. Bular poyoniga yetganidan so‘ng, respublikamizdagi tezyurar poyezd yo‘nalishlarining geografiyasi yanada kengayishi kutilmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi dengiz portlariga bir nechta yo‘nalishlarda ishonchli chiqish yo‘llariga ega bo‘lish, Yevrosiyoning turli qismlaridagi regional transport tizimlari bilan bog‘lanish orqali iqtisodiy-geografik o‘rnining tranzit imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish maqsadlarida transport sohasida Turkmaniston, Qozog‘iston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Ozarbayjon, Gruziya, Eron, Ummon kabi davlatlar bilan keng qamrovli o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘ymoqda. Mamlakatimiz yordamida qurilgan Afg‘oniston hududidagi birinchi Termiz – Mozori Sharif temiryo‘li O‘zbekistondan janubiy yo‘nalishda dunyo okeani portlariga tomon eng qisqa transport chiqishini yaratishning dastlabki bosqichi bo‘ldi. Afsuski, Afg‘onistondagi geosiyosiy vaziyatning beqarorligi bu davlat hududidan Hind okeaniga tomon loyihalashtirilgan transport magistrallari qurilishini noaniq muddatgacha to‘xtatib turibdi.

Transport tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar mamlakatimizning tashqi iqtisodiy aloqalarini yanada rivojlantirish borasidagi harakatlarning ajralmas qismi bo‘lmoqda. Dunyoning 140 taga yaqin davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarini yo‘lga qo‘yayotgan O‘zbekiston Respublikasining eng muhim savdo hamkorlari qatoriga Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog‘iston, Koreya Respublikasi, Turkiya va Yevropa mamlakatlari kiradi. Transport tizimining rivojlanishi

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

respublikamiz tashqi iqtisodiy faoliyatini yangi geografik yo‘nalishlarda kengaytirishga imkoniyat beradi.

Respublika eksportining tovar tarkibida mustaqillik yillarida juda katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Mustaqillikka erishgan payti respublikamiz eksportida paxta tolasining ulushi 60 foizga teng bo‘lgan. Keyingi yillarda bu raqam muttasil ravishda pasayib, 2016-yilga kelib 5 foizgacha tushib ketdi. O‘z navbatida, energiya manbalari (eng avvalo, tabiiy gaz), rangli metallar, oziq-ovqat va to‘qimachilik, kimyo sanoati mahsulotlari, avtomobil ishlab chiqarishning mamlakatimiz eksporti tarkibidagi o‘rni sezilarli darajada o‘sdi.

So‘ngi yillarda hududlarning sanoat ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish, milliy iqtisodiyotimizga xorijiy sarmoyalarni yanada ko‘proq hajmda jalb etish maqsadida respublikamiz hukumatining tashabbusi bilan mamlakatimizda qator erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) tashkil qilindi. Dastlab “Navoiy”, “Angren”, “Jizzax” (Sirdaryo viloyatidagi filiali bilan), keyinchalik esa Xorazm viloyatida “Hazorasp”, Buxoro viloyatida “G‘ijduvon”, Samarqand viloyatida “Urgut” hamda Farg‘ona viloyatida “Qo‘qon” EIZlari yaratildi. Hozirgi kunga kelib bu hududlarda ichki va tashqi sarmoyadorlar ishtirokida yuzlab yangi ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi istiqbollari respublikaning har bir tuman va viloyat imkoniyatlaridan umumdavlat va hududiy manfaatlarda oqilona foydalana olishga bog‘liq.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, o‘sish sur’atlari, islohotlar, iqtisodiy salohiyat, tarmoq va hududiy tarkib, sanoatlashuv, oziq-ovqat, energetika va transport xavfsizligi (mustaqilligi), tashqi iqtisodiy aloqalari, erkin iqtisodiy zonalar, asosiy iqtisodiy hududlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim natijalari nimalardan iborat?
2. Respublikamizda qaysi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi?
3. Daftaringizga O‘zbekiston sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti va tashqi savdo aloqalarida mustaqillik yillarida ro‘y bergan eng muhim o‘zgarishlarni yozing.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

33-§. O‘ZBEKISTONNING GEOEKOLOGIK MUAMMOLARI

Geoekologik muammolarning vujudga kelishi tabiiy jarayonlar va inson faoliyati bilan bog‘liq tarzda ro‘y berishi mumkin. Geoekologik muammolarni keltirib chiqaruvchi tabiiy omillar va jarayonlardan asosiylari: vulqon otilishi, zilzila, surilma, ko‘chki, sel, suv toshqini, kuchli shamollar, yong‘inlar va boshqalar. Bunday omillar bevosita har bir geotizimning tabiiy xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, unda inson ishtiroki bo‘lmaydi.

Inson va tabiiy muhitning o‘zaro ta’siri kelib chiqishi jihatidan ekologik muammo hisoblanadi. Lekin, u ma’lum geotizimda turli miqyosda hamda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik qonuniyatlar asosida ro‘y bergani sababli geografik muammo ham hisoblanadi, ya’ni ekologik muammo muayyan geotizimda tarkib topib, shakllanib, rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tadi. Shu nuqtayi nazardan geoekologik muammo deyiladi.

Geoekologik muammolar – insonlarning sog‘ligi va xo‘jalik faoliyatiga salbiy ta’sir etadigan, ularning tabiiy muhit bilan munosabatlarida va geotizimlarning bir butunligida nomutanosiblikni keltirib chiqaruvchi, tabiiy va antropogen omillar natijasida yuzaga kelgan jarayon va hodisalar.

Geoekologik muammolar, odatda, *tizimli xususiyatga ega* bo‘lib, bu xususiyatlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi: tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlar va qonuniyatlarning o‘zaro ta’siri; geografiya, ekologiya, geologiya va boshqa fanlarning integratsiyasini talab etadigan fanlararo ahamiyat kasb etishi; resurslardan turli maqsadlarda bir qancha foydalanuvchilarning mavjudligi; geotizim yoki geoekologik muammoning holatini bitta ko‘rsatkich bilan tavsiflash mumkin emasligi.

Geoekologik muammolarning turlari. Geoekologik muammo qotib qolgan, o‘zgarmas holat bo‘lmay, balki muntazam ravishda o‘zgaruvchi va rivojlanuvchi, ko‘p sonli oddiy muammolar tizimidir. Geoekologik muammolarni bir qancha ko‘rsatkichlar (xo‘jalik sohalari bilan bog‘liq, egallagan maydoni bo‘yicha, oqibatiga ko‘ra, kelib chiqish omillari) bo‘yicha tasniflash mumkin, lekin yuqorida ta’kidlaganimizdek, geoekologik muammo muayyan maydonda tarkib topib shakllanadi. Shu sababli, bunday muammolar tarqalgan maydoni

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

bo‘yicha – *sayyoraviy, regional va lokal,* ayrim hollarda esa milliy kabi guruhlarga ajratiladi.

Sayyoraviy geoekologik muammolar – butun geografik qobiq doirasida ro‘y beradigan va Yer yuzining barcha qismlariga ta’sir etadigan, barcha mamlakatlarga, butun insoniyatga birdek xavf soladigan eng murakkab geoekologik muammolardir. Bularga “Issiqxona samarasi” va iqlim isishi, “Ozon tuynugi”, Dunyo okeani sathining ko‘tarilishi va suvining ifloslanishi, cho‘llashish va h.k. kiradi. Bunday geoekologik muammolarni bartaraf etish uchun barcha davlatlar birlashib, yagona dastur asosida harakat qilishlari lozim. Yer yuzidagi barcha mamlakatlar o‘z hududidagi lokal va regional muammolarni hal etish orqaligina global geoekologik muammolarning yechimini topishlari mumkin.

Regional geoekologik muammolar – egallagan maydoniga ko‘ra global geoekologik muammolardan kichikroq bo‘lib, ko‘pincha bir yoki bir necha turlardan tashkil topgan geoekologik hodisa-jarayonlar kompleksidan iborat bo‘ladi. Regional geoekologik muammolar regional miqyosdagi geotizimlarni band etib, butun Yer yuzi uchun xavf solmasligi mumkin, ammo ularning soni tobora ortib bormoqda. Ushbu muammolar ayrim hududlargagina tegishli bo‘lishiga qaramay, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari nihoyatda xavfli va salmoqli, ularni o‘z vaqtida oldini olish va bartaraf etmaslik kelajakda keng miqyosdagi og‘ir ekologik kulfatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Regional geoekologik muammolar tarkib topishi jihatidan oddiy va murakkab toifadagi geoekologik muammolarga bo‘linadi. Bir turdagi hodisa va jarayonlardan iborat bo‘lsa – oddiy toifadagi, bir necha geoekologik hodisa va jarayonlardan iborat bo‘lsa – murakkab toifadagi geoekologik muammolar deyiladi. Murakkab geoekologik hodisalarning yechimi ham murakkab bo‘lib, ko‘p vaqt talab qiladi. U tobora murakkablashish va yangi hududlarni egallash yo‘nalishida rivojlanadi. Oddiy geoekologik muammolar ham makonda va vaqt mobaynida o‘ta murakkablashuvi oqibatida murakkab tusga aylanishi mumkin.

Orol va Orolbo‘yi muammosi O‘zbekiston va qo‘shni respublikalar hududida joylashgan regional geoekologik muammodir. Shu sababli mazkur muammoni bartaraf etishda Orol havzasidagi barcha qo‘shni respublikalar O‘zbekiston bilan hamkorlik qilishlari lozim (29-rasm).

Lokal (mahalliy) geoekologik muammolar – regional geoekologik muammolarga nisbatan kichikroq maydonlarni egallab, bir yoki ikki

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE



29-rasm. Orol dengizining 2000–2016-yillarda o‘zgarib borishi

mamlakat hududida joylashgan ma’lum geotizim doirasida yuzaga kelgan muammolardir. Bunday geoekologik muammolar inson xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, tabiiy resurslardan intensiv foydalanish va bu jarayonda tabiat qonuniyatlarini hisobga olmaslik, aholining bir joyda o‘ta zich to‘planishi va boshqa sabablar tufayli kelib chiqadi. Yer yuzasining namgarchilik hududlarida botqoqliklarning quritilishi, qurg‘oqchil mintaqalarda sun’iy sug‘orish, suvomborlar barpo etish, yaylov chorvachiligini rivojlantirish, ishlab chiqarish korxonalarining qurilishi kabi jarayonlardagi ayrim xatoliklar hamda insonning ba’zi pala-partish faoliyati lokal geoekologik muammolar yuzaga kelishiga va keng miqyosda tarqalishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbekistondagi lokal geoekologik muammolarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ularning har taraflama kompleks tahlili va kelib chiqishi sababiga ko‘ra quyidagi genetik guruhlarini ajratish mumkin: 1) atmosfera havosining ifloslanishi bilan bog‘liq muammolar – yirik shaharlar va sanoatlashgan hududlarda; 2) suvdan intensiv foydalanish bilan bog‘liq muammolar – zovur suvlarining ko‘llarda to‘planishi, chuchuk suvlarning yetishmasligi, chuchuk suv havzalarining ifloslanishi va h.k.; 3) yerdan intensiv foydalanish bilan bog‘liq muammolar – eroziya, sho‘rlashish, yaylovlarning degradatsiyaga uchrashi; 4) geotizimlarga texnogen ta’sir bilan bog‘liq muammolar – konchilik sanoati chiqindilarining to‘planishi, geotizimning buzilishi, og‘ir texnikaning yaylovlarni payhon qilishi va h.k.; 5) chorvaning intensiv boqilishi va buta-daraxtlarni kesish bilan

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

bog‘liq muammolar; 6) rekreatsiya obyektlaridan foydalanish bilan bog‘liq muammolar; 7) zaharli kimyoviy moddalarning tabiiy muhitni ifloslashi bilan bog‘liq muammolar va h.k.

Geoekologik muammolarni yechimining ilmiy asoslari. Ushbu muammolarning yechimi tizimli tahlilga bog‘liq. Tizimli tahlil natijasida muammoning asosiy xususiyatlari, ko‘lami, rivojlanish bosqichlari, yo‘nalishlari, sabablari va omillari, oqibatlari va boshqalar ayon bo‘ladi. Geoekologik muammolarni tadqiq etishda asosan hududiy, geotizimli va ekologik prinsiplar qo‘llaniladi.

Hududiy prinsipni qo‘llash, muammoning hududiy miqyosini aniqlashga, uning rivojlanish chegaralarini, tarqalish arealini ajratishga imkon beradi. Mazkur prinsip hudud yaxlitligi, uning boshqa hududlar bilan aloqasi, o‘zaro bog‘liqlik va ta’sirda bo‘lishini bilishga imkon beradi.

Geotizimli prinsip geoekologik muammoni o‘rganish uchun geografik asos hisoblanadi, chunki u hududning tuzilishi to‘g‘risida axborot berish bilan birga uning qanday tabiiy xususiyatlarga, resurslarga ega ekanligi haqida ma’lumotlarni olishga imkon beradi. Mazkur prinsip geotizimlar chegaralarining joylashuvini, ularning nisbati, bir-birlariga nisbatan past-balandligi, tarkibiy-dinamik holati haqida ma’lumot beradi. Ushbu prinsip muammoning ko‘pgina xususiyatlarini baholashda, kelajakda bo‘ladigan o‘zgarishlarni oldindan prognoz qilishda, turli tadbirlar tizimini asoslashda va ularni qo‘llashda, barcha turdagi kartalarni tuzishda asos bo‘ladi.

Ekologik prinsipning qo‘llanilishi tirik organizmlar, jumladan insonning atrof-muhit bilan o‘zaro aloqalari, ta’siri va munosabatda bo‘lishi nazarda tutilganligi bilan bog‘liq. Ekologik muammoning mantiqiy ma’nosi ham aslida tirik organizm bilan jonsiz tabiat orasidagi o‘zaro aloqa va munosabatlarning buzilishidan iboratdir. Ushbu munosabatning ziddiyatlashuvi muayyan geotizimlarda ro‘y berib, hududiy xususiyatga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham mazkur muammoni geoekologik muammo sifatida tadqiq etish zarur.

Geoekologik muammoni bartaraf etish deganda, avvalo, dastlabki tabiiy muvozanatni qayta tiklashni tushunmoq lozim. Tabiiy muvozanat (ekologik muvozanat)ni qayta tiklash – tabiiy komponentlar va geotizimlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, aloqadorlik va harakatni dastlabki holatiga yaqinlashtirishdir, lekin uni asl holiga qaytarib bo‘lmaydi. Buzilgan tabiiy muvozanatni qayta tiklash tadbirlarida aholining yashash sharoi-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ti va sog‘ligini ham avvalgi holatiga olib kelish lozim. Masalan: Orol va Orolbo‘yi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan regional geoekologik muammo bo‘lib, ularning yechimi o‘zaro bog‘liq kompleks tadbirlarni baravariga qo‘llagan holdagina hal qilish mumkin. Bunda, eng birinchi navbatda, tashqaridan kelayotgan suvning toza va miqdorining ko‘p bo‘lishiga erishish lozim. Chunki, muammoni tezlatuvchi kuch qurg‘oqchil iqlim sharoitida cho‘llashish hodisasidir.

Lokal geoekologik muammolar yechimi eng sodda muammolar bo‘lib, ularni bartaraf etishda, eng avvalo, geoekologik muammoli hududning tabiiy geografik sharoiti va tabiiy qonuniyatlari chuqur o‘rganilishi lozim. Har bir geotizimning xususiyatlariga mos xo‘jalik tarmoqlari va tabiatdan foydalanish chora-tadbirlarini qo‘llash orqali bunday muammolarning oldi olinadi. Masalan, yerlardan sug‘orma dehqonchilikda foydalanilishda har bir geotizimning xususiyati o‘rganilib, so‘ngra shunga mos ekin turlari, sug‘orish usuli va me’yorlari, agrotexnika tadbirlarini qo‘llash, ya’ni tabiat bilan munosabatda uning qonunlarini buzmaslik kutilgan natijalarga erishish kafolatidir.

Geoekologik muammo, global geoekologik muammolar, regional geoekologik muammolar, lokal geoekologik muammolar.

1. Geoekologik muammo deb nimaga aytiladi?
2. Geoekologik muammolrning qanaqa turlarini bilasiz?
3. O‘zingiz yashab turgan joydagi mahalliy geoekologik muammolarni va ularni bartaraf etish yo‘llarini tavsiflab yozing.

34-§. TAKRORLASH DARSI

Darslik va xaritalar asosida o‘z bilimingizni sinab ko‘ring va baholang. Dastlab barcha mavzulardagi tayanch tushuncha va atamalar, savollarga bergan javoblaringiz va topshiriqlar yuzasidan bajargan ishlaringizni eslang va yana bir bor takrorlang.

Mustaqil ravishda har bir mavzudan testlar, savollar tuzing va yeching. Bu orqali yakunlovchi test sinovlariga va yozma ishlarga tayyorgarlik ko‘rasiz.

Amaliy topshiriqlar yuzasidan bajargan ishlaringizni ham qaytadan ko‘rib chiqing. Bu Sizga amaliy topshiriqlarga oid yozma ishlarni bajarish, geografik masalalar yechish, yoki yozuvsiz xaritalar bilan ishlashda yordam beradi.

Umuman olganda, takrorlash orqali yil mobaynida olgan bilimlaringizni mustahkamlab, ayrim tushunmagan joylaringizni o‘zlashtirib olasiz.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

TUSHUNCHA VA ATAMALAR IZOHLI LUG‘ATI

AES – energiya ishlab chiqarish uchun yadroviy qurilmalardan foydalanadigan tarmoq.

Aholi takror barpo bo‘lishi – jamiyat davomiyligini ta’minlovchi asosiy jarayon bo‘lib, tabiiy, migratsion va ijtimoiy harakatlar yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlari – aholiga xizmatlar taklif etish va ishlab chiqarish maqsadida shakllantirilgan faoliyat turlari hamda xo‘jalik tarmoqlarining jamlanmasi.

Batometr (yunoncha batos – chuqurlik, metreo – o‘lchayman) – suvning kimyoviy tarkibini va haroratini aniqlash maqsadida suv havzalarining turli chuqurligidan namuna oladigan asbob.

Botqoqlik – ortiqcha namlik sharoitida doimo yoki uzoq vaqt zax bo‘lib yotadigan, namsevar o‘simliklar va torf qatlami (30 sm va undan ortiq) mavjud bo‘lgan yerlar.

Chorvachilik – qishloq xo‘jaligining chorva mollarini ko‘paytirish bilan shug‘ullanadigan tarmog‘i.

Davlat – mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilish, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo‘lgan hukmron tuzilma.

Dehqonchilik – qishloq xo‘jaligining ekinlar yetishtirish bilan shug‘ullanadigan muhim tarmog‘i.

Doimiy migratsiya – aholining biron hududga doimiy ravishda ko‘chib ketishi.

Ekologik ekspertiza – inson faoliyatining geografik muhit biologik (o‘simlik, hayvonot dunyosi va mikroorganizmlar) qismiga ta’sirini baholash.

Ekologik monitoring – tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida ma’lum bir hudud tabiiy sharoitining holatini kuzatish, nazorat qilish va boshqarish tizimi.

Endemik (yunoncha endemos – mahalliy, tubjoy) – o‘simlik va hayvonlarning uncha keng tarqalmagan, nisbatan kichik, chegaralangan arealda yashaydigan tur, urug‘, oila yoki boshqa taksonomik birliklari.

Fatsiya – tog‘ jinslarning litologik tarkibi bir xil, relyef tuzilishi, namlanishi bir xil, mikroiqlimi, tuproqlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi bir xil, ya’ni uni hosil qiluvchi komponentlariga xos bo‘lgan belgilari bir xilligi bilan tavsiflanadigan eng oddiy tuzilgan va eng kichik geotizim.

Galaktika (yunoncha galaktikos-sutrang) – yulduzlar gravitatsiya kuchlari bilan o‘zaro bog‘langan ulkan yulduzlar tizimi. Galaktikalar o‘lchami, yulduzlar soni,

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

shakli bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Shunga ko‘ra ularning ellipssimon, spiralsimon va noto‘g‘ri turlari ajratiladi.

Geografik baholash – tabiiy sharoit va resurslar yoki geotizimlarni foydalanish maqsadlarida baholash.

Geografik ekspertiza – loyihalanayotgan muhandislik inshootining atrof-muhit talablariga mos kelish kelmasligini aniqlash.

Geografik o‘rin – Yer yuzidagi biror bir obyektning o‘zi bilan aloqador boshqa obyektlarga nisbatan tutgan o‘rni.

Geografik prognoz – tabiiy muhit va hududiy ishlab chiqarish majmualarining o‘zgarishidagi asosiy yo‘nalishlarni ilmiy jihatdan oldindan asoslab berish.

Geoid (yunocha ge – Yer, idos – ko‘rinish, qiyofa, ya’ni “Yer ko‘rinishida”, “Yerga o‘xshash” ma’nolarini bildiradi) – Dunyo okeani suv sathining tinch va muvozanat holatida turganidagi sathiy yuza va ushbu yuzani quruqliklarning tagidan farazan davom ettirganda hosil bo‘lgan qabariq yuza. Bu yuza hamma joyda og‘irlik kuchi yo‘nalishiga perpendikulyar bo‘ladi.

Geyzer (islandcha geyzir - otilmoq) – vaqti-vaqti bilan favvoraga o‘xshab otilib turadigan issiq buloqlar. Geyzerlar asosan harakatdagi vulqonlar bor o‘lkalarda ko‘p uchraydi.

Globallashuv – butun jahondagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy integratsiya jarayoni.

Hudud – o‘ziga xos tabiiy va inson faoliyati tomonidan davriy ravishda hosil qilingan xususiyatlar va resurslarga ega Yer yuzining quruqlik qismi.

IES – ko‘mir, gaz va neft hamda ularning qoldiqlari asosida issiq bug‘ va elektr energiya ishlab chiqaruvchi tarmoq.

Joy – o‘zaro bog‘liq va o‘xshash urochishelarning mujassamligidan iborat geotizim.

Kenglik zonalligi – quyosh nurlari tushish burchagining o‘zgarishi hisobiga tabiat komponentlari va komplekslarining ekvatordan qutblarga tomon qonuniy o‘zgarib borishi.

Madaniy landshaft – jamiyat manfaatlarini ko‘zlab, xususiyatlari inson tomonidan ilmiy asosda va oqilona o‘zgartirilgan geotizim.

Mamlakat – o‘zining ma’lum miqyosdagi chegaralariga ega bo‘lgan, mustaqil yoki biron davlatga tobe holda mavjud bo‘lgan hudud.

Marjon orollari – marjon hayvonlari, suvo‘tlar va boshqa organizmlar qoldiqlari yig‘ilishidan vujudga kelgan orollar. Hozirgi zamon marjon orollari ekvatorial va tropik o‘lkalardan boshqa yerlarda uchramaydi. Faqat Golfstrim iliq oqimi o‘tadigan Bagama orollari yaqinidagina tropiklardan tashqarida uchraydi. Marjon orollari joylashgan o‘rni va shakliga qarab qirg‘oq riflari, to‘siq riflari, atollarga bo‘linadi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Mavsumiy migratsiya – aholining ma’lum davr mobaynida biron hududga ko‘chib ketishi.

Mayatniksimon migratsiya (tebranma migratsiya) – aholining o‘qish, ishlash maqsadida bir joydan ikkinchi joyga har kungi yoki har haftalik harakati.

Migratsiya – aholining bir hududdan boshqa hududga doimiy yoki vaqtincha muddatda ko‘chishi.

Orbita (lotincha orbita – iz, yo‘l) – sayyora, uning yo‘ldoshi, sun’iy yo‘ldosh, kometa, asteroid va boshqa osmon jismlarining yo‘li.

Qor chizig‘i – tog‘lardagi shunday chegaraki, undan balandda qor yil bo‘yi erimay turadi.

Sektorlik – quruqlik ichkarisiga tomon okeanlardan uzoqlashgan sari iqlim xususiyatlarining o‘zgarishi hisobiga tabiat komponentlari va komplekslarining o‘zgarib borishi.

Sellyuloza-qog‘oz sanoati – sellyuloza, qog‘oz va karton mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat tarmog‘i.

Shahar aglomeratsiyalari – turli kattalikdagi shaharlarning ma’muriy, ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy aloqalar natijasida birlashuvi.

So‘ngan vulqon – tarixiy davr mobaynida otilgani haqida hech qanday ma’lumotlar bo‘lmagan vulqon. So‘ngan va harakatdagi vulqon tushunchalari nisbiy bo‘lib, ba’zan so‘ngan vulqonlar harakatga kelib yana otilishi mumkin. Harakatdagi vulqon deganimiz esa hech qachon otilmasligi ham mumkin.

Texnik ekinlar – mahsuloti sanoat uchun xomashyo sifatida ishlatiladigan ekinlar.

To‘qay – daryo bo‘ylaridagi daraxt-buta-o‘t o‘simliklaridan iborat qalin changalzor o‘rmon.

Transport – (lotincha trans – «orqali» va portare – «tashimoq») iqtisodiyotning muhim tarmog‘i bo‘lib, xalq xo‘jaligi va aholining yuklarga ehtiyojlarini o‘z vaqtida muttasil ta’minlab turadi.

Urbanizatsiya – shaharlar va shahar aholisining o‘sish, shahar turmush tarzining keng tarqalish jarayoni.

Urochishe – kelib chiqishi va rivojlanishi jihatdan uzviy bog‘liq bo‘lgan fatsiyalardan iborat geotizim. Asosan relyefning mezo shaklida joylashgan bo‘ladi.

Voha – cho‘l va chalacho‘llarda suv chiqarilib obod qilingan yer.

Yalpi milliy mahsulot (YMM) – mamlakatning ma’lum muddat ichida umumiy iqtisodiy faoliyatini tavsiflovchi yakuniy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri. YMM davlatning bozor narxlarida ifodalangan barcha birlamchi daromadlari jami yig‘indisini ko‘rsatadi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

QO‘SHIMCHA MA’LUMOTLAR

Shimoliy Yevropa davlatlari

№	Davlatlar	Maydoni, ming km²	Boshqaruv shakli	Poytaxti
1	Shvetsiya	450	Monarxiya	Stokgolm
2	Norvegiya	387	Monarxiya	Oslo
3	Finlyandiya	338	Respublika	Xelsinki
4	Islandiya	103	Respublika	Reykyavik
5	Daniya	43,0	Monarxiya	Kopengagen
6	Estoniya	45,1	Respublika	Tallin
7	Litva	65,3	Respublika	Vilnyus
8	Latviya	64,6	Respublika	Riga

G‘arbiy Yevropa davlatlari

№	Davlatlar	Maydoni, ming km²	Boshqaruv shakli	Poytaxti
1	Avstriya	83,2	Respublika	Vena
2	Belgiya	30,5	Monarxiya	Bryussel
3	Buyuk Britaniya	244,5	Monarxiya	London
4	Germaniya	356,9	Respublika	Berlin
5	Irlandiya	70,3	Respublika	Dublin
6	Lixtenshteyn	0,16	Monarxiya	Vaduts
7	Lyuksemburg	2,6	Monarxiya	Lyuksemburg
8	Niderlandiya	41,2	Monarxiya	Amsterdam
9	Fransiya	551,6	Respublika	Parij
10	Shveytsariya	41,3	Respublika	Bern
11	Monako	0,002	Monarxiya	Monako

Janubiy Yevropa davlatlari

№	Davlatlar	Maydoni, ming km²	Boshqaruv shakli	Poytaxti
1	Italiya	301,3	Respublika	Rim
2	Ispaniya	504,7	Monarxiya	Madrid
3	Portugaliya	92,3	Respublika	Lissabon

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

4	Malta	0,3	Respublika	La-Valetta
5	Gretsiya	132	Monarxiya	Vaduts
6	Andorra	0,45	Monarxiya	Andorra-la Velya
7	Vatikan	0,4	Monarxiya	Vatikan
8	San-Marino	0,06	Respublika	San-Marino

Sharqiy Yevropa davlatlari

№	Davlatlar	Maydoni, ming km²	Boshqaruv shakli	Poytaxti
1	Rossiya	17075,5	Respublika	Moskva
2	Ukraina	603,7	Respublika	Kiyev
3	Belarus	207,6	Respublika	Minsk
4	Moldova	33,8	Respublika	Kishinyov
5	Polsha	312,7	Respublika	Varshava
6	Chexiya	78,9	Respublika	Praga
7	Slovakiya	49,0	Respublika	Bratislava
8	Vengriya	93,0	Respublika	Budapesht
9	Ruminiya	238,4	Respublika	Buxarest
10	Bolgariya	111,0	Respublika	Sofiya
11	Sloveniya	20,3	Respublika	Lyublyana
12	Xorvatiya	56,6	Respublika	Zagreb
13	Bosniya va Gersegovina	51,1	Respublika	Sarayevo
14	Serbiya	88,3	Respublika	Belgrad
15	Chernogoriya	13,8	Respublika	Podgoritsa
16	Makedoniya	25,7	Respublika	Skopye
17	Albaniya	28,7	Respublika	Tirana

Shimoliy Amerika davlatlari

№	Davlatlar	Maydoni, mln. km²	Boshqaruv shakli	Poytaxti
1.	AQSH	9,500	Respublika	Vashington
2.	Kanada	9,976	Monarxiya	Ottava

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Janubi-g‘arbiy Osiyo davlatlari

№	Davlatlar	Maydoni, ming km.kv.	Boshqaruv shakli	Poytaxti
1	Afg‘oniston	652,1	Respublika	Qobul
2	Bahrayn	0,7	Monarxiya	Manama
3	Isroil	14,1	Respublika	Tel-Aviv
4	Iordaniya	98,3	Monarxiya	Ammon
5	Iroq	435,1	Respublika	Bag‘dod
6	Eron	1648,0	Respublika	Tehron
7	Yaman	528,0	Respublika	Sana
8	Qatar	11,4	Monarxiya	Doxa
9	Kipr	9,3	Respublika	Nikosiya
10	Quvayt	17,8	Monarxiya	Al-Quvayt
11	Livan	10,4	Respublika	Bayrut
12	BAA	83,6	Monarxiya	Abu-Dabi
13	Ummon	212,5	Monarxiya	Maskat
14	Saudiya Arabistoni	2150,0	Monarxiya	Ar-Riyod
15	Suriya	185,2	Respublika	Damashq
16	Turkiya	780,6	Respublika	Anqara
17	Armaniston	29,7	Respublika	Yerevan
18	Ozarbayjon	86,6	Respublika	Boku
19	Gruziya	69,7	Respublika	Tbilisi

Melaneziya davlatlari

№	Davlatlar	Maydoni, ming km².	Boshqaruv shakli	Poytaxti
1	Vanuatu	4,8	Respublika	Port-Vila
2	Papua-Yangi Gvineya	461,7	Monarxiya	Port-Morsbi
3	Solomon orollari	29,8	Monarxiya	Xoniara
4	Fidji	18,3	Respublika	Suva

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

MUNDARIJA

I BOB. GEOGRAFIYA FANI VA UNING TARIXI

1-§. Geografiya fanlari tizimi haqida tushuncha 3
2-§. Geografiya fanining tarixi va hozirgi davrdagi rivojlanishi 6

II BOB. YER TABIATI

3-§. Yer yuzi tabiati rivojlanishining fazoviy omillari 12
4-§. Yerning ichki tuzilishi va tektonik jarayonlar 17
5-§. Yer yuzi tabiatining rivojlanish tarixi 20
6-§. Geografik qobiq va uning umumiy qonuniyatlari 24
7-§. Geografik qobiqning kenglik zonalligi va sektorligi 29
8-§. Balandlik mintaqalanishi qonuniyati 33
9-§. Geotizimlar va ularning pog‘onasimonligi 36

III BOB. JAMIYAT VA TABIAT

10-§. Jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar 40
11-§. Antropogen landshaftlar 45
12-§. Tabiatni muhofaza qilishning geografik asoslari 50

IV BOB. AMALIY GEOGRAFIK TADQIQOTLAR

13-§. Tabiiy geografik jarayonlar 54
14-§. Geografik baholash 59
15-§. Geografik prognoz 63
16-§. Atrof–muhit monitoringi va geografik-ekologik ekspertiza asoslari 68

V BOB. DUNYO AHOLISI

17-§. Dunyo aholisi va zamonaviy demografik vaziyat 72
18-§. Urbanizatsiya jarayonining global va regional jihatlari 76
19-§. Xalqaro migratsiya jarayonlari va muammolari 79

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

VI BOB. DUNYONING GEOSIYOSIY MANZARASI VA GLOBAL MUAMMOLAR

20-§. Dunyoning geosiyosiy tizimi va uning shakllanishi 82
21-§. Jahondagi zamonaviy geosiyosiy vaziyat. Davlatlarning integratsion uyushmalari 85
22-§. Insoniyatning global muammolari 90

VII BOB. YEVROPA VA AMERIKA SUBREGIONLARI

23-§. Yevropa subregionlari 94
24-§. Lotin Amerikasi 101
25-§. Karib havzasi orol mamlakatlari 107

VIII BOB. AFRIKA SUBREGIONLARI. OKEANIYA DAVLATLARI

26-§. Afrika subregionlari 111
27-§. Okeaniya davlatlari 115

IX BOB. OSIYO SUBREGIONLARI

28-§. Janubi-g‘arbiy va Janubiy Osiyo davlatlari 118
29-§. Sharqiy va Janubi – sharqiy Osiyo davlatlari 123
30-§. Markaziy Osiyo mamlakatlari 128

X BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

31-§. O‘zbekistonning geosiyosiy o‘rni va munosabatlari 136
32-§. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi 140
33-§. O‘zbekistonning geoekologik muammolari 146
34-§. Takrorlash darsi 150
Tushuncha va atamalar izohli lug‘ati 151
Qo‘shimcha ma’lumotlar 154

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Sharipov, Shavkat Muxamajanovich
Geografiya. 10-sinf: O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus,kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik / Sh. M. Sharipov, V. N. Fedorko, N. I. Safarova, V. A. Rafiqov.– Birinchi nashri. — T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. — 160 b.

O‘quv nashri

Shavkat Muxamajanovich Sharipov, Viktor Nikolayevich Fedorko,
Nasiba Irankulovna Safarova, Vahob Asomovich Rafiqov

Geografiya

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik

(O‘zbek tilida)

Birinchi nashri

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent–2017

Tahririyat mudiri: Anvar Zulfiqorov
Muharrir: Lola Fattoyeva
Badiiy rassom: Asqar Yoqubjonov
Sahifalovchi dizayner: Jahongir Badalov
Musahhih: Laylo Hasanova

Maxsus muharrir
E. Nazaraliyeva – Respublika ta’lim markazi Tabiiy va aniq fanlar bo‘limi geografiya fani bosh metodisti.

Nashriyot litsenziyasi AI № 160, 14.08.2009.
2017-yil 18.08 da bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70x90 $^{1}/_{16}$.
«Times New Roman» garniturasi, kegl 12,5. Ofset bosma. Shartli bosma tabog‘i 10,00. Nashr tabog‘i 10,10. Adadi 428 121. 17-604-sonli buyurtma.

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti.
100011, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 30.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bomaxonasida bosildi.
100011, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 30.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarda yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlarga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE